

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

Xalmamatova Lola Amankulovna

OLIY MAKTAB
PEDAGOGIKASI

60112400 – Professional ta’lim (60730300 - Bino va inshootlarni loyihalash, qurish); (63730400 – Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji))
bakalavr yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun

TOSHKENT - 2025

UO‘K:

KBK:

Muallif: L.A.Xalmamatova.

“Oliy maktab pedagogikasi” darslik. - T.: “PUBLISHING HIGH FUTURE” OK nashriyoti, 2025. – 272 bet.

Ushbu darslik bakalavriat ta’limining professional ta’lim yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, unda oliy maktab pedagogikasining o’ziga xos xususiyatlari, pedagogikada tutgan o’rni va mohiyati, mazmuni ochib berilgan.

Darslikda Oliy maktab pedagogikasi fan sifatida va uning metodologik asoslari; O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi qonuni”ning mazmuni; Oliy maktab ta’lim mazmuni; Talaba shaxsi rivojlanishi tavsifi; Oliy maktab o’qituvchisining innovatsion faoliyati; Oliy maktabda tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodologiyasi; Oliy ta’lim muassasasini boshqarish; Bo’lajak o’qituvchini tayyorlashda pedagogik amaliyotning o’rni va ahamiyati mavzular yoritib berilgan.

Bundan tashqari, Pedagogik o’lchovlar nazariyasi fanining maqsadi va vazifalari; Testning sifati: validlik. Ishonchlilik; Test turlari; Testni yaratish kabi kabi masalalari ko’rib chiqilgan.

Darslik 60112400 – Professional ta’limi yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo’ljallangan bo’lib, shuningdek, undan oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi amaliyotchi pedagoglari, pedagogik texnikumlar, shuningdek, oliy ta’lim pedagogikasi masalalari bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: p.f.n. N.S.Fayzullayeva - TDIU dotsenti
p.f.n. M.Yu. Mahkamova - TAQI professori

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 6 noyabrdagi 491-sonli buyrug‘iga asosan darslik sifatida nashr etishga ruxsat berildi.

ISBN:

©“PUBLISHING HIGH FUTURE” OK, 2025

© *TAQU*-2025

KIRISH

Shubhasiz, “Oliy ta’lim pedagogikasi” fanining dolzarbligi pedagogik faoliyat uchun talabalarni tayyorlashning dolzarb zarurati bilan bog‘liqdir.

Taklif etilayotgan darslik talabalarni pedagogik jarayonni tashkil etishning ilmiy yondashuvlari, rivojlanish muammolari bilan tanishtirishga qaratilgan.

Oliy maktab pedagogikasi hozirgi vaqtda ilmiy bilimlarning yaxshi shakllangan katta nazariy va amaliy materiallarni o‘z ichiga olgan tarmog‘iga aylandi. Bu esa pedagogikaning tabaqalanishi, ya’ni uning alohida tarmoqlarga ajralishiga sabab bo‘ldi.

Oliy maktab pedagogikasi fan jahon pedagogikasining yetakchi bir qismi bo‘lib, pedagogika fan tarixi bilan mustahkam bog‘liqdir. Oliy maktab pedagogika fanining tarixi esa, pedagogikaning qismlaridan biri, ya’ni uning maxsus tarmog‘i hisoblanadi, pedagogika tarixi pedagogik ta’minotning tarixi va tarbiyaning rivojlanishi masalalarini ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etuvchi pedagogik bilimlar tarmog‘idir.

Oliy ta’lim pedagogikasida oliy o‘quv yurti shart-sharoitlarida yoshlarni tarbiyalash va o‘qitish ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Nazariy masalalar metodikasini ishlab chiqadigan pedagogika tarmog‘i sifatida oliy maktab pedagogikasining shakllanayotganligi, uning aniqlashib borayotganligi ko‘zga tashlanadi.

Oliy maktab pedagogikasi tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganar ekan, tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bog‘liqdir.

Pedagogika insonlar orasidagi munosabatlarni va ijtimoiy muhitning iisonga ta’sirini tadqiq etuvchi fan sifatida iqtisodiyot, madaniyat rivojlanishining o‘ziga xosligi hamda ularning inson shaxsi shakllanishiga ta’sirini o‘rganadi. Shu bilan birga, pedagogika oliy maktab tizimining tashkiliy jihatlaridagi ko‘pgina masalalarni hal etishga, talabalarni oliy maktab oila va jamoatchilikning o‘zaro hamkorlikda ish olib borishga yordam beradi.

Oliy maktab pedagogikasining falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligi, hal etiladigan ilmiy masalalarning umumiyligini pedagogikaning ijtimoiy xususiyati uning mafkuraviy yo'nalishga ega ekanligini ta'kidlab turadi. Tarbiyaning hamma muammolarini boshqa siyosiy, ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda hal etish zaruriyatini Ma'lumki oliy maktab pedagogikasi fani tarbiya va ta'limning inson rivoji, shaxs kamoli va mutaxassis shakllanishida muhim o'rin tutadi.

1-BOB. OLIY MAKTAB PEDAGOGIKASI FAN SIFATIDA VA UNING METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Oliy maktab pedagogikasiga kirish. Oliy maktab pedagogikasi o‘quv predmeti sifatida, uning kategoriyalari

Oliy maktab pedagogikasi - pedagogika fanining bir tarmog‘i.

Pedagogik adabiyotlarda oliy maktab pedagogikasi atamasiga berilgan ta’riflar.

Oliy maktab pedagogikasi - talabalarni o‘qitish va tarbiyalash, yuqori malakali mutaxassis shaxsini shakllantirish haqidagi fan.

Oliy maktab pedagogikasi - oliy ta’lim muassasasida talaba va professor-o‘qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishga doir ilmlar majmui.

Oliy maktab pedagogikasi - oliy o‘quv yurtlarida o‘qish - o‘qitish, kasbiy bilim, malaka, ko‘nikmalarni egallash, talabalarda yuksak ma’naviy - axloqiy sifatlarni tarbiyalashning mazmuni, shakl - usullari, qonuniyatlari haqidagi pedagogik fandır.

Bu ta’riflarning har birida ma’lum ilmiy haqiqat aks ettirilgan, ya’ni oliy maktab pedagogikasi tushunchasiga xos ayrim muhim xususiyatlar va belgilar keltirilgan.

Oliy maktab pedagogikasining predmeti - oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlari, oliy maktabda ta’lim - tarbiyaning mazmuni, shakl - usullari.

Oliy maktab pedagogikasining ob’yekti - oliy ta’lim muassasalari faoliyati, professor - o‘qituvchilar bilan talabalarning hamkorlikdagi faoliyati, hamkorlik faoliyatining turlari, shakllari.

Oliy maktab pedagogikasi pedagogika fanining bir tarmog‘i sifatida pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda aniqlangan va ifodalangan umumiy pedagogik qonuniyatlar va tamoyollarga asoslanadi.

5. Oliy maktab pedagogikasining umumiy qonunlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim - tarbiyaning xarakteri, mazmuni, shakllari ijtimoiy taraqqiyotning har bir bosqichida shu jamiyatda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan belgilanadi va davlat hujjatlarida ijtimoiy buyurtma sifatida ifodalanadi;

- oliy ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl- usullarining birligi.

Pedagogika fanida aniqlangan va qo'llanib kelinayotgan ta'limning umumiy prinsiplariga oliy ta'lim jarayonida ham amal qilinadi.

Bular:

- o'quv dasturlari, darsliklardagi bilimlarni ongli o'zlashtirish prinsipi;
- faollik prinsipi, talabaning faoliyatiga tayanib o'qitish prinsipi;
- oliy ta'limning mazmuni, shakl-usullari talabaning yosh xususiyatlariga mosligi;

- bilimlarni o'zlashtirish va malakalami egallashda izchillik va tizimlilikka rioya qilish;

- ta'limning amaliyot bilan, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liqligi;
- ko'rsatmalilik, axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish prinsipi.

Oliy maktab pedagogikasining ilmiy tadqiqot metodlari. Oliy maktab pedagogikasi yo'nalishidagi muammolarni tadqiq etishda, odatda, quyidagi pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari ko'proq qo'llaniladi:

- nazariy, falsafiy, badiiy, metodik adabiyotlar va manbalarni o'rganib, tahlil qilish metodi: ma'lum bir maqsad bilan kuzatish metodi;

- sotsiologik metodlar: savol - javob, anketa so'rovlari, intervyu olish;
- pedagogik ilmiy - tajriba (eksperiment);
- matematik - statistik tahlil;
- reyting metodi;
- biografiyalarni o'rganish metodi.

Oliy maktab pedagogikasining manbalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992),
- O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni (2020);

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, ma‘ruzalari, nutqlari, savol-javoblari;

- Oliy Majlis va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining me‘yoriy hujjatlari;

- Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan allomalarning pedagogik g‘oyalari, jahon pedagoglarining mumtoz asarlari;

- O‘zbek xalq pedagogikasi asarlari, milliy-madaniy, axloqiy qadriyatlar, an‘analari, urf-odatlar;

- pedagogikaga doir ilmiy, metodik adabiyotlar, darsliklar, o‘quv rejalari, dasturlar, oliy ta‘limning davlat standarti;

- badiiy - pedagogik asarlar;

- oliy ta‘lim muassasalarining ish tajribalari (O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda);

- Avesto, Qur‘oni Karim, Hadislar va boshqa ilmiy adabiyotlar.

Oliy maktab pedagogikasining asosiy tushunchalariga to‘xtalamiz.

Ma‘lumot - o‘qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanib, o‘quvchida bilim, iqtidor va ko‘nikmalarning o‘zlashtirilganligini, bilish qobiliyati o‘sganligi va ular asosida ilmiy dunyokarash, shaxsiy sifatlar shakl-langanligini, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi.

Ta‘lim - ma‘lum maqsadga io‘naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan «o‘qituvchi-o‘quvchi-o‘qituvchi» muloqoti bo‘lib, uning natijasida o‘quvchida ma‘lumot, tarbiya va umumiy shakllanish, rivojlanish amalga oshadi. Odamlarning ma‘lumoti faqat ta‘limninggina natijasi bo‘lib qolmay, balki ota-ona va oila tarbiyasi o‘z-o‘zini tarbiyalash va ommaviy axborot vositalarining (kino, radio, zangori ekran va hokazo) ta‘sirida amalga oshiriladi.

Insonning rivojlanishi - tashqi va ichki, boshqariluvchi va boshqarilishga berilmaydigan omillar tomonidan shaxsning shakllanish jarayonidir. Ularning tarkibida albatta, maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya asosiy rol o‘ynaydi.

Maktabdagi o‘qitish jarayonida ta‘lim, tarbiya va ma‘lumot o‘zaro mustahkam bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. O‘qituvchi qaysi fanni o‘qitishdan

qat'iy nazar, o'sib kelayotgan avlodga fan asoslarini o'rgatadi, bilimlarni bayon qiladi. Shu materiallarning mazmuniga qarab tarbiya masalalarini ham hal qiladi, bolalarda ilmiy dunyokarashni tarkib toptiradi, madanny xulq-atvor ko'nikmalarini tarbiyalaydi, ularning ongiga ilg'or madaniyatlilik tamoyillarini singdirib boradi. Demak, ta'lim nazariyasining mavzu baxsi tarbiya va ta'lim masalalaridan tashkil topib, ularning hammasi bir vaqtda, bir jarayonda amalga oshirib boriladi.

Inson shaxsining shakllanishida ma'lum maqsadga qaratilgan, o'zi tushunib etib orzu qilgan (o'zi mustaqil tarbiyalay oladigan) fazilatlar, sifatlar va xulqlarning shakllantirilishi katta rol o'ynaydi.

O'qitish - o'rgatish - bolalarning maxsus tashkil etiladigan faol mustaqil, bilish - tanish, mehnat, estetik, jismoniy faoliyati bo'lib, tabiiy qobiliyatlarini va psixik jarayonlarini rivojlantirish, tajriba-lar, ko'nikmalar hamda bilimlarni egallash, o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Pedagogik faoliyat - estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir.

Tarbiyaning ob'ektiv qonunlari - o'quv - tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va ijtimoiy hayotning shaxsni, uni o'ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirishdek talablaridagi turg'un bo'lgan an'analaridir.

Tarbiyaning asosiy qonuni - o'sib borayotgan yosh avlodni katta yoshdagilar ijtimoiy tajribasining egasi qilish uchun, ularning ijtimoiy hayotga qo'shilishini ta'minlab berish uchun amalga oshiriladigan zaruriy va majburiy faoliyatdir. Jamiyatning hayotiyiligini ta'minlash, alohida olingan bir inson va har bir shaxsning mohiyatini tashkil etuvchi kuchlarning rivojlanishini, avlodlar orasidagi vorisligini amalga oshirish demakdir.

Pedagogika tamoyili - ijtimoiy munosabatlarning tekshirilgan amaliy va barqaror yo'nalishlarini o'zida aks ettiradigan nazariy umumlashtiruvchidir. Shuningdek, o'quv-tarbiyaviy jarayonni, bolalarning jismoniy» badiiy, ijodiy, mehnat va boshqa har qanday faoliyatiga pedagogik rahbarlikni tashkil etishga bog'liq bo'lgan qonuniy aloqalardir.

Pedagogik tajriba - o'qituvchi tomonidan pedagogikaning tamoyillari va amaliy qonunlarini ijodiy va faol ravishda o'zlashtirish hamda real shart-sharoitlarni, bolalarning, bolalar jamoasining, shaxsning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda amaliyotga tatbik etishidir.

Pedagogik qarama-qarshiliklar (kelishmovchiliklar) - pedagogika amaliyoti jarayonida vujudga keladigan eskirgan pedagogik ko'rsatmalar, qarashlar, konsepsiyalar va pedagogik jarayonning tarbiyaviy sama-radorligini pasaytiradigan, shaxsni shakllantirish tizimlari bilan vujudga kelgan nomuvofiqlikdir,

Yangi taraqqiy etib borayotgan, o'sib borayotgan yosh avlodga hayot talablarining murakkablashib borishi, umuman bu tarzda vujudga keladigan ehtiyoj ta'lim va tarbiyaning yangi mazmunga, shaklga ega bo'lgan uslublari bilangina qanoatlantirilishi mumkin.

Tarbiyaniig maqsadi - jamiyating alohida bir olingan shaxsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirish, uning mohiyati, ideal talablarini, o'znga xosligi va fazilatlarini, hayotga munosabatining, aqliy, jismoniy, axloqiy va estetik rivojlanishini nazariy umumlashtirishdir.

Shaxsning har tomonlama kamolotga etishi - ma'lum bir real tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan qobiliyatlar va iqtidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarining to'liq va batamom rivojlanishidir.

Pedagogik jarayon - ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgai va mazmunan boyitilgan hamda tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli-natijasida bolaning o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir.

Bolalarni tarbiyalovchi jamoa - bir butun o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo'lib, jamoaviy yuqori darajadagi axloqiy, estetik hamda ijtimoiy munosabatlarni tarbiyalaydigan, maxsus tashkil etilgan tizim, bolalar muhitida muloqot olib borishdir.

Havaskorlik - bolalarning mustaqil, ixtiyoriy, o'z xohishiga ko'ra amalga oshiradigan ichki faoliyatidir.

Tarbiyaviy muhit - inson shaxsini shakllantiruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlarning tizimi, ijtimoiy tafakkur, turmush va shaxslararo munosabatlarning doirasi kabi omillarning bir-birini boyitishi va muvofiq kelishidir.

Pedagogik muhit - pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda maxsus tuzilgan shaxslararo munosabatlar tizimidir.

Ichki muhit - yuqori darajadagi o'ziga xos asabiy faoliyatlarning, xarakterlar o'ziga xosligining, hayotiy tajribaning, irsiy tafakkur ko'nikmalari tizimining hamda bola uchun, odatdagi ruhiy holatlarda o'zini namoyon etadigan ta'sirchanlik va haqiqatga munosabatlar majmuasining o'zaro bir-biriga muvofiq kelishi, bir-birini to'ldirishi va boyitishidir.

Irsiylik - bolaning shakliy o'ziga xosliklarini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik tashkiliy jihatlarni, qobiliyatlarini va iqtidorlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, bolalarga ota-onalari tomonidan o'tkazilgan irsiy belgilardir.

Ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirish - pedagogik diqqat hamda e'tiborning markazida insonning muhim masalasi va muammosi, ya'ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho boylik sifatidagi munosabatini shakllantirishdek muhim faoliyat yotadi.

Ta'limni gumanitarlashtirish - texnokratizmga va noinsoniy qiyofa va xususiyatlarga qarama-qarshi turish, inson shaxsining ma'naviy boyligini oshirish va taraqqiy ettirish maqsadida ta'limning gumanitar hamda tabiiy-matematik davriyliklari orasida garmonik muvozanatni o'rnatish.

Aqliy tarbiya - bolalarning ongi va tafakkurini-bilimlar, ongli ko'nikmalar hamda malakalar bilan boyitish. Aqliy kuchlar, sezgilar, ruhiy jarayonlar, iqtidorlar, biluvchanlik maqsadlari, dunyoqarash va faoliyat ozodligini shakllantirish.

Huquqiy tarbiya - huquqiy madaniyatni, o'quvchilarda-qonunga bo'ysunuvchanlik xatti-harakatini shakllantirish.

Politeknik ma'lumot - hozirgi zamon ishlab chikarishini tashkil etishning asosiy tamoyillari bilan, chiqindisiz va ekologik toza texnologiya bilan tanishish. Shu bilan birga kompyuter texnikasi, mexanizatsiyalashtirilgan hamda avtomatlashtirilgan mehnatning hozirgi davrdagi jihozlari bilan ishlash malakasi bilan qurollantirish.

Mehnat tarbiyasi - bolalarni umumiy mehnat bilimlari va ijtimoiy foydali mehnat malakalari bilan qurollantirish. Shu bilan birga, mehnatsevarlik, mehnat kishisining psixologiyasini rivojlantirish, mulkning har xil shakldagi turlarida mehnatining har xil shakllarini tashkil etish qobiliyatini namoyon etib muvaffaqiyatga erishish, tadbirkorlik va ijodii yondoshuvni namoyon etish xususiyatlarining egasi sifatida shakllantirishdir.

Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarni asosiy iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish jarayoni bo'lib, ularni ishlab chiqarishni tashkil etish sohasidagi oddiy harakatlar, qilishi lozim bo'ladigai ishlar ko'nikmasi, malakasi bilan, taqsimot va talimot bilan, iqtisodiy tafakkurning rivojlanishi bilan qurollantirish.

O'zbekiston Respublikasi sotsial-iqtisodiy rivojlanishning asosiy tamoyillarini chuqur o'zlashtirish.

Ekologik tarbiya - o'quvchilarni ekologik (atrofmuhit muxofazasi) bilimlari bilan qurollantirish, shuningdek tabiatga nisbatan axloqiy-estetik, okilona ekologik xatti-harakatlar ko'nikmalarini, ekologik tafakkurini hamda ekologiya uchui faol kurashish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Axloqiy tarbiya - o'quvchilarda umuminsopiy axloqiy tamoyillarga sodiq bo'lishdek, jamiyat axloqiy talablari va me'yorlarini hisobga olgan holda o'z xatti-harakatlarini tanlay olish maxoratini, axloqiy tafakkur va kundalik odatdagi axloqi, xatti-harakatlarinig mustahkam tizimini shakllantirish.

Jismoniy tarbiya - bolaning hamma jismoniy xususiyatlarini: anatomik, fiziologik, asab va boshqa tizimlarini xar tomonlama rivojlaitirish, sog'lom hayot kechirishning afzalliklari, shart-sharoitlari, asoslari xamda jismoniy madaniyatning odatdagi zarur elementlarini mustahkam tarzda shakllantirish.

Estetik tarbiya-badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish, real hayotda san'atdagi estetik hodisalar» ko'rinishlar, xolatlarni xis qila olish, qabul qila olish, baholay olish qobiliyatlarini shakllantirish shuningdek, ijodiyotda faol ishtirok etish.

Tarbiyalash uslublari (metodlari) – katta yoshdagilar bilan bolalar o'rtasidagi pedagogik, aqlan o'ylab ko'rilib, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ta'sirlarining jamiyat tomonidan shart sifatida qo'yilgan usullari bo'lib, bolalik davri, faoliyati, muloqoti, munosabatlarini tashkil etishga yordam beradi, ularning faolligini rag'batlantiruvchi hamda xatti-harakatlarini boshqarish asoslari hisoblanadi.

Ta'lim metodlari (uslublari) - bolalarning bilimlarni, ko'nikmalar va malakalarni o'zlashtirishini, umumiy ma'lumot hamda umumiy ta'limning vositalarini egallashi uchun aqliy kuchlari, kobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydigan, pedagog bilan o'quvchining o'quv o'rganish jarayonidagi o'zaro ta'sirlarining maxsus usullaridir.

Psixologiyaning predmeti tirik organizmning vujudga kelishi, faoliyat yuritishi, tarkibiy tuzilishi va ruhiyatini rivojlantirish mexanizmlari hamda qonuniyatlari, ash'yoviy dalillaridir.

Ruhiyat - sub'ekt (shaxs) tomonidan ob'ektiv real hayotiy haqiqatni aks ettirish, uning sub'ektiv qiyofasini, obrazini yaratish va o'z xatti-harakatlari hamda faoliyatini uning asosida o'z-o'zidan boshqaruvini o'zida namoyon etadigan, yuqori darajada tashkil etilgan materiyaning mahsuloti va o'ziga xos shaklidir.

Ong, atrof-muhitni anglash - inson ruhiyatining yuqori darajasi bo'lib, dunyo haqidagi ob'ektiv bilimlarning, unga ob'ektiv munosabatlarning tahlili, kishilarning o'zaro muloqotlari, o'zaro ta'sirlarining, ijtimoiy munosabatlarining natijasidir.

O'z-o'zini anglash - kishining o'ziga va o'z faoliyatiga, shaxsiga anglangan munosabatda bo'lishidir.

Faoliyat - harakatlar va operatsiyalar tizimida amalga oshiriladigan ehtiyojlar hamda sabablarga javob beradigan, bironta maqsadga yo'naltirilgan faollikdir.

Shaxs - odamning jamiyat a'zosi sifatida, o'z-o'zini anglash va tafakkurni, faoliyatning ob'ektivligini, muloqot hamda biluvchanlikni tashuvchanligidir.

Jamoa - insonparvarlik va javobgarlik mas'uliyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar hamda hamkorlikdagi ijtimoiy - ijobiy faoliyatga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyliigi, jamoasidir.

Ijtimoiy - psixologik iqlim - jamoa va guruhlarining rivojlanish darajasini, ularning shaxsga ta'siri darajasini hamda hamkorlikdagi faoliyatlari samaradorligini belgilab beradigan shart-sharoitlar bilan ijtimoiy-psixologik hodisalar (munosabatlar, jamoaviy fikr, kayfiyat va boshqalar)ning bir-birini boyitish, bir-biriga muvofiq kelishligidir.

Muloqot - o'zaro munosabatlar, o'zaro ta'sirlarni ta'minlashga, ma'lumotlarni almashtirishni o'z ichiga olgan va munosabatlarni, ularning aloqalarini amalga oshiradigan, ma'lum yo'nalishga asosan olib boriladi-gan faoliyat hisoblanib, kishilarning birgalikdagi faoliyatining bir turidir.

Pedagogik muloqot - o'quv-tarbiya jarayoni davomida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchilar bilan kasbiy muloqoti hisoblanadi.

Shaxsning psixologik tarkibiy tuzilishi - insonning psixologik o'ziga xosligini xarakterlaydigan va bir butun tarkibiy tuzilishga umumlashtrilgan shaxsning o'ziga xosligi, hamda fazilatlarining dinamik tizimidir.

Ruhiy jarayon - qiyofasi (obraz), holat, o'ziga xoslik yoki boshka psixologik tuzilmalar . ko'rinishidagi maxsus o'ziga xos natijalarning mavjudligi bilan xarakterlanadigan ruhiyatni ichki faoliyat sifatida faol, dinamik tashkil etilishidir.

Ruhiy holat - xatti-harakatlar va faolnyatning samaradorligini, o'ziga xosligini belgilaydigan ko'p jihatlardan insonning ruhiy o'zini tutishn, o'zini his qilishini xarakterlaydigan bir butun ruhiyatning tarkibiy kismlaridan biridir.

Shaxsning psixologik o'ziga xosligi - ruhiy jarayonlar va uning ruhiyatiniing turg'un, mustahkamligiga bog'liq ravishdagi kompleks holatlarining birgalikda mavjud bo'lishligidir.

Shaxsning yo'nalganligi - odamning dunyo bilan munosabatlarning bir butun tizimini ta'minlab beradigan va ehtiyojlarning dinamikligini o'zida namoyon

etadigan ko'rsatmalar, yo'l-yo'riklar, sabablar, manfaatdorliklar, shaxsning mazmuniligi, shaxsning ma'nolari, odamning boshka intilishlari kabi munosabatlarining psixologik tuzilmasi. Zarurat, ehtiyojlilik - qandaydir bir ob'ektiv etishmovchilikka, o'zida yo'q narsaga javob beradigan insonning ruhiy holati bo'lib, bu faollik manbaidir.

Maqsad - bo'lg'usi natijalar hakida har doim aqlan o'ylab ko'rilgan, rivojlantirilgan hayoliy tasavvurlar.

Sabab - psixologik reallik o'zining anikligini topadigan zarurat, ehtiyojning predmetidir; ruhiyat va inson faoliyatini uyg'otishga yo'naltirilgan hayoliy tuzilmalarni amalga oshirish vositasidir.

Mohirlik - hayotiy tajriba va o'zlashtirilgan bilimlar asosida aniq va ongli ravishda amaliy va nazariy ishlar, harakatlarni tez bajarishga tayyor ekanlikdir.

O'quvchining bilimi - tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini aks ettirgan fan konunlari, tushunchalar, ashyoviy dalillarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning natijasidir.

Malaka - o'zining shakllanish jarayonida avtomatlashib ketgan, ya'ni ixtiyoriy ravishda to'liq takrorlash qobiliyati, odatdagi faolpyat sifatida shakllanib bo'lgan hamda murakkab harakatlarning tarkibiga kiritilgan jarayonlarni psixologik tanlashga aylanib ketgan ish-harakatidir, faoliyatdir.

Qobiliyat - shaxsning individual - psixologik o'ziga xosligining psixologik tarkibiy tuzilishiga kiritilgan, qaysidir bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga taalluqli bo'lgan va bilimlar, malakalarni egallashning tezkorligini, engilligini izoxlab beradigan xususiyatdir.

Bilish, anglash - dunyo xakidagi yangi bilimlar hisoblanadigan sub'ekt va ob'ektning o'zaro ta'sirini, voqelikning ruhiyatda qayta tasvir etilishi hamda aks ettirish jarayonidir.

O'rgatish - organizmning tug'ma reaksiyalariga to'g'ri kelmaydigan va undan oldingi faoliyatlar natijasida vujudga keladigan faoliyatlar hamda bilimlarning mustahkam holatda o'zgarishidir,

O'rganish - ta'lim jarayonining tarkibiy tuzilishlarida o'quvchining shaxsiy faoliyati.

Uyg'unlik - insoning ichki dunyosining hamma tarkibiy qismlarini rivojlantirishdagi teppa - tenglik, muvofiqlik, hajmiy muvofiqlilik (o'lchamdorlik)da bo'lishligidir, Buning mumkin bo'lishi uchun insonning hamma o'ziga xosligi va fazilatlarining asoslarida bir tizimga birlashadigan yaxlit asos, manba yotishi kerak.

Shaxsning bus-butunligi - progressiv (ijobiy) insoniyatning ma'naviy merosi va amalda mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlarining ijtimoiy sub'ekt tomonidan to'liq o'zlashtirish faoliyati, uyg'un, har tomonlama rivojlangan shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega ideallarga yaqinlashuvining mezon.

Shaxsning har ishga mohirligi - shaxsning ijodiy imkoniyatlari, ehtiyojlari, qobiliyatlarini chegara bilmaydigan rivojlanishi sifatida qarab ko'riladigan xususiyatidir.

Bu shaxs ijtimoiy faoliyatining har xil turlarida o'rganganligi, o'z o'rnini erkin almashinuvi, jamiyat hayotining ishlab chiqarish, shuningdek ishlab chiqarishdan tashqari bo'lgan doiralarida o'z kuch-quvvatini sarf etishidir.

Kasbga yo'naltirish - o'quvchining o'z ehtiyojini oqilona cheklaydigan shaxs sifatida kamolotga etishining pedagogik jarayoni bo'lib, nafaqat pedagogik tashqi ijtimoiy-iqtisodiy, balki psixologik, tibbiy, hukuqiy muammo hamdir.

Odob-axloq-shaxsning o'ziga va dunyoga munosabatlariga olib boruvchi xatti-harakatlarining belgilangan, aniqlangan usuli bo'lib, sababiyat, tasavvurlar va qarashlarni o'z ichiga oladi, ya'ni shaxs shakllanishining manbai hisoblanadi.

Axloqiy tarbiyalanganlik - shaxsning asosiy fazilatlarining (mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik, jamoaviylik) yoki axloqlikning asosiy belgilarining rivojlanishi darajasiga qarab aniqlanadi.

Shaxsning aqliy sifatlari (fazilatlari) - shaxsning aqliy jihatdan kamolga etishuvi uning aqliy, zehniy sifatlari, fazilatlari orqali namoyon bo'ladi. Bu darajaga olib boruvchi sifatlari: bilag'onlik, ob'ektivlik, fikrlovchanlik, sevishtanlik hisoblanadi.

Aqliy, zehniy tarbiyalanganlik - aqliy va zehniy sifatlari, fazilatlarining rivojlanganlik darajasiga qarab shaxsning yoshiga ko'ra xamma davrlarida intellektual tarbiyalanganligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Aqliy tarbiyaning maktab yillaridagi mezoniy fazilati mantiqiylik hisoblanadi. Balog'at yoshida esa, aqlning qobiliyatlari yangi ma'lumotni vujudga keltiradi. Maktab o'quvchilarining aqliy rivojlanishini boshqarish uchun uch jihat bo'yicha ma'lumotlarni olish kerak: bilishlik, faollik, aqlning rivojlanganligi (fikrlovchanlik).

Umumpedagogik tayyorgarlik - pedagogikaning kategoriyalari va metodologik asoslari haqidagi bilimlarni shakllantirish, psixologik-pedagogik sezgirlik, kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvurlar, tashkilotchilik qobiliyatlari, talabchanlik, odamshavandalik, maqsadga intiluvchanlik, qat'iylik, vazminlik va o'zini tuta olish, bolalarning, o'spirinlar hamda yosh yigit-qizlarning yoshiga ko'ra anatom-fiziologik rivojlanishining asosiy qonuniyatlari haqidagi bilimlarni, o'quvchilarning individual o'ziga xosliklarini, pedagogik ishlar bilan qiziquvchanligini shakllantirishdir.

Professional (kasbiy) - pedagogik mohirlik har xil shart-sharoitlarda pedagogning o'z kasbiy faoliyatini bajarish qobiliyati bo'lib, uning asosida ijtimoiy-siyosiy, umummilliy, maxsus, psixologik-pedagogik, kasbiy-uslubiy bilimlar va malakalarning shakllangan tizimni ko'lga kiritish, o'zlashtirib olish yotadi.

Kasbiy-metodik mohirlik - o'qituvchi, mazkur fanni olib boruvchining mavjud bo'lgan pedagogik va uslubiy bilimlar asosida malakaviy faoliyatini bajara olpsh qobiliyatidir. Shunday qilib, pedagog ikki turdagi: kasbiy va malakaviy tayyorgarlikka ega bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchining maktabda o'kitayotgan fani yuzasidan malakasiga hamda kasbiga ko'ra haqli ravishda pedagog deb ataydilar.

Ta'lim (o'qitish) usullari - ta'limning uslubiy tarkibiy qismlarini tashkil etgan bo'laklardan iborat. Masalan, og'zaki bayon etish davomida doskaga yozib borish, ko'rgazmali qurollar yoki ular bilan tanishtirish jarayonida qiyoslashlardan foydalanish kabi va boshqalar; Har bir uslub doirasida o'quv material mazmuniga,

o'quvchilarning tayyorgarligiga, darsning jihozlanishiga, o'qitishning individual o'ziga xosliklariga bog'liq ravishda usullar almashinadi.

Quntlilik, tirishqoqlik - mehnat va o'rganishda serg'ayratlilik, quntlilik bo'lib, bolalarni yoshlik yillaridan boshlangan ishini oxiriga etkazishga, uni vijdonan hamda puxta, tartibli qilib bajarishga o'rgatish, ongiga singdirishdir.

Ta'lim uslubi (metodikasi) - xususiy didaktika yoki ta'limning xususiy iazariyasini o'zida namoyon etadigan pedagogika fanining tarmog'idir. Uning vazifalari o'quv fani yuzasidan ta'lim berish hodisasini o'rganish jarayonida ularning orasidagi qonuniy aloqalarni ochish, anglangan qonuniyatlar asosida esa, o'kituvchining ta'lim faoliyatiga va o'quvchining anglash, biluvchanlik faoliyatiga talablar me'yorini o'rnatishdan iboratdir.

Didaktika - (grekcha «didaktikos» so'zidan olingan bo'lib, o'rnak, saboq bo'lishlilik kabi mazmunlarni anglatadi.)- pedagogikaning ta'lim jarayonida tarbiyalash nazariyasini ishlab chiqadigan qismi hisoblanadi.

1.2. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning maqsadi, vazifalari

Oliy ta'limga doir atamalarning ma'nosi, oliy ta'limning asosiy vazifalari.

Oliy ta'limning atamalari:

- oliy ta'limning mazmuni - davlat ta'lim standard talablari asosida belgilanadi, o'quv rejasi, o'quv fani, dasturi, darslikda ifodalanadi;

- o'quv rejasi - oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv fanlari turlari, kurslarining tarkibi, ularni o'rganish izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me'yoriy hujjat;

- o'quv fani - ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyansohasidan saralab olingan bilimlar, malaka va ko'nikmalar tizimi;

- o'quv seinstri - oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi;

- o'quv fani dasturi - ta'lim mazmuni, uni talabalar o'zlashtirishining eng muqobil usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan me'yoriy hujjat;

- o‘quv yili - oliy ta’lim muassasasida bir ta’lim kursini yakunlashga mo‘ljallangan o‘quv faoliyati davri, u ikki kalendar yili bilan (2022—2023) belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limning asosiy vazifalari:

- davlat ta’lim standartlariga muvofiq ilg‘or, zamonaviy ta’lim va kasb-hunar dasturlari asosida ta’limni tashkil etish;

- O‘zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish istiqbollari, demokratik jamiyat qurish talablariga binoan fan, texnika, ilg‘or texnologiyalar, iqtisodiyot va madaniyatning zamonaviy yutuqlari asosida kadrlarni o‘qitish va tarbiyalash usullarini muntazam takomillashtirish;

- talaba yoshlarni milliy mafkura, milliy g‘oya, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni egallashi asosida vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash;

- o‘quv amaliyotiga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini kiritish, ta’limni individuallashtirish, masofaviy ta’lim vositalari bilan ta’minlash;

- ta’lim, fan va ishlab chiqarish birlashuvining amaliy tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish;

- ilmiy-pedagogik kadrlar va iqtidorli talabalarning ilmiyijodiy faoliyatlari orqali fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish;

- davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirish asosida ta’lim xizmatlari bozorida raqobatli muhitni yaratish;

- oliy ta’lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, ular mustaqilligini kengaytirish;

- ta’sischilar, vasiylar, jamoat kuzatuvi nazorati shaklida yangi jamoat boshqaruvini shakllantirish;

- oliy ta’lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan foydali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim muassasalarining uchta turi joriy etilgan: universitet, akademiya, institut.

Universitet:

- a) ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha oliy va undan keyingi ta'lim turlari dasturlarini amalga oshiradi;
- b) kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish amaliyotini bajaradi;
- c) fanlar bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni bajaradi;
- d) bilimlarning tegishli sohalari bo'yicha ilmiy va uslubiy markaz vazifasini bajaradi.

Akademiya:

- a) muayyan bilim sohasi va kadrlar tayyorlash yo'nalishi bo'yicha oliy va undan keyingi ta'limlarning kasbiy dasturlarini amalga oshiradi;
- b) ma'lum sohalar uchun oliy ma'lumotli kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi;
- c) fan, madaniyat, san'at sohalari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni bajaradi;
- d) o'z faoliyati sohasida yetakchi ilmiy va uslubiy markaz bo'ladi.

Institut:

- a) odatda, ta'limning bir sohasi doirasida oliy va undan keyingi ta'limning kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshiradi;
- b) xalq xo'jaligining ma'lum sohasi uchun mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etadi;
- c) amaliy va fundamental ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

1.3. Oliy maktab pedagogikasining tadqiqot metodlari

O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri fan-yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishi uchun quyidagilar zarurligi milliy dasturda belgilangan:

- ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsion loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish yo'li bilan ilmfanning ta'lim amaliyoti aloqasini ta'minlash;

- ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun eksperimental maydonchalar barpo etish orqali ilmiy tadqiqot natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish mexanizmini ro'yobga chiqarish;

- yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

- talabalar va yosh olimlarning ilmiy yutuqlari uchun maxsus mukofotlar va sovrinlar, stipendiyalar ta'sis etish, yoshlar ilmiy-texnika ijodiyotining doimiy ishlaydigan ko'rgazma va ekspozitsiyalarini tashkil etish.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartida bakalavriat va magistratura ta'limiga qo'yilgan umumiy malaka talablari qatorida quyidagilar belgilangan:

- o'z ustida mustaqil ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- ilmiy va ilmiy-texnik axborot bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

- ilmiy ijodiyot metodologiyasi, bilishning umumiy usullari, empirik va nazariy tadqiqot usullari, qonunlar, qoidalar mantig'ini asoslash va inkor etish yo'llariga doir bilimlarni egallash.

Magistratura ta'limining ilmiy faoliyat bloki, ilmiy tadqiqotlar metodologiyasini o'zlashtirishni, ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida talabalar muayyan ilmiy tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlarni bajarishlarini nazarda tutadi.

O'zbekiston ijtimoiy ishlab chiqarish, madaniy-ma'rifiy sohalarda jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga erishishi uchun mehnatni ilmiy asosda tashkil etish lozim. Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari, madaniyat, ma'naviyat, ta'limsohalarida mehnatni ilmiy tashkil etish hayotiy zaruratga aylandi. Shuningdek, pedagogik xodimlar mehnatini ham ilmiy asosda tashkil etish davr talabidir. Bu, avvalo, barcha ishlarni aniq va puxta uyushtirish, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishga ilmiy yondashish demakdir. Bo'lajak mutaxassislar oliy ta'lim muassasasida o'qish davrida faqat fan bloklari va kasbiy bilimlarni chuqur egallashlarining o'zigina kifoya qilmaydi, ulardagi iqtidor qobiliyatlarni

o‘stirish, talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga kengroq jalb etib, tadqiqotchilik malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish, ilmiy ijod metodologiyasi va usullarini egallab olishlariga erishish zarurligi, yuqorida keltirilganidek, O‘zbekiston Respublikasining me‘yoriy hujjatlarida aniq belgilangan.

Oliy ta‘lim muassasasida talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari o‘z navbatida ulardan chuqur, mustahkam bilim egallashni talab qiladi. Mustaqil, puxta bilimlarsiz amaliy ishlarga ijodiy yondoshish, o‘quv tadqiqot, ilmiy tadqiqot ishlari bajarish mumkin emas.

Oliy maktabda talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari, asosan, kasbga doir pedagogik, o‘quv-tarbiyaviy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda tadqiqotchilik faoliyatiga, ijodiy izlanishga qiziqishni o‘stirish, o‘quv-tarbiyaviy ishlarga ilmiy yondoshish malakasini hosil qilish;

- mutaxassislikka oid va boshqa fanlar bloklarini o‘rganish jarayonida o‘quv tadqiqot ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

- adabiyotlar va boshqa ilmiy manbalarni o‘rganish va tahlil qilish qobiliyati, malakalarini o‘stirish;

- o‘quvchilar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya ishlari, shuningdek, mutaxassislik fanlari sohasida muammolarni ko‘ra olish va shu sohada ilmiy tadqiqot ishlari bajara olish ko‘nikma va malakalarini egallash;

- ilmiy tadqiqot metodlarini bilib olish va ularni amalda qo‘llay olishni o‘rganish.

Talabalar bajaradigan ilmiy tadqiqot ishlari ikki yo‘nalishda tashkil etiladi:

- birinchisi, o‘quv mashg‘ulotlari bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqot ishlari, ya‘ni o‘quv tadqiqot ishlari;

- ikkinchisi, kafedralarning ilmiy yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy tadqiqot ishlari.

O‘quv mashg‘ulotlari bilan bog‘liq tadqiqot ishlariga quyidagilar kiradi:

- ilmiy adabiyotlar va manbalarni, internet axborotlarini, vatan va chet el olimlarining asarlarini, shuningdek, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodlariga doir adabiyotlarni o'rganish va tanqidiy tahlil qilish;

- o'quv fanlaridan amaliy mashg'ulotlar uchun tajriba va eksperiment materiallarini to'plash, tayyorlash;

- laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorlanish va uni bajarish bilan bog'liq tadqiqot ishlari;

- maxsus kurs va seminarlarni o'rganish bilan bog'liq o'quv tadqiqot ishlari;

- to'plangan tadqiqot materiallari asosida referat, doklad va ma'ruza matnlarini tayyorlash;

- pedagogik, ishlab chiqarish va dala amaliyotlari davomida, o'quv ekspeditsiyalari vaqtida o'quv topshiriqlari bo'yicha yakka va jamoaviy tadqiqot ishlari olib borish;

Kafedralarning ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bilan bog'liq talabalarning ilmiy tadqiqot ishlariga quyidagilar kiradi:

- talabalarning ilmiy (fan) to'garaklaridagi ishlari. To'garaklarda talabalar mavzu tanlashni, bibliografiya tuzishni, ilmiy bilish metodlari va tadqiqot usullarini o'rganadilar, adabiyotlar, internet va boshqa manbalar asosida ilmiy doklad, ma'ruzalar tayyorlaydilar, o'zlarining tadqiqot ishlari haqida chiqishlar qiladilar, ilmiy muammolarni muhokama qilishda, munozaralarda qatnashish;

- kafedra o'qituvchilari, katta ilmiy xodimlar bajaradigan ilmiy ishlarda, shuningdek, korxonalar, xalq ta'limi tizimidagi ilmiy metodik muassasalar tomonidan olib boriladigan tadqiqot ishlarida qatnashish;

- ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan o'tkaziladigan arxeologik, etnografik va boshqa ekspeditsiyalarda ishtirok etish;

- konstruktorlik byurolaridagi ishlarda, grant, shartnoma asosida olib boriladigan tadqiqot ishlarida qatnashish; asboblarni konstruksiya qilish, ta'limning texnik vositalari, ko'rsatmali qurollarni yasash, jamoa xo'jaliklarida, ta'lim muassasalarida mehnatni ilmiy tashkil etishni o'rganish;

- o'zining ilmiy tadqiqot natijalari asosida konkurslar, olimpiadalarda qatnashish;

- malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlash, himoya qilish, ilmiy maqolalar, risolalar tayyorlash, chop ettirish va boshqalar.

Amaldagi pedagogik usullar.

Pedagogika fani o'z mazmun mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan o'rganadi. Ushbu ilmning ilmiy-tadqiqot usullari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlarga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, uslublari va vositalari majmui tushuniladi. Pedagogika fanining ilmiytadqiqot usullari qanchalik to'g'ri tanlansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Ammo shuni ta'kidlamok lozimki, ilmiy tadqiqot metodlari tizimi xali hozirgicha fanda to'la yaratilgan, xal etilgan emas. Mavjud va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy tadqiqot usullariga tayanib fikr yuritish mumkin:

1. Pedagogik kuzatish usuli.
2. Suhbat usuli.
3. Bolalar ijodini o'rganish usuli.
4. So'rovnoma, test usuli.
5. Maktab xujjatlarini tahlil qilish usuli.
6. Eksperiment, tajriba, sinov usuli.
7. Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli.
8. Matematika-kibernetika usuli.

Pedagogik ko'zatish - odatda tabiiy ko'zatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlarini ularning xulk atvori va muomilalaridan o'zgarishlarini xisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi.

Suhbat metodi - so'rashning bir turi bo'lgani xolda, tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suxbatdoshning javoblarini

yozmasdan erkin muomila formasida qo'llaniladi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va amaliyotida intervyu tashkil etishning ko'p usullari mavjud:

- Guruhlar bilan;
- Intensiv;
- Sinash va hokazo.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli - bunda o'quvchilarning umumiy miqdori, uning o'sishi yoki kamayishi sabablari tavsifi, o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasiga, sinfdan qolishning oldini olish, rag'batlantirish va jazolash choralari turlariga, maktabning moddiy bazasiga e'tibor beriladi.

Test sinovlari metodi - bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig'ib olish metodidir. Test sinovlarini ishlab chiqish murakkab jarayondir. Odatda test savollarini ma'lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

O'z samaradorligi hamda talabalarning fanni o'rganishdagi erishgan darajalari, olgan bilimlarining puxtaligi qay darajadagini ham aniqlash imkonini beradigan uslub bu tadqiqot uslubidir.

Bu uslubda talabalar yuz berayotgan voqelikni kuzatish, faktlarga diqqatni qaratish, ulardan xulosa chiqarishni o'rganishadi. Tadqiqot metodini iqtisodiyotni o'rganishni tadbiq qilish talabalarning puxta bilim olishlariga katta yordam beradi. Sababi iqtisodiyot doimo kishilarning oldiga tanlov muammosini qo'yadi, chunki resurslar cheklangan, ularni bir maqsaddagina ishlatish mumkin. Bir maqsadda ishlatilgan resursni ikkinchi maqsadda ishlatib bo'lmaydi. Masalan, yerga uy qurilsa, endi u yerga ekin ekib yoki yo'l qurib bo'lmaydi. Buning uchun uyni buzish kerak. Lekin biz ularning orasidan birini tanlashimiz kerak. Buning uchun alternativ variantlar taqqoslanadi.

Dars berishning bu metodi oldiga ikki maqsad qo'yiladi:

1. Mavzuning mazmunini o'zlashtirish va ilmiy metodlardan foydalanishni o'rganish;

2. Axborotlar, dalillar, ma'lumotlar asosida tadqiqot o'tkazish jarayoniga qatnashish orqali, talabalarning axborot to'plash, to'plangan axborot ustida ishlash, xulosa chiqarib baxolashga o'rgatish.

Tadqiqot uslubi asosida dars o'tish deduktiv mantiqqa tayanishi mumkin. Tadqiqotni deduktiv metodga asoslanishi iqsodiyotda qator tayyor qoida, qonunlar mavjudligi, ulardan qo'yilgan muamolarni yechishda foydalanilsa bo'lishiga tayanadi. Bu qonun, qoidalar talabalarga zarur axborotlarni keraksiz ma'lumotlardan ajratishga yordam beradi. Tadqiqot jarayonida izlanishni to'g'ri yo'ldan borishiga ko'maklashadi.

Induktiv metodni qo'llash yordamida talabalar ma'lumot, axborotga asoslanib, iqtisodiy hodisa va jarayonlar xaqida yangi gipotezani ilgari surishi yoki ilgari bildirilgan gipotezalarni tekshirib ko'rishi mumkin.

Bunda bir muqobil qiymat ikkinchisi bilan solishtiriladi. Shuning uchun kishilarning hatti-harakati qanday bo'lishini va ma'lumotlarni sinchkovlik bilan o'rganish muhim ahamiyatga ega. Aynan ana shu uslubi orqali bunga erishish mumkin. Tadqiqot uslubi boshqa metodlardan katta farq qiladi. U talabalarni fikr yuritishi yuqori darajada bo'lishi bor intellektual qobiliyatlarni ishga solishini talab qiladi, Taniqli amerikalik mutaxassis Benjamin Blum tavsiya qilgan bilishning qadam-baqadam besh bosqichining eng yuqori bosqichiga to'g'ri keladi. U baholash bo'lib, baholashning uddasidan chiqish uchun olgan bilimni yodga tushirish, qo'yilgan masalani tushina bilish, tahlil qilish, intez qilishni bilishi, turli variantlarni taqqoslashi, oxir oqibat xulosa chiqara oladigan darajada bilimga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun ham bu uslubni hamma guruhlarda qo'llash qiyin. Talabalarning tayyorgarligi, faolligini ta'minlash, bilim darajasini oshirish asosida barcha guruhlarda qo'llash mumkin bo'ladi. Buning uchun talabalarni axborot to'plash, mustaqil ravishda o'qib, jadval va grafiklardan foydalanishni o'rganishlarini kuzatish, aniqlash va bu ko'nikmalarni hosil qilishlari uchun yordam berish kerak.

Darsni tadqiqot metodi asosida tashkil qilishning tarkibiy qismlari.

1. Darsda talabalarni haqiqatdan qiziqtiradigan savol yoki masala qo'yiladi.

2. O'qituvchi talabalarga biron-bir gipoteza taklif qilishi yoki talabalarning o'zlari muhokama qilayotgan masalaning yechimining mumkin bo'lgan variantlarini taklif qilishlari, tushuntirishlari mumkin.

3. Talabalar ma'lumotlar yig'ishadi, axborotlar to'plashadi, mustaqil ravishda adabiyotlar o'qib, jadval, grafik, videofilm va boshqalarni o'rganib, har biri shaxsan o'zi tadqiqot o'tkazadi yoki darsda tadqiqot o'tkazishda qatnashadi.

4. Olingan ma'lumotlar asosida qo'yilgan masala bo'yicha xulosa chiqariladi.

5. Avvalgi aytilgan gipoteza to'g'rimi yoki yo'q aniqlanadi. Noto'g'ri bo'lsa chiqarilgan xulosa bo'yicha yangi ta'rif beriladi.

Tadqiqot uslubiga dars o'tishning metodi sifatida turlicha yondoshish mumkin. Ko'pchilik bu uslub talabalarga ma'lumotlarni o'rganish, sinchkovlik bilan tahlil qilish, kishilarning hatti-harakati qanday bo'lishi mumkinligini o'rganish, xulosa chiqarish, savollarga javob berishga yordam beradi. Shuning uchun, ayniqsa, iqtisodiyot nazariyasini, umuman iqtisodiy fanlarni o'rganishda qo'llash nihoyatda zarur degan fikrni bildiradi.

Iqtisodiy masalalar, muammolarni tadqiq qilishda deduktiv tahminlar keng qo'llaniladi. Ular masalani, muammoni yechishda odamlarning sa'y-harakati qanday bo'lishi mumkin, ular nimani tanlashi mumkin, buning sababi nimada ekanligini tushunishga yordam beradi. Bu taxminlar odamlarning iqtisodiy fikrlash tarzining qanday kechishi mumkinligi, u nimalarga bog'liqligini anglay bilishimizga bog'liq. Ana shu taxminlardan tadqiqot o'tkazishda foydalanamiz. Ular asosidagina xulosa chiqarishimiz mumkin.

Talabalar biron masalani, muammoni o'rganar ekan, insonlarning ana shu iqtisodiy fikrlash tarzini yoddan chiqarmasliklari lozim.

Ilmiy tadqiqot usuli.

Tadqiqot uslubi talabalarni bevosita o'rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masalaga bevosita qatnashish ilmiy izlanishga amaliy yondoshish imkoniyatini beradi. Bu metodni qo'llab dars o'tganda dars berishning boshqa usullaridan ham foydalaniladi.

Bu uslub dars berishning boshqa uslublaridan:

- iqtisodiy fikrlashning yuqori bosqichiga foydalanilganligi;

- talabalarning bor intellektual qobiliyatlarini ishga solishi;
- ilmiy izlanishda talabalarning bevosita ishtirok etishlari;
- ma'lumotlar, dalillar asosida hisob-kitob qilib, xulosa chiqarish va baholashga o'rgatishi bilan farq qiladi.

Dars o'tishning tadqiqot uslubida qo'yilgan masalani hal qilish uchun talabalar o'zlari qatnashishlari tufayli puhta bilim olishlariga imkoniyat yaratiladi. Ular ilmiy izlanishga o'rganishadi. Talabalar qo'yilgan masalaning muhokamasi jarayonida o'z fikrlarini mustaqil ravishda o'rtoqlashishga, boshqalarning bildirgan fikrlarini mushohada qilishga o'rganishadi.

Ma'lumotlarni, dalillarni tahlil qilish jarayonida talabalar qiziqqonlik qilmay ob'ektiv tarzda masalani yechishga o'rganishadi. Raqamlarga ko'r-yondoshmaslikni, ular zahirida iqtisodiy hodisa, qonunlar yashiringanligini ko'rishga o'rganadilar. Bilishning nisbiy ekanligi, dalillar o'zgarishi va yangi ma'lumotlar olinishi xulosani ham o'zgarishga olib kelishini tushunishga yordam beradi.

Talabalar turli axborotlar va mantiqiy mushohada orqali o'z tahminlari, o'rtoqlari bildirgan fikrlarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlashadi.

Ma'lumotlar asosida tendentsiyalar, qonuniyatlar amal qilishini aniqlashga harakat qilishadi. Ilgari surilgan gipoteza bilan chiqarilgan xulosani taqqoslab kelishadi.

Qo'yilgan masalani tadqiqot metodi asosida muhokama qilish, yuzaki qabul qilingan qarorlarga ishonchsizlik bilan qarashni tarbiyalaydi. Talaba masalani chuqur o'rganish uchun zarur adabiyotlar, axborotlar bilan uzluksiz ishlash zarurligini tushinadi. Buni tadqiqot uslubida yuqori darajada fikr yuritish zarurligi ham talab etiladi. Shuning uchun xam bu uslub talabalarning puxta bilim olishlarini ta'minlaydi. Ular o'rganayotgan predmetlarining mazmunini tushunibgina qolmay, axborot to'plash va uni tahlil qilishni ham o'rganadilar.

Ko'pchilik pedagoglar tadqiqot uslubini talabalarning bilim olishlari qamrovi jihatidan boshqa metodlardan qolishmasligi, ayrim jihatlari bilan esa afzalligini ta'kidlashadi.

Darsni o'tkazishda o'qituvchi o'rganiladigan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishni axborot, ma'lumot, dalillarni to'plashni talabalarga avvaldan topshirishi mumkin. Yoki o'qituvchining o'zi zarur dalil, ma'lumotlar asosida talabalar oldiga muammo qo'yib, uni birgalikda Yechishi mumkin. Bunda amaliy o'yin, turli iqtisodiy modellarni ifodalovchi grafik, jadvallardan va boshqa uslublardan foydalanish orqali tadqiqot o'tkazish, tadqiqotning qiziqarli tarzda bo'lishiga olib keladi, hamda barcha talabalarining faol qatnashishiga erishiladi.

Bu usulda butun guruh birgalikda iqtisodiyotni, qolaversa dunyoni yaxshiroq tushunishga intiluvchi izlanuvchilarga aylanishadi. Lekin bu uslubni qo'llash oson emas.

Birinchidan, bu uslubda dars o'tish ko'p vaqt talab qiladi, Qo'yilgan bir muammoni tadqiq qilish uchun hamma diqqat qaratilib, mavzudagi boshqa masalalar keyinga surilishi yoki qolib ketishi mumkin.

Ikkinchidan, tadqiqot uslubi asosida dars o'tish guruh talabalarining barchasining qobiliyati jihatidan bir-biriga yaqin bo'lishini va fikrlashning "kognitiv" darajasi yuqori bo'lishini talab qiladi. Bunga ayniqsa 1-kursda erishish qiyin.

Uchinchidan, tadqiqot uslubi o'qituvchidan chuqur bilim, tajriba, talant talab qiladi. Chunki tadqiqot o'tkazish uchun o'qituvchining o'zi ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi, tadqiqot jarayonida yuz beradigan har qanday kutilmagan hodisa, talabalar tomonidan qo'yilgan savol, masala yoki muammoga hozirjavob bo'lishi, ulardan aynan tadqiqot o'tkazilayotgan masalani yechishda foydalanish mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Tadqiqot uslubining afzalliklari:

Talabani ob'ektiv va mustaqil fikr yurituvchi mutaxassis sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Ma'lumotlar, dalillarga diqqat bilan hisoblashib yondashishga o'rgatadi.

Har qanday bilim nisbiy ekanligini tushunishga yordam beradi.

Mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

Yuzaki qabul qilingan qarorlarga ishonchsizlik bilan qarashni tarbiyalaydi.

Yuqori darajada fikr yuritishga undaydi.

Faqat mavzuning mazmunini o'zlashtirish emas, balki mantiqiy fikrlashga o'rgatadi, muammolarni Yechish uchun ko'nikma hosil qiladi.

Dars berishning tadqiqot metodi kamchiliklari:

Ko'p vaqt talab qiladi.

O'qituvchining o'zi ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishni talab qiladi. U muammolarni yechish va strategik rejalashtirish mahoratini egallagan bo'lishi kerak.

O'qituvchi faqat "bilim berib"gina qolmay, talabalarni mohirlik bilan mantiqiy asoslangan xulosaga kelishga yordam berishi kerakligi.

O'qituvchi darsda qo'yilishi mumkin bo'lgan muammolarni strategik rejalashtirish va ularni yechish yo'llarini o'ylab qo'yishi kerak.

Bu esa hamma o'qituvchilarning, ayniqsa yosh, tajribasi kam o'qituvchilarning qo'lidan kelavermaydi.

2-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “TA’LIM TO‘G‘RISIDAGI QONUNI”NING MAZMUNI

2.1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni”ning mazmuni

Rivojlangan davlatlar tajribasiga e’tibor qaratsak, taraqqiyotga erishish uchun islohotlar, avvalo, ta’lim sohasidan boshlanganiga guvoh bo‘lamiz. Chunki yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga ustuvor vazifa sifatida qaragan har qanday mamlakat, shubhasiz, kelajak poydevori mustahkamligiga erishadi. Mamlakatimizda ham istiqbolning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismonan va ma’nan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste’dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Konstitutsiyamizda belgilangan normalar, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar bu borada mustahkam huquqiy poydevor sifatida xizmat qilmoqda. Ammo bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan zamon, jahon bozoridagi keskin raqobat va yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan talabning ortib borayotgani ushbu sohani ham isloh qilib borishni taqozo etmoqda. Taraqqiyotning navbatdagi bosqichiga qadam qo‘ygan mamlakatimizda ham o‘tgan yillarda jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan yangilanishlarning mazmuniga mos ravishda ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish maqsadida Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etilib, tizimni malakali kadrlar bilan ta’minlash, davlat va xususiy sheriklik asosida yaqin istiqbolda mamlakatimizda bog‘cha yoshidagi bolalarni to‘liq maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab

olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Keng jamoatchilik va otalarning fikr-takliflari asosida yurtimizda 11 yillik majburiy maktab ta'limi qayta joriy etildi, kadrlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ham manzilli va maqsadli ravishda isloh qilinmoqda. Oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalari ko'paytirildi, xorijdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari diplomlarini nostrifikatsiyalash tizimi soddalashtirildi, talab yuqori bo'lgan qator sohalar bo'yicha sirtqi ta'lim yo'lga qo'yildi, davlat test sinovlari tizimi takomillashtirildi. Shu bilan birga, oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi ham xalqaro andozalarga asosan takomillashtirilib, olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ilmiy va innovatsion faoliyatiga keng sharoitlar yaratish, Fanlar akademiyasi va ilmiy tadqiqot institutlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Qisqcha qilib aytganda bugungi kundagi bosh maqsadlarimizdan biri bu mamlakatimiz ta'lim tizimi fuqarolarning komil shaxslar bo'lib shakllanishiga yo'naltirilgan, inson omilini namoyon etadigan, mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni yetishtirib beradigan eng yaxshi an'alarini qo'llabquvvatlash va rivojlantirishdan iboratdir. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahrirdagi qonunini qabul qilish beligalb berilgan edi. Qonun loyihasini takomillashtirish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining mas'ul qo'mitalari hamda ishchi guruhlar tomonidan bir necha bor muhokamalar o'tkazildi. Natijada yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan shu yili 7-avgust kuni ma'qullandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni mazkur Qonunni imzolashi bilan, amalda bo'lgan 1997-yil 29-avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlar o'z kuchini yo'qotdi. Ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ushbu qonunga ko‘ra ta’lim - ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon sifatida baholandi. Ushbu qonuning 4-moddasida ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar belgilab berilgan bo‘lib, ular quyidagilardir:

- ta’lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
- ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;
- ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;
- ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim olish huquqi jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar davlat tomonidan kafolatlanadi. Shuningdek, ta’lim olish huquqi ta’lim tashkilotlarini

rivojlantirish, ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish, ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish, oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonunchilikka binoan chet ellik fuqarolar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ta'lim olishga haqlidirlar. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ta'lim olish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

Shuningdek bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi xususan oliy ta'lim tizimini isloh qilish, ularning huquqiy asoslarini takomillashtirish bugungi siyosatning muhim tarmoqlaridan biri bo'lmoqda. Ushbu fikrimizning asosi sifatida aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrda 61-sonli "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish choratadbirlari to'g'risida"gi qarori fabul qilinib, ushbu qaror ta'lim qonunchiligidagi so'ngi muhim o'zgarishlarni olib kelishiga sababchi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu qaror oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag'larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra 35 ta olim ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berildi.

Ushbu moliyaviy mustaqillik ushbu oliy ta'lim muassasalariga bir qatorda akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqillik berib, ulardan bir qanchasini misol qilib quyidagi keltirishimiz mumkin:

- kontrakt qiymatini, to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish;
- mahalliy va xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislarni shartnoma
- asosida jalb qilish;
- o'z hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish;
- xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalarni to'g'ridan-to'g'ri xarid qilish;
- bo'sh turgan bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash;
- avtotransport vositalarining yo'l bosish yillik limiti va ularga xizmat ko'rsatish talablarini belgilash.

Ya'na bir muhim jixati shundaki ushbu qarorga ko'ra, ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari uchun davlat OTM xarajatlarini onlayn monitoring qilish imkoniyati yaratiladi.

Buyuk Britaniya, Kanada, AQSh, Angliya, Germaniya kabi xorijiy davlatlarda ham xuddi shunday o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan oliy ta'lim muassasalari bor. Ushbu tizimga o'tishdan oldin xorijiy tajribalarni mukammal o'rganib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda moliyaviy mustaqillik tizimiga o'tildi.

Birinchi navbatda ushbu tizimga o'tgan oliy ta'lim muassasalariga ta'lim bozoridagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda hamda muassasaning ilmiypedagogik salohiyati, uning moddiy-texnik bazasini inobatga olib, yangi ta'lim yo'nalishlari ochish, talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlari va to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash huquqi beriladi. Lekin bu institut to'liq mustaqil bo'ldi, degani emas. Moliyaviy mustaqillikning yana bir afzalligi kelajakda topadigan daromadlarimizni kam ta'minlangan oila farzandlari bo'lgan talabalarga sarflashimiz, ularga moddiy yordam berish, rag'batlantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Oliy ta'lim muassasasi moliyaviy mustaqil bo'lsa, ta'lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini va talabalarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini mustaqil belgilaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida o'quv jarayoniga jalb qila oladi. Ichki imkoniyatlar talabi asosida professor-o'qituvchilar shtat birliklarini kiritish me'yorlarini ishlab chiqish, ahamiyatlisi, o'z mablag'lari hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlarni joriy eta oladi.

Shuningdek, xorijiy davlatlardan o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni mualliflik huquqi bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan to'g'ridan- to'g'ri xarid qilish, oliy ta'lim muassasasi tomonidan o'quv jarayoni uchun kerak bo'ladigan vositalar, shuningdek, boshqa asosiy texnologiyalarni xarid qilish va ularni hisobdan chiqarishga hamda bino, inshootlarni kapital ta'mirlash, rekonstruksiya qilish imkoniyatlari ham moliyaviy mustaqil bo'lgan oliy ta'lim muassasasi vakolatlari doirasida bo'ladi.

2.2. Ta'lim tizimi, turlari va shakllari

Ta'lim tizimi:

- davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini;
- davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini;
- ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;
- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I - XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim (I - IV sinflar);

tayanch o'rta ta'lim (V - IX sinflar);

o'rta ta'lim (X - XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

Professional ta'lim.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

boshlang'ich professional ta'lim;

o'rta professional ta'lim;

o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan fuqarolar ham o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta'limni olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim.

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir

yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim ikki bosqichga — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa ta'lim tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim olish xususiyatlari qonunchilikda belgilanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davom etish muddati qonunchilikda belgilanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim.

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

2.3. Ta'lim olish shakllari

Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);

dual ta'lim;

oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;

katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;

inklyuziv ta'lim;

eksternat tartibidagi ta'lim;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Masofaviy ta'lim.

Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Dual ta'lim.

Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish.

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olish uslubiy va maslahat yordami ko'rsatilgan holda tegishli o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish tartibi, shuningdek ta'lim oluvchilarning toifalari ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi.

Oilada ta'lim olish bolalar, oila, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda davlat ta'lim muassasasi hamda ta'lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oilada ta'lim olgan va mustaqil ta'lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatni berish davlat ta'lim muassasalarining tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshiriladi.

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish.

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini o'z ichiga oladi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi.

Rasmiy ta'lim davlat ta'lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan ta'limdir.

Norasmiy ta'lim ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan bo'lib, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobilidir.

Informal ta'lim aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olishi mumkin.

Inklyuziv ta'lim.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Eksternat tartibidagi ta'lim.

Eksternat tartibidagi ta'lim olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi.

Eksternat tartibidagi ta'lim olishni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash.

Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

2.4. Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional hamda oliy ta'lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim talablari:

maktabdan tashqari ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini;

ta'lim tuzilmasini va ta'limni amalga oshirish shartlarini;

ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy va kasbga oid sifatleri to'g'risidagi normalarni belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti qo'llaniladi.

Davlat ta'lim standartlarini va (yoki) davlat ta'lim talablarini bajarish barcha ta'lim tashkilotlari uchun majburiydir, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada yoki xabarnomada ko'rsatilgan o'quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, oliy ta'lim, o'rta maxsus ta'lim hamda professional ta'limning o'quv rejalari va o'quv dasturlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi. Ushbu maqsadlar uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tayanch davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarini belgilaydi.

Tayanch davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalari kadrlarning talabgorlari ishtirokida davlat ta'lim standartlarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini tayyorlashni amalga oshiradi. Davlat ta'lim standartlari kasbiy standartlar asosida ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi.

Oliy, professional, o'rta maxsus va umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlari tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tomonidan tasdiqlanadi. Tegishli vakolatlar berilgan boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar davlat ta'lim standartlarini O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi.

Davlat ta'lim talablari ta'lim sohasidagi tegishli vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish maxsus o'quv dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi davlat oliy ta'lim muassasalariga mustaqil ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o'quv dasturlari, malaka talablari hamda o'quv rejalari asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatish bo'yicha vakolatlarni berishi mumkin.

Ta'lim jarayoniga o'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish.

O'quv rejalari va o'quv dasturlari tegishli ta'lim bosqichlarining maqsad hamda vazifalari asosida ishlab chiqiladi.

Tegishli davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlaridagi o'quv rejalari va o'quv dasturlarining mazmuni, ularni ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta'lim oluvchilarda bilim, malaka, ko'nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Kasbga oid fanlarning o'quv dasturlari ta'lim oluvchilar tomonidan tegishli kasblar va mutaxassisliklarni egallashga qaratilgan.

Ta'lim jarayoniga o'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish ta'lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llaniladi.

Ta'lim jarayoniga o'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish chog'ida ta'lim tashkilotlari kredit-modul tizimiga asoslangan o'qitish texnologiyalaridan foydalanishi mumkin.

O'quv rejasida, qoida tariqasida, ta'lim jarayonining jadvali, o'qitishning boshlanishi, muddati va davriyligi, o'quv yillari, choraklar, semestrlar, amaliyot, ta'tillar hamda attestatsiya, ajratilgan haftalar soni, o'rganiladigan fanlar (modullar) va ularga ajratilgan soatlar (kreditlar) hamda boshqa zarur parametrlar aks ettiriladi.

Professional va oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir o'quv rejalarda ta'lim oluvchilar uchun amaliyot o'tash nazarda tutiladi.

Ta'lim oluvchilarning amaliyotni o'tash tartibi va uni tashkil etish ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi.

Professional va oliy ta'limga doir o'quv rejalari davlat ta'lim standartlariga muvofiq mutaxassislik fanlaridan, shuningdek umumkasbiy, matematika, tabiiy-ilmiy, gumanitar va qo'shimcha fanlardan shakllantiriladi.

O'quv rejalari davlat boshqaruvi organlarining topshiriqlariga asosan va ushbu Qonunda nazarda tutilmagan boshqa yo'l bilan qo'shimcha fanlarni kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat.

Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta'lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o'tkazishga hamda

ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan. Eksperimental va innovatsion faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari innovatsion o'quv dasturlari va loyihalarini amalga oshirish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish uchun o'z vakolatlari doirasida shart-sharoitlar yaratadi.

Iqtisodiy rivojlanish va innovatsion faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan oliy ta'lim tashkilotlari olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish uchun tegishli shart-sharoitlar, shuningdek oliy ta'lim tashkilotlari ta'lim jarayonining yanada takomillashtirilgan shakllariga bosqichma-bosqich o'tishi uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Ta'lim tashkilotlari eksperimental va innovatsion faoliyatda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi.

Ta'lim tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi ularning rasmiy veb-saytlarida Internet jahon tarmog'ida joylashtiriladigan ta'lim tashkilotlari faoliyati to'g'risidagi ochiq axborot resurslari bilan ta'minlanadi.

Ta'lim tashkilotlari rasmiy veb-saytlarida quyidagilarni joylashtiradi:

ta'lim tashkilotining ustavi;

ta'lim berish tillari haqida ma'lumot;

davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari;

ta'lim faoliyatining moddiy-texnika ta'minoti haqida ma'lumot;

litsenziya (nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun);

ta'lim tashkilotining reytingi;

ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikat;

ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari va natijalari, shuningdek ularni amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot bazasi to'g'risidagi ma'lumot (oliy ta'lim uchun);

ta'lim oluvchilarga stipendiyalar berish tartibi, ularga ijtimoiy yordam ko'rsatishning mavjudligi va shartlari to'g'risidagi ma'lumot;

vaqtincha yashash joylarining mavjudligi va yashash joylarining soni, shuningdek to'lov miqdori to'g'risidagi ma'lumot;

pedagoglar va ta'lim oluvchilarning soni, shuningdek pedagoglarning ilmiy salohiyati to'g'risidagi ma'lumot.

Ta'lim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladigan axborotning ishonchligini ta'minlash uchun ta'lim tashkilotlarining rahbarlari shaxsan javobgardir.

Ayrim ta'lim tashkilotlarining faoliyati to'g'risidagi axborotdan foydalanish qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda cheklanishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish.

Ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish barcha talabgorlar uchun ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi prinsipi asosida amalga oshiriladi, shaxslarning ayrim toifalari bundan mustasno, ularga qonunchilikka muvofiq imtiyozlar berilishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlari talabgorlarni va (yoki) ularning ota-onasini yoki boshqa qonuniy vakillarini ustav, litsenziya yoki xabarnoma qabul qilinganligi to'g'risidagi tasdiqnoma (nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun), davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikat (bundan maktabdan tashqari nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari mustasno), o'quv dasturi hamda ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar, o'quvchilarning huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirishi shart.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar o'qishga o'z ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligiga va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi.

Ayrim ta'lim tashkilotlariga (oliy ta'lim muassasalariga, akademik litseylarga, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar va boshqalarga) o'qishga qabul qilish tanlov asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tashkilotlariga tanlov asosida o'qishga

qabul qilish chogʻida tanlov ishtirokchilariga tanlovni oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi axborot taqdim etiladi.

Davlat oliy taʼlim va professional taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilish davlat granti va (yoki) toʻlov-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Davlat taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Nodavlat taʼlim tashkilotlariga oʻqishga qabul qilish tartibi ushbu taʼlim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

Chet ellik fuqarolarni Oʻzbekiston Respublikasining davlat taʼlim muassasalariga qabul qilish toʻlov-shartnoma asosida (bundan davlat granti ajratilgan hollar mustasno) amalga oshiriladi.

Oliy taʼlim muassasalariga davlat granti asosida oʻqishga qabul qilish parametrlari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilish chogʻida imtiyozli kontingent uchun qoʻshimcha qabul parametrlari belgilanadi.

Davlat taʼlim muassasalariga oʻqishga maqsadli qabul qilish.

Davlat taʼlim muassasalariga oʻqishga maqsadli qabul qilish tegishli hududlarning, sohalar va tarmoqlarning kadrlarga boʻlgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ular uchun belgilangan taʼlim oluvchilarni qabul qilish parametrlari doirasida amalga oshiriladi.

Davlat taʼlim muassasalariga oʻqishga maqsadli qabul qilish kadrlar buyurtmachilari, davlat taʼlim muassasalari va fuqarolar oʻrtasida tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Davlat taʼlim muassasalariga maqsadli qabul qilish tartibida oʻqishga kirish umumiy asoslarda tanlov natijalariga muvofiq amalga oshiriladi.

3-BOB. OLIY MAKTAB TA'LIM MAZMUNI

3.1. Ta'lim mazmunini shakllantirishning mohiyati va nazariyasi

Oliy maktab ta'lim jarayoni o'zining mazmuni bilan bo'lajak mutaxassis shaxsini shakllantirishga qaratilgan vazifani amalga oshiradi. Unga ilmiy yondashuvlar esa ta'lim mazmunini bilimlar, malaka va ko'nikmalar, qarashlar va e'tiqodlar, shuningdek, bilish nazariyasi kuchi va amaliy tayyorgarliklar rivojlanishining muayyan darajasi tizimi yig'indisi sifatida izohlaydi (Pedagogicheskaya slovar, 1960).

Ta'lim mazmunining mohiyati unga bo'lgan turli yondashuvlar bilan belgilanadi.

Bilimga yo'naltirilgan yondashuvida bilim insoniyatning butun tarixiy tajribalarida to'plangan boy ma'naviy boylik sifatida diqqat markazda bo'ladi. Biroq bu yondashuvning ma'lum salbiy jihatlari ham bor. Bilim bunda mutlaq darajaga ega bo'ladi va shaxs jilovlanadi va ikkinchi darajaga o'tib qoladi. Bu esa akademizmga berilishning ilmiy asosini qoidalashtirishga olib keladi.

Hozirgi davrda **ta'limni insonparvarlashtirish va ta'lim mazmunining mohiyatini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvini** maydonga olib chiqdi. Bu yondashuv markazida shaxs turadi. Bunday yondashuv ta'lim mazmunini erkin tanlash imkoniyatini beradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish jarayonida shaxsning ta'limiy, ma'naviy, madaniy va hayotiy talablari qondiriladi. Eng muhimi, shaxsga nisbatan insonparvarlik munosabati namoyon bo'ladi, madaniy-ta'limiy sharoitda o'qish individualligi va mustaqil harakat qila olish imkoniyati shakllanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv insonning tabiiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari birligi rivojlanishiga qaratilgan bo'ladi. Bunday yondashuv namoyandalari I.Ya. Larner, M.N. Skatkin, V.S. Lednev, B.M. Bim-Bada, A.V. Petrovskiyldir.

Ta'lim mazmuni **tarixiy xarakter** ham kasb etadi.

Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida ta'lim mazmuni muayyan maqsad va vazifalarga ega bo'ladi. Ta'lim mazmuni davr talabi, nazariy bilim va ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasiga mos ravishda o'zgarib turadi.

Ta'lim mazmuni ijtimoiy hodisa sifatida maydonga keladi va u o'zining boshlang'ich davrida amaliy ahamiyat kasb etgan, ya'ni insonlarning hayotiy ehtiyojlari uchun zarur hisoblangan bilimga bo'lgan talabini qondirgan.

Ijtimoiy taraqqiyot ta'limning **madaniyatshunoslik funksiyasini** yuzaga keltirdi.

Ta'limning rivojlanishiga boshqa ijtimoiy omillar ham ta'sir ko'rsatdi, natijada hukmron sinflar umummadaniy va takomillashib boruvchi bilimga o'z monopoliyasini o'rnatib boshladilar, aholining asosiy qatlamlari esa kundalik turmushda zarur bo'ladigan amaliy bilimlarnigina egalladilar.

XVIII-XIX asrlar uyg'onish davrida **insonparvarlik** g'oyasi qaror topdi. V. de Feltre "Maktab quvonchi" asarida erkin jismoniy va aqliy rivojlanish haqida yozgan edi. J.J. Russo bola rivojlanishida uning tabiatidagi spontan holatlarini kuzatish lozimligini uqtiradi I.I. Pestalotssi insonni faol hayotga tortish orqali shakllantiradigan barcha ahamiyatga molik kuchlarni to'la rivojlantirish g'oyasini olg'a suradi. Ushbu g'oya ta'sirida Fransiya, SHveysariya yangi maktablar, AQSH, Germaniya, Avstriyada sara (elita) maktablar paydo bo'ladi, ularda shaxsning ta'lim va tarbiyasi tabiatda erkin rivojlanish, bola va kattalar orasidagi tabiiy munosabatlar bilan bog'lanadi.

Ta'lim mazmunining asosiy nazariyalari XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida paydo bo'ldi. Pedagogika fani ta'lim mazmunining **material va formal nazariyasini** belgilab beradi. Ta'lim mazmunining material nazariyasi ayrim manbalarda **didaktik materializm** yoki **qomusiylik** (ensiklopedizm) deb yuritildi.

Bu nazariyaning asosiy maqsadi fanning turli sohalaridan mumkin qadar ko'p miqdorda bilim berishdir. Bunday qarashni Ya.A. Komenskiy ham yoqlagan va o'zining darsligida o'quvchilarga zarur bo'lgan barcha bilimlarni joylashtirishga ko'p yillik hayotini bag'ishladi. Ya.A. Komenskiyning zamondoshi ingliz shoiri va tarixchisi Djon Milton (1608-1674) ham ta'lim mazmunini shunday tushungan.

Formal nazariya yoki **didaktik formalizm** ta'lim mazmunini qobiliyatlar va bilishga bo'lgan qiziqishni o'stirish vositasi sifatida tushuntiradi. Didaktik formalizmning nazariy asosini bir faoliyat sohasida olingan bilim va ko'nikmalarni ikkinchisiga ko'chirish holati tashkil etadi.

Qadimda Geraklit didaktik formalizm tarafdori bo'lgan, uningcha, "Ko'p bilim aql o'rgata olmaydi". Sitseron ham shunday fikrdadir.

Yangi davrga kelib, Pestalotssi I. Kant falsafasi va neogumanizm g'oyasiga asoslangan holda, didaktik formalizm nazariyasini olg'a suradi. Uning fikricha, o'qitishning bosh maqsadi "*o'quvchining to'g'ri fikrlash yoki formal ta'limi*"ni kuchaytirishdan iborat. Bunga yaqin fikrlarni A. Disterverg o'zining "Nemis o'qituvchilariga qo'llanma"sida (1850) ham bayon qilgan edi.

Ta'lim mazmuni formal nazariyasi o'qituvchilarining xizmatlari shunda ediki, ular ta'lim oluvchilarning qobiliyati, bilishga qiziqishlari, ularning diqqati, xotirasi, tasavvuri, tafakkurini o'stirish zarurligiga diqqatni qaratdilar. Bu nazariyaning o'zligi esa ularning ta'lim dasturlarida ko'proq ko'rgazmali predmetlar (til, matematika) aks etgan edi.

Har ikkala nazariya K.D. Ushinskiy tomonidan qattiq tanqid qilindi. U shunday yozgan edi: "Aqlning formal rivojlanishi bu muhim bo'lmagan belgi, chunki aql haqiqiy real bilimlarda rivojlanadi" (K.D. Ushinskiy, Asarlar to'plami. 8-jild, 661-b.)

K.D. Ushinskiy maktab insonni bilimlar bilan boyitishi va ayni zamonda bu boylikdan foydalanishni o'rgatishi lozim. U didaktik formalizm va didaktik materializm birligi g'oyasini yoqlab chiqdi.

XIX va XX asr oralig'ida AQSHda **didaktik utilitarizm konsepsiyasi** paydo bo'ldi. Bu g'oya amerikalik pedagog Dj. Dyuiga tegishlidir. Evropada bunday qarashda taniqli nemis pedagogi R. Kershenshteyn fikr bayon qilgan.

Dj. Dyuning aytishicha, alohida olingan o'quv fanlari mazmuni orasidagi aloqalarning manbai ta'lim oluvchilarning individual va ijtimoiy faoliyati hisoblanadi. Bu faoliyat turlari optimal dasturni o'quv fanlarining ketma-ketligi va uzviyligi asosida emas, balki o'quvchining erkinligida, uning tajribalari bilan

bogʻlangan xulqining yangi munosabatlari va tiplarini shakllantirish asosida taʼminlaydi.

Didaktik utilitarizm amerika maktablarining ham taʼlim mazmuniga, ham oʻquv ishlari metodlariga kuchli taʼsir etdi, buning natijasi oʻlaroq taʼlim oluvchilarga maksimal darajada erkinlik berildi, jumladan, majburiy va fakultativ fanlar sifatida ajratilgan oʻquv fanlarini tanlab oʻqitishga ijozat berildi. Oʻquv-tarbiya jarayoni oʻquvchilarning individual soʻrovlari (tanlovlari)ga moslashtirildi.

Polshalik olim V. Okun **funksional materializm** deb nomlanuvchi taʼlim mazmuni nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariyaning asosida esa bilimning faoliyat bilan integral aloqasi qoidasi yotar edi. Bu nazariyada jamiyatning taʼlimga qoʻyiladigan talablari va oʻquvchilarning individual soʻrovlari birligi sezilib turadi.

50-yillar oʻrtalarida programmashtirilgan taʼlimning yuzaga kelishi munosabati bilan taʼlim mazmunining **operatsional strukturizatsiya nazariyasi** ishlab chiqildi. Bu nazariya qay tarzda oʻqitish kerak degan savolga javob berishga qaratilgan. Bu nazariya tarafdorlari oʻquv fanlari mazmuni va ular orasidagi bogʻlanishni sinchiklab tahlil qilish zarurligini uqtiradilar. Bu tahlil programmashtirilayotgan matnni oldindan aniq va konkret belgilash imkonini beradi.

3.2. Taʼlim mazmunini tanlash tamoyillari va meʼyorlari

Pedagogika nazariyasida taʼlim mazmunini shakllantirishning asosiy tamoyillari V.V. Kraevskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Ular quyidagilardir:

1. *Taʼlim mazmunining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs muvofiqligi tamoyili.* Bu tamoyil taʼlim mazmuniga zarur boʻlgan bilim, malaka va koʻnikmalarni, shuningdek, jamiyat, madaniyat va shaxs imkoniyatlari rivojlanishining zamonaviy darajasini aks ettiruvchi bilimlarni kiritishni koʻzda tutadi.

2. *Oʻqitishning mazmun protsessual jihatlari yagonaligi tamoyili.* Bu tamoyil oʻquv jarayonining konkret xususiyatlari, uning tamoyillari, ularni amalga oshirish texnologiyalari va uni oʻzlashtirish darajasi birligini aks ettiradi.

3. *Turli sathlardagi ta'lim mazmuni tuzilmasining yagonaligi tamoyili.* Buni shakllantirish nazariy tasavvur, o'quv fanlari, o'quv materiallari, ta'lim oluvchining shaxsi kabi qismlarning muvofiqlashtirilishini taqozo qiladi.

4. *Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili.* Bu tamoyil shaxsning umuminsoniy madaniyati, uning ma'naviy ehtiyoji va qobiliyatlarining faol ijodiy va amaliy o'zlashtirilishiga shart-sharoit yaratishni taqozo qiladi.

5. *Ta'lim mazmunining asoslanganligi tamoyili.* Bu gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni integratsiyalash, uzviylik va fanlararo aloqalarni o'rnatishni talab qiladi.

6. *Ta'lim mazmuni asosiy komponentlarining shaxs ichki (tayanch) madaniyati tuzilmasiga muvofiqligi tamoyili.*

Zamonaviy pedagogika fani ta'lim mazmunining quyidagi komponentlarini belgilaydi:

- *shaxsning kognitiv tajribasi;*
- *amaliy faoliyat tajribasi;*
- *ijod tajribasi;*
- *shaxs munosabatlari tajribasi.*

Shaxsning kognitiv tajribasi. Bu komponent tabiat, jamiyat, tafakkur, texnika, faoliyat usullari to'g'risidagi bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu asosiy komponent hisoblanadi, chunki shaxsning shakllanish asosini *bilim* tashkil etadi. Bilimlar borliqni, tabiat, jamiyat, tafakkurning rivojlanishi qonunlarini bilish natijasi sifatida belgilanadi. Bilimlarning asosiy funksiyalari dunyoning umumiy manzarasini yaratish, bilim va amaliy faoliyatni ta'minlash, yagona ilmiy dunyoqarashni yaratishdan iboratdir.

Ta'lim mazmunining **amaliy komponenti** malaka va ko'nikmalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Tashqi yoki amaliy va ichki yoki intellektual malaka va ko'nikmalar mavjud.

Malaka va ko'nikmalar barcha o'quv fanlari uchun umumiy bo'lishi mumkin va har bir o'quv fani uchun o'ziga xos va xarakterli bo'ladi. Malaka va ko'nikmalar muayyan faoliyat turining asosini tashkil etadi. Faoliyatning esa

bilish, mehnat, badiiy, ijtimoiy, qadriyatlarga yo'naltirilgan va kommunikativ turlarini qayd qilish mumkin.

Ijodiy faoliyat tajribasi. U yangi muammolarni hal qilish va voqelikni ijodiy qayta yaratishga tayyor bo'lishda namoyon bo'ladi.

Shaxs munosabatlari tajribasi. Bu asoslash (motivatsiya) – baholash, hissiylik, irodalilik munosabatlar tizimidan iboratdir. Bu tajriba dunyoga, voqelikka, odamlarga baho berish munosabatida namoyon bo'ladi.

Mutaxassis shaxsi rivojlanishining asosiy vositalaridan biri va ularning chuqur fundamental bilim hamda amaliy tayyorgarligi oliy maktabdagi ta'lim mazmuni bilan belgilanadi.

Ta'lim mazmunining rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, u ta'lim oluvchining ijtimoiy va individual talablarini hisobga oladi hamda tobora takomillashtirib borish, tarbiyalash va bilish ahamiyatini kasb etadi.

Pedagogika nazariyasi ta'limning bir necha shakllanish tamoyillarini asoslab berdi: ta'lim mazmunining jamiyat, fan, madaniyat, shaxs rivojlanishi talablariga muvofiqligi tamoyili, ta'limning yagona mazmun va protsessual jihatlar mazmuni, turli sathlarda ta'lim mazmuni tuzilmasining yagonaligi, ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish, ta'lim mazmunining asoslanganligi, ta'lim mazmuni asosiy komponentlarining shaxs ichki (tayanch) madaniyati tuzilmasiga muvofiqligi.

Ta'lim mazmunining asosiy komponenti quyidagilar: shaxsning kognitiv tajribasi, amaliy faoliyat tajribasi, ijod tajribasi, shaxs munosabatlari tajribasi.

3.3. Oliy maktabda o'qitishni tashkil etishning shakl va metodlariga qo'yiladigan talablar

Har bir fan ob'ektiv voqelikni o'rganish qonunlarini belgilab beradi. Didaktik qonunlar o'qitish va ta'limot birligi hamda ularning o'zaro aloqadorligida o'rganiladi.

Oliy maktabdagi o'quv jarayoniga sistem-struktur yondashuv nazaridan qaralganda uning o'zaro bog'langan ikki tizimi amal qiladi.

Birinchidan, o'quv jarayoni o'zining o'qitish maqsadi, o'qitish va o'quv faoliyati, ta'lim mazmuni, o'qitish vositalaridan iborat **murakkab tizim** sifatida namoyon bo'ladi. Ular o'zaro bir-biri bilan bog'lanib ketgan.

Ikkinchidan, o'quv jarayoni nisbatan yirik tizim bo'lgan pedagogik jarayonning **tagtizim**idir. Bu tagtizim o'qitish, ta'lim berish va tarbiya jarayoni birligi sifatida namoyon bo'ladi. SHu bilan birga bu tizimda salmoqli tizim sifatida oliy o'quv yurti o'quv jarayoni rivojlanishi qonuniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy jarayonlar va talablar tizimi ham mavjud.

Shunday qilib, o'quv jarayonining muhim tashqi va ichki bog'liqligini farqlash lozim. SHu asosda ta'lim qonunlari tasniflanadi. Didaktikaning o'z qonuniyatlari sifatida o'quv jarayoni komponentlari orasidagi zaruriy, takrorlanuvchi va muhim bog'lanishlarni ko'rsatish mumkin.

Sotsial-pedagogik qonuniyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayoni jamiyat ishlab chiqarish taraqqiyotini aks ettiradi;
- oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayoni tarbiya jarayoni va talabalar rivojlanishi bilan qonuniy bog'langan;
- oliy o'quv yurtidagi o'quv jarayoni tashqi sharoitga ham qonuniy bog'liq;
- oliy o'quv yurtidagi o'qitish va o'rgatish jarayonlari yaxlit o'qitish jarayoni bilan, muayyan ta'lim mazmuni bilan, ikki tomonlama qonuniy aloqani tashkil etadi;
- talabani u yoki bu faoliyatga o'rgatish uni shu faoliyatga maqsadga muvofiq jalb qilish orqali amalga oshiriladi;
- o'qitish maqsadi va oliy o'quv yurti ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va shakllari o'rtasida qonuniy bog'liqlik mavjud;
- o'quv jarayoni talaba maqsadlarining o'qituvchi maqsadlariga muvofiq kelgan taqdirdagina davom etadi. Bunda o'qituvchi faoliyati o'zlashtirilishi lozim bo'lgan mazmunga mos bo'lishi shartdir;

- ta'lim mazmunining o'zlashtirilish sur'ati va mustahkamligi o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'quv faoliyatiga talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishini ta'minlash bilan proporsionaldir;

- o'qitish va rivojlantirishning muvaffaqiyatliligi va tezligi talabani u o'zlashtirishi mumkin bo'lgan o'quv-bilish jarayoniga jalb qilinishiga bog'liq;

- anglab olingan o'quv materiali mazmunining mustahkamligi ushbu mazmunni doimo to'liq va qisman takrorlashdan, uni avval o'zlashtirilgan bilimlar tizimiga kiritishdan ko'ra muhimdir.

O'quv jarayoni qonuniyatlarini asoslash yo'li bilan qo'lga kiritilgan nazariy bilimlar o'quv jarayonini kelgusidagi takomillashishiga xizmat qilishi lozim. Buning uchun esa o'qitishning ilmiy tavsifidan uni loyihalashga, ya'ni nazariyadan amaliyotga o'tish lozim bo'ladi.

O'quv jarayonida bilish qonuniyatlaridan qanday foydalanish mumkin?
Buning uchun didaktik tamoyillarga amal qilish zarur.

Didaktik tamoyillar. Bu idrok qilingan didaktik qonuniyatlarning metodologik in'ikosi; bu – amaliyotning doimiy me'yori sifatida foydalanishga monelik qilmaydigan shakldagi o'qitishning maqsadi, mohiyati, mazmuni, tuzilmasi to'g'risidagi bilim.

Demak, oliy maktabdagi o'qitish nazariyasining didaktik qonuniyatlari tizimiga o'quv jarayonini tashkil etish va rejalashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy qoidalar sifatida qatnashadigan didaktik tamoyillar tizimi muvofiq keladi.

Didaktik tamoyillar V.I. Zagvyazinskiy, L.I. Gritsenko, M.A. Danilov, I.I. Kobilyaskiy, M.G. Garunovlar tomonidan ishlab chiqilgan.

O'qitishning tamoyillarini asoslashda oliy maktab didaktikasi quyidagilarni nazarda tutadi:

- jamiyat talablariga muvofiq keluvchi o'qitishning maqsadi;
- o'qitishning ob'ektiv qonuniyatlari;
- o'quv jarayoni borishining konkret sharoiti.

Oliy maktab didaktikasi o'qitish tamoyillarini asoslashga turlicha yondashuvlar mavjud. Ular quyidagilar:

- o‘quv ishlarini ilmiy ishlarga yaqinlashtirish;
- mustaqil o‘quv – bilish faoliyatida talabalarning yuqori faolligini ta’minlash.

Yuqorida bayon qilinganlardan quyidagi xulosalar chiqadi:

- asosiy didaktik tamoyillar maktab va oliy maktab uchun umumiy bo‘lsa-da, ularga maktabda va oliy maktabda amal qilish farqlidir;
- oliy maktab sharoitida amal qiladigan maxsus tamoyillar ham mavjud.

Shunday qilib, oliy maktab didaktik tamoyillari tizimini yaratishda unga xos bo‘lgan o‘qitishning umumiy qonuniyatlari bilan birga umuman o‘qitish nazariyasining qoidalarini ham hisobga olish zarur.

Oliy maktab amaliyotida qanday didaktik tamoyillar amalga oshiriladi?

Oliy maktabdagi didaktik tamoyillar tizimiga quyidagilar kiradi: ilmiylik, qulaylik, izchillik, uzviylik, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi, onglilik, faollik va mustaqillik, ko‘rgazmalilik, mustahkamlik, guruh qilib o‘qitish va unda individual yondashishni qo‘shib olib borish, o‘qitishning tarbiyalovchi va takomillashtiruvchi xarakteri, o‘qitishning kasbiy yo‘naltirilganligi.

Oliy maktabda o‘qitish shakllari.

Oliy maktabdagi o‘qitish jarayoni o‘qitishning shakl va metodlarini tashkil qilishning ko‘pqirrali yagona tizimi ramkasida amalga oshiriladi.

Oliy maktabdagi o‘qitishning shakl va metodlari yig‘indisi o‘quv jarayonining ob’ektiv qonuniyatlari bilan belgilanadigan yagona didaktik kompleksni tashkil etadi.

Oliy maktabdagi o‘qitishning shakl va metodlari tasnifi o‘zaro bog‘langan va o‘zaro shartlangan ikki faoliyatga tayanadi:

- *o‘quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo‘yicha o‘qituvchilarning faoliyati;*
- *talabalar o‘quv va bilish faoliyati.*

Oliy maktabdagi o‘quv jarayoni shakllariga ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv anjumanlari, maslahatlar,

ekskursiya, ekspeditsiya, o'quv ishlab chiqarish pedagogik amaliyoti, kurs va diplom ishlari, talabalarning mustaqil tahsili.

Ma'ruza – u yoki bu ilmiy masalani to'g'ri, mantiqiy izchillikda va aniq izohlab berish.

S.I. Arxangelskiyning ta'kidlashicha, ma'ruza o'qituvchi shaxsining barcha boyligi: ongi, hissiyoti, irodasi, tuyg'usi, e'tiqodi orqali talabalar ichki dunyosi bilan muloqotda bo'lishining eng samarali, jonli shaklidir. Bunda o'qitishning yo'naltiruv, axborot berish, metodologik va tarbiyalov funksiyalarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Ma'ruzaning **yo'naltiruv funksiyasida** talabalarning diqqati o'quv materialining asosiy qoidalari, uni o'rganishdagi hamda bo'lg'usi kasbiy faoliyatidagi roli va ahamiyati, uni o'zlashtirish metodlariga jalb qilinadi. Ma'ruzaning **axborot berish funksiyasi** o'qituvchi tomonidan asosiy ilmiy faktlar, qoidalar, xulosalarning mohiyatini ochish chog'ida amalga oshiriladi. O'qitishning **metodologik funksiyasini** qo'llash tadqiqot metodlarini qiyoslash, chog'ishtirishga, ilmiy izlanishning tamoyillari va yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi. O'qitishning **tarbiyalov funksiyasi** ma'ruza jarayonida o'quv materialiga hissiy baho berish munosabatlarini uyg'otish, qiziqishlarini o'stirish, mantiqiy fikrlash va isbotlashni oydinlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ma'ruzada hal qilinadigan **asosiy vazifalar** quyidagilardan iborat:

- *ilmiy bilimlarning muayyan miqdori bayon qilinadi;*
- *talabalarga fan va tadqiqotlarning metodologiyasi tanishtiriladi;*
- *o'quv faoliyati va o'quv mashg'ulotlarining barcha turlari orasidagi metodik aloqalar ko'rsatiladi.*

Ma'ruza didaktik maqsadi, o'qitish jarayonidagi o'rni, axborotlarni bayon qilish metodlariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Didaktik maqsadiga (yo'nalganligiga) ko'ra kirish, tematik va umumiy - yakuniy ma'ruzalar farqlanadi.

Kirish (muqaddima) ma'ruzada kurs (bo'lim, mavzu) ning ilm-fan tizimidagi o'rni, ushbu materialni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari, kurs (bo'lim, mavzu) mazmunini o'rganish metodlari ochib beriladi. Bunday ma'ruzaning muhim xususiyati shundaki, unda o'qituvchi asosiy masalaning u yoki bu tomonlarigagina to'xtaladi, bu masalalar keyinchalik albatta detalma-detal yoritib beriladi.

Tematik ma'ruzalar ayniqsa keng tarqalgan. Bunday ma'ruza u yoki bu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, unda faktlar, ularning tahlillari, xulosalar mazmuni bayon qilinadi va konkret ilmiy qoidalar isbotlanadi.

Umumiy-yakuniy ma'ruza avval o'rganilgan materiallarni qaytadan umumlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Uning mazmuni avval bayon qilingan mazmunga o'xshamaydi, balki talabalar tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarni yuksak abstraksiyalash bosqichida tizimga tushiriladi. Bunday ma'ruzalar talabalar bilimining chuqurlashishida va o'quv fani metodologiyasini yaxshi tasavvur qilishda alohida ahamiyatga molik bo'ladi.

Axborotlarning bayon qilinishga ko'ra *ma'ruzalar dogmatik, axborot va namoyish qilish va muammoli* ma'ruzalardan iborat bo'ladi, lekin shuni ta'kidlash joizki, har bir ma'ruzaning o'ziga xos xususiyatlarini qayd qilgan holda, ulardagi umumiy jihatlarni ham farqlash lozim, chunki ma'ruza o'qish va uni loyihalash jarayonida ularni amalga oshirmasdan bo'lmaydi, ular quyidagilar:

- ilmiylik;
- qulaylik;
- kasbiy yo'naltirilganlik;
- oqibatli aloqani amalga oshirish.

Oliy maktab o'qitish tizimiga ma'ruza bilan birgalikda **amaliy** (mashq, seminar va laboratoriya) mashg'ulot turi ham kiradiki, ular: ta'limiy, tarbiyalov va nazariyani amaliyot bilan bog'lash funksiyalarini bajaradi.

“Amaliy mashg'ulot” termini pedagogikaga oid adabiyotlarda ham keng, ham tor ma'noda izohlanadi. “Amaliy mashg'ulot” termini keng ma'noda mashq, seminar (ularning barcha turlari) va laboratoriya mashg'ulotlarini umumlashtiradi.

Amaliy mashg'ulotlarning ma'ruzadan farqlanadigan asosiy me'yorlaridan biri o'quv jarayoni qatnashchilarining birgalikdagi harakatlarida o'ziga xos xarakterdadir. Ular vazifalariga ko'ra ham farqlanadi. Agar ma'ruzada ilmiy bilimlar asosi bayon qilinadigan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlarda bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va detallashtiriladi. Eng muhimi, amaliy mashg'ulotlar talabalar bilimini sinashga ham xizmat qiladi.

Amaliy mashg'ulot shakllaridan biri **seminar**dir. Seminar mashg'ulotlari quyidagi vazifalarni echishga qaratilgan bo'ladi:

- ma'ruzada bayon qilingan nazariy qoidalarni mustahkamlash;
- fan bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
- talabalarning ilmiy-tadqiqot, bilish qobiliyatlarini o'stirish;
- nazariy o'qitish jarayonida egallagan bilimlarining amaliyotda tan olinishi.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida seminar mashg'ulotlarining uch turi farqlanadi: *seminaroldi mashg'uloti, seminar va maxsus seminar*.

Seminaroldi mashg'ulotlari, asosan, talabalarni mustaqil ishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. Unda adabiyotlar, ma'lumotnoma-adabiyotlar va boshqa manbalar bilan ishlash usullari o'rgatiladi, talabalarni boshlang'ich shaklda ilmiy-tadqiqot ishlariga o'tishga hozirlaydi. Seminaroldi mashg'ulotlari seminar mashg'ulotlarining tayyorgarlik shakli hisoblanadi va odatda birinchi kurslarda o'tkaziladi.

Seminaroldi mashg'ulotlarida o'qituvchi etakchilik qiladi, chunki talabalar muayyan ixtisoslik bo'yicha o'quv ishlariga kam e'tibor beradilar, shuning uchun ham etarli darajada tashabbus ko'rsata olmaydilar.

Seminar mashg'ulotlarida seminaroldi mashg'ulotlariga nisbatan o'ta muhim vazifalar hal qilinadi. Masalan, ayrim seminarlar tematik bog'langan muayyan muntazam kursni chuqur o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Boshqalari esa biror mavzuni yoki kursning alohida va nihoyatda muhim va umumiy bo'lgan mavzularini metodologik jihatdan ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'ladi.

Maxsus seminarlar ma'ruza mavzulariga aloqador bo'lmaydi va biror fanning dasturi mazmuniga kirmaydi. Odatda fanning xususiy masalalarini chuqur o'rganish maqsadida ko'zlaydi.

Seminar mashg'ulotlari davomida o'qituvchi va talaba o'rtasida zich aloqa, ya'ni ular o'rtasida ikki tomonlama aloqa o'rnatiladi. Bu esa tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'ladi: o'qituvchi talabalar bilan uzoq vaqt yaqin aloqada bo'ladi, ma'ruza guruhlariga nisbatan talabalarning kichik guruhlarida jonli suhbat olib boradi, o'zaro fikr almashadi, turlicha qarashlarini ifoda etadi.

Seminar jarayonida o'qituvchining o'rnini juda yuksak, ya'ni o'qituvchi talabaning o'rniga javobni aytib bermaydi, balki muhokamalarni tashkil etadi, unga derijerlik qiladi.

Seminarida o'qituvchining kirish so'zi konkret sharoitga qarab talabani muammoga jalb qiladi, hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar doirasidagi savollar bo'yicha aniqliklar kiritadi, ba'zan esa oldingi mashg'ulotlardagi fikrlar esga tushiriladi. Shu tariqa seminardagi kirish so'z aniq, keng qamrovli va qisqa bo'lishi lozim.

Talabalarning ma'ruzalari bo'yicha izohlar quyidagicha bo'lishi kerak:

- mustaqil fikrlashga yo'naltirib turish;
- tavsiya etilayotgan masalaning mohiyati va shaklini aniqlash;
- talabalar bahsidagi nuqtai nazarlarni darrov farqlab olish;
- masalaning nostandart hal qilinishini rag'batlantirish.

Bunday izohlarda o'qituvchi muhokama jarayonida befarq turmayotganligini, har bir seminar ishtirokchisining bildirgan nuqtai nazariga e'tibor berayotganligini namoyon qilib turishi lozim.

O'qituvchi har bir seminar mashg'ulotiga yakun yasaydi, unda quyidagilar e'tiborga olinadi:

- zamonaviy fan erishgan muammo muhokamasining holati umumiy darajasiga tavsif berish;
- ayrim talabalarning chiqishlarini tahlil qilish va baholash;

- mashgʻulotga umumiy baho berish (talabaning faolligi, uning tayyorgarlik va oʻsish darajasi, madaniyati va fikrlashdagi xususiyatlari).

Taʼkidlash joizki, seminar mashgʻulotlarida talabalarni faollashtirish, ular tomonidan referatlar yozish, ularni muhokama qilish va taqrizdan oʻtkazishga olib keladi.

Laboratoriya mashgʻulotlari. Laboratoriya mashgʻulotlarining asosiy tavsifi shundaki, unda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki eksperiment oʻtkazadilar.

Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida laboratoriya ishlari talabaga nazariy bilimlarni qoʻllash mexanizmini chuqur va koʻrgazmali oʻrganish imkonini beradi. Laboratoriya mashgʻulotlari talabada tadqiqot oʻtkazish koʻnikmalarini shakllantiradi, fan va texnikaga ijodiy yondashishni taʼminlaydi, eksperimentning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi.

Laboratoriya mashgʻulotlarini oʻtkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- laboratoriya mashgʻulotlarini rejalashtira olish va oʻtkaza olish;
- laboratoriya mashgʻulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- fan va ishlab chiqarish boʻyicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uygʻotish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qoʻlga kiritish imkoniyatini taʼminlash;
- talabani nazariy jihatdan tayyorlash;
- laboratoriya mashgʻulotlari nafaqat konkret mavzu boʻyicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

Mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurishda, oʻquv-tarbiya jarayonining ahamiyatini oshirishda **talabalarning mustaqil ishlari** muhim oʻrin egallaydi. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, mustaqil ishlar deganda shunday oʻquv faoliyati tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, koʻnikmalar shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi taʼminlanadi. Bu esa amaliyotda xususiy-didaktik maqsadlarga bogʻliq ravishda 4 ta mustaqil ish tipida amalga oshadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining birinchi tipi – bu sirtidan qaraganda faoliyatning algoritmi ma'lumotlari va vazifalar sharoitidan iborat, ya'ni dastlabki bilimlarning (bilimlarning birinchi bosqichi) shakllanishi omillari asosida talabalarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlashdir. Bu maqsadga etish uchun talabalar tomonidan idrok qilinadigan vazifalarni echish zarurligi ko'zda tutiladi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining ikkinchi tipi. Bunda o'zlashtirilgan axborotlar xotirada qayta ishlashga va tipik vazifalarni, ya'ni bilimlarning ikkinchi bosqichini bajarishga qaratilgan bilimlar shakllanadi.

Bu maqsadga idrok qilinadigan masalalarni echish chog'ida talabalardan yo tanlab olingan faktlarni tavsiflash asosida ob'ektlar va hodisalarni aniq bayon qilish yoki o'rganilayotgan ob'ekt va hodisalardagi o'zgarishlarning sababini asoslash va uni ifodalash orqali etish mumkin. Unisini ham, bunisini ham talabalar avval egallagan va shakllangan bilimlar tizimini to'g'ri jalb qila olishi va faollashtira olishi asosida bajarishi lozim. Talabalarning bilish (idrok qilish) faoliyati avval o'zlashtirilgan o'quv axborotining mazmuni va tuzilmasini qayta ishlash, qisman qayta loyihalash va yangilashdan iborat bo'ladi. Bunday qayta loyihalash va yangilash tavsif qilinayotgan ob'ektni tahlil qilish, vazifani turli yo'llar bilan bajarish, ulardan eng to'g'ri yoki mantiqiy izchilligini topish kabi echish usullarini tanlash zarurligini keltirib chiqaradi.

Mustaqil ishlarning ikkinchi tipi barcha turlarining umumiy tavsifnomasi shundaki, bunday ishlarda vazifalarning hal qilinish g'oyasi (tamoyili) e'lon qilinadi va talabalardan ushbu g'oyani (tamoyilni) rivojlantirib, konkret sharoitga tatbiq etish usul va usullari talab qilinadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining uchinchi tipi talabalarda uchinchi bosqich – tipik bo'lmagan vazifalarni echish (bajarish) chog'ida shakllanadigan bilimlardan iboratdir.

Bu maqsadga talabalardan o'rganilayotgan ob'ektdagi o'zgarishlar sabablarining algoritm asoslarini tuzishni talab qiladigan bilish (idrok qilish) masalalarini echish jarayonida erishish mumkin.

Mustaqil ishlarning uchinchi tipini bajarishdagi bilish faoliyati umuman olganda bilim, malaka va ko'nikmalarni ko'chirishni amalga oshirish yo'li bilan avval o'zlashtirilgan va qolipga tushgan (muayyan algoritm harakatlari tajribasi) tajriba asosida yangi faoliyat tajribasini to'plash va namoyon qilishdan iborat bo'ladi. Bu tipdagi ishlar vazifasining mohiyati izlanish, echimlar g'oyasini ifoda qilish, amalga oshirishdan iboratdir. Bu qolipga tushgan tajribalar doirasidan doimo chetga chiqadi va fikrlashning jonli jarayonida talabalardan topshiriqlarni avval o'zlashtirilgan o'quv axborotlari, ularga yangi nuqtai nazardan yondashish (muayyan topshiriqlar talablari nuqtai nazardan) asosida turlanadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining to'rtinchi tipi ijodiy faoliyatga omillar yaratishdir.

Bunday ishlarni bajarishdagi talabalarning bilish faolligi shundan iboratki, bunda talabalar muhokama qilinayotgan ob'ekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradi, zarur bo'lgan yangi, oldindan noma'lum bo'lgan g'oyalarni topish va yangi axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur bo'lgan yangi aloqalar va munosabatlarni o'rnatadi. Bunda talaba vazifalarni bajarishning har bir bosqichida o'zi yaratishi lozim bo'lgan, uning uchun yangi bo'lgan harakatlar mohiyati, u yoki bu axborot xarakteri ustida bosh qotirishga majbur bo'ladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilinadi:

- namunalar bo'yicha mustaqil ishlar;
- rekonstruktiv-variativ;
- evristik (qisman, ijodiy);
- ijodiy tadqiqot.

Namunalar bo'yicha mustaqil ishlar tipik vazifalarni, turli mashqlarni namuna asosida echishdir. Ular materialni o'zlashtirishga omil bo'ladi, lekin talabalarning ijodiy faolligini o'stirmaydi.

Rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlab chiqishni, masala, muammoni echishda mavjud bilimlarni jalb qilishni ko'zda tutadi.

Evristik mustaqil ishlar ma'ruza, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar, seminarlarda qo'yilgan ayrim masala, muammolarni hal qilish bilan bog'liqdir.

Tadqiqiy mustaqil ishlar tadqiqot muammosini ko'ra olish malakasini, uni mustaqil ifodalay olish, gipotezani belgilab olish, muammoning hal qilinish rejasini ishlab chiqish, uni hal qilishni mo'ljallaydi.

Ijodiy tadqiqot ishlari. Bunday ishlarda vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini taqozo qiladigan sharoit yaratishdan iborat bo'ladi. Talaba o'z faoliyatida tayyor namunalardan ozod bo'lgan holda masalaning hal qilinish yo'llarini qidiradi, tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment qo'yish, jihozlar, maketlar va dastgohlarni loyihalash bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

Shunday qilib, mustaqil ishlar o'qitishning eng muhim metodi bo'lib, unda talabalar mashg'ulotlarga tayyorlanish va olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash jarayonida ularning individual faolligi oshadi.

Mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- mustaqil ishlarning ilmiyligi, uning tadqiqiy xarakteri;
- mustaqil ravishda bilimlarini yanada oshirib borishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi;
- mustaqil ishlar vazifalarini individuallashtirish;
- mustaqil ishlarni tashkil etishga metodik rahbarlik qilish.

Oliy maktabdagi o'quv jarayoni **mustaqil tahsilni** tashkil etilishini ham ko'zda tutadi. Talabalarning mustaqil tahsili ularning o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o'zlashtirishga bo'lgan intilishi sifatida qaraladi.

Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi talabalarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'zlashtirishdir.

Mustaqil tahsilning vazifalari: shaxsning intellektual imkoniyatlarini yangilash, ularning g'oyaviy-nazariy saviyasini oshirish, kasbiy mahorati va madaniyatini takomillashtirish.

Oliy maktabdagi o'quv jarayoni mustaqil tahsilga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi va talabalarning o'z-o'zini baholay olishini, ularning tayyorgarligini, yangi bilimlarni egallashga bo'lgan ongli munosabatini aniqlab berishi kerak. Mustaqil tahsil bo'yicha mashg'ulotlarning izchilligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida uning rejasi tuziladi.

Rejaga quyidagi talablar qo'yiladi:

- rejalashtirilayotgan ishlarning hajmi va oldinma-ketinligi;
- ularning bajarilish muddatlari;
- mustaqil faoliyatning har bir turiga *maqsadli ko'rsatmalar berish*.

Mustaqil tahsil jarayoni uning konkret shakli, metodlari va usullarini qamrab olishi shart.

Mustaqil tahsilning asosiy metodi **adabiyotlar ustida individual ishlash**dir. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim axborotni topish, unga to'g'ri baho berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Qo'lga kiritilgan axborotlar asosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu metoddan foydalanish amaliy faoliyatida zarur bo'ladigan sifat ko'rsatkichlarini ta'minlaydi.

Shuningdek, mustaqil tahsilga amaliy ahamiyatga molik bo'lgan vazifalarni bajarish va audiovizual uskunalar bilan ishlash ham kiradi.

Mustaqil tahsilning muhim metodlaridan biri ularning **muloqotidir**. Mustaqil tahsilning provard maqsadi talabalarni ijodiy izlanishga, o'zi ustida ishlash, har tomonlama tadqiqot yuritishning mohiyatini anglashga tortishdir.

Oliy maktabda o'qitish metodlari.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda o'qitish metodlariga katta ahamiyat beriladi. Didaktika bilan shug'ullanuvchilar metodni o'quv jarayonining o'zagi, ko'zlangan maqsad va provard natijani bog'lovchi vosita deb izohlaydilar.

O'qitish metodi «o'qitishning maqsadi – mazmuni – metodi – shakli – usullari» tizimida muhim o'rin egallaydi

Metod deganda ta'limda maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo'llari, usullari tushuniladi. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. **Usul** –

metodning unsuri bo'lib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llanadi va alohida qadam hisoblanadi.

O'qitish metodi – murakkab, ko'p qirrali, ko'p sifatlarga ega bo'lgan ta'limdir.

O'qitish metodida o'qitishning ob'ektiv qonuniyatlari, maqsadlari, mazmuni, tamoyillari, shakllari o'z aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga dialektik bog'liq va biri ikkinchilarini taqozo qiladi, ya'ni o'qitishning maqsadi, mazmuni, shakli hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga aks ta'sir ko'rsatadi.

Metodlar tuzilmasida *ob'ektiv va sub'ektiv jihatlar* ajralib turadi.

Metodlarning **ob'ektiv jihatlarida** barcha didaktik qoidalar, qonunlar va qonuniyatlar, tamoyillar va ta'riflar, shuningdek, mazmun butunligining doimiy komponentlari, o'quv faoliyatining shakllariga xos bo'lgan umumiy jihatlar aks etadi.

Metodlarning **sub'ektiv jihati** pedagog shaxsi, ta'lim oluvchilarning o'ziga xosligiga va konkret sharoitga bog'liq bo'ladi.

O'qitish metodlarining ko'p o'lchovlilikligi ularning ko'plab tasnifini keltirib chiqardi.

O'qitish metodlari tasnifi - bu muayyan belgilar asosida tartibga solingan tizimdir.

Didaktik tadqiqotlar o'qitishni dialektik jarayon sifatida o'rganadi. Bunga ko'ra o'qitish metodlari tizimi dinamikada, harakatda, ta'lim mazmunida yuz berayotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olingan holda deb qaraladi.

Eng asoslangan o'qitish metodlari tasniflariga quyidagilar kiradi:

1. An'anaviy metodlar. Bu metodlarning ibtidosini ilk falsafiy va pedagogik tizimlar tashkil etadi. Hozirgi davrda ulardan beshtasi inobatga olinadi: *amaliy, ko'rgazmali, ifodali, kitob bilan ishlash, video metodlar*.

2. Maqsadiga ko'ra metodlar tasnifi: (M.A. Danilov, B.P. Esinov)

- bilimlarni egallash;
- malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;

- bilimlarni qo‘llash;
- ijodiy faoliyat;
- mustahkamlash metodlari;
- bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish metodlari.

3. Idrok etish - Bilish faoliyati xarakteriga ko‘ra metodlar tasnifi:

- *tushuntirish – illyustrativ (axborot – retseptiv)*. Ularning xarakterli xususiyatlari; bilimlar “tayyor holda” tavsiya etiladi; bu bilimlarni idrok qilish tashkil etiladi; bilimlar idrok (retsepsiya) qilinadi va tushunib olinadi, xotiraga joylashtiriladi;

- *reproduktiv metod*: bilimlar tayyor holda tavsiya etiladi, bilim nafaqat bayon qilinadi, balki tushuntiriladi; bilimlar ongli o‘zlashtiriladi, ularning tushunilishi va eslab qolinishiga erishiladi, bilimlarning mustahkamligi tez-tez takrorlash yo‘li bilan ta‘minlanadi.

- *muammoli bayon qilish metodi*;

- *qisman ijodiy (evristik) metod*. Bilim tayyor holda tavsiya etilmaydi, balki u mustaqil ravishda egallanadi; yangi bilimlarni qidirish, izlash tashkil etiladi; bilish vazifalari bo‘yicha mustaqil fikr yuritiladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi va hal qilinadi;

- *tadqiqiy metod*. Bunda muammo belgilab olinadi, muammoning tadqiqoti jarayonida bilim egallanadi.

4. Didaktik maqsadi bo‘yicha (T.I. SHukina, I.T. Ogorodnikov i dr.) quyidagilar farqlanadi:

- ilk bor bilimlarni o‘zlashtirish metodlari;
- egallangan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish metodlari.

5. O‘qitish metodlarining binar (qo‘sh) va polinar (ko‘pqirrali) tasnifi.

M.I. Mahmutovning binar tizimi *dars berish metodi* va o‘rgatish metodi majmuidan iborat (1 - jadval).

O‘qitish metodlari (M.I. Mahmutov)

(1- jadval)

Dars berish metodi	O‘rganish metodi
Axborot berish – bayon qilish	Ijro etish
Tushuntirish	Reproduktiv
Ko‘rsatma berish – amaliy	Produktiv – amaliy
Tushuntirish – ishontirish	Qisman ijodiy
Ishontirish	Ijodiy

O‘qitishning polinar tasnifi V.F. Palamarchuk va V.I. Palamarchuk tomonidan ishlab chiqilgan. Bu tasnif bilimlar manbai, bilish faolligi darajasi, o‘quv bilimlarining mantiqiy yo‘llari yig‘indisidan tarkib topadi. Didaktika bo‘yicha nemis mutaxassisi L. Klinberg tasnifida metodlarni o‘qitishdagi hamkorlik shakllari bilan birga olib qaraydi. (2- jadval).

O‘qitish metodlari (L. Klinberg)

(2- jadval)

Monologik metodlar	Hamkorlik shakllari	Dialogik metodlar
Ma’ruza	Individual	Suhbat
Hikoya	Guruh	
namoyish qilish	Frontal	
	Kollektiv	

Akademik Yu.K. Babanskiy o‘qitish metodlarining uch guruhini belgilaydi:

- o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari

(3 - jadval)

- o‘quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va stimullash metodlari (4 - jadval)

- o‘quv-bilish faoliyatining samaradorligini nazorat qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish (5 - jadval).

O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari

3 – jadval

Ifodali Ko'rgazmali Amaliy	Induktiv va deduktiv	Reproduktiv va muammoli – ijodiy	O'qituvchi rahbarligida mustaqil ish metodlari
Manbalari	Mantiq	Tafakkur	Boshqaruv

O'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va stimullash metodlari

4 – jadval

O'rganishga qiziqish uyg'otishni stimullash va motivatsiyalash metodlari	O'rganishda burch va mas'uliyatni stimullash va motivatsiyalash metodlari
---	--

O'quv-bilish faoliyatini samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish

5 – jadval

Og'zaki nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari	Yozma nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish	O'z-o'zini nazorat qilishning laboratoriya- amaliy metodlari
---	--	--

Didaktikada ishlab chiqilgan funksional yondashuv metodlar tizimini yaratish uchun asos bo'lgan bo'lib, unda metodlar didaktik maqsadlarga erishishning nisbatan alohida yo'llari va usullari sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, tarixiy meros, pedagogik hayot, chet el va o'z tadqiqotchilarimizning ilmiy mahsulotlari o'qitishning quyidagi metodlarini belgilash mumkinligini ko'rsatadi: (6 - jadval).

O'qitish metodlari va ularning funksiyalari

(6 - jadval)

O'qitish metodlari	Funksiyalar bajarilishiga yaroqli nazariy mezonlar				
	O'qituv	Takomill ashib borish	Tarbiya- lov	Ishon- tirish	Nazorat qilish va tuzatish
Bayon qilish	+++++	+++++	+++++	+++++	++
Suhbat	+++++	+++++	+++++	+++++	++

Ma'ruza	+++++	+++++	++++	+++++	+
Munozara	+++	+++++	+++++	+++++	++++
Kitob bilan ishlash	+++++	+++++	+++++	+++++	+++++
Namoyish qilish	+++++	+++++	+++++	+++++	++
Illyustratsiya	+++++	+++++	+++++	+++++	++
Video metodi	++++	++++	+++++	+++	+++++
Mashq	+++++	+++++	+++++	+++++	+++++
Laboratoriya metodi	+++++	+++++	++++	+++++	+++
Amaliy metod	+++++	+++++	+++++	++++	+++
Bilish (idrok qilish) o'yinlari	++++	+++++	+++++	+++++	++++
Programmalashtirilgan o'qitish metodlari	+++++	+++	+++	++++	+++++
O'rgatuvchi nazorat	++	++	++	+++++	+++++
Vaziyat metodi	++++	+++++	+++++	+++++	+++

Oliy maktabdagi o'qitish metodlari muammosi ko'p sonli tadqiqotlarning mavjudligiga qaramasdan hali to'la hal etilganicha yo'q. Bu o'qitish metodlarining dialektikligi, oliy maktabdagi ta'lim mazmunining takomillashuvi, ilmiy-texnik taraqqiyotning o'sib borishi bilan izohlanadi.

Oliy maktabdagi o'qitish metodlari muammosini hal qilishdan avval oliy maktabdagi o'qitish metodlarining o'ziga xosligini asoslash o'rinli bo'ladi. I.T. Ogorodnikov o'z tadqiqotlarida oliy maktabdagi o'qitish metodlarining o'ziga xosligi deganda uning ilm o'rganish metodlari bilan yaqinlashuvida deb biladi. S.I. Arxangelskiyning fikricha, oliy maktabdagi o'qitish metodlari nafaqat dars berish usullari va uslublarini birlashtiradi, balki bilishning o'quv va ilmiy faoliyatga yo'naltirilgan tizimi ekanligini qayd qiladi. SHunday qilib, oliy maktabdagi o'qitish metodlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Endi shunday savol tug'iladi: Oliy maktab metodlari maktab metodlaridan qay jihatlar bilan farqlanadi?

Maktabda fan asoslari o'rganiladi, umumiy ta'lim beriladi. Oliy maktabda talaba zamonaviy fanni o'rganadi va ixtisoslik bo'yicha ta'lim oladi. SHuning uchun ham oliy maktab metodlari bilimlarni etkazish va anglashning usullarigina

emas, balki fan taraqqiyoti jarayoniga tobora kirib borish, uning metodologik va g'oyaviy asosini ochish metodi hamdir.

Oliy maktabdagi o'qitish metodlarini asoslashda didaktika bilan shug'ullanuvchi olimlar oliy maktabdagi o'quv jarayonining xususiyatlari va talabalarning bilish faoliyatini qamrab oladilar, talabalarning kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi masalalariga katta ahamiyat beradilar. Talabalarning faol ijodiy bilish faoliyati, ularning mustaqil ishlaridan iborat oliy maktab jarayoni ikki guruh o'qitish metodlarining farqlanishini taqozo qiladi: *o'qitish metodlari va o'rganish metodlari*.

O'qitish metodlari bilimlarni berish usullari sifatida qaraladi va talabalarning ilmiy bilish faoliyatiga rahbarlik qilishga qaratilgan bo'ladi hamda o'quv jarayonida olim pedagogning talabalarga ta'sir ko'rsatishini shakllantiradi.

O'rganish metodlari bilim, malaka va ko'nikmalarni ijodiy egallashga hamda metodik va g'oyaviy-siyosiy e'tiqodlarni ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida belgilanadi.

Oliy maktabdagi ta'lim xususiyati o'quv jarayonini tashkil etishda ko'rinadi. Maktab ta'limi metodlarni belgilash va o'qitish shakllarini tashkil qilishni tavsiya etadi, oliy maktabda esa o'qitish metodlari va shakllari qo'shib ketadi, ya'ni oliy maktabdagi dars berish metodi ayni zamonda o'qitishning tashkiliy shakli ham hisoblanadi. Oliy maktabdagi o'qitish metodlari o'ziga qo'shimcha yuklanma – mashg'ulotni tashkil etishni ham oladi.

Oliy maktabdagi o'qitish metodlari tasnifi masalasi o'zining dolzarbligini saqlab qoladi. Oliy maktabdagi o'qitish metodlari tasnifining didaktik yondashuvlari umumdidaktik yondashuvlarga monelik qilmaydi, balki ularni rivojlantiradi. Ular oliy maktabdagi o'quv jarayonining xususiyatlari, ularning didaktik vazifalari xarakteriga asoslanadi.

Oliy maktabda o'qitish va o'rganish metodlari quyidagi guruhlardan iborat keng tarqalgan tasniflarga borib taqaladi.

1. Bilimlarni berish, idrok etish va o'zlashtirish, e'tiqodni shakllantirishni ta'minlovchi metodlar. Metodlarning bu guruhiga ma'ruza, talabalarning mustaqil

ishlari, mustaqil tahsil olish bo'yicha ishlar, ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatish, maslahatlar, ko'rsatma berish, ommaviy axborot, programmalashtirilgan materiallarni idrok etish va boshqalar kiradi.

2. Bilimlarni tatbiq etish va mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, e'tiqodni chuqurlashtirish metodlari. Bu guruhga seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, nazorat ishlarini bajarish, programmalashtirilgan o'qituv kabinetlaridagi mashg'ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti kiradi.

3. Bilimlar, e'tiqodlarning shakllantirish, talabalarning kasbiy tayyorgarligini aniqlash metodlari. Bu o'quv jarayonining reyting baholari, kollokviumlar, suhbat o'tkazish, kurs va diplom ishlarini loyihalari va davlat attestatsiyasi natijalarini baholashdir.

Bu tasnif konkret materiallar imkoniyatlarini belgilovchi eng muhim sifatlari asosiga qurilgan.

Birinchi guruhdagi shunday sifatlarga bilimlarni **idrok qilish** va **o'zlashtirish**, ikkinchi guruhga – **tatbiq etish va mustahkamlash**, uchinchi guruhga – **attestatsiya va bilimlarni aniqlash** taalluqlidir.

Oliy maktabdagi o'qitish metodlari tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- *metodlar tizimi ta'limiy funksiyaga ega bo'lishi lozim.* Bu didaktik maqsadlar va o'qitish vazifalariga erishishning eng qulay usulidir;

- *metodlar tizimi tarbiyalov-takomillashuv funksiyasiga ega bo'lishi lozim.* Bunda talabalarning mustaqil ishlari, vazifalari, ularning ishga ijodiy yondashuvi hal qilinadi, talabalarning shaxsiy sifatlari, bilim, malaka va ko'nikmalar egallashga bo'lgan ehtiyojlari shakllanadi, ularning diqqati, irodasi, hissiyoti, xotirasi, tafakkuri o'sadi.

Eng jiddiy didaktik muammolardan biri - **ta'lim metodlarini tanlash nimaga bog'liq** degan masaladir.

Didaktikaga oid adabiyotlarda o'qitish metodlarining quyidagi bog'liqliklari qayd qilinadi:

- birinchidan, o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog'liq;

- ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning xarakteriga bog‘liq;
- uchinchidan, ta’lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog‘liq;
- to‘rtinchidan, o‘quv jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog‘liq;
- beshinchidan, oliy o‘quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog‘liq;
- oltinchidan, o‘quv jarayonining moddiy-texnik ta’minoti bilan bog‘liq;
- ettinchidan, o‘qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o‘quv jarayonini tashkil etish darajasi, o‘qituvchining hozirgi zamon metodlari bo‘yicha bilimlariga bog‘liq.

Shunday qilib, oliy maktabdagi o‘quv jarayoni o‘qitishning shakl va metodlarida tashkil etiladigan ko‘pqirrali yaxlit tizim doirasida amalga oshiriladi. Bunda har bir shakl o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to‘plami yagona didaktik majmuani (kompleksni) hosil qiladi. Didaktik majmuaning amalga oshirilishi o‘quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta’limni isloh qilishning dolzarb vazifasi talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini jonlantirish, o‘quv jarayoniga yangi texnologiyalarni tatbiq etishga xizmat qiladigan o‘qitishning shakl va metodlarini takomillashtirishdan iboratdir.

3.4. Bilish faoliyati to‘g‘risida sharq mutafakkirlarining ilmiy-pedagogik qarashlari

Oliy maktab ta’lim mazmunini qayta qurish, mutaxassislar tayyorlashning yangi, samarali shakllarini izlab topish bevosita talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish bilan bog‘langandir.

Hozirgi davrda talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish muammosi o‘z mohiyatiga ko‘ra falsafa, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, xususiy metodika fanlari vakillarining dolzarb ilmiy-tadqiqot ob’ekti bo‘lib qolmoqda.

Biroq bu muammoni o‘rta asr qomusiy olimlarining qarashlari, ta’limotini o‘rganmasdan turib to‘la yoritish mumkin emas. O‘zbek olimi X.X. Tlashevning

tadqiqotlarida oʻrta asr olimlarining didaktik qarashlari umulashtirilgan holda tahlil qilib berilgan. Xorazmiy, Kindiy, Farobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom va ularning boshqa zamondoshlari va ular halaflarining ilmiy dunyoqarashi, bilimlar manbai va obʻekti tahlilidan ayon boʻladi. Bilish jarayoni qanday bosqichlardan tashkil topgan, bilish va amaliy faoliyat oʻrtasida qanday munosabatlar mavjudligi ularni qiziqtirib kelgan.

Shu maʼnoda sharq mutafakkirlarining asarlari alohida qiziqish uygʻotadi, jumladan Al-Xorazmiy, Muhammad ibn Musaning matematikaga oid risolasi, Al-Kindiyning “Arastuning kitoblari miqdori va yana falsafani oʻzlashtirish uchun nima zarurligi haqida risola”si, “Dastlabki falsafa toʻgʻrisida”, “Besh mohiyat toʻgʻrisida kitob”, “Paydo boʻlish va yoʻq boʻlishning yaqin tasvirlari izohi”, Al-Farobiyning “Aql maʼnolari toʻgʻrisida”, “Fozil odamlar shahri”, “Baxt-saodatga erishuv toʻgʻrisida”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Almagestr Ptolomeyga izoh”, “Ixso-ul-ulum”, Ibn Sinoning “Kitob ash ishorat va at tanbiqot”, “Donishnoma” (mutlaq baxt ham, mutlaq baxtiqarolik ham yoʻq), “Hay ibn YAqzon” va boshqa asarlarida, Abu Rayhon Beruniy “Masʼud qonuni”, “Dorivor oʻsimliklar haqida kitob”, “Saydana”, “Munajjimlik sanʼatidan boshlangʻich tushunchalar”, “Yodgorliklar”, Abdurahmon Jomiy “Musiqqa” risolasi, Alisher Navoiyning “Mahbubul qulub” kabi asarlarga katta qiziqish uygʻotadi.

Xorazmiy bilish faoliyati nazariyasiga ulkan hissa qoʻshgan. U bilishning tajriba-kuzatuv va eksperiment metodiga asos solgan. Xorazmiy tomonidan quyidagi umumdidaktik tamoyillar, metodlar va shakllar asoslab berilgan: mustaqillik; ijodiy faollik; kuzatilgan faktlarni va hodisalarni tasvirlash va uni muntazam bayon qilish; tajriba-kuzatuv; eksperiment metodi; induksiya va deduksiya aspektida yakkalik va umumiylik birligi tamoyili; oʻqitishning savol-javob shakli.

Xorazmiyning salafi Al-Kindiy mohiyatni barcha nazariy bilimlarning bosh mavzusi sifatida qaraydi. U avvalo miqdor va sifatni hissiy idrok qilish zarurligini taʼkidlaydi.

Kindiy ilmiy bilishning uch pog'onali konsepsiyasini ilgari suradi: tabiiy fanlar, mantiq va matematikadan bilimlar metafizika muammosiga olib keladi. Kindiy o'z falsafiy qarashlarini asoslashda ilmiy bilishni diniy bilimlarga qarama-qarshi qo'ygan holda matematika va tabiiy fanlarga alohida ahamiyat beradi. Kindiy inson bilimlari hissiy va aqliy bilimlarga bo'linadi deb hisoblaydi. Uningcha, hissiy bilimlar o'z predmeti bilan bog'langan bo'lib, uning ob'ekti inson tanasi va barcha materiallardir. U ta'kidlaydiki, agar hissiy bilimlar yakka bilimlardan iborat bo'lsa, aqliy bilimlar umumiy bilimlardir. Kindiy fikricha, haqqoniylikni bilish va o'zining xatti-harakatlarini haqqoniylik bilan muvofiqlashtirishda kishi ongidagi uning sabablarini aniqlash kaliti yordam ko'rsatadi.

U shunday yozadi: "Sababini topgan holatdagina biz haqiqatning tagiga eta olamiz. Har qanday narsaning mohiyatini anglash esa haqiqatni bilish uchun zarurdir, negaki mavjud narsalarning barchasi haqiqatdan iboratdir. Haqiqatni idrok etsa bo'ladi, binobarin mavjud narsalarni hammasini anglamoq mumkin".

Bilish jarayoniga Farobiy alohida ahamiyat beradi. U o'zining "Aql ma'nolari to'g'risida", "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" asarlarida insonlarning bilimga bo'lgan intilishlarini har tomonlama keng yoritishga harakat qiladi. U shunday yozadi: "Kishi biror buyum haqida bilishni istasa, uning qandaydir bir holatini biladi, ongini o'sha predmet shaklidagi bilimga yo'naltiradi. Bu o'zi intilgan haqiqatni qidirish demakdir".

Farobiyning ilmiy g'oyalarini umumlashtirgan holda X.X. Tlashev uning bilish to'g'risidagi nazariy asoslarga bag'ishlangan ishlari, xususan, mantiq fanida bilish jarayoni va bilish shakllari, birinchi marta uning mohiyati ochib berilganini ta'kidlaydi. Bu jarayonlar mantiqda unga rioya qilish tafakkurni takomillashtirish va murakkab bilish jarayonida qo'pol xatolarning oldini olish qonunlari sifatida aks etadi.

Farobiy fikrlash faoliyatini jonlantirishning didaktik tamoyillari va metodlarini asoslab berdi. Unga o'qitishning amaliy yo'nalganligi; nazariy bilimlar

uzluksizligi va bilish metodlari; mantiqiylik va uzviylik, hukm metodlari va usullari; induksiya va deduksiya metodlari kiradi.

Farobiyning bilish jarayoni haqidagi qarashlarini Abu Ali ibn Sino ham tasdiqlaydi. Uning tushunishicha, mantiq inson bilimlarining asosi sifatida qoida va me'yorlarni belgilab beradi; insonning bilish faoliyatini jonlantiradi, uning to'g'ri fikrlashini o'stiradi. Farobiy tomonidan ishlab chiqilgan fanlar tasnifi ilmiy bilimlar g'oyasining rivojlanishini ta'minlaydi. U shunday yozadi: "Fanlar tasnifi insonga fanlarni o'zaro qiyoslash, ulardan qaysi birlari zarur, foydali, tugallangan, haqqoniy va kuchli va qaysi birlari u qadar zarur emas va kuchsizroq, shuningdek, o'rganish uchun nimadan boshlash, xususan nimani o'rganish, nima yaroqli, qaysi biri yaroqsiz va qay darajada uni egallashga yordam beradi. Shunday qilib, uning fanga bo'lgan munosabati ko'rlikka, nodonlikka emas, balki bilim va donolikka asoslanadi".

O'rta asr olimlari o'z asarlarida inson faoliyatining ikki turi haqida fikr yuritadilar. Bu mehnat va bilish faoliyatidir. Ular shuni ta'kidlaydilar: "Bilim – bu biluvchining qalbidagi bilinadigan timsoldir. Bilingki, fanni o'qitish va o'zlashtirishsiz bilim bo'lmaydi. O'qitish – bu qalbdan chiqadigan, qalb uchun dolzarb, ichki bilishga asoslangan e'tiqod. Bilimlarni o'zlashtirish – bu bilim shakllarini qalbdan idrok etishdir. Bilingki, qalb bilish predmetlari shakllarini uch tomonlama qabul qiladi: birinchidan, his qilish orqali, ikkinchidan, dalillar orqali, uchinchidan, fikr yuritish va mushohada qilish orqali".

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida bilimning foydasi haqida quyidagicha yoziladi: "Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang, aqldan boy bo'lmoqqa sa'y ko'rguzgilki, mol bila boy bo'lg'ondan, aql bila boy bo'lg'on yaxshiroqdur, nedinkim, aql bila mol jam etsa bo'lar, ammo mol bila aql o'rganib bo'lmas. Bilg'il, aql bir moldurki, uni o'g'ri ololmas, u o'tda yonmas, suvga oqmas".

Farobiy o'z asarlarida bilish faoliyatini tashkil etish tavsiyalarini ishlab chiqqan. Unda uch shart belgilanadi:

- muayyan fan asosida yotgan barcha tamoyillarni yaxshi bilish;

- muayyan fan ma'lumotlari, ya'ni hukm chiqarish qoidalarini egallashga aloqador tamoyillar va ma'lumot asosida zarur xulosalar chiqara olish;

- yanglish nazariyalarni inkor eta olish, yolg'ondan haqiqatni ajratib ola bilish va xatolarni tuzata olish uchun boshqa mualliflarning fikrlarini tahlil qila olish.

Beruniy bilish ob'ektiga bo'lgan ilmiy-falsafiy va konkret-metodologik yondashuv munosabatlariga muhim ahamiyat qaratish lozimligini uqtiradi.

Beruniy hissiy bilishga alohida diqqat qaratadi. U shunday yozadi: "Bilim sohalari ko'pdur, tobora rivojlanayotgan davr insonlar aql-zakovatining unga qo'shilib borishi bilan ular yanada ko'payadi, uning belgisi insonlarning fanga intilishi, uni e'zozlashi, fan kishilarini e'zozlashdir".

Voqelikning noma'lum tamoyillarini bilish haqida: "Bilinishi lozim bo'lgan barcha hodisalarning yo'li borki, uning vositasida bilimlarga erishish mumkin",- deydi.

Abu Ali ibn Sinoning aql taraqqiyoti bosqichlari haqidagi fikrlari qiziqish uyg'otadi. Unda uchta bosqich belgilanadi: **Birinchi bosqich** – aqliy idrok bo'lib, unda aqliy kategoriyalar tushuniladi. **Ikkinchi bosqich** – ikkitomonlama idrokdir. **Uchinchi bosqich** – fikran idrok qilinadigan bilimlar o'zlashtirib olinganda namoyon bo'ladi.

Umar Hayyom o'z ta'limotida ilmiy bilishga alohida diqqatni jalb qiladi. U shunday deydi: "Aql-zakovat narsa va hodisalarning xususiy tasodiflarini umumlashtirmasa, u haqda tasavvur hosil qila olmaydi, narsa va hodisalardan ajralib qolgan mavhumlikni umuman aks ettirmaydi".

O'rta asrlar qomusiy olimlarining qarashlari tahlilidan shunday xulosa qilish mumkinki, ularning ilmiy dunyoqarashi mavjud tashqi olam va uning kishilar ongida aks etishini tan olishlari tufayli yuzaga kelgan. Ular bilishning manbaini real voqelik deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, inson bilimlarni uni o'rab olgan olamdan oladi va ular (bilimlar) ushbu olamning in'ikosidir.

Yaqin va o'rta sharq qomusiy olimlarining pedagogik qarashlari tahlili bu qarashlarning yaxlitligini, ularning ilmiy bilish, insonga bo'lgan munosabat va

uning amaliy faoliyati shakllanishi va rivojlanish usullari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

3.5. Oliy maktab talabalarining bilish faoliyati

Oliy maktabda mutaxassislar tayyorlash jarayonini faqat muayyan fanlar bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma olish bilan chegaralab bo‘lmaydi. SHu tufayli hozirgi sharoitda o‘quv jarayonini sifat jihatdan jiddiy qayta qurish lozim bo‘ladi. Shu munosabat bilan oliy maktabda talabalarining bilish faoliyatini jonlantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bilish faoliyati masalalari taniqli psixolog va pedagog P.P. Blonskiyning ijodida yoritib berilgan.

P.P. Blonskiy ilk bor pedagogik psixologiyada mantiqiy hukm turlarining shakllanishi (muammoli, oldindan ko‘ra bilish) va xulosa chiqarish planida ta‘lim oluvchining fikrlashini tahlil qilib berdi. U bilish faoliyatini psixologik hodisalar – xotira, iroda, idrok bilan dialektik aloqadorlikda deb qaraydi va xotira nazariyasini shakllantirar ekan, xotiraning fikrlash va nutq bilan ichki aloqasini ochib beradi. P. Blonskiyning o‘rganishga qiziqtirish asosida faollik va mustaqillikka undash, mustaqil faoliyat yuritish, ta‘lim oluvchilarning bilish qobiliyatlarini o‘stirishni tashkil etish to‘g‘risidagi g‘oyalari samarali hisoblanadi.

Bilish faolligi muammosi bo‘yicha L.P. Aristova, M.A. Danilov, B.P. Esipov, I.Ya. Lerner, R.S. Noga, M.N. Skatkin, M.I. Maxmutov, I.T. Ogorodnikov kabi pedagog va psixolog olimlar tadqiqot ishi olib borganlar.

Didaktika va psixologiyaga oid adabiyotlar tahlilidan “bilish” va “O‘qitish” degan tushunchalarni farqlash lozimligi ko‘rinadi.

“Bilish faoliyati” tushunchasi “o‘quv faoliyati” tushunchasidan ancha keng. Bilish faoliyatining mazmuniy tomoni o‘quv dasturlariga asoslangan formal o‘qitish doirasidan chiqadi. Bilish faoliyati inson qurollanishi uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalar shuningdek, unga zarur bo‘lgan ijtimoiy faollik va mohiyatnigina emas, balki bilimlarni mukammallashtirish, takomillashtirish

ehtiyojlari bog‘liq ravishda uni tanlay olish, tashkil eta olish va uni hayotga tatbiq etishni shakllantirishdir.

Pedagogika nazariyasi bilish faoliyatini jonlantirish masalasiga xilma-xil omillar majmui nuqtai nazaridan qaraydi: ijtimoiy omillar (ob‘ektiv va sub‘ektiv shakllarda), sub‘ektda muayyan ma‘naviy ehtiyojning mavjudligi omili.

Talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish uchun ularda quyidagilarni shakllantirish zarur:

- *bilishga tayyorlik;*
- *bilish faoliyatining malaka va ko‘nikmalari;*
- *bilish faoliyatiga ehtiyoj.*

Talabalarda bilish faoliyatiga bo‘lgan barqaror ehtiyojni shakllantirish jarayoni bu faoliyatning psixologik dalillanishiga asoslanadi.

S.A. Rubinshteyn ta’kidlaydiki: “Fe’l-atvordagi barqarorlikka ega bo‘lgan har bir intilish bu bo‘lg‘usi xarakterning qirralaridan biridir, xarakter esa birin-ketin inson xatti-harakatlarida namoyon bo‘lib, unga singishib, shaxsiy xislatga aylanadigan intilishlar majmuidir”.

Bilish faoliyatining faol qo‘zg‘atuvchilari quyidagilardir:

- konkret faoliyatga bevosita, faol qiziqish;
- axloqiy – estetik va ruhiy qoniqish (motivlari).

A.K. Gromsevaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bilish faoliyatini motivatsiyalash o‘smirlik yoshida ongli xarakterga ega bo‘ladi.

Yu.V. Sharov bilish ehtiyojlari rivojlanishining bir necha bosqichlarini ishlab chiqqan:

- elementar ilmiy-tadqiqot faoliyati yo‘nalishi bosqichi va tashqi taassurotlarga ehtiyojni shakllantirish;
- o‘rab olgan olamni bilishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish bosqichi;
- bilish usulini egallash faoliyati sifatida mashq qilish ehtiyojini shakllantirish bosqichi;
- bilish ehtiyojlarini tanlashga yo‘nalganligini shakllantirish bosqichi;
- mustaqil tahsilga bo‘lgan ehtiyojni rivojlantirish bosqichi.

Bilish faoliyatini jonlantirish faqat bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaxshilashgagina emas, balki shaxsning eng muhim sifati bo'lgan faollik va mustaqillikning shakllanishiga ham yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Talabalar oliy o'quv yurtida o'qib turgan vaqtida bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashda barcha turdagi o'quv jarayoniga jalb qilinadilar. Bu davrda ular shaxsining asosiy qiyofalari shakllanadi. Faoliyatining bu shakllarida ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, moyilliklari, hissiyoti, motivlari, shuningdek, umumiy va xususiy qobiliyatlari paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Olimlarning isbotlashlaricha, har qanday faoliyatning tarbiyaviy samaradorligi ko'proq uning tashkil etilish darajasiga bog'liq, qachonki, yosh xususiyatlar faoliyat turlarining galma-galligi, me'yoriyligi amalga oshadi.

Bilish faoliyatini jonlantirishda qiziqish alohida ahamiyatga ega.

O'rganishga bo'lgan qiziqishni olimlar ijobiy, hissiy bo'yoqqa ega bo'lgan, bilim, malaka va ko'nikmalarga bo'lgan alohida munosabat deb baholaydilar.

Bilishga bo'lgan qiziqish – o'qitishdagi o'ziga xos qiziqish turidir.

G.I. Shukina bilishga bo'lgan qiziqishni insonning predmet va atrof-muhit hodisalariga bo'lgan murakkab munosabati va ularning muhim xususiyatlarini har tomonlama, chuqur o'rganish va bilish deb qaraydi.

Bilishga bo'lgan qiziqish saralab olishga yo'naltirilgan va u shaxsning ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Bilishga bo'lgan qiziqish bilish faoliyati mohiyati, fikrlarning ob'ektga bo'lgan betinim yaqinligi bilan bog'langandir.

Bilimga bo'lgan qiziqishning belgilari quyidagilardir:

- intellektual xarakterda bo'lishi;
- ijodiy xarakterda bo'lishi.

Bilimga bo'lgan qiziqishning rivojlanish bosqichlari:

- qiziqsinish – mo'ljalning elementar darajasi – “mo'ljallangan qiziqish”;
- qiziquvchanlik – bilishga bo'lgan ehtiros, quvonch bilan ob'ekt chegarasida kirib borish;

- bilishga bo‘lgan qiziqish – hodisalarning mohiyatiga kirib borishga intilish, haqiqatni qidirish.

- nazariy qiziqish – voqelikka faol ta’sir etish orqali nazariy asoslar, qonuniyatlarni bilishga intilish;

Qiziqishning paydo bo‘lishi va rivojlanishini shartli ravishda quyidagicha sathlarga ajratish mumkin:

- yangi faktlarga, mashg‘ulotlarda olinadigan axborotlarda gavdalanadiga mashg‘ulotlarga bevosita qiziqish, har xil sharoitlarda harakat qiluvchi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini bilishga qiziqish;

- o‘rganishga bo‘lgan barqaror qiziqish. U talabalarga ta’lim berishda muhim xarakterga ega va unda bilishga bo‘lgan qiziqish tashqi omillarga muhtoj hamda u real o‘quv jarayoni shart-sharoiti va usullari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Bilishga bo‘lgan barqaror qiziqishga quyidagilar kiradi:

- intellektual faollik (ko‘rsatkichlari – savol va javob mustaqilligi, jonli faoliyatga o‘z tashabbusi bilan kirishishga intilish);

- malaka va ko‘nikmalardan faol foydalanish, ularning faol aks ta’siri (bilimlar yangi bilimlarni egallash metodlariga aylanadi, aksincha, bilishga bo‘lgan qiziqish o‘zining eng yuqori rivojlanish darajasiga ko‘tariladi);

- hissiyotni namoyish qilish (nafrat, quvonch, bezovta bo‘lish, intellektual holatdagi hissiyot);

- irodani namoyish qilish – jiddiy diqqat qilish, kuchsiz chalg‘ish, o‘quv ishlarini tugallashga intilish;

- o‘z xatti-harakatlarini erkin tanlash – o‘quv mashg‘ulotlaridan boshqa vaqtlarda u yoki bu mashg‘ulotlarni erkin tanlay olish.

Talabalarning bilishga bo‘lgan qiziqishi shakllanishining muhim shartlaridan biri hissiy vaziyat, bilishga bo‘lgan ehtiyoj va ongli fikrlashni rivojlantirishni yaratish bo‘lishi ham mumkin.

Talabalarning bilish faoliyati tuzilmasiga faollik kiritadi, ya’ni bu shunday ish faoliyatiki, unda bilish faoliyatini jonlantiradigan intellektual, irodaviy, hissiy jarayonlar birgalikda namoyon bo‘ladi.

Jonli bilish faoliyati uchun bilimga bo‘lgan har tomonlama, chuqur qiziqish, muayyan kuch sarf qilinishi, diqqat, belgilangan maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan aqliy va jismoniy kuchlar qaratilgan bo‘lishi lozim.

Bilish faolligi individual bo‘ladi, u shaxsning tug‘ma qobiliyati emas, balki uning xatti-xarakatlari jarayonida shakllanadi.

Talabalarning jonli bilish faoliyati uchun quyidagilar xosdir:

- bilimga va o‘quv maqsadlariga bo‘lgan chuqur, har tomonlama qiziqish;
- aqliy, jismoniy va intellektual kuchlarni faol namoyon qilish;
- diqqat, xotira, iroda va boshqa ruhiy sifatlarni to‘plash.

Bilish faolligi jarayonida quyidagi 4 sath ajratiladi:

- reproduktiv faollik. Bunda “tayyor bilimlar”ni egallashga tayyorlik, qizg‘in qayta ishlash faoliyati amal qiladi;

- applikativ faollik – unga qizg‘in tanlov-yaratish faoliyatiga tayyorlik xarakterlidir;

- izohlashdagi faollik – ma’no-mazmunni qizg‘in izohlash, tushuntirish va ochib berishga tayyorlik;

- produktiv (samarali) faollik – unga yangilikni qizg‘in ijod qilishga tayyorlik xarakterlidir.

Bilish faolligi rivojlanishi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- mustaqil xatti-harakatlarga intilishda namoyon bo‘ladigan amaliy faoliyatdagi faollik;

- o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyati va tamoyillarini qo‘lga kiritishdagi intilish;

- ijodiy faollik (oliy bosqich) bo‘lib, u sabab-oqibat bog‘lanishdan, ijodiy fikrlarning haqqoniyligiga, uning hayotiy va bilish qimmatiga ishonch hosil qilishdan tarkib topadi.

Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlar tahlili shunday xulosa qilishga izn beradi: o‘qitishda bilish faoliyatini jonlantirish deganda tom ma’noda fikrlash ishining faolligi tushuniladi.

Fikrlash faolligi bilish faoliyatida maqsadga muvofiq analiz va sintezda, o'quv materiallarini konkretlashtirish va bir tizimga keltirishda, induksiya va deduksiyani qo'llashda, bilimlar tizimini egallashda, dunyoqarash, tasavvurlar va tushunchalarni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Talabalarning ijodiy faolligi rivojlanishi shaxsning o'rganilayotgan narsa va hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishga intilish va bilish faoliyatiga yangilik va ijodiylik unsurlarini olib kira olishi qobiliyati bilan xarakterlanadi.

Talabalarning faolligi ularning mustaqilligi bilan tig'iz bog'langan. Bu tushunchalar bir-birini to'ldiradi, chunki mustaqil harakatlarning o'zidayoq shaxsning faolligi namoyon bo'ladi, aksincha, faollik ko'pincha mustaqil harakatlarni taqozo qiladi.

Bilish mustaqilligi quyidagi belgilarga ega:

- mustaqil fikrlay olish va unga intilish;
- yangi vaziyatlarda mo'ljalni ola bilish, yangi vazifalarni echishga o'z yondashuvini topa bilish qobiliyati;
- o'zlashtirilayotgan bilimlarni nafaqat tushunishni istash, balki uni qo'lga kiritish usullarini topish;
- boshqa ishlarni baholashda tanqidiy yondashuv;
- o'z hukmlarining erkinligi.

B.P. Esipov mustaqil ishlarni bilimlarni izlab topish, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, bilimlardan yangi sharoitlarda foydalana olish, bilimlarni amaliy qo'llash kabi didaktik vazifalar bilan bog'laydi.

G.I. Shukina bilish mustaqilligida bilish va yangi amaliy vazifalarni belgilash, uni hal qilish usulini topish qobiliyatlari bilan ajralib turadigan aslida mustaqil tafakkur sifatida xarakterlanadigan o'rganishni motivatsiyalash va undan foydalanish (operatsiya) birligini ta'kidlaydi.

Psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarda bilish faoliyatining quyidagi tiplari farqlanadi:

- perseptiv;
- reproduktiv;

- produktiv.

Perseptiv bilish faoliyati – bu faoliyatning shunday namunasiki, unda predmet, voqea, hodisa va ular haqidagi ayrim ma'lumotlar belgilari va mazmuni og'zaki va yozma nutq vositasida aks ettiriladi. Perseptiv faoliyat sezgidan boshlanadi va tasavvurlarni ifodalash bilan yakunlanadi.

Reproduktiv bilish faoliyati – bu faoliyat bilimlarni amaliy va ijodiy faoliyatda provard natijada qayta ishlab chiqish bilan bog'langandir. Bilish faoliyatining bu namunasi bilimlarni o'zlashtirish, ularni ijodiy ishda qo'llash, o'quv faoliyatining turli usullarini egallashni qamrab oladi.

Produktiv bilish faoliyati – u faoliyatning shunday namunasiki, u turli toifadagi ijodiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan. Produktiv bilish faoliyatining turlaridan biri – evristik faoliyatdir. Evristik faoliyat talabalarning mustaqil ishlari bilan birga amalga oshiriladi.

Talabalarda perseptiv, reproduktiv va produktiv bilish malaka, ko'nikma va qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun o'quv jarayonida ularning har biriga xos bo'lgan faoliyatning shakl va mazmunini tashkil etish, ularni o'zaro bog'lash, ularning galma-galligini ta'minlash, ulardan yaxlitlik holda foydalanish zarur.

Bilish faolligi ham faoliyat maqsadi, ham unga erishish vositasi, ham natijasi sifatida qaraladi.

“Bilish faolligi” tushunchasida motivatsiya, intellektual va hissiy-irodaviy komponentlar farqlanadi.

Talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish deganda o'qituvchining talabalar tomonidan bilimlarni egallash, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, ulardan amaliyotda foydalanishga qiziqish uyg'otish faolligini, ijodkorligini, mustaqilligini oshirish maqsadida ta'limning mazmuni, shakli va usullari, metod va vositalarini takomillashtirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

IV BOB. TALABA SHAXSI RIVOJLANISHI TAVSIFI

4.1. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari

Shaxs – muayyan ijtimoiy guruhning vakili bo‘lgan, biror faoliyat turi bilan shug‘ullanadigan, atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘la oladigan, o‘ziga xos individual – psixologik xislatlarga ega bo‘lgan konkret inson.

Shaxsning psixologik xislatlariga quyidagilar taalluqli: xarakter, temperament, qobiliyat, kuchli hissiyotlari va motivlari shuningdek, psixik jarayonlarning kechish xususiyatlari yig‘indisi (majmui).

Har bir kishidagi bu takrorlanmas individual xislatlari to‘plami (majmui) undagi barqaror yaxlitlikni vujudga keltiradi. Bu yaxlitlik shaxsning nisbiy turg‘un psixologik qiyofasi va boyligi sifatida qaraladi. U psixik holatlar va jarayonlarning to‘xtovsiz o‘zgarib turishiga qaramasdan saqlanib qoladi.

Shuningdek, shaxsning psixik boyligi shaxsning yashash sharoiti va ijtimoiy tarbiya jarayonlarida yuz berayotgan o‘zgarishlarning oqibati sifatida ma’lum darajada harakatchan, o‘zgaruvchanligini saqlab qoladi.

Shaxs atrof-muhit, insonlar bilan faol aloqada bo‘lish jarayonida **shakllanadi**. Shaxs faolligining manbai bo‘lib inson shaxsiy ehtiyojlarining ko‘p qirraliligi, u o‘zi mansub bo‘lgan jamiyat, jamoa ehtiyojlari hisoblanadi.

Murakkab hosila ehtiyojlariga *qiziqish, moyillik, did, ko‘rsatma, e’tiqod, istak* kiradiki, ular yig‘indisi "motivatsiya doirasi"ni, shaxsning "yo‘nalganligi"ni hosil qiladi.

Shaxs voqelikka bo‘lgan ob‘ektiv va sub‘ektiv munosabatlarni **ifoda qiladi**. SHaxs bir butun holdagi ichki shart-sharoitlar yig‘indisi bo‘lib, uning vositasida tashqi ta’sirlarning in’ikosi yuz beradi.

Shaxsning rivojlanishi uning faoliyatida amalga oshiriladi. Bu rivojlanish shaxsga xos va uning uchun muhim hisoblangan motivlar tizimi bilan boshqariladi.

Shaxsni harakatga keltiruvchi kuch tobora ko‘payib boradigan ehtiyojlar va ularni qanoatlantiradigan real imkoniyatlar orasidagi ichki ziddiyatlar

hisoblanadi. Ehtiyojlar esa shaxs rivojlanishining omillari va natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

A.V.Petrovskiyning tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, inson shaxsining xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir. A. V. Petrovskiy shaxs tuzilmasida unga xos bo‘lgan xarakter, temperament, psixik jarayonlarning kechish xususiyatlari, faoliyatning kuchli hissiyotlari va motivlari yig‘indisi, shakllangan qobiliyatlari zahiradagi bilim va ko‘nikmalarining betakror uyg‘unligi qayd qilinadi. Inson individ sifatida jismoniy va psixik mazmun kasb etadi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, inson psixikasi emotsiya va ongga bo‘linadi.

Ong insonni dunyoni miyasida aks ettirishi bilan uni hayvondan farqlaydi. Onggina shaxsning o‘zligini tashkil etadi.

G.K.Selevkoning aniqlashicha, **shaxs umumlashtirilgan xilma-xil sifatlar tizimida ko‘rinadigan insonning psixik, ma’naviy mohiyatidir.**

Bunday sifatlar tizimiga quyidagilar mansub:

- inson xislatlarining ijtimoiy ahamiyatga molik sifatlar yig‘indisi;
- dunyoga bo‘lgan va dunyo bilan, o‘ziga va o‘z-o‘zi bilan munosabatlar tizimi;
- ijtimoiy vazifalar, axloqiy ko‘rinishlar yig‘indisini amalga oshiradigan faoliyat tizimi;
- dunyoni va undagi o‘zini anglashi;
- ehtiyojlar tizimi;
- qobiliyatlar, ijodiy imkoniyatlar yig‘indisi;
- tashqi sharoitga bo‘lgan e’tiborlar yig‘indisi.

Psixologiya va pedagogika bo‘yicha tadqiqotlar shaxs rivojlanishini uch omilga - irsiyat, muhit va tarbiyaga bog‘laydilar.

Irsiy omil ota-onalardagi ayrim sifat va xususiyatlarning bolalarga o‘tishidir. Irsiyatni genlar vujudga keltiradi. Hozirgi fan organizm xususiyatlarida, uning to‘g‘risida axborotlar saqlanadigan va uzatiladigan o‘ziga xos gen kodlari aks etganligini isbotlagan. Genetika inson rivojlanishining irsiy dasturini ochib bergan.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, inson biologik tur sifatida insonlarga ma'lum bo'lgan tarixiy davr taraqqiyotida sezilarli bo'lmagan darajada o'zgarishga uchragan.

Inson ijtimoiylashish jarayonidagina, ya'ni muloqot, boshqa kishilar bilan aloqalarda **shaxs bo'lib shakllanadi**. Tadqiqotlarning guvohlik berishicha, ma'naviy, ijtimoiy va psixik rivojlanish kishilik jamiyatisiz faoliyatda bo'lolmaydi.

Muhit shaxs rivojlanadigan real voqelikdir.

Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi **tashqi sharoitlariga** olimlar geografik, ijtimoiy muhit, maktab va oilani keltiradilar.

Yaqin va yiroq muhit farqlanadi. Yaqin muhitga uy sharoitini, uzoq muhitga esa ijtimoiy muhit kiritiladi.

Ijtimoiy muhit ijtimoiy tuzum, ishlab chiqarish munosabatlari tizimi, hayotning moddiy shart-sharoiti, ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlar oqimi xarakterini o'z ichiga oladi.

Yaqin muhitga oila, qarindoshlar, o'rtoqlar kiradi.

K.K.Platonov tadqiqotlari ko'rsatadiki, shaxs tuzilmasidagi biologik va sotsial omillar nisbati shaxs sifatlarining to'rtta pog'onaviy sathini farqlashga imkoniyat beradi:

Irsiyat bilan bog'langan sifatlarni birlashtirgan temperament sathi. Unga shaxsning ehtiyoj va instinkt xususiyatlari va jinsiy, yosh, milliy va boshqa sifatlarini kiritadi.

Psixik jarayonlar xususiyatlari sathi. Bu sath sezgi, idrok, xayol, diqqat, xotira, tafakkur, hissiyot, irodaning individual xarakterini o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu sathga olimlar tafakkurning mantiqiy aks etishi: assotsiatsiya, qiyoslash, abstraksiyalash, induksiya, deduksiyalarni ham kiritadilar.

Shaxs tajribasi sathi. Bu sath bilim, malaka, ko'nikma, odat (qiliq) kabi sifatlar bilan belgilanadi.

Shaxsning yo'nalganlik sathi. Bu shaxsning shunday sifatiki, unda insonning atrof-muhitga munosabati aniqlanadi va u uning xulqi asosini tashkil

etadi. Bularga qiziqish, nuqtai nazar, e'tiqod, ijtimoiy ko'rsatmalar, o'ta muhim yo'nalmalar, axloqiy-etik tamoyillar va dunyoqarash kiradi.

Shaxs sifatlarining bu sathlari uning tarqoqligini bildirmaydi. Shaxsning barcha sifatleri murakkab yaxlit tizimni tashkil etib, o'zaro tig'iz bog'langan, shartlangan hamda ko'pincha ular bir-birining o'rnini bosadi.

Demak, shaxs tashqi va ichki omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Psixolog olimlar tashqi omillarga shaxsning *ijtimoiy tabiati, mukammalligi va pog'onaliligini* kiritadi.

Shaxsning ijtimoiy tabiati ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi: ishlab chiqarishdagi munosabati, moddiy boylikni ishlab chiqarish va iste'mol qilish, muayyan ijtimoiy guruhga bo'lgan siyosiy munosabati.

Shaxsning bir butunligi uning normal va har tomonlama rivojlanishini belgilovchi tashqi ta'sirlar majmuidir.

Pog'onalilik - insonning shaxs sifatida ma'lum davrlarda yosh va ijtimoiy shakllanishi.

Shaxs va uning rivojlanishi muammosi ko'plab psixologlar, sotsiologlar va pedagoglarning tadqiqot ob'ekti bo'lib kelmoqda. Bu tadqiqotlar tahlili unga bo'lgan bir qator yondashuvlarni keltirib chiqardi:

1. Sotsiogenetik yondashuv shaxs rivojlanishini jamiyatning tuzilmasi, ijtimoiylashuv usullari, uning atrof-muhit bilan aloqasidan kelib chiqqan holda tushuntiradi. Bunday yondashuvda *ijtimoiylashuv, o'rganish, ijtimoiy vazifa nazariyalari* amal qiladi.

Ijtimoiylashuv nazariyasi ta'kidlaydiki, inson biologik hosila sifatida dunyoga kelib, ijtimoiy shart - sharoitlar ta'siridagina shaxs bo'lib etishadi.

O'rganish nazariyasi (E. Torndayk, B. Skinner va b.) ga ko'ra shaxs hayoti, uning munosabatlari tahsil ko'rish, o'rganishni mustahkamlash, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish natijasidir.

Rol bajarish nazariyasining mazmuni shundan iboratki, shaxsga jamiyatda muayyan ijtimoiy rol (barqaror xulq usullari to'plami) tayin qilinadi. Bu rol shaxs xulqining xarakterini, uning boshqa insonlarga bo'lgan munosabatini belgilaydi.

Bu nazariyalarning kamchiligi shundaki, u inson hayotining ob'ektiv, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarini hisobga olmaydi.

2. Biogenetik yondashuv shaxs rivojlanishida organizm etilishidagi biologik jarayonlarni asos qilib oladi. Bu yo'nalishda Z.Freyd tadqiqotlari ajralib turadi. Uningcha, shaxs xulqi insonning fiziologik, beixtiyor mayllari, havaslari bilan bog'langan. E.Krechmer shaxs tiplarini insonning gavda tuzilishi xususiyatlaridan keltirib chiqaradi. S.Xoll ta'kidlashicha, shaxs rivojlanishi doira shaklida, ya'ni yig'inlar, ishtiyoqlar shaklidagi jamiyatning bosqichli rivojlanishidir.

3. Psixogenetik yondashuv na biologiya va na muhit ahamiyatini inkor etmaydi, balki psixik jarayonlarning rivojlanishini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu yondashuvda psixodinamik, kognitiv va personologik nazariyalar amal qiladi.

Psixodinamik yo'nalish (E.Erikson). Bunda shaxs xulqi emotsiya, ishtiyoq va boshqa psixikaning ratsional bo'lmagan komponentlari orqali tushuntiriladi.

Kognitiv nazariya vakillari (J.Piaje, D.Kelli va boshqalar) shaxs psixikasining intellektual - bilish doirasi xususiyatlariga suyanadilar.

Personologik yo'nalish vakillari esa shaxs rivojlanishiga yaxlit holda qaraydilar (E.Shpranger, A.Maslau va b.). Bu borada B.G.Ananev, K.A.Abulxanova, A.N Leontev, A.V.Petrovskiy, V.V.Myasimov, K.K.Platonov, D.N.Uznadze, D.I.Feldshteyn ishlari e'tiborlidir.

B.G.Ananev shaxsga 4 tomonlama birligi nuqtai nazardan qaraydi: 1) inson biologik tur sifatida; 2) individ sifatida ontogenez va insonning hayot yo'li; 3) inson shaxs sifatida; 4) inson insoniyatning bir qismi sifatida

K.A.Abulxanova shaxsni hayot yo'li sub'ekti va faoliyat sub'ekti sifatida tasavvur qiladi. Uning rivojlanishi asosida faollik (tashabbus, mas'uliyat), tashkiliy vaqtga nisbatan qobiliyat, ijtimoiy tafakkur kabi sifatlar yotishini ta'kidlaydi.

A.N.Leontev va A.V.Petrovskiylar bu yondashuvga binoan har qanday psixik hodisalarni tushuntirishda shaxs *ichki sharoitlarning bir butun tizimi* sifatida gavdalanadi deb hisoblaydilar va uning vositasida barcha tashqi ta'sirlar aks etadi, bu esa shaxsda umumiylik va turg'unlikning har xil komponentlari o'lchovlarini farqlash imkonini yaratadi.

V.V. Myasishchev shaxs yadrosini insonning atrof - muhitni ongida aks ettirish orqali shakllanadigan tashqi olam va o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimi deb tushunadi.

K.K. Platonov fikricha, shaxsning dinamik funksional tuzilmasi yo'nalganlik, tajriba, psixik jarayonlar va uning biopsixologik xususiyatlaridan iboratdir.

D.N. Uznadze shaxsni motivlari va xulqi anganmas xarakterdagi bir butun va manaviy tuzilma tushunilmasligi mumkin bo'lgan xislat deb qaraydi. D.N.Uznadze maqsadga muvofiq faolligi jarayonida shaxs psixikasining shakllanishi va rivojlanishini yoritib beruvchi umumpsixologik konsepsiyasi sifatida ko'rsatish nazariyasiga asos solgan.

D.I.Feldshteyn fikriga ko'ra, ontogenezda shaxs ijtimoiy etuklikning turli bosqichlarini bosib o'tish jarayonida rivojlanadi. Uning shakllanishida ijtimoiy ahamiyat kasb etgan faoliyat bosh omil bo'lib hisoblanadi.

Demak, shaxs faol va ongli mavjudot sifatida belgilanadi. U faqat ijtimoiy munosabatlar ob'ekti emas, balki sub'ekti hamdir. Shaxs ishlab chiqarish va moddiy manfaatlarni qabul qilish jarayonida shakllanadi.

4.2. O'smirlik davrida shaxsning shakllanishi

Sotsiologlar shaxsga, umuman, jamiyatga aniq ijtimoiy guruhga aloqador ijtimoiy ahamiyatga molik xislat va xususiyatlarning ko'rinishi jihatidan qarash lozimligini uqtiradilar. Ijtimoiy muhit shaxsning asosiy ijtimoiy funksiyalarini belgilaydi.

O'smirlik davri o'ziga xos ijtimoiy guruhni tashkil etadi. U hayot, mehnat va tajribalarning muhim sharti, ijtimoiy xulq va psixologiyasi, yo'nalganlikning muhim tizimi sifatida tavsif qilinadi.

O'smirlik jismoniy etuklik davridir. Bu davrda organizmning tez o'sishi va rivojlanishi tugallanadi, jismoniy rivojlanishning nisbiy turg'un davri boshlanadi. O'smirlik davrida gavdaning o'sishi sekinlashadi, sezilarli darajada muskul

kuchlari va ish qobiliyati oshadi, ko'krak qafasi kengayadi, skeletning qotishi tugallanadi, to'qimalar va organlar shakllanadi va funksional rivojlanadi.

O'smirlik davrida insonning hayot va mehnat faoliyati belgilab olinadi, uni mustaqil mehnat faoliyatga bo'lgan to'laqonli qobiliyatli qiladigan psixik, g'oyaviy va fuqarolik etuklik darajasiga erishadi.

O'smirlar va qizlar shaxsi o'zlari o'rin egallay boshlagan jamiyat, jamoa, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi yangi muhit ta'sirida qaror topadi.

O'smirlik davridagi asosiy faoliyat turi **o'rganish, ta'lim olish, ishlab chiqarish mehnatidir**. Bu jarayonda o'smirlar va qizlarning aqliy rivojlanishida xarakterli o'zgarishlar yuz beradi, mehnat va o'rganishga bo'lgan ongli munosabat ham oshadi, kelgusidagi mehnat faoliyatida olingan bilim, malaka va ko'nikmalar unda to'laqonli qatnashish uchun zarur shartlardan biri degan onglilik shakllanadi.

O'smirlik yoshi uchun qiziqishning kengligi va turli - tumanligi ham xarakterlidir. Bilishga bo'lgan qiziqishlar keng, barqaror va shijoatli tus oladi. Bilish faoliyatiga qaratilgan va u bilan bog'langan o'qish, mutolaa qilishga qiziqish rivojlanadi, ishda fikrni jamlash malakasi, mantiqiy eslab qolishning turli usullaridan foydalanish shakllanadi. Aqliy ishlar xarakteri o'zgaradi. Aqliy faoliyat nisbatan faol, mustaqil va ijodiy xarakter oladi.

Fikrlash faoliyati - umumlashtirish va abstraksiya lashning oliy darajasiga ko'tariladi, hodisalarning sababiy bog'lanishlari yo'nalishini oshiradi, unda ahvolni asoslash va isbotlash malakasi shakllanadi, fikrlashda tanqidiylik rivojlanadi. Fikrlash faoliyatining rivojlanishi nazariy tafakkurning shakllanishiga, tabiat va jamiyatning umumiy qonunlarini bilishga, falsafiy kategoriyalarni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyatning shakllanishiga omil bo'ladi.

O'smirlik yoshidagi psixik rivojlanishining asosiy xislatlaridan biri dunyoqarashning shakllanishidir, shuningdek, turli bilim sohalari va faoliyatining har xil turlarida ijodning rivojlanishi ham ajralib turadi.

O'smirlik davri hayotning xilma-xil jihatlariga bo'lgan hissiy va emotsional munosabatlarning boyligi va rang-barangligi bilan ham xarakterlidir.

V.G.Krisko nazariyasiga ko'ra, o'smirlik davri psixik rivojlanishining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- atrof-muhitga erkin, ongli munosabatda bo'lish;
- bosh miya faoliyatining emotsional - irodaviy doirasining murakkablashuvi;
- voqelikning abstraktlogik tushunilishi;
- shaxs faoliyatini birin-ketin intellektuallashtirish;
- ijtimoiy va kasbiy muhitga moslashish.

O'smirlik davri xususiyatlari tahlilida faoliyatga alohida ahamiyat beriladi.

Faoliyat deb insonning ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlari yig'indisiga aytiladi.

Psixologiya faoliyatning o'yin, o'rganish, mehnat turlarini qayd qiladi.

O'yin - shartli vaziyatlarda ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat turi.

O'rganish - bu mehnat faoliyatini bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni muntazam egallash jarayonidir.

Mehnat - insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi ijtimoiy foydali mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdir.

Sotsiologlar faoliyatning quyidagi asosiy guruhlarini ajratadilar: ijtimoiy xarakter, maqsadga muvofiqlik, rejalilik, izchillik.

O'smirlik davri faoliyatining **ijtimoiy xarakteri** shundaki, ular bu davrda jamiyat tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy mehnat jarayonida erishilgan barcha bilimlarni o'zlarining sa'y-harakatlari bilan o'zlashtiradilar va takomillashtiradilar.

Faoliyatning maqsadga muvofiqligi o'zining asosiy maqsadi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash uchun ongli va muntazam intilishini bildiradi.

Faoliyatning rejaliligi esa bu davrdagi barcha sa'y-harakatlar shunday tizimga ega bo'ladiki, unda ular o'zaro bog'langan, ma'lum bir tartibda joylashgan, muvofiq ravishda reja asosiga qurilgan bo'ladi.

Faoliyatning izchilligi doimiy ravishda ma'lum bir vaqt jadvali asosida, kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iboratdir.

Shaxs faoliyatida uning **yo‘nalganligi** muhim o‘rin egallaydi. Psixologlarning aniqlashlaricha, shaxsning yo‘nalganligi bu shunday psixik xislatki, unda ehtiyojlar, motivlar, dunyoqarash, yo‘l-yo‘riq, hayot va faoliyat maqsadlari ifodalanadi.

Shaxsning yo‘nalganligi tuzilmasidagi talabalarning asosiy ehtiyojlari bilimlar, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni egallash bilan xarakterlanadi.

O‘smirlik davri **ehhtiyojlari** doim o‘‘sib borish xarakteriga ega. Ular nafaqat o‘‘quv faoliyatini, balki ma‘naviy va moddiy hayotni qamrab oladi. Bundan kelib chiqadigan ziddiyatlar talaba shaxsining harakatga keltiruvchi kuchlari bo‘lib xizmat qiladi.

Motivlar - bu ichki kuchlar bo‘lib, ehtiyojlar bilan bog‘langan va u shaxsni belgili faoliyatga undaydi.

O‘smirlik davrining yo‘l-yo‘riqlari u yoki bu faoliyat turini amalga oshirishning ichki shayligidan iboratdir.

Maqsad shaxs uchun ahamiyatli bo‘lgan predmetlar, hodisalar, vazifalar va ob‘ektlarga etishish bilan xarakterlanadi.

Shaxsning dunyoqarashi tabiat, jamiyat, insoniyatga bo‘lgan e‘tiqodlari, ilmiy qarashlari asosida yuzaga kelgan tizimdir. Dunyoqarash shaxsning botiniy holati, hayot maqsadlari, qiziqishlari, munosabatlari, tutgan mavqelari bilan belgilanadi.

Demak, o‘smirlik shaxsning shakllanishida muhim davr hisoblanadi.

O‘smirlar va qizlar hayoti va faoliyatining yangi sharoiti, ularning faol o‘‘quv ijtimoiy, mehnat faoliyatlari bo‘lg‘usi mutaxassis shaxsining shakllanishida o‘‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Nazariy bilimlarning oshib, muloqot doirasining kengayib, turmush tajribalarining boyib borishi dunyoqarashning shakllanishiga ta‘sir etadi.

4.3. Talabaning aqliy faoliyati xususiyatlari

Pedagogika nazariyasida aqliy tarbiya shaxsni hayotga va mehnatga tayyorlashning muhim jihatida belgilanadi. Uning mohiyati shundaki, intellektual faoliyatga qiziqish uyg‘otish, bilimlar bilan qurollanish, ularni qo‘lga

kiritish va amaliyotda qo'llash metodlari, aqliy mehnat madaniyatini joriy qilish orqali aql va bilish qobiliyatlariga rahbarlik qilishdir.

Pedagogika va psixologiyaga oid tadqiqotlarda aqliy tarbiya muammosini tushunish bo'yicha ikki muhim konsepsiya mavjud.

Ulardan biri o'qitish jarayonida kishilar tomonidan to'plangan va bir tizimga keltirilgan bilimlarni egallashdan iboratdir. Bu qarash Platon davridan boshlab aksariyat falsafa va pedagogika namoyandalari tomonidan rivojlantirilgan (Ya.A.Komenskiy, Dj. Lork, I.F.Gerbert va b.) Bu konsepsiya namoyandalari aqliy tarbiyani belgilashda insoniyatning ijtimoiy tajribasiga asoslandilar. Bu esa so'zsiz bu konsepsiyani ijobiy jihati edi, lekin bu konsepsiyada ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, so'rovlari, qiziqishlari hisobga olinmagan edi.

Boshqa konsepsiya tarafdorlari (J.J.Russo va uning izdoshlari) bolaning aqli hammasidan avval uning o'z tabiiy faoliyatida rivojlanadi degan qoidaga asoslanadilar. Ta'lim oluvchiga ishlash, harakat qilish, mustaqil bo'lishga to'la imkoniyat yaratilishi zarur. Bunda fan ikkinchi navbatga surib qo'yilgan. Bu konsepsiya ham ijobiy va salbiy jihatlariga ega.

Faol mustaqil faoliyat jarayonida aqliy tarbiya to'g'risidagi g'oya ijobiydir, biroq unga yagona qoida sifatida qarashning o'zi etarli emas. Fanda to'plangan va insoniyatning tizimga tushirilgan tajribalarini inkor etib bo'lmaydi.

Pragmatika nazariyasi tarafdorlari tizimga tushirilgan bilimlarni o'zlashtirish konsepsiyasini qattiq tanqid ostiga oldilar. Dj.Dyui ta'kidlaydiki, maktabdagi shaxs rivojlanishi, hayoti va tajribasi o'rganilishi lozim bo'lgan va tizimli bilimlar doirasini belgilaydigan o'quv dasturlariga bo'ysundirilgan, zero ular o'lik, mexanik va formal manbalardir. U "maktab fanlari"ning an'anaviyligidan voz kechishni taklif qiladi va o'qitishga "sun'iy jarayon" ning kiritilishini talab qildi.

Aqliy tarbiyani rivojlantirish jarayonida bu konsepsiya boyitishga harakat qilingan. K.D.Ushinskiy aqlni ham formal, ham real rivojlantirish mumkin deb hisoblaydi.

Demak, turlicha yondoshuvlar aqliy rivojlanishiga bo'lgan amaldagi munosabatlar bilan zich aloqada deb qarashga imkoniyat beradi.

Shaxsning amaldagi munosabatlari deganda uning tabiat, jamiyat va jamoa, san'atga bo'lgan munosabati tushuniladi. Bu munosabatlarda insoniyatning ko'p asrlik tajribasida to'plangan va tizimga tushirilgan ilm-fanni egallash katta ahamiyatga molikdir.

Bunda faqat bilimlarni egallashga erishishgina emas, balki ularning mohiyatiga chuqur kirib borish, ularni egallash hamda qo'llash metodlarini o'rganish, bilimlarni e'tiqodga, fikrlash va faoliyat quroliga aylantirish ham zarur.

Aqliy rivojlanish bilimlarni o'zlashtirishning faqat hajmi va sifati emas, balki fikrlash jarayoni tuzilmasi, mantiqiy ish yuritish va aqliy harakatlarning boyligi hamda uni to'g'ri qo'llash bilan ham belgilanadi.

Aqliy tarbiyaning umumiy sharti keng qamrovli faoliyatdir. Faoliyatning xarakteri ham muhim ahamiyatga molik. O'zi asoslanadigan ilmiy asoslarning kengayishi jarayonida aqliy rivojlanish intensivlashadi. Bunga faoliyatsiz holat va maqsadsiz vaqt o'tkazish zid turadi. U intellektual ojizlikni, qoloqlikni yuzaga keltiradi.

Aqliy rivojlanishning asosiy jarayonlari L.S.Vigodskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, N.A.Menchinskaya, L.V.Zankov, M.A.Danilov, B.P.Esinov, M.N.Skatkin tadqiqotlarida yoritib berilgan. Ularda **aqliy rivojlanish o'rganish, mehnat, o'yin, hayotiy vaziyatlarda takomillashib boruvchi to'xtovsiz jarayon ekanligi** ta'kidlanadi.

Aqliy rivojlanish bilimlarni faol o'zlashtirish va ijodiy qo'llash jarayonida juda intensiv yuz beradi.

Aql rivojlanishining xarakterli xislatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- atrof-muhitga faol munosabatda bo'lish;
- o'ziga ma'lumlar chegarasidan chiqishga intilishi;
- nazariy va amaliy maqsadlarda bilimlarini oshirish va ularni ijodiy qo'llashning doimiy zaruriyati;
- kuzatuvchanlik, hodisalar va faktlarning eng mohiyatli jihatlarini va aloqalarini ajrata olish qobiliyati;

- muammolarni ratsional hal qilish uchun zarur bo'lgan vazifalar va vositalar o'rtasidagi aloqalarni ta'minlovchi harakatlar va izlanishlarning izchilligi;

- ishdagi aniqlilik va natijalarni qo'lga kiritishdagi ishonchlilikni ta'minlovchi intizomlilik;

- aqliy kenglik - bu aqliy faoliyat va xotira rivoji izchilligiga asoslangan hosila sifatidir;

- keng ilmiy axborotlarga asoslanish qobiliyati;

- keng ilmiy ufq, texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish malakasi;

- real voqelik jarayonlarini to'xtovsiz aks ettiruvchi tushunchalarni o'zlashtirish va foydalanishga moyillik;

- aqliy faoliyatning dinamikligi;

- mustaqillilik va ijodiy xarakter.

Rivojlangan aqlning eng oliy shakli ijodiy tafakkurdir. U insonning bilish bosqichi va ob'ektiv voqelikni aks ettirish jarayonining oliy shaklidir. Ijodiy tafakkur faollikning va kishining mustaqil faoliyatining oliy shakli sifatida ijtimoiy ahamiyat va betakrorlik kasb etadi. U ijodiy javob talab qilinadigan masalaning qo'yilishi; muammoni ko'ra olishi; oldindan qo'yilgan gipoteza va masalani echish yo'llari va usullarini aniqlash uchun zarur bo'lgan bilimlarni safarbar qilish; maxsus kuzatuvlar va eksperimentlar, tug'ilgan fikrlarni ifodalashni aks ettiradi.

Rivojlangan aql uchun kuzatib borilgan faktlar negizida sharoitni sinchiklab tahlil qilish va mantiqiy asoslangan sintezdan iborat mantiqiy tafakkur xosdir.

G.Selevkoning ta'kidlashicha, tafakkur atrof-muhitdagi ob'ektlar va hodisalar, ular orasidagi bog'lanishlar, hayotiy muhim vazifalarni echish, noma'lumni axtarish, kelajakni ko'ra olishdagi insonning bilish jarayonlarini bildiradi. G. Selevko tomonidan tavsiya etilgan aqliy faoliyat tasnifi quyidagilardan iborat:

- **fikrlash vositalari xarakteriga ko'ra:** predmetli, harakatli, ko'rgazmali, obrazli, abstrakt, hissiy;

- **mantiqiy sxema jarayoniga ko‘ra:** qiyos, tahlil, abstraksiyalash, umumlashtirish, sintez, tasnif, induksiya, deduksiya, inversiya, refleksiya, antitsipatsiya, gipoteza, eksperiment va b.;

- **natija shakliga ko‘ra:** yangi namuna yaratish, tushunchani aniqlash, hukm, xulosa chiqarish, teorema, qonuniyat, qonun, nazariya;

- **mantiqiy fikrlash tipiga ko‘ra:** aqliy-xissiy va faxmiy-nazariy yoki, V.V.Davidov belgilashiga ko‘ra, dialektik-mantiqiy.

I.S.Yakimanskaya "o‘quv ishlari usullari"ni ishlab chiqqan. Bu tushuncha o‘rganish jarayonining samaradorligini belgilaydigan malaka jarayoniga oid sohani o‘z ichiga oladi. SHundan kelib chiqqan holda ishlarning umumta’lim usullarini farqlaydi:

- o‘quv faoliyatini rejalashtirish malaka va ko‘nikmasi;
- o‘quv faoliyatini tashkil etish malaka va ko‘nikmasi;
- axborotni idrok qilish malaka va ko‘nikmasi;
- fikrlash faoliyati malaka va ko‘nikmasi;
- o‘quv faoliyati natijalarini baholash va anglash malaka va ko‘nikmasi.

Talabalarning fikrlash faoliyati jarayonida bosh natija bilim, malaka va ko‘nikmalarning shakllanganligidir.

G.Selevko tavsiya etgan tasnifda **bilim** aks etish shakli, yoritilishini chegaralash, bilish sohasi va predmeti, psixologik va umumlashtirish darajasiga ko‘ra ajralib turadi.

Aks etish chegarasiga ko‘ra quyidagilar farqlanadi:

- individual bilimlar - voqelik bilan o‘zaro aloqasi, uning shaxsiy tajribasi, mehnati va dunyoni bilishda yuzaga keladigan hissiy va aqliy timsollar va ularning o‘zaro bog‘lanishlari yig‘indisi;

- ijtimoiy bilimlar - fan, texnika, moddiy va ma’naviy qadriyatlarda aks etgan atrof-muhit umumlashmalari hosilasi va bilish natijalari.

Aks etish shakliga ko‘ra quyidagilar farqlanadi:

- ishoraviy, verbal bilimlar yoki nazariy bilimlar;

- obrazli - hissiy organlarda idrok qilingan va timsollarda tavsiya etilgan bilimlar;

- moddiy - mehnat, san'at predmetlarida mavjud bo'lgan bilimlar;

- tadbiriy - insonlarning joriy faoliyatida qayd qilingan bilimlar.

Bilish sohasi va predmeti bo'yicha quyidagilar farqlanadi: gumanitar va aniq matematik fanlar, falsafa, jonli va jonsiz tabiat, jamiyat, texnika, san'at.

Psixologik darajasiga ko'ra quyidagilar farqlanadi: tanish, tiklash, tushunish, qo'llash, avtomatik harakat qilish, munosabat va bilim - ehtiyoj.

Umumlashtirish darajasiga ko'ra fakt - hodisalar, tushuncha-terminlar, aloqa-qonuniyatlar, gipoteza - nazariyalar, metodologik bilimlar, baholash bilimlari.

Bularning barchasi amaliyotda sinalgan **bilimlar** atrof-muhitni bilish natijalari, uning inson ongida haqiqiy aks etishidir, deyishga imkoniyat beradi.

Malaka - mavjud bilimlar asosida o'zgarib turuvchi yoki yangi sharoitda shaxsning muayyan faoliyatni samarali bajarishga qaratilgan qobiliyati sifatida belgilanadi.

Ko'nikmalar - avtomatik tarzda biror harakatni bajarish qobiliyati.

4.4.Talabalarning mustaqil ta'limi

Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablarida «ta'lim va tarbiya jarayonining mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilganligini ta'minlashi lozim»ligiga alohida ahamiyat berilgan. Albatta, ushbu qo'yilgan talablar oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori darajaga ko'tarish, o'qitishni yangi metodlar asosida amalga oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularda mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, kasbga bo'lgan qiziqishini takomillashtirish, talablarining bilish faoliyatini boshqarish va bilim darajasini oshirish kabi vazifalarning sifatli darajada bajarishini taqozo etadi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda oliy o'quv yurti talabalarida mustaqil bilim olish haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, mustaqil bilim-mustaqil fikrlash, mustaqil ishlash kabilarning asosiy manbai bo'libgina qolmay, har bir shaxsning ijobiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat xususiyatlarini namoyon etish, imkoniyatlarini oshiradi.

Shuni aytish kerakki, mustaqil bilimni egallash ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatida chuqur o'rin egallagan. Abu Nosir Farobiy, Maxmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abudraxmon Jomiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ibn Sino kabi buyuk allomalar ilm tufayli o'z davrining nufuzli, hurmatli, e'tiborli kishilari darajasiga erishganlar. Sharqning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniy xalqni ilm olishga chaqirib, jumladan, shunday degan edi: «ilmlar ko'pdir, ular zamom iqboli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa ko'payadi. Odamlarni ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm axllarini xurmatlash o'sha iqbolning belgisidir». Darhaqiqat, ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bo'lib, uning fikrini o'tkir qiladi, madaniyat-ma'rifat dunyosiga olib kiradi.

Oliy ta'lim mazmunida bo'lajak mutaxasislarning kasbi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy dunyosini, milliy mafkurasi, matematik va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy, maxsus fanlar haqidagi bilimlarini yangilash, chuqurlashtirish, kengaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Mustaqil bilim bu umr bo'yi innovatsiyalarni, ya'ni yangiliklarni o'qib o'rganish, bilim orttirish, o'z mutaxasisligi bo'yicha yanada yuqorirok samaradorlikka erishish uchun ijodiy mehnat faoliyatiga erishish demakdir. Mustaqil bilim-talabining o'z mutaxasisligi yuzasidan dunyokarashini kengaytiradi, pedagogika, psixologiya, ma'naviyat, mafkura sohasidagi nazariy va amaliy, bilimlarini yangilaydi. Ilg'or tajribani o'rganish va takomillashtirishda muhim o'rin tutadi.

Mustaqil bilim davlat ta'lim standartlari talablarini amalga oshirishda, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning qiziqarli va mazmunli o'tishida, talablarning hayotga mustaqil ravishda munosabatda bo'lishida muhim omil hisoblanadi.

Mustaqil bilimga ega bo'lgan, malaka va ko'nikmasi shakllangan talabagina fan asoslarini puxta o'zlashtirishi mumkii. Talabalarda mustaqil bilim olishga qiziqish uyg'otish, o'quv-biluv ko'nikma va malakalarini shakllantirishda mutaxassislik fanlarini amaliy faoliyatga yo'llovchi mustaqil ishlar katta imkoniyatlarga ega.

Mustaqil bilim egallashning turli bosqichlarida mustaqil ishlarning turli shakllaridan foydalanish, shu jarayonda talabalarni u yoki bu kasbga bo'lgan qiziqishini oshirish usullari, ularda kasbiy madaniyatini tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Lekin, shuni aytish kerakki, oliy o'quv yurtlarida mustaqil bilimni tashkil etish usullari, ularning ta'lim tizimidagi ilmiy, amaliy ahamiyati, talabalarining o'quv-biluv malakasini shakllantirishdagi o'rnini xususida adabiyotlar yetarli darajada emas.

Bu borada talabalarda mustaqil bilim samaradorligiga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- birinchi bosqichdan boshlab mustaqil bilim egallashga mehr uyg'otish,
- har bir kasbning jamiyat taraqqiyotida muhim ekanligi yuzasidan muayyan tushuncha hosil qilish;
- darslik va ilmiy adabiyotlar ustida ishlash usullari bilan tanishtira borish, amaliy mashg'ulot jarayonida mustaqil ishlashga o'rgatish orqali o'z mutaxassisligi ma'nosini o'zlashtirishlariga erishish;
- talabaning o'z bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishga, yangilashga erishishini ta'minlash;
- bo'lajak mutaxasislarning o'z bilim saviyasini yuqori darajaga ko'tarishga bo'lgan munosabatini shakllantirish;
- bo'lajak mutaxasisning milliy g'oyasi haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish;
- ijodiy ishlar, referat, ma'ruza matni, taqriz va hokazolar yozdirishda joriy, oraliq, yakuniy nazorat bilan chegaralanmay, guruh bo'yicha bosqich izchillikka, undan uzluksiz yagona reja asosida ishlashga o'rgatish;

- auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda va turli tadbirlarda talabalarning erkin va mantiqiy imkoniyat yaratish, mutaxassislik haqidagi bilimini shakllantirish kabi g'oyat muhim uslubiy aqidalarni amalga oshirish va boshqalar.

Buning uchun har bir professor-o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy uslubiyat kabi fanlarning metodologik asoslarini va o'z mutaxassisligini chuqur o'zlashtirishi, dunyo olimlarining asarlari bilan tanishishi va tahlil etishi, o'quv jarayonida ilg'or psdagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslaridan keng foydalanishi, mustaqil egallagan bilimlarini ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga yo'naltirishi, buning natijasida talabaning bilish faoliyati samaradorligini oshirishga, ularning mustaqil erkin fikrlashga o'rgatishi, davlat ta'lim standartlariga moye keladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishi maksadga muvofikdir. Mustaqil bilim jarayoni talaba shaxsiga hurmat, uning imkonnyati va qobiliyatiga ishonch, ajdodlar ma'naviy merosiga qizikish, o'zaro xurmat va uyushkoklikni shakllantiradi.

Talaba mustaqil bilimga ega bo'lish natijasida o'zini ruhan erkin va xadiksiz seza boshlaydi, undan ruhiy erkinlik kamol topadi. Mustaqil bilimga ega bo'lish o'qituvchi va talaba orasidagi erkin, madaniy muloqat, xaqgo'ylik, tanqidiy fikr kabilarni rivojlantiradi, ta'lim jarayonida talabalar keng qamrovli axborotlarni o'zaro ayir boshlaydilar, natijada mustaqil intellekt maydoni vujudga keladi. Mustaqil bilimga ega bo'lish bu talabaning fanlardan o'zlashtirishning yuqori darajasini ta'minlash bilan birga, kursdoshlar orasida hamkorlik, do'stona munosabat, jonli muloqat o'rnatilishiga yordam beradi. Mustaqil bilim talaba shaxsiga o'z huquqlariga ega bo'lish, imkoniyatlarini izlab topish, rivojlantirish, akliy va texnik saloxiyatini namoyon qila bilish, aqpiyg, jismoniy va ma'naviy rivojlanish uchun foydali bo'lgan sog'lom muxitni tarkib toptiradi.

Mustaqil bilim bu - tabiat, jamiyat, tafakkur haqidagi bilimga ega bo'lish demakdir. Buning uchun talaba yoshlar tabiiy, ijtimoiy va gumanitar, mutaxassislik fanlarini chuqur o'rganish yo'li bilan tabiat, jamiyat, tafakkurga oid bilimlarning umumiy asoslarini o'zlashtiradi.

Mustaqil bilimni egallash natijasida talabaning ta'limdagi faolligi rivojlanadn. Shuni aytish kerakki, xar qanday faollik zaminida mustaqil akliy faoliyat yotadi. Ko'rgazmali kurollar tayyorlash, mustaqil ishlash, texnik vositalardan foydalanish, ijtimoiy va ma'naviy hayotdafaol ishtirok etish, ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatish jarayonida talabalarning mustaqil faolligi namoyon bo'ladi.

Buning uchun talabalar ilmiy ommabop, siyosiy, o'quv, badiiy va boshqa adabiyotlarni mustaqil ravishda o'qishi va o'rganishi, yangi axborot texnologiyalardan, internetdan foydalanishi, dare mashg'ulotlarida ijodiy fikrlashi, didaktik o'yinlar, munozara kabilarda ishtirok etishi, ayniqsa, magistrnlarning ko'rgazmali qurollar tayyorlashi, ilg'or ish tajribalarini o'rganishn, to'plashi, tanlashi, ko'llashi, talabalarning an'anaviy anjumanlarida, ilmiy amaliy anjumanlarida, semnnarlarida ishtirok etishi, o'z ish tajribalarini ommalashtirishi, fikr va mulohazalari, takliflari, tavsiyalari bilan matbuotda, radio, televideniyeda ishtirok etishlari zarur.

OTDTSda talabalarning mustaqil ta'lim olishlariga doir talablar.

Talabalar mustaqil ishining mazmuni va vazifalari bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi, PF-58-47 sonli farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasiga» ko'ra yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tmoqda. Ta'limning kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlashiga asosiy e'tibor berilgan. Bizga ma'lumki, o'quv jarayoni talabalarni mustaqil fikr yurita olishga o'rgatsa, unday ta'limni rivojlantirishga asoslangan o'quv-biluv jarayoni deb qabul qilish mumkin. Talabalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan maxsus vositalarni qo'llab, uni fanga qiziqtirish, erkin fikrlashga o'rgatish, rivojlantirish tizimi yaratish orqali ularda kreativ g'oyalarni shakllantirish mumkin. Ma'ruzada ta'lim jarayonida kredit-modul tizimida ahamiyatli bo'lgan mustaqil ishlashning mohiyati, shakllari, turlari, o'rni va vazifalari ko'rsatilgan hamda ularning ta'lim ishtirokchilarida namoyon bo'layotgan kompetentliklarga ta'siri haqida fikr yuritilgan. Bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar

O‘zbekiston respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasining “Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan 3-bobining “Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish” deb nomlangan 1-§ da “Mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish” masalalarida ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetentsiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Umuman olganda, talabaning bugungi kunda mustaqil ta’lim faoliyatiga tayyorlash eng muhim dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda talabalarning mustaqil o‘quv faolligini shakllantirishning yagona usuli, ularning mustaqil o‘quv faoliyati bilan shug‘ullanishlarini tashkil etish va boshqarish hisoblanadi. Talabalarning ijodiy tayyorgarlik jarayonida mustaqil ta’limni tashkil etish uzluksiz va uzviy amalga oshirilmog‘i lozim. Bizningcha, bu yo‘nalishda yuqori natijaga erishish ta’lim jarayonida, xususan ma’ruza va amaliy, seminar mashg‘ulotlarida talabalarda o‘rganilgan o‘quv materialini mustahkamlashga qiziqish hosil qilish, o‘quv axborotlari sig‘imini darslik va qo‘shimcha adabiyotlardan mustaqil holda o‘qish asosida kengaytirishga

ishtiyoq hosil qilishga asoslanadi. Bo'lajak mutaxassislarning har tomonlama yetuk, bilimli, mustaqil fikrlay oladigan, izlanuvchan kadrlar bo'lib yetishishini ta'minlash, ularning o'z ustida ishlashga yo'naltiruvchi yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarda mustaqil ta'lim olishga ishtiyoq va zaruriyat hosil qilishda pedagogik texnologiyalar keng imkoniyatlarga ega.

Talabalar mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlashi;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanishi;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlashi;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlashi;
- internet tarmog'idan maqsadli foydalanishi;
- berilgan topshiriq va vazifalarning ratsional yechimini topishi;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etishi;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlashi;
- topshiriq va vazifalarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashishi;

Talabalar mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish texnologiyasi.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifat va samaradorligini oshirishda quyidagi pedagogik texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir:

1. Talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiya - muammoli ta'lim, turli xil o'yinlar.

2. O'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlashga asoslangan pedagogik texnologiya.

3. O‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan pedagogik texnologiya - tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyalari, ta’limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta’lim texnologiyalari.

4. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari - talaba shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohadagi bilimlarini, ijodiy kobiliyatlarini rivojlantirish.

5. Ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalash, loyihalangan pedagogik texnologiyani pedagogik jarayonga tatbiq etish o‘qituvchidan texnologik loyihalash qobiliyatini talab etadi.

Fanning amaliy darslarida talabalarni mustaqil ta’lim olish faoliyatiga yo‘naltirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

✓ Fanning amaliy darslarida talabalarga qisqa muddatli mustaqil mavzuga binoan ishlarni bajartirish orqali ularni mustaqil ta’lim olish faoliyatiga yo‘naltirib boriladi.

✓ Fanning amaliy darslarida talabalarni mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirishda ularning mustaqil ishlarini tashkil qilish asosiy omil hisoblanadi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

✓ Bo‘lajak texnologik ta’lim-o‘qituvchilarga beriladigan mustaqil ishlar oliy ta’lim dasturiga muvofiq holda tuzilib, texnologiya ta’limini o‘qitish metodikasidan olinadigan bilim va malakalarni mustahkamlashi, chuqurlashtirishi nazarda tutildi.

✓ Mustaqil ish topshiriqlari talabalarning qobiliyatiga mos, ular diqqatini tortadigan, mantiqiy fikrlashga undaydigan, qiziqtiradigan qilib tanlanadi.

✓ Mustaqil ish berish oldidan o‘qituvchi uni qanday bajarish kerakligi to‘g‘risida bosqichma-bosqich uslubiy ko‘rsatma berib boradi.

✓ O‘qituvchi talabalarning mustaqil ishlari natijalarini ko‘rib, xatolarini to‘g‘rilashi, mumkin qadar baholashi, ishni o‘z vaqtida bajargan talabalarni rag‘batlantirib borishi ta’minlanadi.

Mashg‘ulotni boshqarish texnologiyasida avvalambor, darsning maqsadi aniq, kasbga yo‘naltirilgan bo‘lishi bilan birga, qaysi vosita yordamida va qanday

ketma-ketlikda bu maqsadga erishish mumkinligi aniqlanishi kerak. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini o'zlashtirish jarayonining tashkilotchisi tarzida ko'rinib, talaba faoliyatining faolligiga ahamiyat beriladi. Buning uchun o'quv material mazmunining bayonida o'qituvchi turli xil o'qitish metodlari va imkoniyatlaridan foydalanadi. Har bir mashg'ulotda qo'llaniladigan metodlar uchun pedagogik tizimda ularning o'ziga xos xususiyatlari bor. Tushunchalar va xatti-harakatlarning shakllanishini o'qituvchi boshqarib boradigan asosiy mashg'ulot turi amaliy mashg'ulotlar bo'lib, uni o'tkazish metodikasi pedagogik tajriba va mahoratga bog'liqdir. Bu jarayonni tinmay o'rganib borish o'qituvchining o'z kasbiga mohirligi o'qitish texnologiyalari va ularning maqbul shakllari majmuasini egallab olganligi bilan belgilanadi. Ta'lim jarayonida har bir mavzuni o'tishda yangi pedagogik texnologiyaning qaysi uslubi ma'qul, qulay, mavzuni yoritish uchun qanday jihozlar bo'lishi zarurligi aniqlab olinadi.

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy masalalardan hisoblanadi. Bu borada quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar negizida ta'lim oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun o'qitish jarayoni shunday tashkil etish kerakki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq texnikasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'minlashga e'tibor qaratish.

Ikkinchidan, ushbu sohada muvaffaqiyatlarga erishgan novator o'qituvchilarning ishlarini ommalashtirish, tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yish.

Uchinchidan, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot davrida talabalarning mustaqil ta'limga oid ma'lumotlarini zamon talablari asosida shakllantirish va rasmiylashtirishni yo'lga qo'yish.

To‘rtinchidan, mustaqil ta‘lim jarayonida talabalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini yo‘lga qo‘yish. Yuqorida sanab o‘tilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta‘lim muassasalarida mustaqil ta‘lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish, talabalarni mustaqil ishlashga o‘rgatish, ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil ravishda o‘z o‘rnini topa olish malakasiga ega bo‘lgan, istiqbolli vazifalarni amalga oshirish va hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo‘ladi.

4.5.Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari

Oliy maktabda talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari tizimi.

O‘zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash **milliy modelining tarkibiy qismlaridan bin fan** - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishi uchun quyidagilar zarurligi milliy dasturda belgilangan:

- ilg‘or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o‘zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsion loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish yo‘li bilan ilm-fanning ta‘lim amaliyoti aloqasini ta‘minlash;

- ilg‘or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun eksperimental maydonchalar barpo etish orqali ilmiy tadqiqot natijalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy etish mexanizmini ro‘yobga chiqarish;

- yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qo‘llab - quw atlash;

- talabalar va yosh olimlarning ilmiy yutuqlari uchun maxsus mukofotlar va sovrinlar, stipendiyalar ta‘sis etish, yoshlar ilmiy-texnika ijodiyotining doimiy ishlaydigan ko‘rgazma va ekspozitsiyalarini tashkil etish.

Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartida bakalavriat va magistratura ta‘limiga qo‘yilgan umumiy malaka talablari qatorida quyidagilar belgilangan:

- o‘z ustida mustaqil ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- ilmiy va ilmiy-texnik axborot bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- ilmiy ijodiyot metodologiyasi, bilishning umumiy usullari, empirik va nazariy tadqiqot usullari, qonunlar, qoidalar mantiqini asoslash va inkor etish yo‘llariga doir bilimlarni egallash.

Magistratura ta’limining ilmiy faoliyat bloki, ilmiy tadqiqotlar metodologiyasini o‘zlashtirishni, ixtisoslashgan ilmiy va ta’lim muassasalarida talabalar muayyan ilmiy tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlarni bajarishlarini nazarda tutadi.

1.O‘zbekiston ijtimoiy ishlab chiqarish, madaniy- ma’rifiy sohalarda jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga erishishi uchun mehnatni ilmiy asosda tashkil etish lozim. Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari, madaniyat, ma’naviyat, ta’lim sohalarida mehnatni ilmiy tashkil etish hayotiy zaruratga aylandi. Shuningdek, pedagogik xodimlar mehnatini ham ilmiy asosda tashkil etish davr talabidir. Bu, avvalo, barcha ishlarni aniq va puxta uyushtirish, ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etishga ilmiy yondashish demakdir. Bolajak mutaxassislar oliy ta’lim muassasida o‘qish davrida faqat fan bloklari va kasbiy bilimlarni chuqur egallashlarining o‘zigina kifoya qilmaydi, ulardagi iqtidor va qobiliyatlarni o‘stirish, talablarni ilmiy tadqiqot ishlariga kengroq jalb etib, tadqiqotchilik malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish, ilmiy ijod metodologiyasi va usullarini egallab olishlariga erishish zarurligi, yuqorida keltirilganidek, O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy hujjatlarida aniq belgilangan.

2.Oliy ta’lim muassasasida talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari o‘z navbatida ulardan chuqur, mustahkam bilim egallashni talab qiladi. Mustaqil, puxta bilimlarsiz amaliy ishlarga ijodiy yondoshish, o‘quv tadqiqot, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish mumkin emas.

Oliy maktabda talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari, asosan, kasbga doir pedagogik, o'quv-tarbiyaviy yo'nalish- larda amalga oshiriladi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda tadqiqotchilik faoliyatiga, ijodiy izlanishga qiziqishni o'stirish, o'quv-tarbiyaviy ishlarga ilmiy yondashish malakasini hosil qilish;
- mutaxassislikka oid va boshqa fanlar bloklarini o'rganish jarayonida o'quv tadqiqot ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- adabiyotlar va boshqa ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish qobiliyati, malakalarini o'stirish;
- o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari, shuningdek, mutaxassislik fanlari sohasida muammolarni ko'ra olish va shu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini bajara olish ko'nikma va malakalarini egallash;
- ilmiy tadqiqot metodlarini bilib olish va ularni amalda qo'llay olishni o'rganish.

Talabalar bajaradigan ilmiy tadqiqot ishlari ikki yo'nalishda tashkil etiladi: birinchisi, o'quv mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqot ishlari, ya'ni o'quv tadqiqot ishlari; ikkinchisi, kafedralarning ilmiy yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlari.

1. O'quv mashg'ulotlari bilan bog'liq tadqiqot ishlariga quyidagilar kiradi:

- ilmiy adabiyotlar va manbalarni, internet axborotlarini, vatan va chet el olimlarining asarlarini, shuningdek, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodlariga doir adabiyotlarni o'rganish va tanqidiy tahlil qilish;
- o'quv fanlaridan amaliy mashg'ulotlar uchun tajriba va eksperiment materiallarini to'plash, tayyorlash;
- laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorlanish va uni bajarish bilan bog'liq tadqiqot ishlari;
- maxsus kurs va seminarlarni o'rganish bilan bog'liq o'quv tadqiqot ishlari;

- to'plangan tadqiqot materiallari asosida referat, doklad va ma'ruza matnlarini tayyorlash;

- pedagogik, ishlab chiqarish va dala amaliyotlari davomida, o'quv ekspeditsiyalari vaqtida o'quv topshiriqlari bo'yicha yakka va jamoaviy tadqiqot ishlari olib borish;

- o'quvchilarning qiziqishlari, individual xususiyatlarini o'rganish; jamoada shaxslararo munosabatlar, bir maqsadga qaratilgan pedagogik, psixologik va sotsiologik tadqiqotlar; yoshlar e'tiqodi va ideali, ta'lim-tarbiya usullarini qiyosiy o'rganish; arxeologik-dialektologik, etnografik tadqiqotlar; gerbariylar to'plash, fenologik va metereologik hodisalari o'rganish; o'quv ustaxonalarida mehnat ta'limi usullarining samaradorligini tadqiq etish kabilar;

- kurs ishlari, doklad, ilmiy ma'ruzalarni tajriba - tadqiqot yo'nalishida bajarish kabilar.

Kafedralarning ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bilan bog'liq talabalarning ilmiy tadqiqot ishlariga quyidagilar kiradi:

- talabalarning ilmiy (fan) to'garaklaridagi ishlari. T o'garaklarda talabalar mavzu tanlashni, bibliografiya tuzishni, ilmiy bilish metodlari va tadqiqot usullarini o'rganadilar, adabiyotlar, internet va boshqa manbalar asosida ilmiy doklad, ma'ruzalar tayyorlaydilar, o'zlarining tadqiqot ishlari haqida chiqishlar qiladilar, ilmiy muammalarni muhokama qilishda, munozaralarda qatnashish;

- kafedra o'qituvchilari, aspirant, doktorantlar bajaradigan ilmiy ishlarda, shuningdek, korxonalar, xalq ta'limi tizimidagi ilmiy metodik muassasalar tomonidan olib boriladigan tadqiqot ishlarida qatnashish;

- ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan o'tkaziladigan arxeologik, etnografik va boshqa ekspeditsiyalarda ishtirok etish;

- konstruktorlik byurolaridagi ishlarda, grant, shartnoma asosida olib boriladigan tadqiqot ishlarida qatnashish; asboblarni konstruksiya qilish, ta'limning texnik vositalari, ko'rsatmali qurollarni yasash, jamoachiliklarida, ta'lim muassasalarida mehnatni ilmiy tashkil etishni o'rganish;

- o'zining ilmiy tadqiqot natijalari asosida konkurslar, olimpiadalarda qatnashish;

- malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlash, himoya qilish, ilmiy maqolalar, risolalar tayyorlash, chop ettirish va boshqalar.

Tadqiqotchilik malakalarini egallash texnologiyasi.

1. Ilmiy ishda eng muhim masala, bu har bir talaba o'z qiziqishi, qobiliyati, imkoniyati asosida tadqiqot mavzusini tanlay olishi, o'rganilayotgan muammo, mavzuga doir adabiyotlar va boshqa manbalardan faktlar, axborotlarni tanlab to'play olishi, tizimlashtira olish malakasidir. Tadqiqotchi ilmiy faktlar, axborotlarni erinmay, shoshilmay to'plashi, ulari sinchiklab o'rganishi, taqqoslab, solishtirib ko'rishi katta ahamiyatga ega.

2. Iqtidorli talabalar, odatda, birinchi kursdayoq ustozlar nazariga tushadi, ular kafedralarda olib borilayotgan ilmiy ishlar bilan bog'liq uncha qiyin bo'lmagan vazifalarni bajarishga jalb etiladi. Quyi kurslardan boshlab iqtidorli talabalar bilan alohida ishlash, chet tillari, kompyuter texnikasi, ixtisoslik fanlaridan qo'shimcha o'quv mashg'ulotlari tashkil etish odat tusiga kirib bormoqda. Talabalar kafedra o'qituvchilari rahbarligida o'zi tanlagan ixtisoslik, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlardan ta'lim dasturlariga muvofiq o'quv xususiyatiga xos tadqiqot ishlarini bajaradilar. Ular o'qigan, bilganlarini yozma bayon qilishni o'rganadi, ilmiy tushunchalar, qoidalarni o'z tushunchasi bilan solishtiradi. Faktlar, hodisalar orasidagi aloqalar, bog'lanishlarni anglaydi, mustaqil fikrlaydi. Referat, doklad yozish davomida talabalar adabiyotlar, axborot olishning zamonaviy manbalari bilan ishlash malakasini egallaydi, muhim nazariy masalalarni mustaqil hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ilmiy ishlarni rasmiylashtirish qoidalari bilan tanishadi.

3. O'quv yili davomida o'tkaziladigan an'anaviy konfe-rensiyalar ham talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ishning bu shakli referativ ishlarga tayanadi. Ma'ruzachilar muammo yuzasidan eng yaxshi referat, doklad yozgan talabalardan tanlanadi. Ularning

seksiya yig'ilishlaridagi chiqishlarini boshqalar to'ldiradilar. Har bir chiqish, ma'ruza muhokama qilinadi, boyitiladi.

Quyida kurslarda o'quv amaliyoti jarayonida talabalar maktab o'quvchilarining - yosh va individual ruhiy xususiyatlarini o'rganishga jalb etiladi. Bunda ular kuzatish, suhbat va anketalar yordamida yoshlarning qiziqishlari, intilishlari va boshqa xususiyatlarini o'rganadilar, tadqiqotchilik malakalarini egallaydilar.

Ilmiy ishni yozishga kirishishdan oldin mavzuga doir barcha manbalarni atroflicha o'rganib chiqish, ilmiy faktlar, axborotlarni to'plash, ularni tartibga solish, tasniflash, chuqur tahlil qilish muhim. Shundan keyin mavzuning mazmuni yoritadigan reja tuziladi va u taxminiy bo'ladi, yozish paytida rejaga o'zgartirishlar kiritish mumkin. Shu tariqa tadqiqotchilik tajribasi to'planib, ko'nikma va malakalar hosil bo'la boradi.

Talabalarda tadqiqotchilik malaka-sifatlari shakllanishining ikkinchi etapi yuqori kurslarda o'qish davomida bo'ladi. Bu etapda talabalar ilmiy laboratoriyalarda, o'quv va ilmiy ekspeditsiyalarda turli darajadagi tadqiqot ishlarini bajaradilar, ilmiy to'garak va kafedra o'qituvchilari, aspirantlar, doktorantlar tadqiqotlarida qatnashadilar; kurs ishi, malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyasini yozish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini bajaradilar, ilmiy ishlar konkursлари, tanlovlarida ishtirok etadilar.

Bu etapda talabalar o'zlari bajaradigan tadqiqot ishlari bo'yicha mavzuni mustaqil tanlay olish, tadqiqot metodikasini tuzatib olish, tadqiqotni tashkil etib olish va o'tkazish; tadqiqot natijalarini sifat va son jihatidan tahlil qila olish, o'z xulosalarini ifodalay olish, o'z tadqiqot natijalarini talabalar ilmiy ishlari tanlovlari uchun tayyorlay olish kabi malakalarni egallaydilar.

Talabalar kafedrada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar jarayonida faktlar, axborotlarni to'plash va ularni dastlabki ishlab chiqish bilan bog'liq vazifalarni bajarishga jalb etilgan ekan, bu ishlarning natijasini mustaqil ilmiy ish sifatida rasmiylashtirish yoki shu sohada ishlayotgan professor- o'qituvchi bilan hammualliflikda nashr ettirishi ham mumkin.

Talabalar tadqiqotchilik malakalarini shakllantirish tizimida kurs ishlari, malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashning o'рни va ahamiyati benihoyadir. Bu ishlarda hamma talabalar qatnashadi va bu jarayonda tadqiqotchilik faoliyatining barcha komponentlari (ijtimoiy va shaxsiy qimmatli motiv, aniq maqsad, tegishli vositalar, kutilgan natija) mavjud bo'ladi: tanlangan mavzuning rejasini, adabiyotlar ro'yxatini tuzish, mavzusiga oid ilmiy axborotlar, faktlarni to'plash va qayta ishlab chiqish, tartibga keltirish, uni tasvirlash, tasniflash, taqqoslash, umumlashtirish, nazariy xulosalar chiqarish asosida tadqiqotning asosiy natijalarini yozma shaklda rasmiylashtirish malakasi shakllanadi.

Talabalar bajargan ilmiy tadqiqot natijalarini rasmiylashtirishda nashr etiladigan qo'lyozmalarga qo'yiladigan talablarga to'liq amal qilish lozim. Har qanday ilmiy ish, jumladan, talabaning ilmiy ishi ham, qat'iy tuzilish shakliga ega bo'ladi. U quyidagicha bo'lishi mumkin:

Kirish qismi. Bunda tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslanadi. Ilmiy ishning maqsadi, vazifalari, tadqiqot metodlari va manbalari ko'rsatiladi, ishdahol qilinadigan muhim masalalar qayd etilib, ularning fantaraqqiyoti, amaliyot uchun nazariy hamda amaliy ahamiyati ifodalanadi.

Ilmiy ishning asosiy qismi ikki yoki uch bobdan, har bir bob ikki yoki uchta paragrafdan iborat bo'lishi mumkin. Odatda, birinchi bobda tanlangan mavzuning nazariy asoslari, shu muammo bo'yicha mazkur fanda erishilgan natijalar, ya'ni tadqiqotning ilmiy zamini, asoslari aniqlanadi (mavjud nazariy-ilmiy manbalar asosida) hamda tadqiq etilishi, ilmiy asoslanishi zarur bo'lgan muammolar belgilanadi.

Tadqiqot muammosining amaliyotda mavjud holati tahlil etiladi. Keyingi boblarda tadqiqot jarayonida to'plangan faktlar, axborotlar, materiallar sistemalashtirilib, umumlashtiriladi, ilmiy tahlil etiladi. Tadqiq etilgan masalalarning mazmuni, shakl-usullari, erishilgan asosiy natijalar bayon qilinadi.

Ilmiy ishning xulosa qismida tadqiqot boshlanishida qo'yilgan «maqsadga erishilganligi, belgilangan farazlar isbotlanganligi yoki rad etilgani, ko'rsatilgan vazifalar qay darajada bajarilgani, tadqiqotning asosiy natijalari, umumiy xulosalar va tavsiyalar ixchamlashtirilib ifodalanadi.

Ilmiy ishning xulosa qismidan keyin, ishni bajarish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

Bunda ilmiy ish muallifning fan olamidan qay darajada xabardorligi, bilimdonligini ko'rsatadi. Ro'yxatga kiritish uchun o'qilgan, o'rganilgan adabiyotlardan eng muhimlari, ishga bevosita aloqadorlarini tanlab ola bilish ham muhimdir. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, odatda, alfavit tartibida tuziladi. Faqat O'zbekiston Respublikasining m e'yoriy hujjatlari, Prezidentning asarlari ro'yxat boshida keltirilib, so'ngra barcha manbalar alfavit tartibida, bibliografiya qoidalariga rioya qilingan holda yoziladi.

Mundarija ilmiy ishning bosh qismida yoki oxirida, agar ilovalar ham bor bo'lsa, ishning oxirida beriladi.

Ilmiy ishning qo'lyozmasi: titul varag'i, kirish qism, asosiy boblar, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar, mundarija shaklida rasmiylashtiriladi. Titul varag'ida vazirlik, oliy o'quv yurti, kafedraning nomi, so'ngra muallifning ismi-sharifi, mavzuning nomi, ishning holati (bitiruv ishi, dissertatsiya), ilmiy rahbarning ismi-sharifi, ilmiy darajasi, unvoni, ish bajarilgan joy nomi, vili ko'rsatiladi.

Ilmiy ishning qo'lyozmasi kompyuterda yoki qo'lda yoziladi, bunda ruchka bilan qog'ozning bir tomoniga yozish lozim. Har bir sahifaga tartib raqami qo'yiladi, qog'oz- sahifaning chap tomonidan 30 mm., pastki va yuqori tomonidan 25 mm. joy qoldiriladi. Qo'lyozma matn satrlari orasi ochiqroq qilib, ikki intervalda, har satrda 56-60 harf belgisi bilan yozilishi shart.

Malakaviy bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, iqtidorli talabalar bilan ishlash.

1.Talabaning malakaviy bitiruv ishi bakalavriat ta'limining yakuniy bosqichidir.Maqsad - talabaning ta'lim dasturi bo'yicha egallagan nazariy bilim

ham da amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni amaliyotda muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, ta'lim va boshqa sohalarda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llay olishga o'rgatishdir. Malakaviy bitiruv ishining mavzular ro'yxatini ixtisoslik kafedrası tuzadi, oliy o'quv yurti yoki fakultet ilmiy kengashi tasdiqlaydi.

Talabaning malakaviy ishi mavzusi va rahbari rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

1.Malakaviy ishga rahbarlar oliy o'quv yurtining professorlari, dotsentlaridan yoki boshqa korxona, muassasalarning yuqori malakali mutaxassislaridan tayinlanadi. Malakaviy ishi rahbari ning vazifalari - talabaga topshiriq berish; malakaviy ish rejasini tuzishga ko'maklashish; asosiy adabiyotlar, arxiv va boshqa manbalarni tavsiya etish; talabaga maslahatlar berish, malakaviy ishni bajarish jarayonini nazorat qilish; malakaviy ishning sifati va talaba o'zi bajarganiga kafolat berish, mavzuning, ishning aynan qaytarilishi, ko'chirilishiga yo'l qo'ymaslik, zarur hollarda maslahatchilarni taklif etishdan iborat.

2.Ixtisoslik kafedrası malakaviy ishga qo'yiladigan talablarni, hajmini belgilaydi, ishni bajarish bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqib, talabalarni ta'minlaydi.

3.Malakaviy ishni shaxsan talabaning o'zi bajaradi. Malakaviy ishda, ilgari bajarilgan ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning ishlari (ilmiy ma'ruza, maqola, hisobgrafik ishlar, kurs ishlari, loyihalari), albatta, manbai ko'rsatilgan holda aks ettirilishi mumkin.

4.Malakaviy bitiruv ishi oliy o'quv yurti belgilagan tartibda bajariladi, ilmiy ishlarga qo'yiladigan talablar asosida rasmiylashtiriladi. Ish rahbarning tavsiyasi bilan kafedra mudiriga taqdim etiladi, kafedraning ishni himoya qilishga tavsiya qilish haqidagi qarori va tashqi taqriz bilan himoyaga taqdim etiladi, himoyadan so'ng oliy o'quv yurtida saqlanadi.

5.Magistrlik dissertatsiyasi - bitiruv ishi bolib, uni himoya qilish ta'lim dasturining yakuniy qismi hisoblanadi. Uni muvaffaqiyatli himoya qilgan

talabaga magistr darajasi va diplomi beriladi. Magistrlik dissertatsiyasi ilmiy yoki ilmiy-texnik mazmunli, mantiqiy yaxlitlikka ega, tanlangan mavzu bo'yicha tadqiqot jarayoni va natijalarini aks ettiruvchi malakaviy bitiruv ishidir. Bu ish fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat, ta'lim rivojlanishining zamonaviy darajasiga mos bolishi kerak. Uning mavzusi dolzarb bolib, mutaxassislik bo'yicha ilmiy-texnik masalani yechishga qaratilgan boladi.

6. Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy saviyasi ta'lim dasturi talablariga javob berish lozim. Magistrlik dissertatsiyasini bajarish bitiruvchining, ilmiy tadqiqotni bajara olish, kasbiy muammolarni ko'ra olish va ularni yechishning umumiy usullari, yollarini o'rganganligini ko'rsatadi. Muallif magistrlik dissertatsiyasidagi ilmiy masalani yechish uchun mavzuning dolzarbligini asoslashi, tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilashi; tadqiqot obyekti, predmeti va metodlarini aniqlashi; tadqiqot natijalariga ishlov berishi, tahlil qilishi; olingan xulosalarni shakllantirishi, natijalami baholashi; iqtisodiyotning, m a'naviyat-madaniyatning tegishli tarmoqlari uchun aniq tavsiyalarni ifodalashi kerak.

7. Muallif magistrlik dissertatsiyasida ilmiy-texnik masalani yechish uchun tanlangan ilmiy-texnik mavzuning dolzarbligini asoslashi; yechilayotgan ilmiy-texnik soha bo'yicha masala holatining tahlilini jamlab berishi; ilmiy- texnik, texnik-iqtisodiy va boshqa talablarni shakllantirishi, qo'yilgan masalani yechish muqobilarni ko'rib chiqishi va eng samarali muqobil yechimni, ilmiy, konstruktorlik va texnologik yoki texnik-iqtisodiy yechimini asoslab berishi; ilmiy-texnik masala yechimining natijalari bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishi hamda iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida qomlash sohalarini aniqlashi lozim.

8. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini maxsus kafedralar aniqlaydi va ilmiy kengash tasdiqlaydi. Dissertatsiyani bajarishga, odatda fan doktori, professor rahbarlik qiladi, maslahatchi sifatida chetdan tegishli mutaxassislar jalb etilishi mumkin. Istisno tariqasida ilmiy kengash ruxsati bilan fan

nomzodi, dotsent ham rahbarlikka tayinlanadi.

9.O‘qishning ikkinchi semestri boshlanishi bilan talabaga magistrlik dissertatsiyasining mavzusi tayinlanadi, shaxsiy reja tuziladi va ular ilmiy kengashda tasdiqlanadi. Maxsus kafedra ishning hajmini mavzuning xususiyatiga qarab belgilaydi.

10.Magistrlik dissertatsiyasi quyidagi tuzilishda bo‘ladi:

titul varag‘i; mundarija; kirish; asosiy qism (2-3-bob tavsiya etiladi); xulosalar; foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati; ilovalar. undarijada kirish, boblar, paragraflaming nomlari, ularning boshlanish sahifasi raqami keltiriladi.

Kirish qismida - mavzuning dolzarbligi, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi, faraziyasi, vazifalari, ilmiy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatiladi.

Birinchi bobda mavzuning umumnazariy muammolari, tadqiqot olib borilgan obyektning qisqacha tavsifi beriladi.

Ikkinchi (va uchinchi) boblarda dissertatsiyaga o‘ldirilgan vazifa qo‘yish, ilmiy izlanishlar, amaliyotlar (tajribalar) jarayonida to‘plangan materiallar, statistik ma’lumotlar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili, uslubiyot, takliflar keltiriladi; erishilgan natijalar, yangiliklar, ixtirolar, me’yoriy ko‘rsatkichlar, ilgari surilayotgan g‘oya va fikrlar asoslanadi, isbotlanadi.

Xulosa va takliflar qismida dissertatsiya ishi bo‘yicha chiqarilgan xulosalar, aniq takliflar, magistrant o‘zi erishgan natijalari ko‘rsatiladi, qisqa xulosa va tavsiyalar boblar yakunida ham bolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida me’yoriy hujjatlar, o‘rganilgan manbalar, nashr etilgan asarlar, maqolalar alfavit tartibida keltiriladi. Xorijiy adabiyotlar ro‘yxati oxirida beriladi.

Ilovalar qismida dissertatsiya matni uchun tayyorlangan chizmalar, turli ishlanmalar keltirilishi mumkin.

Iqtidorli talabalar - O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omildir. Ular maqsadga intiluvchanlik, qat’iylilik, mehnatsevarlik kabi fazilatlari, ijodiy faoliyat bilan

shugʻullanish ishtiyoqi bilan ajralib turadi. Iqtidorli talabalarni izlash, tanlash va ular bilan ishlashning asosiy maqsadi-mamlakati- mizning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshiruvchi noyob isteʼdod sohiblarini voyaga yetkazish, ularga madaniyat, sanʼatning biror sohasi, fanning aniq yoʻnalishi boʻyicha oʻzlarida mavjud tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlan- tirishlariga imkoniyat yaratishdir.

Iqtidorli talabalar bilan alohida ishlashning asosiy vazifalari:

- Iqtidorli yoshlarning aqliy salohiyati va tabiiy qobiliyatlarini oʻstirishga alohida eʼtibor berish;
- malakali professor-oʻqituvchilarni iqtidorli talabalar bilan yakka ishlashga jalb etish;
- ilm -fan taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlari sohasida ilmiy tadqiqot ishlariga iqtidorli talabalarni keng jalb etish;
- maxsus oʻquvdasturlari va ilgʻor pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish;
- yuqori malakali, barkamol kadrlarni tayyorlash;
- iqtidorli yoshlar respublika banki va monitoringini shakllantirish kabilardan iborat.

Iqtidorli talabalar psixologik va pedagogik testlar oʻtkazish orqali qobiliyatining rivojlanganlik darajasiga qarab aniqlanadi. Ularni maqsadli tayyorlash quyidagilarga yoʻnaltiriladi:

- kengaytirilgan oʻquv rejasi boʻyicha oʻqish va qoʻshimcha malakaga ega boʻlish (tanlangan yoʻnalish boʻyicha; chet tilidan tajimon; EHM dasturchisi va hokazo);
- maqsadli dastur boʻyicha yakka tartibda oʻqitish;
- chuqurlashtirilgan dastur boʻyicha oʻqitish (umum kasbiy fanlar, menejment, marketing, audit, ekologiya va boshqa fanlar).

Iqtidorli talabalarni maqsadli tayyorlashda quyidagilar nazarda tutiladi:

- fanlarni yuqori darajada oʻzlashtirish;

- kompyuter bilimdonligi hamda dasturlashtirish;
- chet tillardan birini puxta egallash;
- kurs va bitiruv ishlarini, magistrlik dissertatsiyasini yozishda kompyuter va chet tilidan unumli foydalanish;

- ilmiy, ijodiy ishlarni bajarishda mustaqil fikrlash, yangi g'oya va takliflarni bildirish va amalda tatbiq etish;

- davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri tushunadigan, vatanparvar, barkamol shaxs sifatida shakllantirish.

- Iqtidorli talabalarga rahbarlik qilish va dars berishga ilmiy darajali, yetarli bilim-tajribaga ega, reytingi yuqori professor va dotsentlar jalb etiladi.

Ilmiy rahbarning asosiy vazifalari:

- maqsadli tayyorlash dasturini tuzish va uni bajarish jarayonini boshqarish;

- pedagogik texnologiya, kompyuter texnologiyasi, audiovideo texnikalarini keng qo'llash;

- dasturni yaxshi bajarayotgan talabalarni moddiy, ma'naviy rag'batlantirish uchun takliflar kiritish.

V BOB. OLIY MAKTAB O'QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATI

5.1. Innovatsion faoliyatining nazariy omillari

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. "**Innovatsion pedagogika**" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Evropa va AQSHda 60-yillarda paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A. Slastenin, A.I.Shcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazardan yoritilgan.

X.Barnet, Dj. Basset, D. Gamilton, N.Gross, R. Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning "hayoti va faoliyati" uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Oliy maktab o'qituvchisining innovatsion faoliyati oliy maktab pedagogikasining bosh muammolaridan biridir.

Shu jihatdan ushbu bobda oliy maktab o'qituvchisi innovatsion faoliyatining shakllanish konsepsiyasi, innovatsiyaning ijtimoiy-madaniy va hayot-faoliyati aspektlari haqida bahs yuritiladi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir.

A.I. Prigojin **innovatsiya** deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Tadqiqotchilar (A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy

qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi.

Ikkinchi yondashuv alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashdir.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar.

Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amaliy qo'llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uning keng tatbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasining qisqartirish bosqichi.

V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga yangilik kiritishni oddiy ishlab chiqish kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taaluqlidir.

Ikkinchi shaklga yangilikni keng ko‘lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o‘zaro ta‘sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada “yangi” tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. SHuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub’ektiv yangilikka qiziqish uyg‘otadi.

Xususiy yangilik V.A. Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko‘zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma‘lum unsurlarning yig‘indisi **shartli yangilik** hisoblanadi.

Mahalliy yangilik konkret ob’ektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

Sub’ektiv yangilik ma‘lum ob’ekt uchun ob’ektning o‘zi yangi bo‘lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo‘nalishlarda **yangilik** va **innovatsiya** tushunchalari farqlanadi.

Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

V.I. Zagvyazinskiy **yangi** tushunchasiga ta‘rif berib, pedagogikadagi **yangi** bu faqatgina g‘oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo‘lib, o‘zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta‘lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg‘or boshlanmalarini o‘zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova **pedagogik yangilikka** o‘qitish va tarbiya berishda avval ma‘lum bo‘lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o‘zgarib turishi mumkin bo‘lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova *innovatsion jarayon tuzulmasining uch blokini farqlaydi:*

Birinchi blok - pedagogikadagi **yangini** ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konserva torlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tatbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari e'tiborni tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;
- sub'ektiv tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlari ning xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlari ning xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;
- bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi – yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - etuklik – o'zlash tirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) – boyish (to'yinish) – qoloqlik - inqiroz – irradiatsiya(aldanish) – zamo naviylashtirish;
- boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalashtirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;
- tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaorlik qonuni;
- nihoyat amalga oshish qonuni;
- qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;
- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni.

Ayovsiz bemaorlik qonunida pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo'linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va qimmatini keng yoyadi.

Nihoyat amalga oshish qonuni yangilikning hayotiyligi bo'lib, u erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipga tushirish va amaliy harakatga o'tish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklarning amalga oshish yo'liga to'siq bo'lishga majbur bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar:

Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi.

Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Oliy maktabdagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Ya.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;
- shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;
- ko'p sub'ektki (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;
- individual - ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari) yondashuv.

Oliy maktabda **innovatsion faoliyatning sub'ekti** o'qituvchi, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi.

S.M.Godninning ishlarida talabaning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning sub'ekti sifatida yoritiladi. Unga quyidagilarni kiritadi: o'qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o'quv - tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning yangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a'lo darajada engay bilish, o'sish va mustahkam o'rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o'zining sotsial roli funksiyasini bajarishida faol munosabatda bo'lish va h.o.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini-o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri **talabalar bilish faoliyatini rivojlantirish**.

Bunday yo'nalish talabalar o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi.

Tayanch yo'nalishlar - ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, ularning o'zaro aloqalarida yangi tamoyillarga o'tish.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi tahlili uning eng muhim yo'nalishi **gumanistik aksiologiya** ekan degan xulosaga olib keladi.

Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamini anglatadi.

Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi.

5.2. O'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, etuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

B.G. Ananov, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan yo'g'rilgan inson hayotining eng ijodiy davrlari, etuklik bosqichlari to'g'risida fikr yuritadilar. Ular etuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga etishdagi balandliklardan o'ta olish masalalari bilan shug'ullanganlar.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub'ektiv omillari esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas'uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- iste'dod nishonalari;
- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste'dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;

- o‘quv yurti;
- o‘z xatti-harakati.

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o‘zining o‘sinh va takomillashish jarayoni;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

O‘qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual - ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliya ti;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;

• axborotlarga tashnalik, muammolardagi g‘ayri odatiylikka va yangilikka bo‘lgan his-tuyg‘u, professionalizm, bilishga bo‘lgan chanqoqlik (N.V.Vishnekova).

V.A.Slastenin ijodiy individualizmni ro‘yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;
- pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;
- samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;

• shaxsning o‘z taqdirini o‘zi belgilash va o‘zini o‘zi namoyon qila olishi asosida o‘z rivojlanishini ta’minlash;

Shu tariqa o‘qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o‘z-o‘zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o‘zini boshqalarga qiyos qilish asosida o‘z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o‘zi to‘grisidagi kreativ ko‘rinishlar va tasavvurlari to‘plami; individual kreativ o‘ziga xosliklarning bir butunligi va

uygʻunligi, ichki birligi; shaxsning oʻz rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs oʻzini namoyon qila olishi va oʻzining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida oʻzini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda oʻzining oʻrnini anglay olishi (V.A.Slastenin).

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv oʻqituvchining kasbiy mahorati choʻqqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

Oʻqituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo boʻldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi koʻnikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni koʻrsatadi:

- fikr ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yoʻllay olishi;
- oʻziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.)

M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial – ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individlarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi.

Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon – natija tavsifidan, kreativlikni belgilashda esa subʼekt – shartlilik tavsifidan foydalanadi.

Ijod mezonlari, uning psixologik mexanizmlari, ijodiy tafakkurning rivojlanish texnikasi V.A.Kan-Kalik, Ya.A.Ponomarev, S.Yu.Stepanov, T.V.Frolov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan.

D.B. Bogoyavlenskaya ishlarida ijod tahlili birliklari belgilab berilgan. Bunday birlik sifatida muallif intellektual faollikni ko'rsatadi hamda uning uchta bosqichini ajratadi:

- rag'batlantirish samarali yoki sustkashlik bosqichi. SHaxsning bu bosqichiga unga tashqaridan berilgan vazifalarni tashabbussiz qabul qilish xarakterlidir;

- intellektual faollikning evristik bosqichi. Bu bosqichda o'z faoliyati tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish davom etadi, yangilik ochish, oqilona hal qilishga imkoniyat beradigan ayrim vazifalar qiyoslanadi;

- intellektual faollikning kreativ bosqichi. Bu bosqichda qo'lga kiritilgan empirik qonunlar kelgusi tadqiqotlar uchun maqsad bo'lib qoladi.

Rag'batlantiruvchi, samarali va evristik bosqichga qoloq (ekstensiv) aqliy faoliyat, kreativ bosqichga intellektual faoliyat xosdir.

N.M. Gnatko kreativlik mexanizmlarni quyidagi bo'limlarga bo'lib o'rganishni taklif etadi:

- potensial kreativlik;
- faoliyatdagi kreativlik.

Potensial kreativlik N.M Gnatkoning fikricha, muayyan tashqi sharoitlarda faol kreativlikka aylanishga nazariy tayyor shaklda namoyon bo'ladigan individuumning potensial joylashishini anglatuvchi kreativ faoliyatdir. Potensial kreativlik ijodning zaruriy sub'ektiv shartidir.

Faoliyatdagi kreativlik - faoliyatning biror turida ijodiy faollik ko'rsatuvchining bevosita tayyorgarligini ta'minlaydigan faoliyatining u yoki bu turi tavsifli potensial kreativ individuumning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi. Faol kreativlik ijodning eng muhim sub'ektiv shartidir (N.M.Gnatko).

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, potensial kreativlik amalga oshirish mumkin bo'lgan kreativlikdir. Uni faoliyatdagi kreativlikka o'tkazish muayyan faoliyat turini tashuvchi (sub'ekt) tomonidan uning o'zlashtirilishida tub o'zgartirishlar qilish orqali amalga oshadi.

V.A. Slastenin, N.M.Gnatkoning potensial kreativlikni muntazam faoliyatdagi kreativlikka taqlid qilish asosida o'zgartirib borish haqidagi qarashlariga qo'shilgan holda uni to'ldirib, kreativlik taqlid qilish, nusxa olish yo'li bilan rivojlanadi hamda taqlid qilish asosidagi ijod haqiqiy ijodga olib keladi, deb hisoblaydilar.

O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin:

Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar tuzukkina ko'chiriladi; **ikkinchi bosqichda** mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; **uchinchi bosqichda** g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; **to'rtinchi bosqichda** o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiyasi va metodikasi yaratiladi.

O'qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiyadir.

Refleksiya o'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olish deb qaraladi (o'z fikri va harakatlariga tashqaridan nazar. V.A.Slastenin).

Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an'anasi mavjudligi aytiladi:

- ob'ektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili;

- shaxslararo muloqot ma'nosini tushunish refleksiyasi.

Bu bilan bog'liq ravishda pedagog olimlar quyidagi reflektiv jarayonlarni farqlaydilar:

- o'z-o'zini va boshqalarni tushunish;
- o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish;
- o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

Refleksiya (lotincha Reflxio- ortga qaytish) sub'ektning o'z (ichki) psixik tuyg'u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.

Falsafa va pedagogikaga oid adabiyotlarda refleksiya shaxsning o'z ongidagi o'zgarishlarni fikrlash jarayoni deb yoziladi.

Psixologik lugʻatda shunday izoh beriladi: "Refleksiya - faqat sub'ektning oʻz-oʻzini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuygʻusi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi.

V.A.Lefevr taʼkidlagan ediki, inson oʻzining xatti-harakatlariga, fikrlariga nisbatan kuzatuvchi, tadqiq qiluvchi boʻlib qolmasligi, balki boshqa personajlar, ularning xatti-harakatlarini oʻrganuvchi mavqe egallashi ham kerak.

M.V.Klarin ijodiy tafakkur xususiyatlarini refleksiya bilan bogʻlaydi. Bunday oʻzaro aloqalarda refleksiya oʻzida xulosa chiqarish, umumlashtirish, analogiya, qiyoslash va baholash hamda muammolarni eslash, eng olish va hal qilishlarni birlashtiradi.

V.A.Petrovskiy refleksiya faoliyati tahlilida uning ikki turini farqlaydi:

- retrospektiv;
- prospektiv.

V.A.Petrovskiyning aniqlashicha, **retrospektiv refleksiya** bu "sodir etilgan faoliyat tarixining retrospektiv tiklanish shaklidagi refleksiyasidir".

Prospektiv refleksiya - bu faoliyatning amalga oshishiga boʻlgan talabning hukm surish dinamikasi.

S.Yu. Stepanov, I.N. Semenov ishlarida intellektual va shaxsiy refleksiyalar farqlanadi. V.V.Davidov oʻz tadqiqotlarida formal va mazmun refleksiyasini asoslab berdi. I.S.Ladenko analitik va sintetik refleksiyani farqlaydi.

Demak, oʻqituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi motivatsion, kreativ, texnologik va reflektiv komponentlardan iboratdir.

Innovatsion faoliyat tuzilmasi haqidagi muhim tizimli tasavvurlar, ularning vazifalarini asoslash, ularning shakllanganlik meʼyorlari va sathlari ularni oliy maktab amaliyotiga tatbiq etishning zarur omili hisoblanadi.

5.3. O'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.

Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishini ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti *muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir*.

Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti - bu o'qituvchining *madaniyat va muloqotga shayligi*.

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini echishni aniqlashga qaratilgandir.

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro

boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyati bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;

- ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samardorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi

Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning

qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, sub'ektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi.

Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilik dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiriladi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob'ektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;
- kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;
- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishqlik darajasini aniqlash;
- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;
- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

V.A.Slastenin tadqiqotlarida o'qituvchining innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli:

- shaxsning ijodiy-motivatsion yoʻnalganligi. Bu - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; oʻz kamolotiga intilish va boshqalar;

- kreativlik. Bu – hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi boʻlish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, oʻzicha mushohada yuritish, refleksiya;

- kasbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va oʻzaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;

- oʻqituvchining individual qobiliyati. Bu - ijodiy faoliyat surʼati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qatʼiyatlik, oʻziga ishonch; masʼuliyatlilik, halollik, haqiqatgoʻylik, oʻzini tuta bilish va boshqalar.

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari oʻqituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi meʼyorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slavenin):

- innovatsion faoliyatga boʻlgan zaruriyatni anglash;
- ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;
- shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;
- ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga shaylik;
- innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;
- innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka taʼsiri;
- kasbiy refleksiya boʻlgan qobiliyat.

Oliy maktabdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, oʻqituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri oʻqituvchi shaxsidir.

Oʻqituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs boʻlishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashgʻullikni, ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga oʻch boʻlishi lozim.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;
- yangicha harakat qila olishga o'rgatish.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

6-BOB OLIY MAKTABDA TARBIYAVIY ISHLAR NAZARIYASI VA METODOLOGIYASI

6.1. Talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy odatlarini tarbiyalashning vazifalari

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o'z vatananing ilg'or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevishtirish tuyg'usi bilan birgalikda etilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon ulkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushinib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Ma'naviyati yuksak shaxslar yurtini tanitadi. Shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat – tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim – tarbiyasiz ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!" degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Bu esa, insonni

mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va mushohada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. SHu tarzda inson asta-sekin komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflı mehnat va qunt, irodani talab etadi.

Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, faqat ma'naviyat-ma'rifat keng quloq yoygan, ilm-urfon taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-biriga mehr-oqibatli, kamolatli insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik, yaratuvchilik ishiga, ezgulikka intilishi kuchli va jamiyat fuqarolarida sog'lom fikr, aql-idrok har doim ustuvor bo'ladi.

Mustaqillik bizga ma'rifiy, madaniy, adolatli va insonparvar jamiyat qurish imkonini berdi. Endi bu jamiyatga har bir inson o'z o'rni, mavqeiga yarasha vijdonan hissa qo'shmog'i lozim.

Insonning ma'naviyati uning odobi, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlari zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Fazilatlar insonning ijobiy sifatleri majmuidan iborat.

Sifat – alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir.

Fazilat – alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy axloqiy sifatlar majmui.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, axloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlanganligi bilan belgilanadi. SHu o'rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to'xtalib o'tish joizdir.

Odob – har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishidir.

Axloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmui.

Madaniyat – jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to‘plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Ma’naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Kamolotga erishgan, har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalash jarayoni uning doimiy, muntazam izchil va bir tizimga kirgan shaklda bo‘lishini taqozo etadi. Bu yo‘lda kasbiy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini takomillashtirish, professional fanlar singari g‘oyaviy mazmuni talabalarga yangi jamiyatning har bir mutaxassisiga zarur bo‘lgan ijtimoiy dunyoqarashni shakllantiruvchi tasavvurlar zahirasini hosil qilishi lozim bo‘lgan ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitishga yangicha yondoshuv asosida axloq malakalarini hosil qilish mumkin. Talaba yoshlarda yagona pedagogik jarayonda ma’naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalashda quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

- sho‘rolar hokimiyati davrida ta’lim sohasidan o‘rin olgan mafkuraviy mahdudlikdan xalos bo‘lish;
- o‘zbek milliy mentaliteti va jahon sivilizasiyasi yutuqlariga tayanadigan ma’naviy qadriyatlar tizimini mustahkamlash;
- Sharq mutafakkirlari asarlarida ko‘tarilgan Komil inson g‘oyasi ta’limotlariga amal qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida ta’lim-tarbiya xususan hozirgi zamon yoshlari qanday bo‘lishi kerak degan ta’limotiga nisbatan javoblarga to‘la amal qilish kabilar.

6.2. Oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning asosiy mohiyati va mazmuni

Kasb ta’limi muassasalarida olib borilayotgan ishlarning mohiyati – uning milliy mafkurasiga asoslangan, ma’naviy-axloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, fuqaroviy, mehnat, madaniy-maishiy, ekologik va shu singari yo‘nalishlar bilan erishiladigan g‘oyaviy a’mol va ideallarga mos holda olib borilishi maqsadga

molik masaladir. Bu muammolarni amalga oshirish barcha pedagoglarning oldida turgan yuksak vazifadir.

Mustaqillik sharoitida talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda qator vazifalarni hal etish talab etiladi. Jumladan:

- Har bir ta'lim oluvchining ongida davlat mustaqilligiga xalqning oliy g'oyaviy-axloqiy qadriyati ekani, o'z vatani bilan faxrlanish, uning xavfsizligini ta'minlash va O'zbekistonning ulug' tarixiy o'tmishiga, bozor munosabatlariga asoslangan yangi demokratik jamiyat qurishda tanlab olgan o'ziga xos yo'lini mustahkamlash, islom dini ruhi bilan sug'orilgan oliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni to'g'ri tushuntirish va uni e'tiqodga aylantirish;

- Ta'lim oluvchilarda umuminsoniy insonparvarlik axloqi, madaniyati me'yorlarini, zamonaviy qadriyatlar ehtiyoji, o'zi yuqori tutish va viqor saqlash, oilaviy tantanalarda o'zini ko'rsatishga urinish, xizmat vazifasidan shaxsiy maqsadlar uchun foydalanish ko'rinishlariga murosasiz bo'lish ruhini tarbiyalab borish ularning yuqori axloq malakalari bilan qurollantirishning garovi bo'lib hisoblanadi.

Umuman olganda, axloqiy tarbiya tarbiyaviy ishlar kompleksida etakchi o'rin tutadi. Kasb ta'limi muassasalarida talaba-yoshlarda axloqiy tarbiyani amalga oshirishda avvalo axloqiy tushuncha va ishonch hissini yaratishdan boshlagan ma'qul. Chunki yoshlarda axloqiy tushuncha e'tiqodlarni tarkib toptirmay turib, axloqiy odatlarni, xatti-harakat bilan bog'liq malaka va odatlarni hosil qilib bo'lmaydi. Bunda asosan yoshlarga axloq-odob norma va qoidalari mazmuniga oid bilim berishga katta ahamiyat berish lozim.

6.3. Oliy ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosi

Axloqiy tarbiya mazmunining shakllanishida o'zbek mutafakkirlarining alohida xizmatlari bor. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlar tarbiya jarayoniga jiddiy qaraganlar va bu boradagi qimmatli fikrlarini dunyoga tanilgan asarlarida bayon etganlar. Ushbu asarlar nafaqat O'zbek xalqining, balki butun insoniyatning rivojlanish jarayonida muhim

ahamiyat kasb etgan. Ularning ilmiy qarashlari bugungi kunda ham insoniyat uchun dasturi amal bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Abu Nasr Forobiy - mashhur mutafakkir, qadimgi Yunon ilmi va falsafasining sharqdagi eng yirik targ'ibotchisi. O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga asos solgan mutafakkir. Forobiy «Aql haqidagi risola», «Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak», «Substansiya haqida», «Falsafa manbalari», «Logikaga kirish», «Masalalar manbai» kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi. Farobiy bu asarlarida davlat tuzilishi va uni boshqarish, turli ijtimoiy nizolarning oldini olish hamda kamolatga erishgan ijtimoiy jamoani yaratish kabi masalalar ustida fikr yuritadi. Etuk jamoani vujudga keltirish, komil insonni yaratish muammosini hal etish bilan bog'liq ekanligini birinchi bor o'rta asr sharoitida Forobiy olg'a surdi. Uning «Ideal jamoa haqida», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» kabi mashhur asarlari shu masalalarga bag'ishlangan. Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zururligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubiyatlari haqida fikr yuritadi. Uning «Fozil odamlar shahri», «Ixso-al-ilm», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Jamiyatda mavjud an'ana va urf-odatlarda ham axloq me'yorlari va mazmuni o'z aksini topadi. Axloqiy tarbiyaning bir kategoriyasi sifatida axloqiy qadriyatlar qabul qilingan va bu axloqiy qadriyatlar axloqiy tarbiyaning mazmunini va me'yorlarini belgilashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Umuman qadriyatlar deganda milliy va umuminsoniy qadriyatlar tushuniladi. Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qadriyatlar kishilarning turli sohadagi, avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmui bilan bog'liq holda yuzaga keladi. So'ngra asta-sekin sub'ekt faolligining orta borishi natijasida nisbiy mustaqil soha tarzida amal qila boshlaydi. Axloqiy mazmundagi qadriyatlar bolaning ongi va faoliyatini faollashtiradi, ish va so'z biriligini ta'minlashga yordam beradi. Bunday qadriyatlar jumlasiga insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, mehr-muhabbat, poklik, kattalarga hurmat,

muhabbat, xushmuomalalik, do'stlik, saxiylik, sahovat, shirinso'zlik va boshqalar kiradi. Mazkur qadriyatlar negizida jamiyatda, oilada, maktabda bolani yuksak insoniy fazilatlarga ongli ravishda amal qilishga da'vat etish g'oyasi yotadi.

Axloqiy tarbiya jarayonining dastlabki bosqichida shaxs axloq me'yorlariga ma'lum darajada to'g'ridan-to'g'ri bo'ysungan holda ko'r-ko'rona amal qilsa, axloqiylikning yuqori darajasiga etganda, to'g'ridan-to'g'ri ko'r-ko'rona bo'ysunnish ongli idrok etishga yakka shaxsning axloq me'yorlari va jamiyat axloq me'yorlari o'rtasida uyg'unlikning hosil bo'lishiga erishish lozimdir. Axloqiy madaniyatning muhim belgilaridan biri ham xuddi ana shu shaxs va jamiyat orasidagi uyg'un munosabatning, axloqiy birlikning hosil bo'lishidir.

Inson axloqiy madaniyatning eng oddiy me'yorlarini ilk yoshligidan boshlab avval oilada, so'ng o'rtoqlari bilan bo'ladigan munosabatlarida egallay boshlaydi. Bu ahloqiy me'yorlarga amal qilishning motivlari turlicha bo'ladi. Ota-onaga bo'lgan hurmat va muhabbat bolani axloqiy talablarga amal qilishga va shu orqali ota-onaning hayrixohligiga va mehriga sazovor bo'lishga undaydi. Bundan tashqari me'yorlarga amal qilmaslik holatida jazolashdan foydalanish ham bolani ogoh bo'lishga undaydi. O'z tengqurlari bilan muloqotga kirishish ishtiyoqi, ichki ehtiyoj ham bolada axloqiy me'yorlarga amal qilish motivasiyasini uyg'otadi. Bularning barchasi har bir yosh bolani axloqiy me'yorlar bilan to'qnashishiga va ularga amal qilishni o'rganishiga yordam beradi. Bularning barchasi insonda axloqiy me'yorlarga amal qilish malakasini va ko'nikmasini hosil bo'lishiga olib keladi. Ammo bunday axloqiy me'yorlarga amal qilishni biz xali axloqiy onglik darajasi deb ayta olmaymiz. Chunki bu holda axloqiy me'yorlar ichki ehtiyojdan kelib chiqqan holda emas, balki tashqi ta'sirlarning natijasi sifatida vujudga keladi. Shunga qaramay axloqiy darajaning bu dastlabki pog'onasi juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u boshlang'ich nuqta sifatida keyingi rivojlanish uchun xizmat qiladi. Axloqiy rivojlanishning bu bosqichida atrof-muhitdagi axloqiy madaniyat darajasi eng muhim rol ni o'ynaydi.

Rivojlanishning barcha bosqichlarida jamiyatda qaror topgan axloqiy bilimlar yangi axloqiy bilimlar bilan to'ldirilib birishi talab etilgan. Aytish joizki, bu

qonuniy jarayondir. Demak, hozirgi vaqtda ham axloqiy bilimlarimiz qanchalik boy bo'lmasin dialektik rivojlanish qonuni ushbu axloqiy bilimlarni yanada to'ldirib borilishini talab etadi. Ayniqsa O'zbekiston respublikasida ro'y berayotgan sifat o'zgarishlar bugungi kunda axloqiy qarashlarni qaytadan talqin etishni, fan va texnikaning rivoji natijasida erishilayotgan yangi bilimlardan axloqiy tarbiya jarayonida foydalanishni taqozo etishini nazarga olsak, bu vazifani qanchalik zarurligini his etamiz. Demak, biz axloqiy tarbiyani uchinchi vazifasini ham aniqlab oldik bu - axloqiy bilimlarni yanada to'ldirib borish, ilm-fan erishgan yangi bilimlardan va yutuqlardan foydalanishni yo'lga qo'yishdan iborat.

6.4. Yoshlarni kasbga yo'naltirishda milliy mafkuraga asoslangan ma'naviy-axloqiy, madaniy-maishiy ishlar

Bugungi kunda kelajagi buyuk davlatni qurish tafakkuri, dunyoqarashi zamon talablariga mos ravishda o'zgargan mutaxassislarimizga ko'p jihatdan bog'liqdir. Yangicha fikrlaydigan, yangi bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli xo'jalik yuritadigan yuksak malakali, chuqur bilimli mutaxassislarni tayyorlash davr talabi va haqiqat taqozosidir.

Bugungi kunda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashning umumiy mazmuni va o'ziga xos xususiyati shundan iboratki:

- u bozor iqtisodiyotining fundamental asosi;
- zamonaviy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri;
- aholi kasb ta'limining obro'li sohasi;
- uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimini barpo etish va rivojlantirish tajribasi katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi, chunki u zamonaviy iqtisodiy ta'limning ahvolini tahlil qilish va nazariy jihatdan izohlash, uning uzluksiz kasb ta'limi tizimi bilan uyg'unlashtirish va samarali didaktik rivojlanishni bashorat qilish vazifalarini hal etish imkonini beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda kasb ta'limi (shu jumladan oliy ta'lim)ning bosh maqsadi – raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va barcha toifadagi malakali xodimlarni tayyorlash orqali raqobatbardosh xizmat ko'rsatishdan iborat.

Raqobatbardosh mutaxassislersiz raqobatbardosh iqtisodiyot bo'lishi mumkin emas.

Kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosini amalga oshirish uchun qator muammolarni hal etishga e'tiborni qaratish kerak. Ular:

1. O'qitish jarayonini ilg'or pedagogik texnologiya va axborot texnologiyasi asosida uyushtirish;
2. Talaba va ustoz o'rtasidagi axloqiy hamda aqliy saviyani oshirishga erishish;
3. Ta'lim-tarbiya masalalari qat'iy reja asosida olib borilishi;
4. O'quv muassasida ijobiy emosional sharoit yaratish;
5. Ta'lim oluvchilarni o'quv muassasining umumiy tartib, hayot tizimiga rioya qilishga erishishni ta'minlash.

Shunday qilib, yagona ta'lim-tarbiya jarayonida axloqiy tarbiya ishini amalga oshirishda suhbat, munozara, ma'ruza kabi metodlardan, axloqiy odatlarni esa mashq, turli faoliyatni uyushtirish orqali amalga oshirish mumkin.

Axloqiy tarbiyani dastlabki pog'onasida axloqiy muhit, axloqiy shart-sharoitlar eng asosiy omil sifatida maydonga chiqadi va shuning uchun ham bizning birinchi vazifamiz bu pog'onada ana shu qulay axloqiy muhitni yaratishga harakat qilishdir. Bu axloqiy tarbiyaning dastlabki vazifalaridan biri. Ammo muhit, xususan axloqiy muhit qanchalik qulay bo'lmasin, u o'z-o'zidan axloqni shakllantira olmaydi. Ana shu axloqiy muhitda yashayotgan shaxsning individual xususiyatlari (temperament, xarakter, qobiliyati) muhit ta'siriga nisbatan o'zining javob reaksiyasini vujudga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda har bir shaxs tashqi ta'sirga o'z shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda javob beradi.

Ta'lim oluvchilarda umuminsoniy insonparvarlik axloqi, madaniyati me'yorlarini, zamonaviy qadriyatlar ehtiyoji, o'zi yuqori tutish va viqor saqlash, oilaviy tantanalarda o'zini ko'rsatishga urinish, xizmat vazifasidan shaxsiy maqsadlar uchun foydalanish ko'rinishlariga murosasiz bo'lish ruhini tarbiyalab borish ularning yuqori axloq malakalari bilan qurollantirishning garovi bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ushbu bobda kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosi bo'yicha juda ko'p ma'lumotlar misollar asosida berilgan.

VII BOB. OLIY TA'LIM MUASSASASINI BOSHQARISH

7.1. O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad, har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. SHunga ko'ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari shu maqsadga erishishni ko'zda tutadi.

Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Ko'pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa o'quvchilar jamoasining aqliy va axloqiy o'sishini ta'minlaydi.

Quyida o'quv-tarbiya jarayonining qonun-qoidalarini ko'rib chiqamiz.

1. Tarbiyaning ma'lum bir maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollari ko'ra bilishga yordam beradi. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o'ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga bo'ysundirilgan bo'lsa, uning g'oyaviy-siyosiy darajasini ko'taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi, ularning tarbiyaviy ta'siri yuqori bo'ladi.

Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi. Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama kamol topgan - mukammal inson shaxsini tarbiyalashdir.

O'qituvchilar jamoasi va har bir o'qituvchi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda maktab ish sharoitlarini hisobga olgan holda yosh yigit-qizlarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

2. Tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi; Umumiy ta'lim maktabi yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o'z ishining ustasi bo'lgan o'qituvchiga muhtoj. O'qituvchining bilim saviyasi, ma'naviyati jamiyatni xarakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi etakchi omillardan biridir. O'qituvchi yurish-turishi, xatti-harakati, kiyinishi, muomalasi bilan o'quvchi qalbiga kirishi, uni ezgulik sari yo'naltirishi kerak.

Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchi-talabalarni bilimlar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiyada o'quvchi-talabaning jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy malaka va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirish muhimdir.

Hamma davrlarning ilg'or kishilari tarbiyaga yukori baho berganlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida inson kamolatida tarbiyaning rolini alohida ta'kidlab shunday degandi: «Janobi haq insonlarning asl hilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga etkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar Tabib kabi durki, Tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i lozimdir. Zero, amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmoqqa amr qilinganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadir. Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordir».

O'quv jarayonini boshqarish nisbatan oson, uning natijalari darhol namoyon bo'ladi va ularni tekshirish mumkin. Tarbiya haqida buni aytish mumkin emas.

Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyat negizi asosida hukumat qarorlarida xalq ta'limi islohatlarida olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyat negizi asosida hukumat qarorlarida xalq ta'limi islohatlarida olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalari yosh avlodga milliy mafkurasini shakllantirishda, ma'naviyatni milliy merosimiz bilan boyitishda, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yangicha ish uslublari asosida ijodiy yondoshmoqdalar.

O'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o'quv muassasini boshqarishning asosiy ob'ekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

Ijtimoiy boshqaruvning asosiy mohiyati ikki asosiy masalani echishga qaratiladi:

1. Pedagoglar faoliyatini yo'naltirish.
2. Pedagoglar faoliyatini faollashtirish.

Birinchi masalani hal qilish uchun boshqaruv sub'ekti xodimlar faoliyatini talab etiladigan yo'nalishga soluvchi ma'lum dasturni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Ikkinchi masalani hal etish uchun shaxsning hissiy-ehtiyoj sohasidagi talablarini (moddiy va ma'naviy, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash, mehnatni tashkillashtirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish) rag'batlantirishni qondiruvchi imtiyozli sharoitlar yaratiladi.

Pedagogik faoliyatni faollashtirishda boshqaruv dasturining sifati, ya'ni aniqligi, real sharoitga asoslanganligi, pirovardida yuqori natija berishi, ishlanganlik darajasi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Har bir sohaga oid dasturlar alohida xususiyatlarga ega bo'ladi, biroq ularning barchasida quyidagi qonuniyatlar kuzatiladi: bajariladigan ish qay darajada ko'proq ijodiy mehnatni talab qilsa, jamiyat shu darajada insonparvarlashib va demokratlashib boradi, cheklashlar qay darajada kam bo'lsa tashabbus bilan ishlash darajasi shuncha ortib boradi.

7.2. Pedagogik jamoa – o‘quv muassasi boshqarishning ob’ekti

Respublikamiz hukumati ta’lim sohasida o‘rtaga qo‘yyayotgan vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan pedagogik jamoaga bog‘liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish sharoitida ta’lim-tarbiyadan ko‘zlangan maqsadga erishish vazifasi asosan pedagogik jamoa zimmasiga yuklatilgan. Bu o‘z navbatida o‘quv muassasasini boshqaradigan rahbarning faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Qaysi o‘quv muassasasida ichki va tashqi nazorat yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha ta’lim maskanida ta’lim-tarbiya ishlari ham izchil bo‘ladi. Pedagoglar jamoasi ishini sistemali nazorat qilish bir tomondan har bir pedagogning o‘z ishi uchun mas’uliyatini oshiradi hamda o‘z ishida kamchiliklarni vaqtida aniqlash va tuzatish imkonini beradi.

Ta’lim muassasi ishini har jihatdan to‘g‘ri tashkil qilish, uning samaradorligi natijasi garovidir. Bu esa jamoa mehnati jarayonlarini oqilona yo‘lga qo‘yishni taqoza etadi. Binobarin, yoshlarni tarbiyalash ko‘plab kishilarning umumiy mehnati jarayonida hal qilinarkan, demak bu mehnatning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning kuchlari qanchalik to‘g‘ri yo‘naltirilganligiga, maqsadlar birligi va harakatlar muvofiqligi qanday ta’minlanayotganligiga bog‘liqdir. Aks holda birgalikda qilinayotgan jamoa mehnatining samaradorligi pasayib ketishi mumkin. Maqsadlarni tushunish birligini amalga chiqarish, so‘ngra bu maqsadlarga erishish jarayonida o‘zaro aloqalarni ta’minlash maktabni boshqarishning muhim vazifasi bo‘lib, bu vazifaning pirovard natijasi asosan rahbarning faoliyatiga bog‘liq.

Ta’lim muassasasini boshqarishda:

1. Tizimni tashkil etishni ishlab chiqishi, tadqiqot, loyihalash ishlarini yo‘lga qo‘yib ish tartibini belgilashi, shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘yilmasligi.
2. Amaliy ish bajarishning belgilangan tartibda va tizimga muvofiq bajarilayotganini tekshirish.
3. Ish me’yorining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikni, qiyinchilik va to‘siqlarni o‘z vaqtida bartaraf etilishini kuzatishi va shu singari boshqa muo‘im ishlarni amalga oshirishi lozim.

Demak, ta'lim muassasasi rahbari ish faoliyatini 4 bosqichga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Olingan axborot asosida qaror qabul qilish. Ishning vazifalarini va yo'nalishlarini belgilash. Ma'lum ob'ektiv ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish. Yaqin istiqbolli rejalarni belgilash. Ishning mavjud haqiqiy ahvolini belgilash, ularni taqqoslash, imkoniyat darajalarini hisobga olish, variantlarni tanlash, muassasaning rivojlanish yo'lini belgilash va boshqalar.

2. Tegishli yangi qarorlarning asosiy g'oyalarini ularni ijro qiluvchilarga tutuntirishi, olingan ma'lumotlarga asosan ishni ko'rib chiqib, kamchiliklarni tuzatishi, bu vazifalarni amalga oshirishda o'quv-trabiyaga oid tadbirlarni amalga oshirishi, kadrlar tanlashdan to'g'ri foydalanishi va hokazolar.

3. Ta'lim-tarbiya jarayonining haqiqiy ahvoli to'g'risida doimiy ishonchli ma'lumotlar olib turishi, davlat dasturlarini bajarilishini, talablarda yagonalikka erishilishini nazorat qilishi, o'qituvchilar va butun jamoaning hisobotlarini eshitib borishi va boshqalar.

4. Favqulodda yuzaga kelgan kamchilik va nuqsonlarni, to'siqlarni bartaraf etishi, intizomga oid suhbatlar tashkil qilishi, shikoyat va iltimos bilan kelgan ota-onalarni qabul qilishi, muassasani boshqarishning asosiy vazifalaridan chalg'itmaydigan ishlar va topshiriqlarni bajarishi va hokazolar.

Har o'quv yilining oxirida pedagoglar jamoasi faoliyati yakunlari muayyan shaklda aniqlanadi va baholanadi. Bu ish bundan keyingi ishlarning tashkil etuvchisi va boshlanishi bo'lib xizmat qiladi. Pedagog o'quv yili oxirida qilingan barcha ishlardan olingan natijalarni solishtirib u yoki bu metodlarning qanchalik muhim ekanligiga baho berishi va shu asosda tajriba to'plashi, o'z ishini takomillashtirib borishi mumkin.

Yil davomida pedagoglar jamoasida muhokama qilish uchun barcha pedagoglarning bir xildagi tushunishi mumkin bo'lgan prinsipial masalalarni qo'yib borish ham yaxshi natija beradi. Jamoa rahbari ma'naviyat-ma'rifat ishlarining kundalik ahvolini, mashg'ulotlarga, suhbatlarga, majlislarga, turli mavzulardagi yig'ilishlarga kirish hamda ota-onalar, talabalar, pedagoglar bilan

doimiy suhbatlar o'tkazish orqali o'rganib boradi va ayrim juz'iy kamchiliklarni yo'l-yo'lakay tuzatib boradi.

Shunday qilib, jamoaning rahbari va jamoa a'zolarining faolligisiz, ta'lim-tarbiya berishda samarali natijalarga erishib bo'lmaydi. SHu sababli ta'lim muassasasi rahbari doimo ularning kuchiga tayangan holda ish yuritishi va ular bilan muntazam ravishda aloqada bo'lib turishi zarur.

7.3. Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi

Ushbu qonuniyat o'qituvchilardan tashabbusni, mustaqil qaror chiqara olishni, o'z vazifasiga ijodiy yondoshuvni talab qiluvchi pedagogik faoliyatga ham tom ma'noda taaluqlidir. SHu sababli bu sohada bajarilishi qat'iy talab etiladigan direktiv dasturlarning kamroq qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bunday dasturlarda ish tartibiga, hujjatlarni yuritishga va mehnat faoliyatining oxirgi natijasiga aniq talablarni belgilash bilan cheklanish mumkin. Ta'lim natijasiga belgilanadigan talab qat'iy belgilanadi va davlat ta'lim standartlarida rasmiylashtiriladi. Pedagogik faoliyatning sifat ko'rsatkichi esa, mos ravishda ta'lim oluvchilarning ushbu talablar darajasiga muvofiqligida o'z aksini topadi. Demak, direktiv boshqaruv dasturlaridan voz kechish pedagoglarga cheklanmagan erkinlik berilishini anglatmaydi. Ushbu yo'nalish e'tiborini ta'lim jarayoni usullari va mazmunidan uning yakuniy natijasiga ko'chirilishiga qaratilgan.

Bajarilishining majburiyligi nuqtai nazaridan boshqaruv dasturlarini informativ va direktiv turlarga ajratish mumkin. Jumladan, matbuotda nashr etilayotgan turli ilmiy-metodik tavsiyalar informativ dasturlar hisoblanadi va ularning bajarilishi majburiy deb belgilanmaydi. Pedagoglar ulardan faqat o'zi uchun zarur deb bilgan qismini bajarish huquqiga ega. Informativ dasturlarni bajarishi to'laliligicha pedagogning xohishi, uning ehtiyoj va istaklaridan kelib chiqib belgilanadi. Direktiv hujjatlarning bajarilishi majburiy bo'lib, u tegishli tartibda nazorat qilinadi. Jamiyatimizning demokratlashib borishi natijasida informativ dasturlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borishi kuzatilmoqda.

Ta'lim muassasini boshqarish konsepsiyasini ko'plab boshqaruv g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan tashkiliy model sifatida tasavvur qilish mumkin.

Faoliyat nuqtai nazaridan yondoshilganda, boshqaruv modelida quyidagi tarkibiy elementlarni ko'rsatish mumkin: motiv, maqsad, rejalashtirish, joriy axborotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, harakat, natijalarni baholash va tizimga tegishli tuzatishlar kiritish.

Boshqaruv jarayoni davriy xarakterda bo'lib, bu davrlarning har biri o'z davomiyligi, o'z tadbiq etilish sohasi, vazifalari va o'z echimiga ega. Boshqaruvning alohida olingan davrini quyidagi jarayonlarni qamrab olgan bo'g'in sifatida tasavvur qilish mumkin:

1. Axborotlarni qabul qilish va ularning tahlili.
2. Boshqaruv qarorining qabul qilinishi.
3. Ta'lim muassasi faoliyatini rejalashtirish.
4. Rejani bajarish uchun ishni tashkil qilish.
5. Hisob-kitob, nazorat ishlari va natijalarini tahlil qilish.

7.4. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing

Bugungi kunda kasbiy ta'lim muassasalari ham bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida faoliyat ko'rsatishi va ta'lim oluvchilarni raqobatbardosh qilib tayyorlashi talab etiladi. Bunda ta'lim muassasasining marketing xizmati muhim o'rin tutadi. Marketing tadqiqotlari bir qancha keng sohadagi masalalarni qamrab oladi:

- qisqa (1 yilgacha) muddatli ijtimoiy-pedagogik prognozlar;
- uzoq (1 yildan ortiq) muddatli ijtimoiy-pedagogik prognozlar;
- bozorning joriy va istiqbol potensialini o'rganish;
- bitiruvchilarning ish joylashuv statistikasi tahlili;
- yangi sohalar mutaxassislarining ish o'rinlarini o'rganish;
- yangi ish o'rinlarini yaratishning yo'nalishlarini tadqiq qilish;
- bozor narxlarining belgilanish xarakterini o'rganish;
- ta'lim muassasasi ish faoliyatining samaradorligini belgilash.

Ta'lim muassasi boshqaruvning pedagogik yo'naltirilganligi barcha imkoniyatlarni asosiy maqsad - yosh avlodni ijtimoiy ishlab chiqarish sohasiga muvaffaqiyatli kirib borishini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Ta'lim muassasi rahbari tomonidan olg'a suriladigan rejalar, muhim tadbirlar jamoada muhokama qilinishi va muvofiqlashtirilishi lozim. Rahbarning bu boradagi harakatlari qo'yilgan vazifani amalga oshirishga izchil va qat'iy yondoshib borilganda doimo qabul qilinadi va qo'llab-quvatlanadi. O'quv yurti rahbari jamoada o'z ishini o'zaro hurmat va talabchanlik asosida tashkil etishi lozim.

Rahbarlik qiluvchi shaxs o'z xatti-harakatlari bilan jamoaga ibrat ko'rsata olishi amalga oshiriladigan qat'iy choralarning tushunilishi va ijodiy samarasini ta'minlaydi.

Jamiyat hayotining turli sohalarida global o'zgartirishlarni amalga oshirishning eng muhim muammolaridan biri boshqaruvchi kadrlar muammosidir. Ta'lim ham jamiyatning tarkibiy qismi sifatida hozirgi zamon sharoitida o'quv yurti ishida boshqarish nazariyasidan foydalanish muammolarini yanada rivojlantirilishiga ehgiyoj sezadi.

Rahbarlar-rahbar-menejer jamoasini shakllantirish murakkab masaladir. Hayotning o'zi, bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlik amaliyoti uning hal etilishiga ko'maklashadi. Biroq ko'p narsa kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, boshqaruvning ilg'or tajribasini o'rganish va yoyish, boshqaruv fani yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha maqsadga yo'natirilgan ishga ham bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishning aniq yo'llaridan biri bozor sharoitida bir necha yuz yildan beri yashab kelayotgan mamlakatlar tajribasini o'rganishdan iborat. XXI asrda bunday tajribaning juda qimmatli aspektlaridan biri keng hajmli "menejment" tushunchasi bilan qamrab olinadigan faoliyat va bilim sohasidir. Bunda "menejment" deyilganda boshqarish vazifasini kasb sifatida amalga oshiruvchi odamlar-menejerlarni xam tushuniladi.

Boshqaruvni µali juda yosh, fanlararo rang-barang yutuqlariga tayanadigan ilmiy va amaliy bilimning kasbi sifatida anglash hozirgi zamon sivilizasiyasida mustahkam o'rin tutmo³da. XX asr boshida F.Teylorning "Ilmiy boshqaruv",

M.Veberning "Ideal byurakratiya", A.Fayolyaning "Ma'muriyat fani" kabi asrlarda o'zining eng aniq ifodasini topgan. Bu bilim sohasi dastlab boshqaruvda qat'iy rasionalizm (amaliylik) yo'lidan bordi. Biroq menejmentda rasionalizmning barcha afzalliklariga qaramasdan, bu yagona yo'l bo'lmasdan, balki ko'pchilik hollarda yangi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarda o'quv yurtlari-ning ish samaradorligini oshirishda eng yaxshi yo'l ham emas ekan. Boshqarish bilimlari tizimida boshqarish rasionalizmmning cheklanganlikdan ta'sirlanish sifatida boshqa yo'nalish fe'l-atvoriy yo'nalish mustahkam qaror topdiki, bu tashkilotlarda boshqarishning real mohiyatini tup^nishini chuqurlashtirish uchun psixologiya, sosiologiya, madaniy antropologiya yutuqlarini keng jalb qilishga asoslangan. Bu yo'nalish asosida "odamlar orasidagi munosabatlarni" takomillashtirish, "inson omilini" ishga solish, muhandis-pedagog, iqtisodchi-pedagog va boshqa xodimlarning boshqarishdagi ixgirosini rivojlantirish, peshqadamlik samaradorligani oshirish bo'yicha tavsiyalar amalga oshirila boshlandi.

Boshqaruv tafakkuri uchun nazariy jihatdan va amaliy jihatdan bugungi kunda eng xos narsa nima? Adabiy manbalarni tahlil etishning ko'rsatishiga ikkita yangi oqim eng ko'p ko'zga ko'rinmoqda.

1. Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon iqtisodiyotida raqobat va o'zaro boqliqlikning o'sishi, tranmilliy korporasiyalarning rivojlanishi, xalqaro axborot tizimlarshing yaratilishi, integrasiya xususiyatli boshqa tuzilmalar munosabati bilan yuzaga kelgan yangi voqealikalarni jamoaviy tafakkur qilish.

Boshqarish bo'yicha ulkan sondagi adabiyotlarning chop etilishi, millionlab odamlarga tushunarli bo'lgan menejment bo'yicha dasturlarning tarqalishi, turli mamlakatlarning bo-shqarish tajribasini tekshirish orqali umumlashgirish, holatlarni ishlab chiqish, olimlar va amaliyotchilarning xalqaro keng aloqalari vositasi orqali «boshqarish» fani unga ehtiyoj sezayotgan barcha kishilarning mulkiga aylanmoqda.

2. So'ng yillarning xususiyati shundaki, boshqarishning og'ir yukini o'z zimmasiga olayotgan yoki shu yo'lga qadam qo'yayotgan odamlarning tushunishlari va foydalanishlari uchun kuchlari etadigan bo'lgan, yaxshi o'zlashtiriladigan reseptlarga hamda haqiqatlarga murojat qilinmoqda. Menejment fan sifatida

o'zining butun serqirraliligi bilan o'z yo'li bo'yicha rivojlanmo³da va ulkan istiqbolga erishmoqda.

Shu bilan birga hozirgi vaqtda aholining keng qatlamlari ham boshqarish g'oyalari va samarali boshqarish reseptlariga astoydil qiziqmo³dalar. Bu narsa mazkur mavzu bo'yicha D.Karnegi, U.Ouchi, T.Piter, R.Uotermen kabi mualliflarning qiziqarli va jonli til bilan yozilgan kitoblari, L.Yakokki, G.Ford, A. Morit kabi bir qator yirik shaxslarning memuar asarlari tufayli ham yuz bermoqda. Hatto maqsadlar bo'yicha «boshqarish», «og'ishlar bo'yicha boshqarish» atamalariga o'xshash «bestselle bo'yicha boshqarish» atamasi paydo bo'ldi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, hozirgi vaqtda menejrlarning sifati va ularni tayyorlash usullariga emas, balki menejer kasbiy tayyorlash rahbarning o'zining roli ham jiddiy munozaralarga mavzui bo'lib qolmoqda. U maxsus ta'limga ega bo'lgan (ko'pincha muhandislik, huquqiy, iqtisodiy va shunga o'xshash bilimlarga qo'shimcha), professional boshqarishni kasb qilib olgan.

7.5. Rahbar va uning shaxsi

«Rahbarlik qilish» so'ziga izohli lug'atda boshqarish, maslahat berish, kuzatish, yo'naltirish, ko'rsatma berish kabi ta'rif berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi davrda rahbarlar qondirishi zarur bo'lgan talablar juda ko'pdir. Ularni quyidagi besh yirik guruhga bo'lish mumkin.

1.Ma'naviy etuklik.

- siyosiy etuklik; huquqiy etuklik; axloqiy etuklik.
- ma'rifatlilik va madaniyatlik;
- xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik;
- topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonlilik.
- tashabbus va ilg'orlikni qo'llab-quvvatlash qobiliyati.

2.Intizom va mehnatga bo'lgan munosabati.

- mehnatsevarlik; jamoa o'rtasida intizomni yo'lga qo'ya bilish;
- atrofda gilar da mehnatsevarlikni tarbiyalay bilish;
- ishni rejali olib bora bilish.

3.Bilim darajasi.

- iqtisodiyotni, texnika va texnologiyani bilishi;
- boshqarish ilmini, funksiyalari va tuzilishini bilishi;
- istiqbolni bilishga qodirligi.

4.Tashkilotchilik qobiliyati.

- xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlay olishligi;

- qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalashni bilish;
- jipslashgan jamoani vujudga keltira olish;

5.Boshqarish samaradorligini ta'minlay olish.

- boshqarishni kollegial tarzda tashkil qila olish qobiliyati;
- ish haqida qisqa va aniq gapirish qobiliyati;
- turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati;
- boshqaruv organi qarorlarini bajarish ustidan nazoratni ta'minlay bilish.

Har bir rahbar psixologik bilimlar bilan bir qatorda muayyan pedagogik bilimlarga ham ega bo'lishi kerak. Shular yordamida u xodimlarga ularni tarbiyalash va mukammallashtirishlariga ta'sir etuvchi shakl hamda usullarning yanada samaraliligini topish mumkin.

Rahbar quyidagi muammolarni hal etishi kerak:

- aqliy rivojlanish (xodimlarning umumiy va kasbiy ma'lumoti);
- ma'naviy boyish (madaniy tadbirlar tashkil etish, etik muammolarni echish);

- muomalani dorilomonlashtirish;

Bunda quyidagi tamoyillarga rioya qilish lozim:

- ezgu ideallar bilan mashg'ul bo'lish;
- shaxsiy xislatlarni takomillashtirish.

Tarbiyaviy ta'sir rahbarning quyidagi omillarni bilishiga bog'liq:

- xodim madaniyati va ma'lumot darajasi, uning axloqiy kasbiy va hayot tajribasi qay darajada rivojlanganligi;

- jismonan sog'lomligi, ma'naviy barkamolligi;

- individual, ijtimoiy-ruhiy sifatлари;
- mehnat jamoasidagi ijtimoiy-ruhiy muhit;
- axloqiy-ma'muriy choraga xodimning munosabati.

Tabiiyki, tarbiyaviy ta'sir umumiy va qotib qolgan bo'lmashligi lozim, chunki yuqorida qayd etilgan omillar har bir muayyan shaxs uchun farqlidir. SHuning uchun tarbiyaviy ta'sir har bir shaxsning o'ziga qaratilgan bo'lishi kerak, bu rahbar tarbiyaning turli-tuman usullaridan xabardor bo'lishini taqozo etadi.

Rahbar tarbiyaviy ta'sirni amalga oshirishining quyidagi ta'bir joiz bo'lsa, «texnologik tamoyillari» mavjud:

1. Ruhiy o'ziga xoslik, ya'ni shaxsga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishdan oldin uning individual, ijtimoiy-ruhiy sifatlarini anglash lozim;

2. Ma'naviy motivlar – o'ziga bo'ysunuvchilar oldida yuqori darajadagi xulq-atvor egasi ekanligini shaxsan namoyon etish;

3. Yakka tartibda yondoshish, bu – har bir shaxsning o'ziga xos bo'lgan «a'lo» tomonini izlash;

4. Mehnat faoliyatining talablariga moslashish, bu – xodim aqliy imkoniyatini aniqlash va undan samarali foydalanish bo'yicha muammoni hal etish;

5. Shaxsiy mo'ljal. Bu – xodimda noyob qobiliyat kurtaklarini o'stirish va ularni rivojlantirish.

Umuman olganda, rahbar xodimga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatar ekan, G.Sal'ening quyidagi so'zlarini yodda tutishi foydadan xoli emas: «Shuni unutmangki, hamma uchun mos andoza yo'q. Biz, hammamiz – turli toifadamiz va muammolarimiz ham turlicha».

Ta'lim-tarbiya ishlariga yangicha munosabat mustaqillik, ma'naviyat negizi asosida hukumat qarorlarida ta'lim islohatlarida olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalari yosh avlodga milliy mafkurasini shakllantirishda, ma'naviyatni milliy merosimiz bilan boyitishda, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yangicha ish uslublari asosida ijodiy yondoshmoqdalar. O'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa

faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o'quv muassasini boshqarishning asosiy ob'ekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, ushbu bobda o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish, pedagogik jamoa-o'quv muassasi boshqarishning ob'ekti, pedagogik faoliyatni faollashtirish yo'llari, ta'lim muassasini boshqarish konsepsiyasi, pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi, rahbar va uning shaxsi kabilar juda ko'plab misollar asosida tushunarli qilib bayon qilingan.

VIII. BOB. BO‘LAJAK O‘QITUVCHINI TAYYORLASHDA PEDAGOGIK AMALIYOTNING O‘RNI VA AHAMIYATI

8.1. Pedagogik amaliyot haqida tushuncha

Pedagogik amaliyot bo‘lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlash tizimining asosiy va muhim bo‘g‘inidir.

Pedagogik amaliyot talabaning nazariy ta‘limi va bo‘lajak mustaqil faoliyatini bog‘laydigan hamda kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni ta‘minlovchi jarayon bo‘lib, dastlabki tajriba maktabi hisoblanadi.

Bugungi kunda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining davlat miqyosidagi asosiy vazifalaridan biri zamonaviy ta‘lim-tarbiyani yo‘lga qo‘yishda yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, o‘z istagi va xohishi, qiziqishi va qobiliyatiga ko‘ra kasb tanlash, butun hayoti davomida o‘z kasbiga sadoqatli bo‘lish xislarini shakllantirishdan iboratdir. Pedagogik amaliyot pedagog kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan professional ta‘limning ajralmas qismi hisoblanib, talabalarning pedagogik faoliyatga amaliy-ijodiy tayyorgarligini ta‘minlaydi.

O‘zbekistonda arxitektura va qurilish sanoati yaxshi rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo‘lib, uning xalq xo‘jaligidagi salmog‘i mamlakatimiz mustaqullikka erishgandan so‘ng yildan-yilga ortib bormoqda. Ushbu sohaga tegishli sanoat korxonalari zamonaviy asbob-uskuna va qurilmalar bilan jihozlangan bo‘lib, ularda eng ilg‘or texnologiyalar asosida mahalliy xomashyolar qayta ishlanib, tayyor mahsulotlar olinmoqda.

Amaliyot dasturi O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risi”gi qonuni, O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2017 yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son qarori, 2017 yil 1-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2936 son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va

tarmoqlari ishtirokini yanada kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151 son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017 yil 19-maydagi "Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni chora tadbirlarini amalga oshirish to'g'risida"gi 302-son qaroriga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli farmoniga muvofiq Toshkent arxitektura-qurilish universiteti 60112400-Professional ta'lim (60730300–Bino va inshootlar qurilishi (bino va inshootlarni loyihalash, qurish)), 60112400-Professional ta'lim (63730400–(Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji)) bakalavriat yo'nalishlari talabalarining amaliyot o'tash tartibini belgilaydi.

O'quv tanishuv amaliyoti o'quv jarayonida olingan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini o'rganish va kasb-hunar texnikum strukturasi, boshqaruv tizimi bilan tanishish bosqichi hisoblanadi. Amaliyot davrida talabalar amaliy ko'nikmalarni egallaydilar, haqiqiy jamoada ishlash davomida ta'lim olayotgan yo'nalishining o'ziga xos jihatlarini o'rganadilar, zarur bilimlarni egallaydilar. O'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyasidagi ilg'or usullarni foydalanishning nechog'lik muhimligini tushunadilar va o'qituvchiga dars o'tishi uchun kerak bo'ladigan barcha me'yoriy hujjatlarni tayyorlashni o'rganadi. Shuningdek, o'quv tanishuv amaliyoti guruh talabalarini to'liq qamrab oladigan kasb-hunar texnikumida o'tkaziladi. Mazkur amaliyot maqsadi, muddati va mazmuni DTS va o'quv rejalari va amaliyotlarida keltirilgan.

8.2. Pedagogik amaliyotning maqsadi va vazifalari

Pedagogik amaliyot – bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'quv- pedagogik jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Pedagogik amaliyot namunaviy va ishchi o'quv rejasiga mos ravishda amalga oshiriladi. Pedagogik amaliyotning mazmuni amaliyot turiga qarab, kafedrada ishlab chiqilgan dasturiga mos bo'ladi.

Pedagogik amaliyot o'quv mashg'ulotlaridan ajralgan holda tashkil etiladi.

Pedagogik amaliyotni talabalar oliy ta'lim muassasasi bilan shartnoma tuzilgan kasb-hunar kollejlarda o'tashlari mumkin.

Ayrim hollarda bitiruvchi kurs talabalari o'zi ishlashni rejalashtirayotgan ta'lim muassasalarida faol pedagogik amaliyotni o'tashlari mumkin. Talabalarining pedagogik amaliyotni o'tash joylari oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan chiqarilgan buyruq bo'yicha taqsimlanadi.

Pedagogik amaliyot maqsadi - bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, pedagogik faoliyat ma'suliyatini his etish va o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish, shuningdek, tajribali o'qituvchilarning ish faoliyatini o'rganishdan iborat.

Pedagogik amaliyot vazifalari:

- Talabalarda o'qituvchi kasbiga qiziqishni tarbiyalash;
- Pedagogik faoliyat haqida bir butun tushunchani shakllantirish;
- Pedagogik ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- Pedagogik faoliyat bo'yicha tajribani yaratish.

Pedagogik amaliyot turlari.

Pedagogik amaliyot uch bosqichda amalga oshiriladi.

1-bosqich - *tanishuv-pedagogik amaliyoti*. U ikkinchi kursning oxirida 2 hafta davomida kasb-hunar kollejida amalga oshiriladi. Amaliyot davomida talabalar asosan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasasining ish faoliyati bilan tanishadilar va belgilangan tartibda hisobot topshiradilar.

2-bosqich - *o'quv-pedagogik amaliyoti*. U 3 kursning oxirida 2 hafta davomida kasb-hunar kollejida amalga oshiriladi. Unda talabalar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasasida yuritiladigan barcha huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan tanishadi va mutaxassislik fan o'qituvchilarining darslarini kuzatadi.

3-bosqich - *faol pedagogik amaliyot*. U 4 kursning 8 semestrda olib boriladi va 4 hafta davom etadi. Faol pedagogik amaliyot jarayonida talabalar o'quv mashg'ulotlariga tayyorlanish bilan birgalikda, ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlar rejasini tuzadi va suhbatlar tashkil etadi. O'ziga biriktirilgan guruhda pedagogik-psixologik tashxis o'tkazadi.

Pedagogik amaliyot jarayonini tashkil etish.

Pedagogik amaliyotning birinchi kuni oliy ta'lim muassasasida amaliyotga ma'sul kafedralar ishtirokida anjuman o'tkaziladi. Anjumanda oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i o'qib, eshittiriladi, pedagogik amaliyot rahbarlari bilan tanishtiriladi, pedagogik amaliyotni o'tish joyi, unga boradigan transport vositalari, pedagogik amaliyotning xaftalik yuklanmasi, pedagogik amaliyot dasturi bilan ma'sul kafedra mudiri tanishtiradi.

Pedagogik amaliyot bo'yicha maxsus o'qituvchilar (metodistlar) pedagogik amaliyot rahbarlari pedagogik amaliyot yakunida topshiriladigan hisobotning tuzilishi va unga qo'yiladigan talablar bilan tanishtiradi. Pedagogik amaliyot kundaliklari tarqatiladi va ularni to'ldirish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

Pedagogik amaliyotning ikkinchi kuni pedagogik amaliyot rahbarlari bilan pedagogik amaliyot o'tash joyiga boriladi. Kasb-hunar kollej rahbariyati bilan tanishgandan so'ng, mutaxassislik fan kafedrasining tajribali o'qituvchilariga, shu mutaxassislik bo'yicha o'qiyotgan guruhlariga va bu guruhlarining murabbiylariga amaliyotchi talabalar biriktiriladi va bu bo'yicha kollej direktorining ichki buyrug'i tayyorlanadi.

8.3. O'quv tanishuv amaliyotning maqsad va vazifalari

O'quv-tanishuv amaliyoti 1-kursning bahorgi semestrida o'tkaziladi. O'quv tanishuv amaliyotining maqsadi talabalarni ta'lim muassasasining mutaxassislik kafedراسi o'qituvchilari, muhandis pedagoglari va kasb-hunar texnikumining metodisti bilan, shuningdek, o'rta maxsus, texnikumning metodisti bilan, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimidagi asosiy me'yoriy hujjatlar (tarmoq ta'lim standarti, namunaviy va ishchi o'quv rejalar, namunaviy va ishchi o'quv dasturlari) bilan tanishtirishdir. Bundan tashqari talabalardan o'quv-tanishuv amaliyot jarayonida mutaxassislik fani o'qituvchisining ish yuritishdagi barcha hujjatlarini o'rganishi talab etiladi.

O'quv-tanishuv amaliyot "Professional ta'lim" yo'nalishi bo'yicha bakalavr tayyorlash o'quv rejasiga 2-semestr yakunida o'tkaziladi.

Amaliyotning asosiy vazifalari talabalarni ta'lim muassasasining mutaxassislik kafedrasining tajribali o'qituvchilari, muhandislik pedagoglari va texnikumning metodistiga biriktiriladi. Texnikum tomonidan biriktirilgan mas'ul shaxs va institut tomonidan belgilangan tanishuv amaliyot rahbari bilan birgalikda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimidagi asosiy me'yoriy hujjatlar (tarmoq ta'lim standarti, namunaviy va ishchi o'quv rejalar, namunaviy va ishchi o'quv dasturlari) bilan batafsil tanishadilar. Har bir amaliyotchi talaba o'ziga biriktirilgan mutaxassislik kafedrasining tajribali o'qituvchilari, muhandis pedagoglari va kasb-hunar texnikumi va texnikumining metodistiga biriktiriladi.

Texnikum tomonidan biriktirilgan mas'ul shaxs va institut tomonidan belgilangan pedagog amaliyot rahbari bilan birgalikda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimidagi asosiy me'yoriy hujjatlar (tarmoq ta'lim standarti, namunaviy va ishchi o'quv rejalar, namunaviy va ishchi o'quv dasturlari) bilan batafsil tanishadilar. Har bir amaliyotchi talaba o'ziga biriktirilgan mutaxassislik kafedrasining tajribali o'qituvchilari, muhandis pedagoglari va kasb-hunar texnikumning metodisti bilan birgalikda ta'lim jarayonida mutaxassislik fani o'qituvchisining barcha ish hujjatlarini o'rganadi. Tanishuv amaliyotiining yuqorida sanab o'tilgan vazifalarini amalga oshirishda mutaxassislik, pedagogika, psixologiya bo'yicha professor-o'qituvchilarning, amaliyot o'tkaziladigan ta'lim muassasasi jamoasining amaliyot ishiga to'g'ri munosabatda bo'lishi, ya'ni, uni to'g'ri tashkil etish va o'tkazish talablariga mos kelishida namoyon bo'ladi. Bu esa amaliyotchi talabaning oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Tanishuv amaliyot mazmuni.

Tanishuv amaliyoti texnikumning pedagogik kengashida va oliy o'quv yurtidagi amaliyot yakuniga bag'ishlangan anjumanni o'tkazish bilan yakuniga etadi.

Kasb-hunar texnikumida tanishuv amaliyot yakuniga bag'ishlangan pedagogik kengashda amaliyotchi talabalar, amaliyotda bevosita qatnashgan kasb-hunar texnikum o'qituvchilari hisobot beradilar va amaliyotchi talabalar faoliyatini

baholaydilar. Oliy o'quv yurtida tanishuv amaliyoti yakuniga bag'ishlangan anjumanda amaliyotning umumiy yakuni (amaliyot davrida amaliyotchi talabalar erishgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklar, bundan keyingi vazifalar) ko'rib chiqiladi.

“Professional ta'lim” yo'nalishi bo'yicha o'tkaziladigan tanishuv amaliyotining mazmuni asosan quyidagilardan iborat bo'ladi:

- tanishuv amaliyotning boshlanishga bag'ishlangan anjumanda barcha amaliyotchi-talabalarining qatnashishi;

- kasb-hunar texnikumi rahbariyati, tanishuv amaliyotga bevosita aloqador bo'lgan xodimlar va o'quvchi-talabalar bilan tanish hamda ular bilan suhbat o'tkazish;

- kasb-hunar texnikumining moddiy bazasi (dars xonalari, o'quv ustaxonalari, laboratoriyalar va hokazo) bilan tanishish;

- mutaxassislik bo'yicha fan o'qituvchilari va ularga biriktirilgan xona va ustaxonalarning jihozlanishi va ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan tanishish;

- tanishuv amaliyot jarayonida amaliyotchi-talabalar tomonidan amaliyotga tegishli bo'lgan hujjatlarni talab darajasida yuritish;

- kasb-hunar texnikumi miqyosida amaliyotchi talabalar navbatchiligini joriy qilish;

- tanishuv amaliyot yakuniga bag'ishlangan anjumanda barcha amaliyotchi-talabalarining ishtirok etishi.

8.4. O'quv pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari

O'quv pedagogik amaliyot 2-kursning bahorgi semestrida o'tkaziladi. O'quv pedagogik amaliyotning maqsadi talabalarni ta'lim muassasasining mutaxassislik kafedrasi o'qituvchilari, muhandis pedagoglari va kasb-hunar texnikumining metodisti bilan, shuningdek, o'rta maxsus, texnikumning metodisti bilan, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimidagi asosiy me'yoriy hujjatlar (tarmoq ta'lim standarti, namunaviy va ishchi o'quv rejalar, namunaviy va ishchi o'quv dasturlari) bilan tanishtirishdir. Bundan tashqari

talabalardan o'quv pedagogik amaliyot jarayonida mutaxassislik fani o'qituvchisining ish yuritishdagi barcha hujjatlarini o'rganishi talab etiladi.

O'quv pedagogik amaliyot "Professional ta'lim" yo'nalishi bo'yicha bakalavr tayyorlash o'quv rejasiga 4-semestr yakunida o'tkaziladi.

Amaliyotning asosiy vazifalari talabalarni ta'lim muassasasining mutaxassislik kafedrasining tajribali o'qituvchilari, muhandislik pedagoglari va texnikumning metodistiga biriktiriladi. Texnikum tomonidan biriktirilgan mas'ul shaxs va universitet tomonidan belgilangan pedagogik amaliyot rahbari bilan birgalikda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimidagi asosiy me'yoriy hujjatlar (tarmoq ta'lim standarti, namunaviy va ishchi o'quv rejalar, namunaviy va ishchi o'quv dasturlari) bilan batafsil tanishadilar. Har bir amaliyotchi talaba o'ziga biriktirilgan mutaxassislik kafedrasining tajribali o'qituvchilari, muhandis pedagoglari va kasb-hunar texnikumning metodistiga biriktiriladi.

Texnikum tomonidan biriktirilgan mas'ul shaxs va universitet tomonidan belgilangan pedagog amaliyot rahbari bilan birgalikda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimidagi asosiy me'yoriy hujjatlar (tarmoq ta'lim standarti, namunaviy va ishchi o'quv rejalar, namunaviy va ishchi o'quv dasturlari) bilan batafsil tanishadilar. Har bir amaliyotchi talaba o'ziga biriktirilgan mutaxassislik kafedrasining tajribali o'qituvchilari, muhandis pedagoglari va kasb-hunar texnikumning metodisti bilan birgalikda ta'lim jarayonida mutaxassislik fani o'qituvchisining barcha ish hujjatlarini o'rganadi. O'quv pedagogik amaliyotning yuqorida sanab o'tilgan vazifalarini amalga oshirishda mutaxassislik, pedagogika, psixologiya bo'yicha professor-o'qituvchilarning, amaliyot o'tkaziladigan ta'lim muassasasi jamoasining amaliyot ishiga to'g'ri munosabatda bo'lishi, ya'ni, uni to'g'ri tashkil etish va o'tkazish talablariga mos kelishida namoyon bo'ladi. Bu esa amaliyotchi talabaning oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

O‘quv pedagogik amaliyot mazmuni.

O‘quv pedagogik amaliyot texnikumning pedagogik kengashida va oliy o‘quv yurtidagi amaliyot yakuniga bag‘ishlangan anjumanni o‘tkazish bilan yakuniga etadi.

Kasb-hunar texnikumida o‘quv pedagogik amaliyoti yakuniga bag‘ishlangan pedagogik kengashda amaliyotchi talabalar, amaliyotda bevosita qatnashgan kasb-hunar texnikum o‘qituvchilari hisobot beradilar va amaliyotchi talabalar faoliyatini baholaydilar. Oliy o‘quv yurtida amaliyot yakuniga bag‘ishlangan anjumanda amaliyotning umumiy yakuni (amaliyot davrida amaliyotchi talabalar erishgan yutuqlar, yo‘l qo‘yilgan xato-kamchiliklar, bundan keyingi vazifalar) ko‘rib chiqiladi.

“Professional ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladigan o‘quv pedagogik amaliyotning mazmuni asosan quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- o‘quv pedagogik amaliyotning boshlanishga bag‘ishlangan anjumanda barcha amaliyotchi-talabalarining qatnashishi;

- kasb-hunar texnikumi rahbariyati, o‘quv pedagogik amaliyotga bevosita aloqador bo‘lgan xodimlar va o‘quvchi-talabalar bilan tanish xamda ular bilan suhbat o‘tkazish;

- kasb-hunar texnikumining moddiy bazasi (dars xonalari, o‘quv ustaxonalari, laboratoriyalar va xokazo) bilan tanishish;

- mutaxassislik bo‘yicha fan o‘qituvchilari va ularga biriktirilgan xona va ustaxonalarning jihozlanishi va ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan tanishish;

- o‘quv pedagogik amaliyot jarayonida amaliyotchi-talabalar tomonidan amaliyotga tegishli bo‘lgan hujjatlarni talab darajasida yuritish;

- kasb-hunar texnikumi miqyosida amaliyotchi talabalar navbatchiligini joriy qilish;

- o‘quv pedagogik amaliyot yakuniga bag‘ishlangan anjumanda barcha amaliyotchi-talabalarining ishtirok etishi.

9-BOB. PEDAGOGIK O‘LCHOVLAR NAZARIYASI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

9.1. Testologiya fanining maqsadi va vazifalari. Testlarning ta’rifi, tasnifi, metodologik asoslari

Uzluksiz ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biri ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratish sanaladi.

Avvalo, innovatsiya so‘zining ma’nosini tahlil qilish lozim.

Innovatsiya – inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, in – kiritish, novatsiya yangilik degan ma’noni beradi.

O‘qitishda innovatsion muhitni yaratish o‘qituvchidan ko‘p qirrali izlanish va amaliy faoliyatni talab etadi.

Respublikamizda uzluksiz ta’limni joriy etish jarayonida ta’lim mazmuni yangilandi, o‘quv dasturlari va o‘quv fanlari bo‘yicha DTS modernizatsiyalandi. Ushbu jarayon ta’lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etmoqda.

Zamon bilan hamnafas pedagogik faoliyat yuritayotgan moderator o‘qituvchilar yuqorida qayd etilgan talablarga monand holda o‘qitishda interfaol metodlar, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha dastlabki tajribalarni egallamoqda.

Respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta’lim tizimiga innovatsiya quyidagi yo‘llar orqali tatbiq etilmoqda:

- Axborot va kommunikatsion texnologiyalar – texnologik innovatsiyalar;
- Ta’lim-tarbiya jarayonining mazmunini yangilash, uning borishi va o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi texnologiyalar – pedagogik innovatsiyalar;
- Ta’lim sohasidagi zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar – iqtisodiy innovatsiyalar;
- Ta’lim sohasidagi zamonaviy tuzilmalar – tashkiliy innovatsiyalar;

Ma'lumki, yuqorida qayd etilgan innovatsiyalar ta'lim-tarbiya jarayoniga kompleks holda joriy etilishi o'qituvchidan muayyan metodik bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, pedagogik kompetentlik(layoqat)ni talab etadi.

O'qituvchining zamonaviy metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, shuningdek, pedagogik kompetentlik(layoqat)ning mavjudligi uning o'z pedagogik faoliyatida barkamol shaxsni voyaga etkazishni nazarda tutishiga asos bo'ladi.

Innovatsion ta'lim muhiti o'qituvchilardan qaysi bilimlarni egallash va amaliy faoliyatni talab etmoqda?

- O'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan amaliy faoliyati.

- O'qitishning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashdagi amaliy faoliyati.

- O'qitishda kasbiy yo'naltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyati.

Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan o'qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:

- Innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o'zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo'llash yo'llarini belgilash;

- Innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash;

- O'qitishning barcha shakllari: ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil ta'limning didaktik maqsadlarini e'tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;

- O'qitishning asosiy shakllari bo'lgan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida o'rganiladigan mavzuni mazmunini e'tiborga olgan holda axborot-kommunikatsion va pedagogik innovatsiyalarni uyg'unlashtirish va amalda qo'llash;

- Mazkur jarayondan olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashdan iborat.

Oliy ta'lim muassasasida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yuzasidan muayyan tajribalarni egallash barobarida, olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash borasida ma'lum qiyinchiliklarga uchrayotganligi sir emas.

Professor-o'qituvchilar pedagogik faoliyatida vujudga kelayotgan mazkur qiyinchiliklar talabalar tomonidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash va ularni baholash uchun foydalaniladigan nazorat topshiriqlarini xilma-xillashtirish jarayonida vujudga kelayotganligi sababli, shu muammoni o'quv qo'llanmada yoritish lozim deb topildi.

Testologiya – (inglizcha so'zdan olingan bo'lib, test - sinov), yunoncha logos - bilim) so'zlari birikmasidan iborat.

Testologiya fanlararo fan bo'lib, ilmiy asoslangan va sifatli diagnostik o'lchov metodikasi haqidagi fan sanaladi.

Psixologiyada testologiyaning mazmuni asosan tabaqalashtirilgan psixometriyaning mazmuniga mos keladi.

Testologiyaning tamoyillari va metodlari psixologiyaning chegarasidan chiqib, hozirgi kunda pedagogika, tibbiyot, texnika, menedjment sohalarida ham muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda.

Testologiyani qo'llashda umumiy xususiyatlar: test topshiriqlarini tuzish metodikasi, samaradorlik, variativlik, ishonchlilik, validlik bilan bir qatorda har bir fan sohasining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, fanning ta'lim mazmuni, testlarning mantiqiy tuzilishi, test sinovining o'tkazilish maqsadi, kasbiy va umumta'lim bilimlarni nazorat qilish va baholash tartibi va o'lchovi ham e'tiborga olinishi lozim.

Hozirgi zamon testologiya fani amaliy fan bo'lib, tadqiqotchilar oldiga nazariy muammolar, matematik yondoshuvlar, model va metodlarni tavsiya etmoqda.

Test metodining keng tarqalishi, rivojlanishi va takomillashuviga uning quyidagi afzalliklari:

- Test topshiriqlari tadqiqot maqsadiga muvofiq respondentlarning bilim, ko'nikma va malakalariga aniq baholash imkonini beradi;
- Ijtimoiy so'rovlarda ishtirok etgan ko'psonli respondentlarning fikr va mulohazalarini aniqlash va umumlashtirish imkoniyati mavjud;
- Tahsil oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholash jarayoni ob'ektiv amalga oshiriladi, baholovchi tomonidan sub'ektivizmga yo'l qo'yish oldini oladi.
- Turli guruh respondentlaridan olingan ma'lumotlarni qiyosiy-statistik tahlilini o'tkazish imkon berishi kabilar zamin yaratgan.

Test topshiriqlarining yalpi joriy etishdan avval, tanlangan maqsadli guruhda sinovdan o'tkazish, olingan natijalar va baholashning ob'ektivligi tahlil qilinishi lozim.

Olingan natijalar va testlarning maqsadga muvofiqligi quyidagi **mezonlar** bo'yicha tahlil qilinadi:

Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi mezoni.

Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi mezoni o'rganilayotgan ob'ektning xususiyatlarini o'zida to'liq aks ettirib, u tahsil oluvchilar tomonidan mazkur xususiyatlarni aniqlash uchun bajaradigan aqliy operatsiyalariga ko'ra:

- Reproduktiv daraja;
- Produktiv daraja;
- Qisman-izlanishli daraja;
- Ijodiy (kreativ) darajada bo'lishi mumkin.

Reproduktiv darajadagi test topshiriqlari tahsil oluvchilarning tomonidan yodda saqlangan bilim, ko'nikma va malakalarni tanish odatiy vaziyatda axborotlarni qayta ishlamasdan javob qaytarishni talab etadi. Bu darajada tuzilgan testlar tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq baholash imkonini bermaydi.

Produktiv darajada tuzilgan test topshiriqlari tahsil oluvchilar tomonidan o'rganilgan ob'ektlarni qiyoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, umumiy xulosa chiqarish orqali javob berishni talab etadi.

Qisman-izlanishli darajadagi test topshiriqlari tahsil oluvchilar tomonidan o'rganilgan ob'ektlarning xususiyatlarini boshqa ob'ektga ko'chirish, mazkur ob'ektlarni taqqoslab, keyingi ob'ektning o'ziga xos xususiyatlari haqida xulosa chiqarish, qisman izlanish olib borishni talab etadi. Tahsil oluvchilar tomonidan mazkur darajadagi test topshiriqlariga javob berishda avval o'zlashtirilgan bilimlar yangi vaziyatlarga ko'chiriladi.

Ijodiy (kreativ) darajada tuzilgan test topshiriqlari tahsil oluvchilar tomonidan ijodiy fikr yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish, mazkur test topshiriqlarini bajarish jarayonida tahsil oluvchilar tomonidan avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashni talab etadi.

Dastlabki reproduktiv va produktiv darajadagi test topshiriqlari o'quv fan bo'yicha tasdiqlangan DTS ining minimal darajasiga, qisman-izlanishli va ijodiy (kreativ) darajadagi test topshiriqlari DTSining maksimal darajasiga mos tuzilishi zarur.

Test topshiriqlarining tabaqalashtirish mezonlari.

Tahsil oluvchilar tomonidan qiyinchilik darajasi va mazmunan bir xil test topshiriqlarni bajarish orqali olingan natijalariga muvofiq tabaqalashtirish mezonlari ularni kuchli, o'rta va kuchsiz guruhlariga ajratish mumkin.

Mazkur tabaqalashtirish orqali tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalaridagi tipik kamchiliklar va bo'shliqlarni aniqlash, ularga barham berish yo'llarini topish imkonini beradi.

Pedagogik testlar – bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega, tahsil oluvchilarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga imkon beradigan topshiriqlar tizimi sanaladi.

Topshiriqlar tizimi deyilganda, muayyan mavzu, bob, bo‘lim yoki kurs mazmunini o‘zida mujassamlashtirgan va tizim hosil qiluvchi xususiyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi tomonidan tanlangan topshiriqlar majmuasi tushuniladi.

Test topshiriqlarining o‘ziga xos shakli oddiy savol-javobdan farq qilib, test topshirig‘i savollari va javoblari qisqa va lo‘nda bo‘lishi bilan izohlanadi.

Test topshiriqlarining muayyan mazmuni deyilganda kurs mavzulari va ularning mazmunidagi nazorat qilinishi lozim bo‘lgan o‘quv materiallari tushuniladi.

Test topshiriqlarining o‘sib boruvchi qiyinlik darajalari tizim shaklida mujassamlashtirilgan topshiriqda dastlabki testlar reproduktiv, produktiv, keyingilari qisma-izlanishli va ijodiy (kreativ) bo‘lishi nazarda tutiladi. Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi ko‘rsatkichlari tizim hosil qiluvchi, shu bilan bir qatorda topshiriqlar strukturasini aniqlovchi omil sanaladi.

Test topshiriqlarining mantiqiy jihatdan asoslanganligi mezonini o‘zida savol va topshiriqlarning mantiqiy ketma-ketlikda aks ettirilishi tushuniladi.

Test topshiriqlari mantiqiy tuzilishiga ko‘ra: induktiv yoki deduktiv bo‘lishi mumkin.

Test topshiriqlarining javoblari mazmunga mos, qisqa fikrli, aniq, lo‘nda, to‘g‘ri va noto‘g‘ri jummalardan iborat bo‘ladi. Test topshiriqlaridagi to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarning tarkibidagi so‘zlar birikmasi va soni bir xil bo‘lishi talab etiladi.

Tahsil oluvchilarning bilim darajasi test topshiriqlari orqali nazorat qilingan va olingan natijalarni tahlil etish orqali ularning mazkur kurs bo‘yicha DTS bilan me‘yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganlik darajasi aniqlanadi.

Shuni qayd etish kerakki, test topshiriqlarida bilimlar strukturasining ketma-ketligi to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarning mantiqiy yo‘nalishda talab darajasida berilishi lozim.

Talab darajasida tuzilgan test topshiriqlarining natijalari, ya‘ni tahsil oluvchilarning to‘plagan ballari va ko‘rsatkichlari mazkur kurs bo‘yicha o‘quv jarayonining maqsadga muvofiq tashkil etilganligi, ta‘limning

individuallashtirilganligi, tabaqalashtirilgan yondoshuvning mavjudligi, pedagogning pedagogik mahorati, nazoratning haqqoniyligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

O‘qituvchi muayyan kurs bo‘yicha tahsil oluvchilarning shu kurs bo‘yicha DTS bilan me‘yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash Reyting tizimining joriy, oraliq va yakuniy nazorat uchun test topshiriqlarini tuzishda avvalo asosiy e‘tiborni, DTS mazmunini qamrab olinishi, ya‘ni mazmuni va shakliga, test topshiriqlari o‘rtasida uzviylik va izchillikka qaratishi lozim.

Standart testlar.

Test topshiriqlariga qo‘yiladigan asosiy talab, har bir test muayyan mazmun, tarkib, yaxlitlik va strukturaga ega bo‘lishi lozim.

Shuni nazarda tutgan holda, u topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida tahsil oluvchining egallashi mumkin bo‘lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalardan iborat bo‘lishi zarur.

Test topshiriqlarining yaxlitligi u bir mavzu, bob, bo‘lim yoki kurs mazmunini qamrab, ularni nazorat qilish imkoniyatiga ega ekanligida ko‘zga tashlanadi.

Har bir test topshirig‘i yaxlit topshiriqning bir bo‘lagi sifatida muayyan mazmunni qamrab oladi va ma‘lum bir vazifani bajaradi, shu sababli ularning birortasini olib tashlash bilimlarni aniqlash jarayoni va sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Test topshiriqlarining strukturasi topshiriqning o‘zaro aloqadorligini amalga oshirish orqali erishiladi. Asosan, har bir test topshirig‘i bir-biri bilan umumiy mazmun va erishilishi nazarda tutilgan natijalarning umumiy variatsiyasi orqali bog‘liqligini ko‘rish mumkin.

Standart pedagogik testlar mazmuni va mohiyatiga ko‘ra: gomogen va geterogen testlarga ajratiladi.

Gomogen testlar bu qiyinchilik darajasi bo‘yicha o‘sib boruvchi, o‘ziga xos shaklga ega bo‘lib, tahsil oluvchilarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasi, bilim, ko‘nikma va malakalarini sifatli va samarali nazorat qilish va

baholashga mo'ljallangan bitta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi sanaladi.

Geterogen testlar bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, tahsil oluvchilarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan bir nechta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi sanaladi.

Nostandart testlar.

Standart testlar mazmuni bo'yicha reproduktiv va produktiv darajada, tarkibi jihatidan test topshirig'i savoli va to'g'ri va noto'g'ri javoblardan iborat bo'lsa, nostandart testlar o'zining mazmuni, tuzilishi va qo'llanish maqsadiga ko'ra muayyan darajada farq qiladi.

Nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Integrativ testlar;
2. Adaptiv testlar;
3. Mezonli-mo'ljal olish testlari.

Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, ta'lim muassasasining bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, tahsil oluvchilarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida tahsil oluvchining egallashi mumkin bo'lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi.

Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidali adaptiv testlar tashkil etib, qo'llanish maqsadiga ko'ra: o'rtacha og'irlikdagi, tahsil oluvchining tanlashiga ko'ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo'lishi mumkin.

Adaptiv testlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit paradigmasida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Buning uchun pedagog bitta

mavzu, bob, bo‘lim, kurs mazmuni bo‘yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo‘llash mahoratiga ega bo‘lishi lozim.

Mezonli-mo‘ljall olish testlari tahsil oluvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur kursning o‘qitilish sifati, pedagogning pedagogik mahorati, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Mazkur test topshiriqlarini tuzish uchun avvalo o‘quv kursi mazmuni DTS asosida tahlil etiladi, bilim, ko‘nikma va malakalar aniqlanadi, ularni aniqlash uchun topshiriqlar majmuasi tuziladi, mazkur topshiriqlar test topshiriqlariga aylantiriladi va sinov o‘tkaziladi, pirovar natijada tahsil oluvchilarning shu kursni o‘zlashtirish darajasi yuzasidan xulosa tayyorlanadi.

Mezonli-mo‘ljall olish test sinovlari orqali tahsil oluvchilarning bilimlaridagi bo‘shliqlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo‘llari aniqlanadi.

Yuqorida qayd etilgan nostandart test topshiriqlarini ta’lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish jarayoni tahsil oluvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

Quyida test turlarini yanada kengroq yoritib beramiz.

Nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o‘rinni egallaydi.

Shu sababli, test topshiriqlari mazmunini tanlash tamoyillari haqida fikr yuritish lozim.

1-tamoyil. Test topshiriqlari mazmuni sinov maqsadiga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil tahsil oluvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash Reyting tizimining nazorat turlarida test topshiriqlarining mazmuni maqsadga muvofiq tanlanishini talab etadi.

Shuni qayd etish kerakki, Reyting tizimining nazorat turlari joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari bir-biridan nafaqat didaktik maqsadi, balki mazmuni va mazmunning yoritilish darajasi bilan farq qilishini nazarda tutish lozim.

2-tamoyil. Nazorat va baholanayotgan bilimlarning muhimligi tamoyili.

Muhimlik tamoyili test topshirig'i savollariga o'quv dasturidagi eng muhim qonun, nazariya, tushuncha va ko'nikmalarni kiritishni talab etadi. Bu jarayonda ikkinchi darajali ma'lumotlar, raqamlar va faktik materiallar test topshiriqlariga kiritish tavsiya etilmaydi.

3-tamoyil. Mazmun va shakl birligi tamoyili. Mazkur tamoyil test topshiriqlarining mazmuni va shakli bir-biriga mos, yaxlitlikni tashkil etishini talab etadi.

Test topshiriqlarining mazmunini tanlashda bilimlarning turlari va ularning o'ziga xosligini e'tiborga olish va mos ravishda shaklni tanlash lozim.

4-tamoyil. Test topshiriqlarining mazmungan to'g'riligi tamoyili.

Test topshiriqlariga o'quv kursi mazmunidagi ob'ektiv va haqiqiy bilimlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Mazmundagi bahs va munozaraga olib keladigan masalalar test topshiriqlariga kiritilmasligi lozim. Bu holat tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini bermaydi.

5-tamoyil. Test topshiriqlari mazmunida o'quv kursi mazmunining qayta taqdim etilishi tamoyili.

Mazkur tamoyil test topshiriqlarini tayyorlashda o'quv kursi mazmunini to'liq va etarli darajada qamrab olinishini nazarda tutadi. O'quv kursi bo'yicha tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida mavzulararo, boblararo, bo'limlararo va fanlararo bog'lanishlarga etarli darajada e'tibor qaratilgan, mazmungan bu jarayon o'quv materialida o'z aksini tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlar shaklida topgan bo'lsa, bunda hamma mavzular bo'yicha emas, balki tanlangan asosiy mavzular va boblar bo'yicha test topshiriqlari tayyorlanadi.

6-tamoyil. Test topshiriqlari mazmunining fanning hozirgi zamon holatiga mosligi tamoyili.

Mazkur tamoyil test topshiriqlari mazmunini jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlar, huquqiy me'yorlar, fanning o'quv kursi ta'lim mazmuniga kiritilgan fan yangiliklariga moslashni talab etadi.

Shuni qayd etish kerakki, o'quv kursi mazmuni tahsil oluvchilar tomonidan shu kursga oid ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'ziga xos va mos proeksiyani hosil qiladi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, test topshiriqlarining mazmuni ham zamonaviy, ham tahsil oluvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirish bosqichlariga mos bo'lishi lozim.

7-tamoyil. Test topshiriqlari mazmunining majmuali va muvozanatlashgan bo'lishi tamoyili.

Mazkur tamoyil test topshiriqlari mazmunini tanlashda maqsadga muvofiqlikni keltirib chiqaradi, ya'ni Reyting tizimining oraliq va yakuniy nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlarining mazmuni uning turi va qo'llanishini e'tiborga olingan holda bob, bo'lim yoki kurs mazmunini to'liq qamrab olishini taqoza etadi.

Shuningdek, yakuniy nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlari o'zida kursning nazariy masalalari, tushunchalar, qonunlar va qonuniyatlar, gipotezalar, faktik materiallar, masala va mashqlarni mujassamlashtirishi lozim.

8-tamoyil. Test topshiriqlari mazmunining tizimlilik tamoyili.

Mazkur tamoyilga asosan, test topshiriqlarining mazmunini tanlashda, mazmun tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishda tizimlilik talablariga javob berishi lozim. Undan tashqari test topshiriqlarining tizimli mazmuni, bir-biri bilan uzviy bog'langan bilimlarning umumiy strukturasini aks ettirishi zarur.

Demak, har bir test topshirig'i umumiy bilimlar tizimidan uning muayyan qismini nazorat qilishiga e'tibor qaratish lozim.

9-tamoyil. Test topshirig'i mazmunining variativligi tamoyili.

Test topshirig'i birinchi marta amaliyotga joriy etilganda, ularning mazmuni tahsil oluvchilarga ma'lum bo'lib qoladi va test javoblari xaqidagi axborotning chetga chiqib ketish hollarining oldini olish uchun, mazkur tamoyil test savollari va javoblarini ko'p variantli qilish, ularni almashtirib, yangilab turishni taqoza

etadi. Bu holatda test topshiriqlarining mazmuni va uni bajarish qiyinchilik darajasini saqlash talab etiladi.

Test topshiriqlariga qo'yiladigan talablar.

Test topshiriqlariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Test topshirig'i mazmunining to'g'riligi;
- Savolning mantiqiy jihatdan to'g'ri tanlanishi;
- Test topshirig'i shaklining to'g'riligi;
- Test topshirig'ining savol va javobning qisqaligi;
- Test topshirig'i elementlarining to'g'ri joylashganligi;
- Test topshirig'ining to'g'ri javoblari bir xil baholanishi;
- Tahsil oluvchilarga test topshirig'ining bajarish bo'yicha bir xil ko'rsatma berilishi;
- Ko'rsatmalarning test topshirig'i va mazmuniga mosligi.

Bundan tashqari test topshiriqlari Davlat test markazi tomonidan belgilangan talablarga javob berishi lozim.

Test topshiriqlarini tuzishda mazmun asosiy o'rinni egallaydi, shu sababli o'quv kursi mazmunidagi bilimlarni aniqlash va ularga mos o'quv maqsadlariga erishish darajasini belgilaydigan test topshiriqlarini tuzish maqsadga muvofiq.

O'quv maqsadlari taksonomiyasi Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u o'z ichiga bilish, tushunish, amaliyotga qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, baholash kabilarni o'z ichiga oladi.

Blum taksonomiyasini quyidagicha izohlash mumkin:

O'quv maqsadlari	Ta'rifi	Kalit so'zlar	Mashg'ulotdagi nazorat turi	Reyting tizimi-dagi test topshirig'i turi
Bilish	Axborotni o'zlashtirish	1.Aniqlash; 2.Ta'riflash; 3.Qayta ishlash; 4.Aytib berish; 5.Mohiyatini tushuntirish; 6.Ajratib ko'rsatish;	Test topshirig'i Og'zaki javob Klaster tuzish Og'zaki javob Og'zaki javob Klaster tuzish	Reproduktiv Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja
Tushunish	Ahamiyatni anglash, asosiy	1.Umumlashtirish; 2.Qayta ishlash;	Klaster tuzish Klaster tuzish	Produktiv Qisman-

	g'oyani ajratib ko'rsatish	3.Asosiy g'oyani qayta ishlash; 4.Misollar keltirish; 5.Himoya qilish;	Venn diagramma Masalalar echish Venn diagrammasi	izlanishli Kreativ daraja
Amaliyotga qo'llash	Axborotni yangi kutilmagan vaziyatda qo'llash	1. Moslashtirish; 2. Qayta ishlash; 3. Loyihalash; 4. Modellashtirish; 5. Qayta aytib berish;	Og'zaki javob Klaster tuzish Klaster tuzish Klaster tuzish Og'zaki javob	Reproduktiv Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja
Tahlil	Axborotni yoki ob'ektni qismlarga ajratish	1. Taqqoslash 2. Qismlarga ajratish 3. Ajratib ko'rsatish 4. Qiyoslash	Venn diagrammasi Klaster tuzish Klaster tuzish Venn diagrammasi-ni tuzish	Qisman-izlanishli Kreativ daraja
Sintez	G'oyalarni mujassamlashtirish	1.Guruhlarga ajratish 2. Umumlashtirish 3. Rekonstruksiya	Klaster tuzish Venn diagrammasi-ni tuzish Klaster tuzish	Qisman-izlanishli Kreativ daraja
Xulosalash	O'rganilgan mavzu yuzasidan xulosa yasash	1. Baholash 2. Tanqidiy fikr yuritish 3. Fikrga qarshi fikr bildirish 4. Qo'llab-quvvatlash 5.Inkor etish	Og'zaki javob Og'zaki javob Og'zaki javob Og'zaki javob Og'zaki javob	Reproduktiv Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja

Ushbu jadvalda o'quv maqsadlari, ularning izohi, ya'ni bilimlarni maqsadga aylantirishda foydalaniladigan fe'llar, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari davomida baholash turlari, hamda Reyting tizimi nazorat turlarida foydalaniladigan topshiriqlar o'z aksini topgan.

Mazkur bilimlarni talabalar tomonidan o'zlashtirilganligini ob'ektiv va haqqoniy aniqlash va baholash maqsadida test topshiriqlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Test topshiriqlarini tuzish, pedagogik amaliyotda qo'llash va olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish testologiya fanining ob'ekti sanaladi.

Har bir o'quv kursining ta'lim mazmunini tahlil qilish uchun quyidagi nazariy asosga tayanish lozim.

I.Ya. Lerner tomonidan ta'lim mazmunining tarkibiy qismlariga:

1. Bilimlar (ilmiy tushunchalar, g'oyalar, qonunlar, ilmiy nazariyalar);
2. Faoliyat usullari (ko'nikma va malakalar);
3. Ijodiy faoliyat tajribalari;
4. Qadriyatlar tizimi kiritilgan.

Amaldagi nazorat turlarida aksari hollarda bilimlarga urg'u berilib, ta'lim mazmunining keyingi uchta tarkibiy qismlari: faoliyat usullari (ko'nikma va malakalar), ijodiy faoliyat tajribalari, qadriyatlar tizimi e'tibordan chetda qolmoqda. SHuni e'tiborga olgan holda talabalar tomonidan ta'lim mazmunining barcha tarkibiy qismlarini o'zlashtirish darajasini aniqlashda standart test topshiriqlari bilan bir qatorda nostandart test topshiriqlaridan foydalanish zarurati kelib chiqmoqda.

9.2. Pedagogik o'lchovlar fani va uning asosiy tushunchalari

Ta'lim jarayoni uch asosiy komponentdan (tarkibiy qismdan) tashkil topadi:

- ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va rejalari (curriculum);
- o'qitish metodikasi va o'quv materiallari (pedagogy);
- baholash usullari (assessment).

O'quv dasturlari va rejalari ta'lim maqsadlarini belgilaydi, shu maqsadlarga mos ravishda o'qitish metodikasi va o'quv materiallari tanlanadi. Baholash usullari esa ta'lim tizimi o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga qay darajada erishganligi haqida ma'lumot beradi.

Agar bu uch komponent bir-biriga uyg'un holda ishlasa, ya'ni ta'lim maqsadlari aniq bo'lsa, shu maqsadlarga mos o'qitish usullari va materiallar tanlansa, baholash tizimi aynan ta'lim tizimi ishtirokchilari shu maqsadlarga qay darajada erishganliklarini aniqlab bera olsa, ta'lim tizimi samarali ishlayotgan bo'ladi va sifatni ta'minlab bera oladi.

O'quv dasturlari va rejalari: nimani o'qitamiz?

O'qitish metodikasi va o'quv materiallari: qanday o'qitamiz?

Baholash usullari: maqsadga erishganimizni qanday bilamiz?

Ta'lim jarayoni komponentlarining o'zaro bog'liqligi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini baholashda ma'lum bir qonuniyatlar va talablar hisobga olinmog'i lozimki, bu qonuniyat va talablar pedagogik o'lchovlar fanining ob'yektini tashkil qiladi.

Pedagogik o'lchovlar - ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini o'lchash (aniqlash) usullari va vositalarini ishlab chiqadigan hamda amalda qo'llaydigan pedagogika sohasi.

«Pedagogik o'lchovlar», «baholash nazariyasi» va «testologiya», odatda, o'zaro muqobil, bir xil ma'no bildiradigan atamalar sifatida qo'llaniladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida asosan «pedagogik o'lchovlar», Britaniyada «baholash» («baholash nazariyasi», «pedagogik baholash»), Rossiyada esa «testologiya» atamalari qo'llaniladi. Pedagogik o'lchovlar fanining asosiy ob'yekti baholash jarayoni va unda qo'llaniladigan vositalardir.

Baholash - biron-bir domenning (bilim, ko'mkma, malaka va kompetensiyalar majmuyining) ta'lim oluvchilar da (test topshiruvchilarda) shakllanganlik darajasini o'lchash jarayoni.

Baholash jarayonining maqsadi o'lchash ekan, o'lchash nima ekanligini ko'rib chiqishimiz lozim. Klassik test nazariyasining asoschilaridan Frederik Lord (Frederick Lord) va Melvin Novik (Melvin Novick) «o'lchash» atamasiga quyidagicha ta'rif beradi: «o'lchash bu tajriba ob'yektining konkret xususiyatlariga raqamlar (ballar)ni biriktirish jarayoni»¹. Misol uchun, biolog olim tomonidan ko'l suvining bir tomchisida qancha bakteriyalar borligi aniqlanishi - bu o'lchash jarayonidir. Ushbu misolda tajriba ob'yekti - ko'l suvining bir tomchisi, ushbu ob'yektning konkret xususiyati - undagi bakteriyalar soni.

Mualliflar bu jarayonda uch bosqichni ajratib ko'rsatadilar:

birinchi: tajriba ob'yektini aniqlash;

ikkinchi: o'lchanadigan xususiyatni aniqlash;

uchinchi: tajriba ob'yektining o'lchanayotgan xususiyatini raqam bilan ifodalash qoidasini aniqlashtirishimiz lozim².

Masalan, biz kimningdir bo'yini o'lchamoqchi bo'lsak, bu shaxs - tajriba ob'yekti, shaxsning bo'yi (uzunligi) - o'lchanadigan xususiyat, uzunlikning metr,

¹ Lord F. and Novick M. Statistikal Theories of Mental test Scores. – Reading, MA: Addison – Wesley Pub. 1968. – P.17.

² Lord F. and Novick M. Statistikal Theories of Mental test Scores. – Reading, MA: Addison – Wesley Pub. 1968. – P.16.

dyuym yoki boshqa bir tizimda ifodalanishi - o'lchanayotgan xususiyatni raqam bilan ifodalash qoidasi.

Pedagogikada o'lchashning mohiyatini tushunish uchun domen va konstrukt tushunchalarini ham anglab olishimiz lozim bo'ladi.

Domen - bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar majmuyi.

Deylik, 9-sinf ona tili darslarida qo'shma gaplar mavzusi o'tildi: sodda va qo'shma gaplarning farqlari, qo'shma gaplarning turlari haqida tushuncha berildi, qo'shma gaplarni tuzish hamda og'zaki va yozma nutqda qo'llash o'rgatildi. Demak, 9-sinf uchun qo'shma gaplar bilan bog'liq mazkur bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar majmuyi (yig'indisi) domen hisoblanadi.

Odatda, ta'limning har bir bosqichi uchun tegishli domen ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida belgilab beriladi. Masalan, umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlarida maktab o'quvchilari egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar majmuyi (domen) har bir fan bo'yicha aniqlashtirib ko'rsatilgan.

Konstrukt - o'lchanishi lozim bo'lgan xususiyat.

Biz biron-bir xususiyatning darajasini o'lchash uchun o'lchanadigan xususiyatga mos maxsus vositalarni - o'lchov asboblari ishga solishimiz kerak. Masalan, uzunlikni o'lchash uchun chizg'ichdan yoki haroratni o'lchash uchun termometrdan foydalanamiz (bunda uzunlik yoki harorat konstruktlar hisoblanadi). Tabiiy fanlarda konstruktarni o'lchash uchun ishlatiladigan asboblari, odatda, bevosita va aniq o'lchash imkonini beradi, masalan, stolning uzunligini o'lchash uchun chizg'ichni stolning ustiga qo'yib uning uzunligini aniq santimetrlarda, dyuymlarda yoki boshqa o'lchov birligida qanchaga teng ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ammo shunday holatlar bo'ladiki, bevosita o'lchashning imkoni mavjud emas: masalan, Yerning radiusi yoki koinotda sayyoralar orasidagi masofani o'lchov asbobi yordamida bevosita hisoblab bo'lmaydi.

Shunga o'xshash, pedagogika va psixologiyada o'quvchining biron-bir xususiyatini (masalan, uning ona tilida yozma nutqi shakllanganlik darajasini, matematik savodxonlik darajasini, biron-bir kasbga qiziqishini, chet tilini

o'rganishga layoqatini va hokazo) o'lchamoqchi bo'lsak, buni bevosita amalga oshirish imkoni mavjud emas. Bunday o'lchash faqat bilvosita (kuzatish, suhbat, test va hokazo) orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, psixologlar shaxsning temperamentini aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan testlardan foydalanadilar.

Ta'lim jarayonida ham o'quvchi yoki talabada biron-bir domenga tegishli bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar qay darajada shakllanganligim bilmoqchi bo'lsak, shu domen qaysi bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarni o'z ichiga olishini hamda shu domenga xos qaysi konstruktleri (xususiyatlarni) o'lchamoqchi ekanligimizni aniqlab olish lozim bo'ladi. Shundan keyin o'quvchining qanday xatti-harakati orqali (qanday topshiriqlarni bajarishi orqali) mazkur konstruktleri kuzatib baho berish mumkinligini aniqlash lozim.

Misol uchun, adabiyot darslarida ta'lim oluvchi badiiy matnni tahlil qila olish-olmasligini bilmoqchi bo'lsak, bu domen qanday konstruktleri o'z ichiga olishini aniqlashtirishimiz lozim. Badiiy matnni tahlil qila olish domeni matnda ishlatilgan badiiy san'atlarni topish va sharhlash, muallif ochiq aytmagan fikrlarni tushunish, syujet elementlarini topish singari konstruktleri o'z ichiga olishi mumkin. Demak, ta'lim oluvchiga shu konstruktleri ko'rsatish imkonini beruvchi topshiriqlarni bajartirish orqali uning adabiyot faniga tegishli bo'lgan domenni qay darajada egallagani to'g'risida xulosa chiqarishimiz mumkin bo'ladi.

Yoki chet tili darslarida o'quvchi chet tilida eshitgan matnini tushungan yoki tushunmaganligini baholamoqchi bo'lsak, tinglab tushunish kompetensiyasi (domen) qanday konstruktleri (xususiyatlarni) o'z ichiga olishini aniqlashtirishimiz lozim (masalan, eshitilgan matnning umumiy ma'nosini anglab olish, matndagi ayrim detallarni ilg'ab olish va hokazo). Shundan so'ng ushbu konstruktleri kuzatib baholash imkonini beruvchi maxsus tuzilgan topshiriqlar orqali kompetensiya (domen) haqida xulosa chiqarish mumkin bo'ladi.

Demak, pedagogikada baholash jarayoni bilvosita xulosa chiqarishga asoslangan. Bunda biz beradigan topshiriqlar o'lchov vositasi vazifasini bajaradi va ta'lim oluvchi bu topshiriqlarni qanday bajarganligiga qarab u biron-bir domenga kiruvchi bilimlarni qay darajada egallagani, ko'nikma, malaka va

kompetensiyalar qay darajada shakllangani haqida xulosa chiqaramiz. Topshiriqlar baholanishi lozim bo'lgan domenni to'liq qamrab ololmaydi. Masalan, o'quvchining adabiyotdan barmoq va aruz vaznlarini farqlay olishini tekshirmoqchi bo'lsak, tabiiyki, barmoq va aruz vaznlariga tegishli barcha she'riy asarlarni bera olmaymiz. Faqat ayrim namunalar berib, qaysi namuna qaysi vaznga tegishli ekanligini so'rashimiz mumkin. Demak, baholash jarayonining yana bir xususiyati cheklangan namunalar orqali butun domen haqida xulosa chiqarishdir.

Shunday qilib, baholash baholanishi (o'lchanishi) lozim bo'lgan domen va konstrukt haqida xulosa chiqarish bo'lib, bu xulosa bilvosita, cheklangan sondagi maxsus yaratilgan topshiriqlar yordamida chiqariladi. Baholash jarayomda qo'llaniladigan topshiriqlar yig'indisi test deyiladi. Test bitta yoki bir nechta test topshiriqlaridan iborat bo'lishi mumkin.


Test – baholanishi lozim bo'lgan domen va konstrukt haqida xulosa chiqarishga asos bo'ladigan topshiriq yoki topshiriqlar yig'indisi.

Shu o'rinda aniqlik kiritish lozim: test bu baholanishi lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikma yoki kompetensiya haqida xulosa chiqarishga asos bo'ladigan har qanday topshiriq yoki topshiriqlar majmuyi. Bu topshiriqlar turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- yopiq test - berilgan javob variantlaridan to'g'risini tanlashni talab qiladigan topshiriq;
- ochiq test - javob yozishni talab qiladigan topshiriq;
- amaliy test - bajarib ko'rsatishni talab qiladigan topshiriq.

Test shunday tuzilishi lozimki, uni bajarish aynan **baholanishi lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikma yoki kompetensiyani ishga solishni talab qilsin.** Masalan, haydovchilik guvohnomasini berishdan oldin o'quvchining transport vositasini boshqarish ko'nikmasini qay darajada egallagomini baholash uchun transport vositasini haydatib ko'rish kerak, «men mashinani qanday boshqaraman?» mavzusida insho yozdirish yoki bayon qildirish orqali bu ko'nikmani baholab bo'lmaydi. Yoki o'quvchining adabiyot fanidan qofiya va

radifni farqlay olishini ko'rmochi bo'lsak, she'r berib, qofiya va radifni topishni so'rash mumkin.



Test vositasida domen haqida xulosa chiqarish jarayoni

Ob'yektiv xulosalar chiqara olishimiz va test topshiruvchilarni bir-biri bilan solishtira olishimiz uchun test topshiriqlari va ularni bajarish talablari (sharoitlari) barcha o'quvchilar (test topshiruvchilar) uchun teng bo'lishi lozim. Masalan, transport vositasini boshqarish ko'nikmasini baholayotganda bir o'quvchi uchun hech qanday svetoforlari va chorrahaları yo'q tekis trassa, boshqa o'quvchi uchun harakat tirband bo'lgan markaziy ko'cha tanlansa, berilgan topshiriqni bajarish shartlari o'rtasidagi bunday farqlar ob'yektiv xulosalar chiqarish imkonim bermaydi. Yoki ona tilidan insho yozish so'ralgan testda bir o'quvchiga berilgan vaqt boshqa o'quvchiga berilgan vaqtdan farq qilsa, bu ham o'quvchilarni bir-biri bilan solishtirish va ob'yektiv xulosalar chiqarishga xalal beradi.

Testning shartlari: baholanishi lozim bo'lgan domen (bilim, malaka, ko'nikma yoki kompetensiya) haqida xulosa chiqarishga imkon berishi va uni bajarish shart- sharoitlari barcha test topshiruvchilar uchun teng bo'lishi lozim.

Asosiy xulosa:

Baholash jarayonida cheklangan sondagi maxsus tuzilgan topshiriqlar (test topshiriqlari) yig'indisi (test) orqali ma'lum bir bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar majmuyining (domenning) test topshiruvchida qay darajada shakllangani haqida bilvosita xulosa chiqariladi.

9.3. Baholashning maqsadlari

Baholash jarayoni ma'lum bir maqsadni ko'zlab o'tkaziladi. Testdagi topshiriqlar soni, ularning tuzilishi, baholash mezonlari aynan baholashning maqsadidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bir maqsad uchun yaratilgan test boshqa bir maqsad uchun to'g'ri kelmasligi mumkin, masalan, o'quvchilarni chet tilini bilish darajasiga ko'ra guruhlariga ajratish maqsadida tuzilgan ko'p darajali

(multi-level) testni chet tilini o'rganishning konkret bir darajasini baholash uchun ishlatib bo'lmaydi.

Yuqorida ko'rganimizdek, test - baholash jarayonida qo'llaniladigan vosita. Bu vosita yordamida ma'lum bir domen va bu domenga xos bo'lgan konstruktlar o'lchanadi, ular o'quvchida (test topshiruvchida) qay darajada shakllanganligi haqida xulosa chiqariladi. Bu xulosa esa, o'z navbatida, biron-bir qaror qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Baholash jarayonining maqsadidan kelib chiqqan holda ikki xil baholashni ajratib ko'rsatish mumkin: xulosalovchi baholash va shakllantiruvchi baholash.

Baholash jarayoni maqsadlari:

Xulosalovchi baholash - ta'lim jarayonining muhim bir bosqichida erishilgan natijalarni baholash;

Shakllantiruvchi baholash - ta'lim jarayoni davomida ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish sifatini baholab borish

Baholash jarayoni maqsadlari:

Xulosalovchi baholash (o'rganishni baholash) - ta'lim jarayonining ma'lum bir muhim bosqichida (masalan, modul yoki fan oxiri, semestr yoki o'quv yili oxiri, ta'limning bir bosqichi nihoyasi yoki ta'limning keyingi bosqichiga o'tishdan oldin) ta'lim oluvchining ta'limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini o'lchash jarayoni.

Xulosalovchi baholash natijasida chiqariladigan xulosalar asosida qabul qilinadigan qarorlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) **Baho berish (monitoring):** baholash natijasida chiqariladigan xulosalar o'quvchi, o'qituvchi, ta'lim yo'nalishi, ta'lim muassasasi, ta'lim dasturi yoki butun boshli bir ta'lim tizimining faoliyatiga baho berish uchun ishlatilishi mumkin. Bunda ham olinadigan ma'lumot kim tomonidan ishlatilishiga qarab ikki xil baho berishni ajratib ko'rsatish mumkin:

a) **Ta'lim oluvchiga (o'quvchiga, talabaga) baho berish:** bunday baho berish, odatda, bevosita ta'lim berayotgan o'qituvchi yoki ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi va ta'lim oluvchining o'quv dasturi yoki uning

ma'lum bir qismim qay darajada o'zlashtirgani haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumot ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari tomonidan turli maqsadlarda ishlatilishi mumkin:

- ta'lim oluvchi tomonidan: fanni yoki modulni qayta o'zlashtirish lozimligi haqida qaror qabul qilish maqsadida; bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tganda ozlashtirilgan fanlar (modullar) to'g'risida ma'lumot taqdim qilish maqsadida va hokazo;

- ota-onalar tomonidan: farzandining o'zlashtirishini kuzatib borish maqsadida; farzandiga qaysi fandan qo'shimcha yordam kerakligini aniqlash maqsadida va hokazo;

- ta'lim muassasasi tomonidan: ta'lim oluvchini ta'limning keyingi bosqichiga o'tkazish yoki o'tkazmaslik haqida qaror qabul qilish maqsadida; ta'lim oluvchiga ta'lim muassasasini bitirganligi to'g'risida hujjat berish yoki bermaslik haqida qaror qabul qilish maqsadida va hokazo;

b) Ta'lim beruvchi (o'qituvchi, ta'lim muassasasi), ta'lim yo'nalishi (dasturi) yoki ta'lim tizimiga baho berish: bunday baho berish ichki (ta'lim muassasasi tomonidan o'tkaziladigan) yoki tashqi (ta'lim sifatini nazorat qiluvchi davlat yoki nodavlat tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan) bo'lishi mumkin. Bunday baholash jarayoniga barcha ta'lim oluvchilar qamrab olinmasdan, ta'lim oluvchilarning ma'lum bir qismini baholash orqali o'qituvchi, ta'lim muassasasi, ta'lim yo'nalishi yoki butun boshli bir ta'lim tizimi qay darajada samarali ishlayotgani haqida xulosalar chiqarilishi mumkin. Bu xulosalar esa, o'z navbatida, qandaydir xatti-harakatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan:

- ta'lim beruvchilar (o'qituvchilar, ta'lim muassasasi, ta'lim muassasasi rahbariyati) faoliyati haqida xulosalar chiqarish;

- ta'lim dasturlariga o'zgartirishlar kiritish;

- ta'lim muassasasi faoliyatiga o'zgartirish kiritish yoki uni yopish;

- ta'lim tizimini isloh qilish va hokazo.

2) **Tanlash:** baholash natijasida chiqariladigan xulosalar test topshiruvchilarni tanlash (saralash) uchun ishlatiladi. Bu tanlash asosan ikki xil bo'lishi mumkin:

a) Belgilangan talabga javob beradiganlarni tanlash: bunda minimal talablar o'rnatiladi va baholashning maqsadi shu talablarga mos keladiganlarni ajratib olish bo'ladi. Belgilangan minimal talablarga javob beradiganlarning barchasiga qandaydir hujjat (masalan, ta'limni muvaffaqiyatli tugatganligini tasdiqlovchi hujjat - diplom, guvohnoma, biron-bir faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat beradigan hujjat - sertifikat, litsenziya) yoki huquq (masalan, ta'limning keyingi bosqichiga o'tish huquqi) beriladi. Aksar xorij davlatlaridagi (AQSh, Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo) oliy ta'lim muassasalari, odatda, bo'lajak talabalarga qo'yiladigan minimal talablarni e'lon qilishadi va shu talablarga javob beradigan barcha abituriyentlarni o'qishga qabul qilishadi;

b) Cheklangan kvota sharoitida tanlash: bunday holat bir o'ringa bir necha talabgor da'vo qilayotganda yuzaga keladi (masalan, oliy o'quv yurtiga o'qishga qabul qilish, xorijga malaka oshirishga yuborish uchun tanlash, bo'sh ish o'rniga nomzod tanlash va hokazo). Bunda test topshiruvchilarni bir-biriga solishtirish asosida qaror qabul qilinadi, ya'ni test topshiruvchilarning ichidan eng yuqori natija ko'rsatganlari tanlab olinadi.

Shakllantiruvchi baholash (o'rganish uchun baholash) ta'lim jarayoni davomida ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish sifatini baholab borish.

Shakllantiruvchi baholash natijasida olinadigan xulosalar ta'lim jarayonini ta'minlash (ta'lim oluvchiga va o'qituvchiga ta'lim jarayoni qay darajada samarali kechayotgani haqida ma'lumot berish, keyingi qadamlarini belgllash) uchun ishlatiladi. Masalan:

- muntazam ravishda sinfda o'quvchini baholab borish orqali u qaysi bilim, ko'nikma, malaka yoki kompetenhsiyalarni yaxshi o'zlashtirgani yoki o'zlashtirmagani, nimalar ustida ishlashi kerakligi haqida ma'lumot beriladi; biron-bir mavzu oxirida nazorat ishi olish orqali o'qituvchi o'quvchilari shu mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklari, qanday xatolarga yo'l qo'yayotganlari haqida ma'lumot olishi va lozim bo'lsa, o'tilgan mavzuga yana qaytishi mumkin;

- o'qituvchi o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash (diagnostika) maqsadida test o'tkazishi va olingan ma'lumotlar asosida keyingi qadamlarim rejalashtirishi yoki o'quvchilarni guruhlarga ajratishi mumkin.

Demak, shakllantiruvchi baholash ta'lim beruvchilarga (o'qituvchilarga) va ta'lim oluvchilarga (o'quvchilarga, talabalarga) asosan jarayonni baholash va lozim bo'lgan o'rinlarda unga o'zgartirish kiritish imkonini bersa, xulosalovchi baholash natijani baholash uchun ishlatiladi.

<i>Maqsad</i>	<i>Baholash natijasida olinadigan ma'lumot kim tomonidan ishlatilishi</i>	<i>Baholashning maqsadi</i>	<i>Misollar</i>
Baho berish (monitoring)			
Ta'lim oluvchiga baho berish	- Ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba); - Ta'lim muassasasi; - Ota-ona.	Ta'lim oluvchining o'quv dasturi yoki uning ma'lum bir qismini qay darajada o'zlashtirganini aniqlash	- Fan (modul)ni o'qitish yakunida topshiriladigan imtixon; - Ta'lim muassasasini bitirish uchun topshiriladigan yakuniy davlat attestatsiyasi
Ta'lim beruvchiga, ta'lim dasturiga yoki ta'lim tizimiga baho berish	- Ta'lim muassasi; - Tashqi organlar.	O'qituvchilar, ta'lim muassasi, ta'lim dasturi, ta'lim tizimiga baho berish	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan o'tkaziladigan attestatsiyasi
Tanlash			
Cheklangan kvota sharoitida tanlash	- Ta'lim muassasi; - Ish beruvchi; - Grant beruvchi tashkilotlar	Nomzodlar ichidan eng yaxshilarini tanlab olish	Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan oliy ta'lim muassasalariga saralash test sinovlari
Belgilangan talabga javob beradiganlarni tanlash	- Litsenziya va sertifikat beruvchi tashkilotlar; - Ta'lim muassasi	Nomzodlar ichidan belgilangan minimal talablarga javob beradiganlarni ajratib olish	- Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan chet tili bo'yicha bilim darajasini aniqlash imtihonlari; - Haydovchilik guvohnomasini olish uchun topshiriladigan imtihon

Xulosalovchi baholashning maqsadlari

<i>Maqsad</i>	<i>Baholash natijasida olinadigan ma'lumot kim tomonidan ishlatilishi</i>	<i>Baholashning maqsadi</i>	<i>Misollar</i>
Ta'lim jarayonini ta'minlash	- Ta'lim oluvchi; - O'qituvchi	Keyingi qadamlarni rejalashtirish	- Dars boshi yoki oxirida olinadigan testlar; - Mavzu oxirida olinadigan nazorat ishlari; - O'qituvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash uchun o'tkaziladigan diagnostik testlar

Shakllantiruvchi baholashning maqsadi

Shakllantiruvchi baholash samarali bo'lishi uchun xulosalovchi baholashdan quyidagi jihatlari bilan farq qilishi lozim:

- xulosalovchi baholash asosan rasmiy shaklda (imtihon, sinov, kurs ishi topshirish va hokazo) o'tkazilsa, shakllantiruvchi baholash bevosita o'qituvchi tomonidan asosan norasmiy shakllarda (kuzatish, og'zaki savol-javob, kichik hajmdagi testlar, yozma ishlar va hokazo) o'tkaziladi;

- xulosalovchi baholashdan keyin, odatda, aynan shu ta'lim oluvchilar guruhi uchun ta'lim jarayoniga o'zgartirish kiritish imkoni mavjud bo'lmaydi (lekin xulosalovchi baholashdan olingan ma'lumotlar natijasida keyingi ta'lim oluvchilarga ruhi uchun bunday o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin), shakllantiruvchi baholash jarayonida olingan ma'lumotlar natijasida o'qituvchi ta'lim jarayoniga kerakli o'zgartirishlar kiritiladi (masalan, o'qituvchilar bo'sh o'zlashtirgan mavzuni qayta o'tishi mumkin);

- test xulosalovchi baholashdan keyin, odatda, qayta aloqa, fidbek (inglizcha «feedback»), ya'ni tahlil bo'lmaydi topshiruvchilarning natijalari e'lon qilinadi, lekin nega shunday natijalar chiqqaniga izoh berilmaydi yoki izoh berilsa ham, test topshiruvchi bu izohni keyingi qadamlarni rejalashtirish uchun ishlatmaydi, shakllantiruvchi baholashda esa o'qituvchi ta'lim oluvchiga izoh

(tushuntirish) berishi lozim - shunda ta'lim oluvchi o'z yutuq va kamchiliklarini anglab, keyingi qadamlarini rejalashtira oladi'³.

Test tuzayotganda, uni ishlatayotganda va uning natijalarini talqin qilib, bu natijalar asosida biror-bir qarorga kelinayotganda, birinchi navbatda, baholashning maqsadini aniqlashtirib olish lozim. Umuman, har qanday testni ishlatishda quyidagi uch savolga javob berish lozim:

1. Baholashning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Baholashning shakli maqsadga mosmi?
3. Baholashdan ko'zlangan maqsadga erishildimi?

Asosiy xulosa:

Xulosalovchi baholash asosan ta'lim oluvchiga yoki ta'lim oluvchi orqali ta'lim beruvchiga (o'qituvchi, ta'lim muassasasi, ta'lim yo'nalishi, ta'lim tizimi) baho berish (faoliyatini monitoring qilish) hamda ta'lim oluvchilarni saralash maqsadida rasmiy shaklda (imtihon, sinov, kurs ishi yoki diplom ishi topshirish va hokazo) o'tkaziladi.

Shakllantiruvchi baholash asosan ta'lim jarayom davomida bevosita o'qituvchi tomonidan turli shakllarda o'tkaziladi, bunday baholash natijasida olingan ma'lumot o'qituvchi va ta'lim oluvchiga keyingi qadamlarim rejalashtirish uchun yordam beradi.

9.4. Test turlari

Test bir yoki bir nechta test topshiriqlaridan iborat bo'ladi. Test topshiruvchidan qanday harakatni amalga oshirish talab qilinayotganiga qarab test topshiriqlari ikki guruhga bo'linadi: yopiq test topshirig'i va ochiq test topshirig'i.

Yopiq test topshirig'i - berilgan javob variantlari ichidan to'g'risini tanlashni talab qiladigan test topshirig'i.

Yopiq test topshiriqlari bir qancha shakllarda bo'lishi mumkin:

- muqobil javobli test topshirig'i;
- «to'g'ri-noto'g'ri» shaklidagi test topshirig'i;

³ Rowntree D. Assessing Students: How Shall Know Them. – London: Kogan Page, 1987. – P.24.

- moslashtirish;
- ketma-ketlikni topish.

Ochiq test topshirig'i - test topshiruvchi javobni o'zi yaratishi (yozishi, og'zaki javob berishi, ijro etishi, bajarib ko'rsatishi va hokazo) talab qilinadigan test topshirig'i.

Ochiq test topshiriqlari asosan uch shaklda bo'lishi mumkin:

- qisqa javobni talab qiladigan test topshirig'i;
- kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig'i;
- amaliy test topshirig'i (test topshiruvchi biron-bir mahsulot yaratishi yoki biron-bir amalni bajarib ko'rsatishi talab qilinadigan test topshirig'i).

Baholashning maqsadidan kelib chiqqan holda turli testlar qo'llanilishi mumkin. Testlarni tasniflashda (guruhlariga ajratishda) ularning har xil xususiyatlari asos qilib olinishi mumkin, shunga ko'ra, test turlari ham har xil bo'lishi mumkin.

Test natijalarini tahlil qilish usuliga ko'ra barcha testlar uch guruhga bo'linadi: normaga mo'ljallangan test, mezonga mo'ljallangan test va ipsativ test.

Normaga mo'ljallangan test - test topshiruvchining natijalari normalar (shu yoshdagi yoki o'rgamshning shu bosqichidagi test topshiruvchilarning yirik guruhi natijalari) bilan solishtiriladi.

Normaga mo'ljallangan testda test topshiruvchi erishgan natija xuddi shu testni yoki aynan shu domenni baholaydigan boshqa testni topshirgan yirik guruhlar (normativ guruhlar) natijalari bilan solishtirilib, test topshiruvchining bilim darajasi boshqalarga nisbatan qanday ekanligi haqida xulosa chiqariladi. Masalan, Nazarov matematika bo'yicha testda 70 ta test topshirig'idan 33 tasini to'g'ri yechgan bo'lsa, bu natija xuddi shu (yoki shunday) testni topshirgan normativ guruh (yoshi, bilim darajasi jihatidan Nazarov ga o'xshagan boshqa test topshiruvchilar) natijalari bilan solishtiriladi va Nazarovning matematika bo'yicha bilim darajasi boshqalarga nisbatan yuqoriroq, pastroq yoki o'xshash degan xulosaga kelinadi.

Normaga mo'ljallangan testda test topshiruvchi bo'yicha qabul qilinadigan qarorga boshqalarning natijalari ta'sir qiladi. Masalan, nufuzli oliy ta'lim muassasasi abituriyentlarning ichidan eng yuqori natija ko'rsatgan 20 foizini o'qishga qabul qilmoqchi bo'lsa, normaga mo'ljallangan test ishlatishi mumkin. Bunday holda test topshiruvchining o'qishga qabul qilinish yoki qilinmasligiga boshqa test topshiruvchilar qanday natijalarga erishganligi ham ta'sir qiladi.

Mezonga mo'ljallangan test - test topshiruvchining natijalari oldindan belgilangan mezonlar bilan solishtiriladi.

Mezonga mo'ljallangan testda maqsad test topshiruvchining baholanayotgan domenni qaysi darajada o'zlashtirganligini aniqlashdir. Bunda test topshiruvchining natijalari boshqalarning natijalari bilan solishtirilmaydi va test topshiruvchi bo'yicha chiqariladigan qarorga boshqalarning natijalari ta'sir qilmaydi. Masalan, ta'lim muassasasi ta'lim jarayoni so'nggida belgilangan talablarga javob beradigan o'quvchilarga diplom bermoqchi bo'lsa, mezonga mo'ljallangan test ishlatishi mumkin. Bunda bitiruvchilarning natijalari bir-biri bilan solishtirilmaydi, balki oldindan belgilab qo'yilgan mezonlar bilan solishtirilib, ularga diplom berish yoki bermaslik masalasi hal qilinadi.

Normaga mo'ljallangan testda test topshiruvchi boshqa test topshiruvchilarga nisbatan baholansa, mezonga mo'ljallangan testda test topshiruvchining ma'lum bir domendan aynan nimani bilish-bilmasligi (qila olish-olmasligi) aniqlanadi.

Normaga mo'ljallangan testlar asosan solishtirish uchun qo'llaniladi. Bu solishtirish turlicha bo'lishi mumkin: alohida olingan test topshiruvchilarni bir-birlari bilan yoki o'rtacha statistik normalar bilan solishtirish, shuningdek, test topshiruvchilar guruhlarini bir-birlari bilan yoki o'rtacha statistik normalar bilan solishtirish. Bunday solishtirish natijasida turli qarorlar qabul qilinishi, niasalan, cheklangan kvotaga da'vo qilayotganlarning ichidan kuchliroq nomzodlarni tanlab olish mumkin.

Mezonga mo'ljallangan testlar esa test topshiruvchilar belgilangan ta'limiy maqsadlarga qay darajada erishganlarini baholash uchun qo'llaniladi. Bunday testlarni minimal talabga javob beradiganlarni tanlash, ta'lim muassasalarimi

attestatsiyadan o'tkazish, ta'lim oluvchilarni diagnostika qilish singari maqsadlarda ishlatish mumkin⁴. Mezonga mo'ljallangan testlar ham, o'z navbatida, maqsadiga ko'ra ikki turga bo'linadi: domenga mo'ljallangan testlar va «mastery» testlar. Domenga mo'ljallangan testlar test topshiruvchining tekshirilayotgan domenning qancha qismini o'zlashtirganligim tekshirishga qaratilgan. Misol uchun, test topshiruvchi bunday testni 100 foiz bajarsa, domenni 100 foiz o'zlashtirgan deyishimiz mumkin. «Mastery» testlar («O'zlashtirish saviyasi» testlari) esa test topshiruvchilarni ikki yoki undan ortiq guruhlariga ajratish (masalan, «biladiganlar – bilmaydiganlar», «yomon - o'rtacha - yaxshi») uchun ishlatiladi.

Normaga mo'ljallangan va mezonga mo'ljallangan testlarni quyidagicha solishtirish mumkin⁵:

	Normaga mo'ljallangan testlar	Mezonga mo'ljallangan testlar
1. Asosiy maqsadi	Test topshiruvchilarning o'lchanayotgan domenini egallaganlik darajasini solishtirish	Test topshiruvchilarning o'lchanayotgan domendan aynan nimani bilish-bilmasligini (qila olish, qila olmasligini) aniqlash
2. Natijalarni qayta ishlash	Test topshiruvchining natijasi boshqa test topshiruvchilarning natijalari bilan solishtiriladi	Test topshiruvchining natijasi oldindan belgilab qo'yilgan mezonlar bilan solishtiriladi
3. Qamrab olish diapazoni	Odatda, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarning keng diapazonini qamrab oladi	Odatda, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarning tor diapazonini qamrab oladi
4. Test topshiriqlarini tanlash	Haddan tashqari oson yoki haddan tashqari qiyin test topshiriqlari kiritilmaydi	Test topshiriqlarning oson-qiyinligi muhim rol o'ynamaydi
5. Bajarish standartlari	Test topshiruvchining guruhga nisbatan o'rni belgilanadi (masalan, kuchli 10 foizlikka kiradi)	Test topshiruvchining domenga nisbatan darajasi belgilanadi (masalan, 90 foiz materialni biladi)

Ipsativ test - test topshiruvchining natijalari o'zining shu domenni o'lchaydigan oldingi test natijalari bilan solishtiriladi.

Ipsativ testda maqsad test topshiruvchining ma'lum bir vaqt oralig'ida erishgan yutuqlarini aniqlash, ta'limdagi progressini o'lchash hisoblanadi.

⁴ Кирейцева А.Н. Азбука тестирования. – Санкт-Петербург: Златоуст. 2013, - С.29.

⁵ Майоров А.Н. Теория и практика создания тестов для системы образования: как выбирать, создавать и использовать для целей образования. – Москва: Интеллект-центр. 2002. – С.39.

Masalan, bir o'quvchining ta'lim dasturini boshlashdan oldingi bilim darajasiga baho berish uchun kirish testi beriladi. Ta'lim dasturi yakunlangandan keyin xuddi shu o'quvchi bajargan chiqish testi bilan kirish testi natijalari solishtirilib, o'quvchi nimaga erishganligi haqida xulosaga kelinadi. Ayrim davlatlarning ta'limni sifati monitoringi tizimlarida maktabning o'quvchiga bergan qo'shimcha qiymatini (ya'ni o'quvchining oldingi bilimlari va maktabda egallagan bilimlari o'rtasidagi farqni) aniqlash va shu orqali maktab faoliyatiga baho berish maqsadida ipsativ testlardan foydalaniladi.

Test natijalarining qo'llanish usuliga ko'ra barcha testlar to'rt guruhga bo'linadi: muvaffaqiyat testlari, egallash testlari, prognostik testlar (layoqatni aniqlash testlari) va diagnostik testlar.

Muvaffaqiyat testlari test topshiruvchining konkret o'quv materialini qay darajada o'zlashtirganligini baholash uchun ishlatiladi va test topshiriqlari ta'lim jarayonida qo'llanilgan o'quv materiallari asosida tuziladi.

Masalan, fanm o'qitish yakunida o'qituvchi o'quvchilarining fanni qay darajada o'zlashtirganligini tekshirish maqsadida ta'lim jarayonida ishlatilgan darslik asosida test olishi mumkin.

Egallash testlari test topshiruvchining ma'lum bir ko'nikma yoki kompetensiyalarni qay darajada egallaganligini baholash uchun ishlatiladi va test topshiriqlari ta'lim jarayonida qo'llanilgan o'quv materiallariga bog'liq bo'lmaydi.

Masalan, chet tilini bilish darajasini baholovchi xalqaro imtihonlar (IELTS, TOEFL singari) test topshiruvchining til ko'nikmalarini (tinglab tushunish, o'qish, yozish, gapirish) baholaydi va bunda test topshiruvchining imtihonga tayyorlanish uchun qaysi manbadan foydalanganligi hech qanday ahamiyatga ega emas.

Prognostik testlar (layoqatni aniqlash testlari) test topshiruvchining ma'lum bir sohaga (masalan, chet tilimi o'rganishga, matematik mantiqqa) layoqatini aniqlash uchun ishlatiladi.

Prognostik testlar, odatda, prognoz (bashorat) qilish maqsadida qo'llamladi: masalan, chet tili kursini boshlashdan oldin o'qituvchi kimlarda til o'rganishga layoqat borligini aniqlab olishi mumkin.

Diagnostik testlar test topshiruvchining bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Masalan, o'quvchini biron-bir imtihonga tayyorlayotgan o'qituvchi diagnostik test yordamida o'quvchining nimalarni bilmasliklarini aniqlab, shu asosda o'qitishni rejalashtirishi mumkin.

Testni bajarish uchun ajratilgan vaqtga ko'ra testlar uch guruhga bo'lmadi: tezkor test, kuchli test va aralash test.

Tezkor test - bunda test topshirish vaqti qat'iy cheklangan bo'ladi, testga qiyinchilik darajasi bir xil (yoki bir-biriga juda yaqin) bo'lgan topshiriqlar kiritiladi, odatda, barcha topshiriqlarga bir xil ball beriladi, test topshiruvchining natijasi to'g'ri javoblar soniga bog'liq bo'ladi.

Kuchli test - bunda test topshirish vaqti qat'iy cheklangan bo'lmaydi, testga murakkab topshiriqlar kiritiladi va test topshiruvchining natijasi nafaqat to'g'ri javoblar soni, balki topshiriqlarning qanday yechilganligiga ham bog'liq bo'ladi.

Aralash test - bunday testlarda tezkor test va kuchli testlarning xususiyatlari birlashtiriladi: testga turli murakkablikdagi topshiriqlar kiritiladi va test uchun ajratilgan vaqt cheklangan bo'ladi, test topshiruvchining natijasi to'g'ri javoblar soniga bog'liq bo'ladi.

Qamrab olingan fan sohasiga ko'ra testlar ikki guruhga bo'linadi: gomogen test va geterogen test.

Gomogen test - faqat bir fan sohasi bo'yicha test topshiriqlaridan iborat test.

Geterogen test - bir nechta turdosh fanlar sohalari bo'yicha test topshiriqlaridan iborat test.

Kiritilgan test topshiriqlari turiga ko'ra testlar ikki guruhga bo'linadi: **monomorf test** va **polimorf test**.

Monomorf test - faqat bir turdagi test topshiriqlarini o'z ichiga olgan test.

Polimorf test - har xil turdagi test topshiriqlarini o'z ichiga olgan test.

Topshirish ssenariysiga ko'ra testlar ikki guruhga bo'linadi: **chiziqli test va adaptiv test.**

Chiziqli test - barcha test topshiruvchilarga bir xil test topshiriqlari oldindan belgilangan ketma-ketlikda beriladi.

Adaptiv test - har bir keyingi test topshirig'i test topshiruvchining oldingi savolga bergan javobiga bog'liq bo'ladi: masalan, test topshiruvchi noto'g'ri javob bersa, keyingi savol osonroq, to'g'ri javob bersa, keyingi savol qiyinroq bo'ladi. Adaptiv testlar kompyuterda olinadi va ularni o'tkazish uchun maxsus dasturiy ta'minot kerak bo'ladi.

Bitta test qaysi jihati tasniflash uchun asos qilib olinganiga qarab yuqoridagi tasniflarning barchasiga kirishi mumkin. Masalan, Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlari:

- normaga mo'ljallangan test, chunki test topshiruvchilarning natijalari normalar bilan solishtirilib, shu asosda abituriyentlarning ichidan nisbatan kuchlilari aniqlanadi;
- muvaffaqiyat testi, chunki test materiallari abituriyentning o'rta yoki o'rta maxsus ta'lim o'quv dasturlarini qay darajada egallaganligini tekshiradi;
- aralash test, chunki test topshiriqlari turli murakkablikda bo'ladi va bu topshiriqlar belgilangan vaqt ichida bajarilishi lozim;
- gomogen test (to'g'rirog'i, gomogen testlar yig'indisi), chunki test bir necha fanlar blokini o'z ichiga oladi va har bir blok bir fan bo'yicha topshiriqlarni o'z ichiga oladi;
- monomorf test, chunki faqat yopiq test topshiriqlari ishlatiladi;
- chiziqli test, chunki test topshiriqlari ketma-ketligi oldindan belgilangan bo'ladi.

<i>Test natijalarini tahlil qilish usuliga ko'ra</i>	<i>Test natijalarining qo'llanish usuliga ko'ra</i>	<i>Testni bajarish uchun ajratilgan vaqtga ko'ra</i>	<i>Qamrab olingan fan sohasiga ko'ra</i>	<i>Kiritilgan test topshiriqlari turiga ko'ra</i>	<i>Topshirish ssenariysiga ko'ra</i>
- Normaga mo'ljallangan test - Mezonga mo'ljallangan test - Ipsativ test	- Muvaf-faqiyat - testlari - Egallash testlari - Prognostik testlar (layoqatni aniqlash testlari) - Diagnostik testlar	- Tezkor test - Kuchli test - Aralash test	- Gomogen test - Geterogen test	- Monomorf test - Polimorf test	- Chiziqli test - Adaptiv test

Asosiy xulosa:

Testlar turli xususiyatlariga ko'ra tasniflanishi hamda yopiq test topshiriqlari, ochiq test topshiriqlari va amaliy test topshiriqlaridan iborat bo'lishi mumkin.

XX-BOB TESTNING SIFATI: VALIDLIK

10.1. Validlik tushunchasi va uning tadriji

Oldingi bobda ko'rganimizdek, ta'lim jarayonida test biron-bir domenni, shu domen o'z ichiga olgan konstruktarni o'lchash uchun qo'llaniladi. Ta'lim oluvchining bilim darajasini, unda ko'nikma, malaka, kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini bevosita ko'rish imkoni mavjud emas: o'qituvchi bularni faqat bilvosita (savol-javob, kuzatish, topshiriqlar bajartirish orqali) ko'rishi, o'lchashi mumkin. Bunday o'lchash natijasida chiqarilgan xulosalar asosida esa biron-bir shaxs yoki tashkilot (masalan, o'qituvchi, ta'lim muassasasi, ish beruvchi) tomonidan ma'lum bir qarorlar (masalan, diplom berish yoki bermaslik, o'qishga yoki ishga qabul qilish yoki qabul qilmaslik va hokazo) qabul qilinadi.

Qabul qilinadigan qarorlar asoslantirilgan bo'lishi uchun test asosida chiqariladigan xulosalar ham valid (asosli)' bo'lishi lozim.

«Valid» so'zi lotincha «validus» so'zidan olingan bo'lib, «kuchli; samarali; yaroqli; qonuniy ma'nolarini bildiradi. Testologiyada bu atama tarjima qilinmagan holda ishlatiladi.

Validlik - testning sifatini belgilaydigan eng asosiy tushuncha. Validlik deganda testning maqsadidan kelib chiqqan holda test natijalari yordamida chiqariladigan xulosalarning qay darajada ilmiy va empirik jihatdan asosli ekanligi tushuniladi.

Demak, test natijalari asosida chiqarilgan xulosalar va ushbu xulosalar asosida qabul qilingan qarorlar asoslangan bo'lishi lozim.

Masalan, ona tilidan morfologiya bo'yicha yopiq shakldagi test topshiriqlarini yaxshi bajargan o'quvchi haqida qanday xulosa chiqarishimiz mumkin? U tilshunoslikning morfologiya bo'limiga tegishli qonun-qoidalarini yaxshi o'zlashtirgan deya olamiz. U o'zlashtirgan qoidalarini og'zaki yoki yozma nutqda fikrini to'g'ri ifodalash uchun qo'llay oladi deya olamizmi? Bu bahsli masala. Boshqa bir misol. Nemis tilida B1 (quyi o'rta) darajadagi matnlarni o'qib tushunish bilan bog'liq test topshiriqlarini a'lo darajada bajargan o'quvchi B2

(yuqori o'rta) darajadagi matnlarni ham tushunar ekan degan xulosaga kelishimiz mumkinmi?

Har qanday testdan oldin testni o'tkazish uchun mas'ul shaxslar yoki tashkilotlar test bilan bog'liq bir qancha jihatlarni aniqlab olishi lozim bo'ladi, jumladan:

- qaysi domenni va konstruktlarni o'lchamoqchimiz?

Bu domen va konstruktlar o'z ichiga nimalarni oladi?

- test natijalari qanday maqsadda ishlatiladi?

- ishlatmoqchi bo'lgan test topshiriqlarimiz aynan biz o'lchamoqchi bo'lgan domenni va konstruktlarni o'lchaydi deyishimiz uchun qanday ilmiy dalillar mavjud?

Misol uchun, ta'lim ingliz tilida olib boriladigan universitetga inglizzabon bo'lmagan abituriyentlar hujjat topshirishdi. Universitet qabul komissiyasi abituriyentlarni o'qishga qabul qilishdan oldin ularning ingliz tilida ma'ruzalar eshitish, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, kurs ishlari yozish, professor-o'qituvchilar bilan muloqot olib borishga qay darajada tayyor ekanligini baholashi lozim. Buning uchun universitet abituriyentlarga ingliz tilida ilmiy matnlarni tinglab va o'qib tushunish, ilmiy mavzularda fikrim og'zaki va yozma bayon qilish qobiliyatini baholaydigan test berishi va abituriyentlarning tilni bilish darajasiga minimal talablar belgilab, bu minimal talablarga javob beradiganlarni ajratib olishi kerak bo'ladi. Bunday test natijalari universitetga qaysi abituriyent ta'limni ingliz tilida olib borishga tayyor ekanligi haqida asosli - valid xulosalar chiqarish imkonini beradi. Agar universitet abituriyentlarga ingliz tili grammatikasi bo'yicha bilimlarni tekshirishga qaratilgan test bersa, bunday test abituriyentlarning ingliz tilidagi grammatik qoidalarni qay darajada o'zlashtirgani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi, lekin abituriyentlarning ingliz tilida ilmiy matnlarni tushunish yoki ilmiy mavzularda fikrlarini bayon qila olish qobiliyati haqida xulosa chiqarish imkonim bermaydi.

Boshqa bir misol: bo'lajak tilshunoslar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi talabalar ingliz tili grammatikasi kursini o'qib bo'lishganidan so'ng ularning

grammatikaga oid bilimlarni qay darajada o'zlashtirganini baholamoqchi bo'lsa, bunday vaziyatda ularga ingliz tili grammatikasi bo'yicha bilimlarni tekshirishga qaratilgan test berish eng maqbul yo'l sanaladi.

Demak, test natijasida chiqariladigan xulosalar qay darajada valid (asosli) bo'lishi testning maqsadiga bog'liq va bir vaziyatda valid xulosalar chiqarish imkonini beradigan test boshqa bir vaziyatda bunday imkonni bermasligi mumkin. Test natijasida chiqarilgan xulosalarning qay darajada asosli ekanligini aniqlashda testning maqsadi asosiy rol o'ynaydi. Agar bitta test har xil maqsadlarda, har xil xulosalar chiqarish va har xil qarorlar qabul qilish maqsadida qo'llaniladigan bo'lsa, testning har bir qo'llanilishi natijasida chiqariladigan xulosalar asosli ekanligiga ishonch hosil qilinishi lozim.

Yuqorida ko'rganimizdek, test, odatda, biror-bir qaror qabul qilish uchun ishlatiladi, ya'ni test natijalari asosida ta'lim oluvchilar (o'quvchilar, talabalar), ta'lim beruvchilar (o'qituvchilar, ta'lim muassasasi), hatto ta'lim tizimi uchun muhim bo'lgan qarorlar qabul qilinadi. Bu qarorlar to'g'ri bo'lishi uchun test natijasida chiqargan xulosalarimiz valid (asosli) bo'lishi kerak. Xulosalar valid (asosli) deya olishimiz uchun dalillar kerak. Bu dalillar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- testning mazmuni bilan bog'liq dalillar;
- test topshiruvchilarning test topshiriqlarini bajarishi jarayoni bilan bog'liq dalillar;
- testning ichki strukturasi bilan bog'liq dalillar; testning boshqa o'zgaruvchilar bilan bog'liqligi asosidagi dalillar;
- testning oqibatlarini bilan bog'liq dalillar⁶.

Bu dalillar validatsiya jarayonida yig'iladi.

Validatsiya testdan chiqariladigan xulosalar asosli (valid) ekanligini tasdiqlovchi ilmiy dalillar keltirish jarayoni.

Demak, validlik:

⁶ Overdahl N.V. Testwise: Understanding Educational Assessment. Vol.1. – Plymouth: Rowman & Littlefield Education, 2011. – P.87.

- testning xususiyati emas: testning o'zi valid (asosli) yoki novalid (asossiz) bo'lmaydi, balki test natijasida chiqarilgan xulosalar valid (asosli) yoki novalid (asossiz) bo'lishi mumkin;

- test natijalari interpretatsiyasi (talqini)ga bog'liq - nima maqsadda test olgan edik va test natijalari nimani ko'rsatyapti deb o'ylaymiz?

- nisbiy tushunchadir: test natijasida chiqarilgan xulosalarimiz ma'lum bir darajada valid yoki novalid bo'lishi mumkin, mutaxassislarning vazifasi esa bu xulosalarning validligi imkon qadar yuqori bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Validlik pedagogik o'lchovlarning (testologiyaning) eng asosiy tushunchasi bo'lishiga qaramay, bu tushunchaning ta'rifi bo'yicha mutaxassislar orasida yakdillik bo'lmagan - fanming rivojlanishi davomida ta'riflar o'zgarib borgan. Validlik tushunchasi tadrijini bir qancha bosqichlarga bo'lish mumkin: 1920-1950-yillar - «validlik» tushunchasining paydo bo'lishi va rivojlanishi;

- 1950 - 1970-yillar - «validlik» tushunchasining fragmentatsiyalanishi (parchalanishi);

- 1970 - 2000-yillar - «validlik» tushunchasining birlashtirilishi;

- 2000 -yildan keyin - «validlik» tushunchasining zamonaviy talqini.

«Validlik» tushunchasi dastlab paydo bo'lganda uning ta'rifi quyidagicha bo'lgan: «validlik testning o'lchanishi lozim bo'lgan xususiyatni qay darajada o'lchashidir». Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, validlik dastlab testning xususiyati sifatida qaralgan, ya'ni testning o'zi valid yoki novahid bo'lishi mumkin deb hisoblangan va ushbu qarash 1970 - 1980-yillargacha davom etgan.

1950-yillarga kelib validlikning uch turi mavjud degan qarash shakllandi:

- mezoniy (kriterial) validlik - testning biror-bir mezon bilan mosligi, o'z navbatida, mezoniy validlikning ikki turi mavjud deb qaralgan;

- prediktiv validlik - testning belgilangan mezon bo'yicha natijalarni bashorat qila olish xususiyati. Masalan, oliy ta'lim muassasasiga kirish testlari bo'lajak talabalarning tanlangan sohalarim qay darajada muvaffaqiyatli o'zlashtira olishlarini bashorat qila olishi lozim. Agar kirish testlarida yuqori natijalarga

erishib o'qishga qabul qilingan talabalar o'qishda ham yuqori natijalarga erishsa, prediktiv validlik talablari bajarilgan hisoblanadi;

- solishtirma validlik - test natijasining belgilangan mezon bo'yicha boshqa o'lchovlar natijalari bilan mosligi. Masalan, o'quvchilarning ingliz tilidan bilim darajasini baholaydigan test ishlab chiqsak, uning xuddi shu domenni o'lchaydigan shu paytgacha mavjud boshqa test (masalan, IELTS yoki TOEFL imtihonlari) bilan solishtirma validligini aniqlashimiz mumkin. Buning uchun biz yaratgan testni IELTS imtihoni topshirgan guruhda sinab ko'ramiz va test topshiruvchilarning bizning testimiz bo'yicha natijalari IELTS testi bo'yicha natijalariga o'xshash bo'lsa, solishtirma validlik talablari bajarilgan hisoblanadi;

- mazmuniy validlik - testning o'lchanishi lozim bo'lgan domen mazmuni bilan mosligi;

- konstruktiv validlik - testning o'lchanishi lozim bo'lgan konstrukt (xususiyatni) to'g'ri o'lchashi.

Shuningdek, 1950-yillarda qanday maqsadda test o'tkazilishi va testning qaysi turi ishiatilishidan kelib chiqqan holda validlikning ma'lum bir turi sharti bajarilishi kerak degan tushuncha shakllandi. Misol uchun, prognostik testlar uchun prediktiv validlik, muvaffaqiyat testlari uchun mazmuniy validlik, psixologik testlar konstruktiv validlik shartlari bajarilsa kifoya degan garash hukmron edi.

1970 - 1980-yillarga kelib hozirda pedagogik o'lchovlar fanining mumtoz namoyandalari hisoblanadigan Li Kronbax (*Lee Cronbach*) va Semuel Messik (*Samuel Messick*) validlik testning emas, balki test asosida chiqariladigan xulosalarning xususiyati degan fikrni ilgari surishdi. Ularning fikricha, testning o'zi valid yoki novalid bo'la olmaydi, chunki test bir vosita, xolos. Bu vosita turli xil vaziyatlarda va turli maqsadlar uchun ishlatilishi mumkin. Misol uchun, skalpel mohir jarroh qo'lida kimningdir hayotini saqlab qolishga xizmat qilsa, johilmng qo'lida kimningdir hayotiga nuqta qo'yishi mumkin, lekin bunda ayb skalpelda emas, balki undan noto'g'ri maqsadda foydalanganlarda bo'ladi.

2000-yillarga kelib «validlikning turlari» tushunchasidan voz kechildi va uning oʻrniga validlikning yuqorida qayd etilgan besh turdagi dalili tushunchasi rasman qabul qilindi. Bu pedagogik oʻlchovlar bilan shugʻullanuvchi tashkilotlar uchun rasmiy hujjat boʻlib xizmat qiladigan «Taʼlimiy va psixologik testlar standartlari»da⁷ ham oʻz aksini topdi. Endilikda test tuzish va oʻtkazish bilan shugʻullanadigan tashkilotlar oʻz testlari asosida chiqariladigan xulosalar asosli (valid) ekanligini isbotlashi uchun validatsiya jarayonida besh xil dalil keltirishlari talab qilinadi.

Asosiy xulosa:

Test natijasida chiqariladigan xulosalarning qay darajada valid (asosli) ekanligi nima maqsadda test olganligimizga va test natijalarini nima maqsadda ishlatishimizga bogʻliq.

10.2. Validlikning dalillari

Test asosida asosh (valid) xulosalar chiqara olishimiz va bu xulosalar asosida toʻgʻri qarorlar qabul qila olishimiz uchun testni tuzish, uni oʻtkazish, uning natijalarini qayta ishlash va eʼlon qilish bilan shugʻullanuvchi tashkilotlar validlikning bir qancha dalillarim keltirishlari kerak.

Testning mazmuni bilan bogʻliq dalillar

Testning mazmuni bilan bogʻliq dalillar keltirish uchun testning mazmuni va test yordamida baholanishi (oʻlchanishi) lozim boʻlgan konstrukt tahlil qilinadi. Bunda, birinchi navbatda, quyidagi savolga eʼtibor qaratiladi:

Test orqali oʻlchanayotgan konstrukt qanchalik muhim va testning maqsadi bilan qay darajada bogʻliq?

Masalan, maktab taʼlimining oxirgi yilida bituruvchilarga adabiyot fanidan test berilishi kerak deylik. Bu test bitiruvchilarning maktab adabiyot dasturini qay darajada oʻzlashtirganligini baholab berishi lozim, maʼlumki, bunday testning natijalari bitiruvchilarning shahodatnomasida yozib qoʻyiladi. Shunday ekan, bu

⁷ Qarang: American Educational Research Association (AERA), American Psychological Association (APA), National Council on Measurement in Education (NCME). Standards for Educational and Psychological Testing. – Washington, D.C.: American Educational Research Association, 2014.

testga nimalarni kiritamiz? Adiblar biografiyasiga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan test topshiriqlarinimi? Asarlardan parchalarni o'z ichiga olgan test topshiriqlarinimi? Adabiyot nazariyasiga oid test topshiriqlarinimi? Bu savolga javob berish uchun maktab adabiyot fani (domen) qaysi konstruktarni o'z ichiga olgan va bu konstrukt qay darajada muhim degan savolga javob berishimiz kerak bo'ladi. Testimiz validlikning test mazmuni bilan bog'liq talablariga javob berishi uchun u maktab adabiyot dasturiga kiritilgan muhim konstruktarni adekvat darajada qamrab olishi lozim.

Demak, validlikning shartlaridan biri testning baholanishi (o'lchanishi) lozim bo'lgan domen va konstruktarni qamrab olishidir. Odatda, domen ta'lim standartlarida belgilab beriladi, chunki ta'lim standartlarida ta'limning maqsadi o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar yoritilgan bo'ladi. Test aynan shu bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarni baholashi lozim. Ta'limda ishlatiladigan testlar, odatda, cheklangan vaqt ichida bajarilishi talab qilinadi, shuning uchun testga baholanishi lozim bo'lgan domenning reprezentativ namunalari (domen haqida asosli xulosalar chiqarishga imkon beradigan muhim namunalari) kiritiladi.

Test mazmuni bilan bog'liq validlik talablariga javob berishi uchun, birinchi navbatda, o'lchanishi lozim bo'lgan domen va konstrukt aniq belgilab olinishi lozim. Masalan, 9-sinf o'quvchilari uchun tarix fanidan test tuzmoqchi bo'lsak, «o'quvchilar tarix fanidan nimalarni bilishi va qanday ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim?» degan savolga javob berilishi kerak. O'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar ro'yxati tuzilib, ushbu ro'yxatdagi har bir element qanday shakldagi va qancha miqdordagi test topshiriqlari yordamida tekshirilishi (baholanishi) hal qilinadi. Bu maxsus hujjat - test spetsifikatsiyasida (tafsilotida) aks etadi.

Test spetsifikatsiyasi (tafsiloti) - testning maqsadi, qo'llanilishi, strukturasi, shuningdek, test topshiriqlariga, test o'tkazish jarayoniga va test natijalarim hisoblashga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olgan hujjat.

Testning mazmunini belgilayotganda bir qancha tamoyillar hisobga olimshi lozim:

- test mazmunining test maqsadiga muvofiqligi;
- tekshirilayotgan bilimning muhimligi - testga fanning muhim elementlari kiritiladi. Masalan, maktab bitiruvchisining XX asr o'zbek adabiyotini qay darajada bilishim baholamoqchi bo'lsak, Abdulla Oripovning ilk she'rlar to'plami qanday nomlanganligini bilish muhimmi? Test topshiruvchining bu ma'lumotni bilishi yoki bilmasligi asosida uning XX asr o'zbek adabiyoti, xususan, Abdulla Oripov she'riyatini tushunishi haqida xulosa chiqara olamizmi?

- test topshiriqlari mazmunining to'g'riligi - testga faqat to'g'ri ma'lumotlar kiritilishi kerak, noto'g'ri va bahstalar ma'lumotlarni testga kiritib bo'lmaydi;

- test mazmunida fanning hozirgi rivojlanish darajasi aks etganligi - testga eskirgan, o'z ahamiyatini yo'qotgan ma'lumotlar kiritilmaydi;

- test mazmunining kompleksligi va to'g'ri balanslashtirilganligi - test tekshirilayotgan domenga kiruvchi muhim elementlarning barchasini qamrab olishi kerak;

- test mazmunida fan mazmunining reprezentativ aks etganligi - tekshirilayotgan domenga kiradigan har bir elementni baholash va u haqda asosli xulosa chiqarish uchun yetarli darajada test topshiriqlari bo'lishi lozim. Masalan, maktab kimyo dasturining qay darajada o'zlashtirilganligini tekshirmoqchi bo'lsak, shu maqsadda tayyorlangan test quyidagi kabi talablarga javob berishi muhim sanaladi: «Testda ushbu fanning muhim bo'limlari yetarlicha aks etganmi?», «Testga organik kimyodan bitta topshiriq kiritilgan bo'lsa, bu topshiriq test topshiruvchining organik kimyoni qay darajada o'zlashtirgani haqida asosli xulosa chiqarish imkonini beradimi?».

- test mazmunining tizimlilik - testga kiritilgan topshiriqlar fan mazmunini tizimli ravishda aks ettirishi zarur;

- test shaklining test mazmuniga bog'liqligi. Masalan, test topshiruvchining ona tilida fikrni yozma ifodalay olish ko'nikmasini baholamoqchi bo'lsak, buni

yopiq test topshirig'i yordamida amalga oshirish mumkinmi degan savolga javob bera olishimiz lozim;

- test mazmunining variativligi - agar test har xil kunlarda o'tkaziladigan bo'lsa, test topshiriqlari test topshiruvchilarga oldindan ma'lum bo'lib qolmasligi uchun parallel test formalari ishlatilishi mumkin⁸.

Parallel test formalari - bir spetsifikatsiya asosida tuzilgan, aynan bir xil domen va konstruktlarni o'lchaydigan, qiyinchilik va boshqa statistik parametrlari o'xshash bo'lgan, lekin har xil test topshiriqlaridan iborat test variantlari.

Test mazmuni bilan bog'liq validlik talablariga javob berishni ta'minlashda bir qancha strategiyalarni qo'llash mumkin:

- testni tuzish jarayonida mazmun bilan bog'liq talablarni hisobga olish - bu, odatda, test tuzuvchilar tomonidan, lozim bo'lganda tashqi mutaxassislarni jalb qilgan holda amalga oshiriladi;

- testni tuzib bo'lgandan keyin mazmun bilan bog'liq talablar asosida testga baho berish - bu ko'pincha tashqi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Odatda, testning mazmun bilan bog'liq validlik talablariga javob berishini ta'minlash uchun har ikkala strategiya qo'llaniladi.

Test topshiruvchilarning test topshiriqlarini bajarishi jarayoni bilan bog'liq dalillar.

Test topshiruvchilarning test topshiriqlarini bajarishi jarayoni bilan bog'liq dalillar keltirish uchun test topshirig'ini bajarish jarayonida test topshiruvchilar nima qilishlari tahlil etiladi. Bunda quyidagi savolga e'tibor qaratiladi:

- Test topshiruvchilarning test topshirig'ini bajarish jarayonidagi amallari test orqali o'lchanayotgan konstrukt bilan qay darajada bog'liq?

Masalan, testning maqsadi «O'tkan kunlar» romanini tahlil qilish ko'nikmasini baholash bo'lsa va testda asar dastlab qaysi jurnalda, qachon chop

⁸ Klassik test nazariyasiga ko'ra, test formalari parallel hisoblanishi uchun: a) har bir test topshiruvchining bu test formalarini qo'llaganda olgan haqiqiy bahosi teng bo'lishi; b) xatolar dispersiyalari teng bo'lishi lozim. Demak, parallel test formalarida natijalarning o'rtacha arifmetik ko'rsatkichlari va dispersiyalar teng bo'ladi. (Qarang: Крокер Л., Алгина Д., Введение в классическую и современную теорию тестов. – Москва: Логос, 2010. – С.166).

Haqiqiy baho tushunchasi va testning statistic ko'rsatkichlari keying bobda yoritilgan.

etilganligi soʻralsa, bu topshiriqni bajarish (savolga javob berish) uchun test topshiruvchi nima qiladi? Bu topshiriqni bajarish uchun haqiqatan ham asarni tahlil qilish koʻnikmasi ishga solinadimi yoki xotirani ishga solish kerak boʻladimi? Test tuzuvchilar testga test topshiriqlarini kiritayotganda bu topshiriqlarni bajarish uchun qanday koʻnikmalar (malakalar, kompetensiyalar) ishga solinishi lozimligini tahlil qilishlari, bu koʻnikmalar (malakalar, kompetensiyalar) testning maqsadi bilan qay darajada mos ekanligiga baho berishlari lozim.

Test topshiriqlarini bajarish jarayoni bilan bogʻliq validlik talablariga javob berishni taʼminlashda bir qancha strategiyalarni qoʻllash mumkin: testdan keyin test topshiruvchilar bilan suhbatlashish (suhbat davomida «Test topshiriqlarini bajarish uchun nima qildingiz? Qanday koʻnikmalarni ishga soldingiz?» singari savollar berish mumkin), test topshirish jarayonini hamda bu jarayonda test topshiruvchilar nima qilayotganlarini kuzatib tahlil qilish va hokazo.

Testning ichki strukturasi bilan bogʻliq dalillar.

Testning ichki strukturasi bilan bogʻliq dalillar keltirish uchun test komponentlari (qismlari) oʻrtasidagi bogʻliqlik yoki alohida olingan test topshiriqlari va butun test oʻrtasidagi bogʻliqlik tahlil qilinadi.

Maʼlumki, test biron-bir domen va konstrukt (yoki konstrukt)ni oʻlchash uchun ishlatiladi. Test yordamida oʻlchanayotgan konstrukt bitta yoki bir nechta taligiga qarab test bir oʻlchamli yoki koʻp oʻlchamli boʻlishi mumkin.

Bir oʻlchamli test - faqat bitta konstrukt (yoki konstrukt)ni oʻlchash uchun moʻljallangan test.

Koʻp oʻlchamli test - bir-biriga bogʻliq bir qancha konstrukt (yoki konstrukt)larni oʻlchash uchun moʻljallangan test.

Masalan, agar test faqat chet tili grammatikasiga oid bilimlarni tekshiishga qaratilgan boʻlsa, bunday test bir oʻlchamli test hisoblanadi. Agar chet tili boʻyicha test tinglab tushunish, oʻqib tushunish, yozish, gapirish singari boʻlimlarni oʻz ichiga olsa, bunday test koʻp oʻlchamli testlarga misol boʻla oladi, ga chunki bunda testning har boʻlimi bir konstrukt (yoki konstrukt)ni tekshiradi.

Ko'p o'lchamli testlarda test koinponentlari (qismlari) o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rish uchun faktor tahlili usuli qo'llaniladi. Bunda test topshiriqlari qaysi konstruktni tekshirishiga qarab guruhlar ajratiladi va guruhlar o'rtasidagi bog'liqliklar matematik yo'l bilan tahlil etiladi. Test natijalari e'lon qilinganda ham testning umumiy natijasi bilan birga har bir komponent natijasi e'lon qilinadi. Masalan, ingliz tilini bilish darajasini baholash uchun mo'ljallangan IELTS va TOEFL imtihonlarida test topshiruvchining umumiy natijasi bilan birga testning har bir qismida u to'plagan ballar ham e'lon qilinadi. Bu test topshiruvchining test qamrab olgan har bir konstrukt bo'yicha erishgan natijasini ko'rish imkonini beradi.

Bir o'lchamli testlarda alohida olingan test topshiriqlari va butun test o'rtasidagi bog'liqlik (korrelyatsiya) tahlil etiladi. Bunda bir qancha parametrlarga, xususan, testning ishonchlilik darajasiga, test topshiruvchining umumiy natijasi va uning alohida olingan test topshiriqlariga bergan javoblari korrelyatsiyasiga hamda test topshiriqlarining DIF ko'rsatkichiga ham e'tibor qaratiladi. Masalan, nisbatan qiyinroq test topshiriqlariga to'g'ri javob bergan test topshiruvchining umumiy test natijasi ham nisbatan yuqoriroq bo'lishi darkor. Shu bilan birga, test topshiruvchilarning biron-bir jihati (masalan, jinsi, tili, millati, dini) bo'yicha boshqalardan ajralib turadigan guruhi ayrim test topshiriqlariga boshqalarga qaraganda yaxshiroq yoki yomonroq javob bersa, bunday test topshiriqlariga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi, chunki ular validlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Testning boshqa o'zgaruvchilar bilan bog'liqligi asosidagi dalillar.

Testning boshqa o'zgaruvchilar bilan bog'liqligi asosidagi dalillar keltirish uchun testning boshqa ko'rsatkichlar, masalan, test topshiruvchilarning xuddi shu konstruktni o'lchaydigan boshqa testlardan olgan natijalari bilan korrelyatsiya tahlil etiladi.

Korrelyatsiya - ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlik. Agar ikki o'zgaruvchi bir xil harakatlansa (ya'ni bir o'zgaruvchi oshganda ikkinchisi ham oshsa yoki bir o'zgaruvchi kamayganda ikkinchisi ham kamaysa), bu holat ijobiy korrelyatsiya

deyiladi. Agar ikki o'zgaruvchi bir-biriga teskari harakatlansa (ya'ni bir o'zgaruvchi oshganda ikkinchisi kamaysa yoki bir o'zgaruvchi kamayganda ikkinchisi oshsa), bu holat salbiy korrelyatsiya deyiladi. Korrelyatsiya -1 dan $+1$ gacha ko'rsatkichda o'lchanadi, bunda -1 - o'ta salbiy korrelyatsiya, 0 - korrelyatsiyaning (bog'liqlikning) yo'qligi, $+1$ - ideal ijobiy korrelyatsiya.

Masalan, Nazarov kimyo bo'yicha testdan past natija oldi. Biroq u shu paytgacha kimyo darslarida yaxshi baholar olib kelgan, bu fan bo'yicha olimpiadalarda muvaffaqiyatli qatnashgan. Agar biz Nazarovning kimyo bo'yicha test natijasini A o'zgaruvchi, uning xuddi shu konstruktini (ya'ni kimyo fani bo'yicha bilimlarini) tekshiradigan boshqa o'lchovlar natijalarini (kimyo darslarida olgan baholari, kimyo olimpiadasidagi natijalarini) B o'zgaruvchi deb olsak, A va B o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiya manfiy bo'lyapti. Bu holat kimyo fani testi asosida chiqaradigan xulosalarimiz validligini shubha ostiga qo'yadi.

Testning boshqa o'zgaruvchilar bilan bog'liqligi asosidagi dalillar keltirishda konvergent va diskriminant dalillarga e'tibor qaratish lozim.

Konvergent dalillar - aynan bir xil yoki bir-biriga yaqin konstruktarni o'lchaydigan testlar natijalari orasidagi korrelyatsiyaga asoslangan dalillar.

Diskriminant dalillar - har xil konstruktarni o'lchaydigan testlar natijalari orasidagi korrelyatsiyaga asoslangan dalillar.

Masalan, o'qish savodxonligim tekshirishga qaratilgan test yaratildi. Bu test va xuddi shu konstrukt, ya'ni o'qish savodxonligini tekshiradigan boshqa test natijalari o'rtasidagi korrelyatsiyaga asoslangan dalillar konvergent dalillar hisoblanadi. Bu test va boshqa konstrukt, masalan, mantiqiy fikrlash va xulosalar chiqara olish qobiliyatini tekshiradigan boshqa test natijalari o'rtasidagi korrelyatsiyaga asoslangan dalillar diskriminant dalillar hisoblanadi.

Test natijalarining boshqa o'zgaruvchilar bilan korrelyatsiyasini tahlil qilayotganimizda bu o'zgaruvchilar testimiz natijalari bilan bir (yoki deyarli bir) paytda olinishi yoki keyinroq olinishi mumkin. Shunga qarab dalillarimiz solishtirma yoki prediktiv bo'lishi mumkin.

Solishtirma dalillar - test va bu test bilan bir (yoki deyarli bir) paytda olingan boshqa o'lovlar natijalarining korrelyatsiyasiga asoslangan dalillar.

Prediktiv dalillar - test va bu testdan keyin olingan boshqa o'lovlar natijalarining korrelyatsiyasiga asoslangan dalillar.

Masalan, matematika bo'yicha test yaratdik. Bu testimizni topshirganlarning natijalari va test topshiruvchilarning matematika darslarida olgan baholari yoki matematika bo'yicha bilimlarni sinaydigan boshqa testdan erishgan natijalari o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud bo'lsa, demak, matematika testimiz uchun solishtirma dalillar keltirgan bo'lamiz. Agar testimizni topshirganlarning natijalari va ularning keyinchalik matematika bo'yicha bilimlarni ishga solishni talab qiladigan vaziyatlarda (masalan, oliy matematika yoki statistika kursida) erishgan natijalari o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud bo'lsa, demak, matematika testimiz uchun prediktiv dalillar keltirgan bo'lamiz. Ko'rib turganimizdek, prediktiv dalil keltirilishi uchun ma'lum bir vaqt o'tishi kerak.

Testning oqibatlari bilan bog'liq dalillar.

Test ma'lum bir maqsadlarni ko'zlab tuziladi va o'tkaziladi. Testni qo'llash (joriy qilish) esa ma'lum bir oqibatlarga olib keladi, ya'ni test ta'lim jarayonida va jamiyatda ma'lum bir o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu oqibatlar ko'zda tutilgan yoki ko'zda tutilmagan, ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

1994-yildan O'zbekistonda abituriyentlarni oliy ta'lim muassasalariga saralab olishda test tizimi ishiatila boshlandi, bu testlarni tuzish, o'tkazish, natijalarini qayta ishlash va e'lon qilish vakolatlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markaziga berildi. Test tizimini joriy qilishdagi ko'zlangan maqsadlardan biri oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishdagi subyektivlik va korrupsiyani yo'qotish edi. Test tizimining joriy qilinishi orqali ko'zda tutilgan bu maqsadga qay darajada erishildi? Test tizimining joriy qilinishi boshqa, ko'zda tutilmagan oqibatlarga olib kelmadimi? Test tizimining joriy qilimshi oqibatlari ijobiy yoki salbiy bo'ldimi? Testni qo'llash (joriy qilish) oqibatlari tahlil etilayotganda shu kabi savollarga javob izlanishi lozim bo'ladi.

Masalan, ona tili va adabiyotdan test topshirayotgan abituriyentlarning bilimlari imtihonning insho yoki ogʻzaki savol-javob turlariga qaraganda obʻyektiv baholanadi. Bu - testning koʻzda tutilgan oqibati va u ijobiy oqibatdir. Shu bilan birga, ona tili va adabiyotdan test topshirayotgan abituriyentlar asosiy eʼtiborlarini ona tilidan qoidalarni, adabiyotdan esa fakt va detallarni yodlashga qaratishdi. Bu ularning ogʻzaki va yozma nutq kompetensiyalari, badiiy asarni tushunish va tahlil qilish kompetensiyalariga salbiy taʼsir qildi. Bu - testning koʻzda tutilmagan oqibati va u salbiy oqibatdir.

Testning oqibatlari bilan bogʻliq dalillar keltirish uchun test joriy qilingandan keyin yuzaga kelgan oʻzgarishlar tahlil etilishi va «Bu oqibatlar koʻzda tutilgan edimi yoki koʻzda tutilmagan edimi? Ijobiy yoki salbiy boʻldimi?» singari savollarga javob berilishi lozim. Test validlik talablariga javob berishi uchun uning koʻzda tutilmagan, salbiy oqibatlari imkon qadar minimallashtirilishi kerak.

Shuni esda tutish joizki, yuqori taʼsir kuchiga ega testlarning oqibatlari boshqa testlarga nisbatan kuchliroq boʻladi.

Yuqori taʼsir kuchiga ega test – natijalari muhim qarorlar qabul qilish uchun ishlatiladigan test.

Yuqori taʼsir kuchiga ega testlarga misol sifatida oliy taʼlim muassasalariga kirish testlarini keltirish mumkin, chunki bu test sinovlarini har yili bir necha yuz ming abituriyentlar topshiradi va bu testlar natijasida abituriyentlar uchun muhim hisoblanadigan qarorlarga (oʻqishga qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligi, agar qabul qilinsa, davlat granti yoki toʻlov-kontrakt asosida oʻqishi) kelinadi.

Yuqori taʼsir kuchiga ega testlar taʼlim jarayom qatnaslichilariga va ular orqali butun jamiyatga taʼsir oʻtkazishi mumkin (bunday taʼsir inglizcha «washback» termini bilan ataladi). Testlar quyidagilarni oʻzgartirishi mumkin:

- taʼlim jarayoni qatnashchilarining (taʼlim oluvchilar, taʼlim beruvchilar) taʼlim jarayonining turli jihatlariga (taʼlim mazmuni, taʼlim jarayorida qoʻllaniladigan uslublar va hokazo) boʻlgan munosabati;

- taʼlim jarayonining oʻzi (taʼlim jarayonining qay tarzda tashkil qilinishi);

- ta'lim jarayonining natijasi (nima va qay darajada o'rganildi?)⁹.

Test topshiruvchilar o'zlari uchun muhim hisoblangan testlarda yaxshi natija qayd etishni xohlaydilar, demak, ulaming asosiy e'tiborlari aynan shu test orqali tekshiriladigan domenni o'zlashtirishga qaratiladi va test qamrab olmagan domen o'zlashtirilmaydi"¹⁰.

Misol uchun, O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalariga kirish testlari:

- ta'lim oluvchilarning o'qitilayotgan fanga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi - abituriyentlar testga kiritilgan fanlarni testdan muvaffaqiyatli o'tish maqsadida o'rgana boshlashadi;

- ta'lim jarayoniga ta'sir qiladi - test topshiriqlarini yechish ta'lim jarayonining muhim qismiga aylanadi va rasmiy ta'limdan ko'ra norasmiy ta'limga (o'quv markazlari, repetitorlar) ko'proq e'tibor qaratiladi;

- ta'lim jarayonining natijasini belgilaydi - faqat testda qamrab olingan bilim va ko'rikmalar ozlashtiriladi (masalan, ona tilida yozma nutq ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor berilmaydi, chunki bu ko'nikma oliy ta'lim muassasalariga kirish testlarida tekshirilmaydi).

Shu bilan birga, natijalari test topshiruvchiga bevosita ta'sir qiladigan testning ta'siri kuchliroq bo'ladi¹¹. Masalan, oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlari natijalari test topshiruvchiga bevosita ta'sir qiladi, demak, bunday testning ta'siri kuchliroq bo'ladi. Ta'lim muassasasini attestatsiyadan o'tkazish maqsadida o'tkazilayotgan testning natijalari esa test topshiruvchiga bevosita ta'sir qilmaydi, demak, bunday testning ta'siri kuchsizroq bo'ladi.

Test oqibatlarining ijobiy yoki salbiy bo'lishi asosan test orqali tekshirilayotgan domen (konstruktlar) ta'limning maqsadlari bilan qay darajada uyg'un ekanligiga bog'liq¹². Agar test orqali tekshirilayotgan domen (konstruktlar) ta'limning maqsadlari bilan uyg'un bo'lsa, ta'lim oluvchilar testga tayyorlanish

⁹ Alderson J. and Wall D. Does Washback Exist? // Applied Linguistics. 1993. 14:2. – P. 115 -129.

¹⁰ Frederiksen N. The real test Bias, ETS Research Report Series RR 81-40. -Princeton, NJ: Educational testing Service, 1981.

¹¹ Shohamy E., Donitsa-Schmidt S. and Ferman I. Test Impact Revisited: Washback Effect Over Time // Language Testing. 1996. 13:3. -P.298 – 317.

¹² Green A. Watching for Washback: Observing the Influence of the International English language Testing System Academic Writing Test in the Classroom // Language Assessment Quarterly. 2006. 3:4. P.333 – 368.

asnosida ta'limiy maqsadlarga erishadilar. Aks holda ta'lim oluvchilarning asosiy e'tibori testga qaratiladi va ta'limiy maqsadlar e'tibordan chetda qolib ketadi. Misol uchun, chet tilidan ta'limning maqsadi ta'lim oluvchilarda muloqot qila olish (o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozish, gapirish) konikmalarini rivojlantirish bo'lsa va yuqori ta'sir kuchiga ega test ham aynan shu ko'nikmalarni tekshirsa, ta'lim oluvchilar e'tiborlarini shu ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratadilar. Agar test chet tilidan faqat grammatikaga oid bilimlarni tekshirsa va muloqot qila olish ko'nikmalari testda qamrab olinmasa, ta'lim oluvchilar ham e'tiborlarini grammatikaga qaratadilar va muloqot qila olish ko'nikmalari e'tibordan chetda qoladi.

Asosiy xulosa:

Test asosida chiqariladigan xulosalarimiz asosli (valid) deya olishimiz uchun:

- test orqali o'lchanoyotgan domen va konstruktlar testning maqsadi bilan bog'liq bo'lishi lozim;
- test topshiruvchilarning test topshiriqlarini bajarish jarayonidagi amallari o'lchanayotgan konstruktga mos bo'lishi kerak;
- testning qismlari o'rtasida, test topshiriqlari va test o'rtasida ichki bog'liqlik bo'lishi kerak;
- testning natijalari va boshqa o'zgaruvchilar o'rtasida korrelyatsiya bo'lishi kerak;
- testning ko'zda tutilmagan, salbiy oqibatlari imkon qadar minimallashtirilishi kerak.

10.3. Validlikka xavf soluvchi omillar

Test asosida chiqariladigan xulosalar asosli (valid) bo'lishi va bu xulosalar asosida to'g'ri qarorlar qabul qilinishi uchun bir qancha turdagi dalillar keltirilishi kerak. Shu bilan birga, validlikka xavf soluvchi bir qator omillar (testologiya fanida «validlikka xavflar» deb ataladi) aniqlanishi va bartaraf qilinishi lozim.

Test biror-bir konstruktни o'lchash (baholash) uchun tuziladi. Validlikka xavf soluvchi omillar ham test o'lchashi lozim bo'lgan konstruktga bog'liq bo'lmagan

o'zgaruvchilarning test natijalarga ta'sir etishi yoki testda konstruktning yetarli darajada aks etmasligi bilan bog'liq.

Konstruktga bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilar - testning natijalariga test o'lchashi lozim bo'lgan konstruktlerden boshqa omillarning ta'sir qilishi.

Bu omillar turli xil bo'lishi mumkin: testning mazmuni, test topshirish sharoitlari, testni baholash va natijalarni hisoblash jarayonlari va boshqa turli xil holatlar bilan bog'liq omillar. Bu omillar ta'sirida alohida olingan test topshiruvchining, test topshiruvchilar guruhining yoki barcha test topshiruvchilarning natijalari yuqoriroq yoki pastroq chiqadi va biz test o'lchashi lozim bo'lgan konstruktlar haqida noto'g'ri xulosa chiqaramiz.

Testning mazmuni bilan bog'liq omillar - testga o'lchanishi lozim bo'lgan konstrukt va domenga aloqasi bo'lmagan topshiriqlar yoki topshiriqlar elementlarning kiritilishi. Masalan, biz test topshiruvchilarning mumtoz g'azallarni tahlil qilish ko'nikmasini o'lchamoqchimiz (baholamoqchimiz), Testga «Boborahim Mashrabning «O'rtar» radifli gazalida ishlatilgan badiiy san'atlarni toping va ularning ishlatilishini tahlil qiling» topshirig'i kiritildi, lekin g'azal matni berilmadi. Bunday holatda she'riy san'atlarni yaxshi bilgan test topshiruvchi g'azal matnini eslay olmagani (xotirasi pand bergani) uchun topshiriqni bajara olmasligi mumkin. Ya'ni biz o'lchamoqchi bo'lgan konstruktga (badiiy matnni tahlil qilish ko'nikmasiga) boshqa omil (xotira) ta'sir qilyapti. Bunday holatda biz she'riy san'atlarni yaxshi bilgan, lekin xotirasi pand bergan test topshiruvchi haqida noto'g'ri xulosaga kelishimiz mumkin.

Boshqa bir misol. Deylik, biz test topshiruvchilarning matematika bo'yicha bilimlarini o'lchamoqchimiz. Testga kiritilgan matnli masalalar shunday murakkab tilda yozilganki, ularni tushunish uchun o'qish ko'nikmasi yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Bunday holatda ham matematika bo'yicha yaxshi bilimga ega, lekin o'qish ko'nikmasi rivojlanmagan test topshiruvchi past natija ko'rsatishi mumkin va biz u haqda «matematikani yaxshi bilmas ekan» degan noto'g'ri xulosaga kelishimiz mumkin.

Testni bajarish uchun test topshiruvchidan test yordarmida o'lgan bo'lgan konstruktga aloqasi bo'lmagan maxsus bilimlarning talab qilinishi ham testning mazmuni bilan bog'liq omillarga kiradi. Masalan, biz test topshiruvchining ingliz tilida gapirish ko'nikmasini baholamoqchimiz. Deylik, testga «Amerika futboli haqida gapirib bering», «London shahrining rayonlarini tasvirlab bering» singari topshinqlar kiritildi. Ingliz tilini yaxshi biladigan test topshiruvchi Amerika futboli yoki London shahrining rayonlari haqida maxsus bilimi yo'qligi tufayli testda yaxshi natija ko'rsata olmadi. Demak, bunda ham testning natijalariga test o'lchashi lozim bo'lgan konstruktlerden boshqa omillar ta'sir qiladi.

Shundaydek, test topshiriqlari va test yo'riqnomalarining (instruksiylarining) tili ham ravon va barcha test topshiruvchilar uchun tushunarli bo'lishi lozim. Misol uchun, test yo'riqnomalari haddan ziyod murakkab tilda yozilgan bo'lsa va test topshiruvchilar nima qilishlari kerakligini tushunmasalar, bu ham ularning natijalariga ta'sir qilishi va noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

Test topshirish sharoitlari bilan bog'liq omillar - turli test topshiruvchilar uchun turli sharoitlar yaratilganligining test natijalariga ta'sir qilishi. Masalan, ikkita guruh aynan bir testni ikkita auditoriyada topshirdi. Bir guruhning auditoriyasi shinam, yorug', konditsioner bilan jihozlangan, boshqa bir guruhning auditoriyasi esa tor va dim edi. Ikkinchi guruh uchun mavjud noqulay sharoit salbiy ta'sir qilishi va ularning natijalari birinchi guruh natijalariga nisbatan pastroq chiqishi mumkin. Yoki bir guruhga mas'ul kuzatuvchilar (nazoratchilar) ko'ngli bo'shlik qilib test topshiruvchilarga ko'proq vaqt bersa, boshqa guruhdagi kuzatuvchilar esa qattiqqo'l bo'lsa, bunda ham birinchi guruhning natijalari yaxshiroq chiqishi mumkin. Har ikkala holda ham birinchi guruhning bilimi ikkinchi guruhning bilimiga qaraganda yaxshiroq bo'lmasligi mumkin, lekin birinchi guruh uchun yaratilgan sharoitlar (ya'ni test orqali o'lchanayotgan konstruktlerga bog'liq bo'lmagan omillar) tufayli birinchi guruhning natijalari yaxshiroq chiqishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish uchun testning muhim shartlaridan biri - test topshirish sharoitlarining barcha test topshiruvchilar

uchun birxilligiga qattiq e'tibor berish lozim. Buning uchun test topshiriladigan auditoriyalar bir xil jihozlanadi, kuzatuvchilar (nazoratchilar) belgilangan talablar asosida tanlab olinadi va o'qitiladi, test topshirish qoidalariga (reglamentiga) barchaning bir xilda rioya qilishi ta'minlanadi.

Testni baholash va natijalarni hisoblash jarayonlari bog'liq omillar - testni baholash va testning natijalarini hisoblash jarayonlarida turlicha yondashuvlarining qo'llanilishi natijasida ayrim test topshiruvchilarning yoki test topshiruvchilar guruhining yuqori (yoki past) natija ko'rsatishi. Masalan, testga ochiq test topshiriqlari (insho, bayon, og'zaki javob va hokazo) kiritilgan bo'lsa, bunday topshiriqlar mutaxassislar (ekspertlar) tomonidan baholanadi (testologiyada ochiq test topshiriqlarini baholash uchun jalb qilingan ekspertlar «baholovchilar» deb nomlanadi). Qaysidir baholovchi boshqa hamkasblariga nisbatan qattiqqo'l bo'lishi mumkin va bu holat aynan shu baholovchi tomonidan baholangan test topshiruvchilarining natijalariga ta'sir qilishi mumkin. Deylik, Nazarov va Valiev testni bir xilda bajarishsa, lekin Nazarovning ishi qattiqqo'l baholovchiga tushib qolsa, Nazarov Valievga qaraganda pastroq ball olishi mumkin. Yoki aynan bir baholovchi ish kunining boshida o'ziga ajratilgan ishlarni hafsala bilan tekshirishi, ish kuni oxirida esa charchaganidan e'tiborsizlik bilan tekshirishi va sifatsiz ishlarga ham yuqori ball qo'yib ketishi mumkin. Shuning uchun ham test bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar baholovchilar orasidagi ishonchlilik va baholovchining ichki ishonchliligi ko'rsatkichlariga alohida e'tibor berishadi. Bu ko'rsatkichlar maxsus formulalar yordamida hisoblanadi va tahlil etiladi.

Baholovchilar orasidagi ishonchlilik - turli baholovchilarning ayni bir ishga (yoki bir xil darajadagi, bir xil sifatga ega bo'lgan ishlarga) bergan baholarining yaqinligi.

Baholovchining ichki ishonchliligi - alohida olingan baholovchining ayni bir ishga (yoki bir xil darajadagi, bir xil sifatga ega bo'lgan ishlarga) turli vaziyatlarda bergan baholari yaqinligi.

Bir xil darajadagi (bir xil sifatga ega bo'lgan) ishlarning turli baholovchilar tomonidan turli vaziyatlarda har xil baholanishining oldini olish uchun baholash mezonlari ishlab chiqiladi va barcha baholovchilarning bu mezonlarni bir xilda tushurub, bir xilda qo'llashlari doimiy nazorat qilib borilishi lozim.

Shu bilan birga, testning natijalarini qayta ishlash jarayonida ham validlikka xavf soluvchi holatlarga yo'l qo'yilishi mumkin. Masalan, ayrim test topsiruvchilarning natijalari test orqali teksbirilayotgan konstruktga bog'liq bo'lmagan mezonlar asosida o'zgartirilishi mumkin. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlarida yaqinlashib qo'llanilgan muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan abituriyentlarga ball qo'shib berish amaliyoti bunga misol bo'la oladi. Bunday holda bilim darajasi bir xil bo'lgan ikki abituriyentdan muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgani yuqoriroq bali oladi, vaholanki, muqobil harbiy xizmat test orqali tekshirilayotgan konstruktga aloqasi yo'q omil hisoblanadi. Bu esa test natijalari asosida chiqariladigan xulosalarni ing valldligiga va qarorlarning to'g'riligiga salbiy ta'sir qiladi.

Testni yaratish, uning natijalarini qayta ishlash va e'lon qilish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar konstruktga bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilarning test natijalariga ta'sirini minimallashtirish uchun barcha choralarni ko'rishlari lozim.

Test asosida chiqariladigan xulosalarning validligiga xavf soluvchi omillardan yana biri testda konstruktning yetarli darajada aks etmasligidir.

Konstruktlarning yetarli darajada aks etmaganligi - testda tekshirilishi lozim bolgan domen va konstruktning muhim elementlari tushib qolishi.

Test asosida chiqariladigan xulosalarimiz asosli (valid) deya olishimiz uchun:

- testning natijalariga test orqali o'lchanayotgan konstruktdan boshqa omillar ta'sir qilmasligi kerak;
- test o'lchanishi lozim bo'lgan domen va konstruktning barcha muhim elementlarini qamrab olishi lozim.

Masalan, tilning vazifasi og'zaki va yozma muloqotni ta'minlash ekan, ona tili yoki chet tili testlari test topshiruvchining faqat grammatika bo'yicha bilimlarini tekshirsa va fikrini og'zaki yoki yozma bay on qila olish ko'nikmasini

tekshirinsa, bunday testlar til domenini to'liq qamrab olgan deyishimiz mumkinmi? Boshqa bir misol. Deylik, maktabda fizikaning mexanika, optika, tennodinamika bo'limlari o'tildi. Shu bilan birga, fizikaning nazariy qonunlari hayotiy vaziyatlarda qanday tatbiq qilinishi o'rgatildi. Maktab bitiruvchilarining fizika kursini qay darajada o'zlashtirganligini tekshirishga qaratilgan testga esa fizikaning maktabda qamrab olingan bolimlaridan biri kiritilmadi. Yoki faqat nazariy savollar kiritilib, amaliy savollar kiritilmadi. Sunday holda testimizda tekshirilishi lozim bo'lgan konstruktlar yetarli darajada aks etmagan bo'ladi.

Bunday holatning oldini olish uchun test qamrab olishi lozim bo'lgan domen va konstruktlar tahlil qilinib, test tafsilotlarida aks ettiriladi va shu tafsilotlar asosida test tuziladi.

Asosiy xulosa:

Test asosida chiqariladigan xulosalarimiz asosli (valid) deya olishimiz uchun:

- testning natijalariga test orqali o'lchanayotgan konstruktдан boshqa omillar ta'sir qilmasligi kerak;
- test o'lchanishi lozim bo'lgan domen va konstruktning barcha muhim elementlarini qamrab olishi lozim.

10.4 Ishonchlilik tushunchasi

Klassik test nazariyasi asoslari.

Oldingi boblarda ko'rganimizday, test – o'lchov vositasi, bu vosita yordamida bevosita o'lchashning imkoni bo'lmagan xususiyatlar (test topshiruvchilarda biron-bir domenning egallanganlik darajasi, biron-bir konstruktning shakllanganlik darajasi) o'lchanadi (baholanadi). Bu o'lchov natijalari asosida ma'lum bir xulosalarga kelinadi va qarorlar qabul qilinadi. Bu xulosalar asosli bo'lishi uchun o'lchov vositasi (test) ma'lum bir talablarga javob bermog'i lozim. Shunday talablardan biri ishonchlilik hisoblanadi.

Ishonchlilik - o'lchov vositasida olingan natijalarning barqarorligi.

Tasavvur qilaylik, bizda tarozi bor. Taroziroiz bitta jismni (masalan, toshni) o'lchaganda har safar har xil natija ko'rsatsa, masalan, bir safar 1 kg, ikkinchi safar

1,5 kg, bosbqa safar 0,75 kg ko'rsatsa, bu tarozining ko'rsatkichlari shubha uyg'otadi. Shunga o'xshash, bir guruhda test olganimizda Nazarov 100 dan 80 ball, Valiev 60 ball, Salimov 40 ball olsa, ertasi kuni xuddi shu testdan Nazarov 40 ball, Valiev 80 ball, Salimov 50 ball olsa, bu testimiz o'ichov vositasi sifatida ishonchli emas.

Ishonchlilik validlikning muhim bo'lgan sharti, chunki validlikka dalillar keltirilayotganda testning ichki strukturasi bilan bog'liq dalillar ishonchlilik ko'rsatkichlarini ham o'z ichiga olishi lozim. Shu bilan birga, ishonchlilikning o'zi validlik uchun yetarli emas. Boshqacha qilib aytganda, ishonchlilik talablariga javob bermaydigan testlar validlik talablariga ham javob bermaydi, lekin testlarning ishonchlilik talablariga javob berishi ular validlik talablariga ham javob beradi degani emas¹³. Test qanchalik ko'p ta'sir kuchiga ega bo'lsa, uning ishonchliligi ham shunchalik yuqori bo'lishi talab etiladi, chunki bunday test asosida ko'pchilik uchun muhim bo'lgan qarorlar qabul qilinadi.

Klassik test nazariyasida ishonchlilik o'lchashning xatosi tushunchasiga asoslanadi. Bu tushuncha o'rta asrlarda mashhur astronom Galileo Galiley tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, yulduzlarni kuzatayotgan turli astronomlar bir yulduzdan Yerning markazigacha bo'lgan masofani turlicha hisoblashlari mumkin: kimdir bu masofani asliga qaraganda ko'proq deb hisoblasa, kimdir kamroq deb hisoblashi mumkin. Agar barcha astronomlarning o'lchovlari qo'shib, o'rtacha arifmetik qiymati olinsa, astronomlarning xatolari 0 (nol)ga tenglashadi. Keyinchalik XIX asrda Karl Fridrix Gauss tomonidan bu holat matematik yo'l bilan isbotlangan.

Xuddi shunday, agar bir test topshiruvchi ayni bir testni bir necha marta topshirsa, uning bu testda olgan natijasi har safar har xil chiqishi mumkin. Buning sabablari ko'p: test topshiruvchining test kuni o'zini qanday his qilganligi, test topshirilgan auditoriyadagi sharoitlar, test topshirish jarayonidagi nazorat va

¹³ Popham W.J. Modern Education Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd. – Boston: Allyn and Bacon, 2000. – P.121.

hokazo. Bunday omillar natijasida test topshiruvchining testda olgan bahosi uning haqiqiy bilim darajasidan yuqoriroq yoki pastroq bo'lishi mumkin.

Demak, test topshiruvchining test topshirganda olgan bahosi uning haqiqiy bahosi (bilimiga berilgan haqiqiy baho) va xatolikdan (turli tashqi omillarning test topshiruvchining bahosiga ta'siridan) iborat bo'ladi.

Buni quyidagicha formula bilan ifodalash mumkin¹⁴:

$$X=T+ E,$$

bunda: X = test topshiruvchining testda olgan bahosi;

T = test topshiruvchining haqiqiy bahosi (bilimiga berilgan haqiqiy baho);

E = xatolik (turli tashqi omillarning test topshiruvchining bahosiga ta'siri).

Demak, har qanday testda test topshiruvchining olgan bahosi uning haqiqiy bilimlar darajasini aks ettirmaydi, chunki

bu bahoda xatoning ham ulushi mavjud. Masalan, bir guruh test topshiruvchilar adabiyotdan test topsbirishdi. Nazarov 10 ta test topshirigidan 7 tasining javobini bilardi, lekin o'sha kuni kasal bo'lganllgi sababli faqat 5 ta topshiriqni to'g'ri yechdi. Demak, Nazarovning testda olgan bahosi 5 bo'lsa, uning haqiqiy bahosi 7 ga, xatolik esa -2ga teng: $5 = 7 - 2$. Valiev esa 4 ta test topshirig'ining javobini bilardi, lekin tasodifan yana 3 ta test topshirig'ining javobini to'g'ri topdi, shuning uchun testda 10 ball dan 7 ball oldi. Dernak, Valievning testda olgan bahosi 7 bo'lsa, uning haqiqiy bahosi 4 ga, xatolik esa 3 ga teng: $7 = 4 + 3$.

Tasavvur qilaylik, biz ayni testni ayni test topshiruvchilar guruhida cheksiz marta o'tkazdik. Test topshiruvchilarimiz har safar har xil natija ko'rsatishdi. Agar biz test topshiruvchining barcha testlarda ko'rsatgan natijalarining o'rtacha arifmetik qiymatini olsak, bu uning haqiqiy bahosi bo'ladi, chunki xatolik 0 ga tenglashadi. Bu haqiqiy bahoning klassik modelida qabul qilingan asosiy tushunchalardan biridir¹⁵.

¹⁴ McDonald R.P. Test Theory: A Unified Treatment. - Mahwah. NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1999. - P.96.

¹⁵ Крохер Л., Алгина Д. Введение в классическую и современную теорию тестов. – Москва: Логос, 2010. – С.161.

Agar testning ishonchlilik darajasi yuqori bo'lsa, test topshiruvchining har safar test topshirganda olgan baholari (X) bir-biriga yaqin bo'ladi va bu baholar uning haqiqiy bahosiga (T) yaqin bo'ladi. Amaliyotda test topshiruvchiga aynan bitta testni bir necha marta topshirtirib, olgan baholarining o'rtacha arifmetik qiymatini chiqarish imkoni mavjud emas. Shuning uchun testning ishonchliligini hisoblashning bir qancha nazariy modellari mavjud.

Shuni ham nazarda tutish lozimki, xatolik ikki xil bo'lishi mumkin: **tizimli (sistematik) xatolik va tasodifiy xatolik**¹⁶.

Tizimli xatolik - bu o'qov natijalariga doimo ta'sir qiluvchi xatolik. Masalan, agar testga yo'riqnomalar tushunarsiz tuzilgan bo'lsa yoki chet tili testda tinglab tushunish uchun audiomatni sifatsiz yozilgan bo'lsa, bunday holatlar test topshiruvchilarning natijalariga ta'sir qiladi. Ya'ni konstruktga bog'liq bo'lmagan bunday omillar har safar shu testni ishlatganimizda konstruktga to'g'ri o'lchashga (baholashga) xalaqit beradi.

Tasodifiy xatolik - bu o'lchov natijalariga konkret bir vaziyatda ta'sir qiluvchi xatolik. Masalan, qaysidir safar test olayotganimizda auditoriyada shovqin bo'lsa yoki test topshiruvchilar charchagan bo'lishsa, test uchun kerakli audiomatni eshittirish uchun texnika yaxshi sozlanmagan bo'lsa, bunday omillar test topshiruvchilarning natijalariga ta'sir qiladi. Biroq xuddi shu testni keyingi safar ishlatganimizda bunday omillar mavjud bo'lmashligi mumkin (auditoriyada jimlik ta'minlangan, test topshiruvchilar charchashmagan, texnika yaxshi sozlangan va hokazo). Aynan bir testni aynan bir test topshiruvchilar guruhida bir necha marta ishlatib, natijalarning o'rtacha arifmetik qiymati olinsa, tasodifiy xatolik 0 (nol)ga tenglashadi, biroq tizimli xatolik saqlanib qolgan bo'lishi mumkin. Tizimli xatoliklarni aniqlash va kamaytirish uchun testni tuzish, ishlatish va natijalarni hisoblash bilan bog'liq jarayonlarni tahlil etish hamda validlik talablariga rioya qilish lozim bo'ladi.

Asosiy xulosa:

¹⁶ Raykov T. and Marcoulides O. A. Introduction to Psychometric Theory. - London-New York: Routledge, 2011. - P.115.

Test asosida chiqariladigan xulosalarimiz asosli (valid) bo'lishi uchun test ishonchlilik talablariga javob berishi, ya'ni testning natijalari barqaror bo'lishi lozim.

Test natijasida olingan baho test topshiruvchining haqiqiy bilimini aks ettirmaydi, chunki bu bahoda xatolik mavjud.

Tizimli xatolik o'lchov natijalariga doimo ta'sir qiladi, tasodifiy xatolik esa o'lchov natijalariga konkret bir vaziyatda ta'sir qiladi.

XI-BOB TESTNI VARATISH

11.1. Testni yaratish bosqichlari

Har qanday testni yaratish tizimli jarayon bo'lib, bu jarayon bir qancha **bosqichlarni** o'z ichiga oladi¹⁷:

1. Testning maqsadini aniqlash.
2. Domen va konstruktlarni arriqlash.
3. Test spetsifikatsiyasini yaratish.
4. Test spetsifikatsiyasi asosida test topshiriqlarini shakllantirish.
5. Test topshiriqlarini ekspertlar (mutaxassislar) yordamida tahlil etish va lozim bo'lgan o'rinlarda tuzatishlar kiritish.
6. Test topshiriqlarining dastlabki aprobatsiyasini o'tkazish va lozrim bo'lgan o'rinlarda test topshiriqlariga tuzatishlar kiritish.
7. Test topshiriqlarini katta miqyosda aprobatsiyadan o'tkazish.
8. Aprobatsiya natijalari asosida test topshiriqlarini statistik tahlil etish, talabga javob bermaydigan topshiriqlarni chiqarib tashlash.
9. Testning yakuniy varianti (fonnasi) uchun validlik va ishonchlilik tadqiqotlarini o'tkazish.
10. Test natijalari talqini uchun tavsiyalar tuzish.

Ushbu bosqichlar har qanday o'lchov vositasi (test) yaratilishida majburiy bosqichlar bo'lib, ayrim hollarda bosqichlarni bir necha marta qayta amalga oshirish kerak bo'lishi mumkin. Masalan, test topshiriqlarini katta miqyosda aprobatsiyadan o'tkazgandan keyin talabga javob bermaydigan topshiriqlarni qayta ishlab, takroriy aprobatsiyadan o'tkazish mumkin. Valldlik va ishonchlilik talablariga javob beradigan testlarni yaratish uchun bir necha yilgacha vaqt talab qilinishi mumkin.

Birinchi bosqichda testnmg maqsadi aniqlanadi. Testning maqsadi uning qanday shaklda bo'lishi, qanday xarakteristikalarga ega bo'lishini aniqlab beradi.

¹⁷ Крокер Л., Алгина Д. Введение в классическую и современную теорию тестов. – Москва: Логос, 2010. С.105.

Masalan, o'quvchilarning bilirlaridagi bo'shliqlarni aniqlash maqsadida ishlatiladigan testga, odatda, o'quvchilar ko'proq xato qiladigan nuqtalar kiritiladi. Fanni o'qitishning oxirida o'zlashtirganlikni baholashga qaratilgan testda fanning rnuhim bo'limlari va qonuniyatlari aks etishi lozim.

Ikkinchi hosqichda baholanishi (o'lchanishi) kerak bo'lgan **domen va konstruktlar aniqlanadi**. Buning uchun bir qancha usullar qo'llanilishi mumkin:

- ta'lim standartlarida belgilangan maqsadlarni tahlil etish.

Masalan, maktab bitiruvchilari uchun ona tilidan test yaratmoqchi bo'lsak, birinchi navbatda, ta'lim standartlarida maktab bitiruvchilari bu fandan qanday bilirn, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarga ega bo'lishlari kerakligi belgilangan degan savolga javob izlashimiz darkor. Ta'lim standartlarida belgilangan barcha maqsadlarni ham o'lchash (baholash) imkoni bo'lmasligi mumkin, bunday holda aynan qaysi ta'limiy maqsadlar o'lchanishini aniqlab olish lozim¹⁸;

- soha mutaxassislarining fikrini o'rganish. Masalan, pedagogik mahoratni baholaydigan test yaratmoqchi bo'lsak, pedagogik tajribaga ega, malakali oqituvchilar o'rtasida so'rov o'tkazib, pedagog uchun muhim xususiyatlarni aniqlab olishimiz mumkin;

- o'lchanishi lozim bo'lgan konstruktlar qollaniladigan vaziyatlarni kuzatish. Masalan, mehmonxona xodimlarini baholash uchun test yaratishda bevosita mehmonxona xodimlari ishini kuzatish va bu kuzatish jarayonida ular uchun kerakli ko'nikmalarni aniqlashtirib olish mumkin;

- ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish. Masalan, o'qish savodxonligini baholaydigan test tuzish uchun «o'qish savodxonligi nima?» degan savolga javob izlashimiz, buning uchun esa shu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni o'rganib chiqishimiz talab etiladi.

Aksar hollarda domen va konstruktarni aniqlashda bir emas, bir necha usullar birdaniga qo'llaniladi. Test vaqt va hajm jihatidan cheklanganligi sababli u orqali domen va konstruktarning barchasini qamrab olish yoki barchasini teng darajada

¹⁸ Чельшкова М.Б. Теория и практика конструирования педагогических тестов. Москва: Логос, 2002. С.86.

aks ettirish imkoni bo'lmasa, bunday holda tekshirilishi lozim bo'lgan domen va konstruktlarning (hamda ularning tarkibiy qismlarning) muhimlik darajasi bo'yicha iyerarxiyasini tuzib, qaysi elementlar testda qay darajada aks etishini aniqlab olish lozim. Shuningdek, bir-biriga yaqin elementlarni birlashtirish ham samarali bo'lishi mumkin¹⁹.

Uchinchi bosqichda test spetsifikatsiyasi yaratiladi. Spetsifikatsiyada baholanishi lozim bo'lgan domen va konstruktning har bir elementi qanday va nechta sondagi test topshiriqlari yordamida tekshirilishi aks etadi. Test spetsifikatsiyasini yaratishda nafaqat domenning mazmuniga kiruvchi tarkibiy qismlarni, balki test topshiruvchidan talab qilinadigan kognitiv operatsiya turini ham hisobga olish kerak. Buning uchun kognitiv jarayonlarni tasniflaydigan nazariy model ishlatiladi. Ta'lim va baholash jarayonida keng qo'llaniladigan shunday nazariy modellardan biri AQSh olimi Benjamin Blum (Benjamin Bloom) tornonidan yaratilgan bo'lib, **Blum taksonomiyasi** deb ataladi.

	Kognitiv ko'nikma	Izoh	Misollar
6.	Baho berish	Ichchi yoki tashqi mezonlar asosida holat, voqea-hodisaga baho berish	- Asarga taqriz yozing. - Taklif qilingan echimning samaradorligini toping.
5.	Sintez	Tarkibiy qismlarni yangicha shaklda birlashtirish asosida yangi narsa yaratish, muammoning yangi echimini taklif qilish	- Mtnning qisqacha mazmunini yozng. - Asarga sikvel yozing. - Berilgan masalani echadigan kompyuter dasturi tuzing.
4.	Analiz (tahlil)	Murakkab tushunchani tarkibiy qismlarga ajratish va qismlar orasidagi bog'liqlikni ko'ra olish	- Matndan asosiy va ikkilamchi g'oyalarni ajrating. - Ikkinchi jahon urushining SSSRdagi ijtimoiy hayotga ta'sirlarini sanang. - Berilgan o'simlikning gul va barglarini o'rganib, uning qaysi turkumga mansubliginin aniqlang.
3.	Qo'llash	Olingan bilim asosida yangi muammolarni echish	- Berilgan asarga muqobil (boshqacha) yakun yozing. - Elektr o'tkazuvchining qarshiligini hisoblang.
2.	Tushunish	Olingan bilimni talqin	- Berilgan gapda undalmani toping.

¹⁹ Звонников В.И., Чельшкова М.Б. Современные средства оценивания результатов обучения. Изд. 5-е, пер. и доп. – Москва: Академия, 2013. С.102.

		qilish, xulosalar chiqarish, boshqa shaklga sola olish	- Aruz va barmoq vaznlarining farqlarini sanang. - Berilgan xususiyatlar asosida davlat boshqaruvi shaklini aniqlang.
1.	Bilish	O'rganilgan ma'lumotni eslash va qaytarish	- "Ta'lim" tushunchasiga ta'rif bering. - "Buyuk didaktika" asarini qachon yozilganini ayting. - Ikkinchi jahon urushining asosiy janglarini sanang.

Blum taksonomiysi bo'yicha kognitiv ko'nikmalar

Blum taksonomiyasi bo'yicha kognitiv ko'nikmalar (bunda bilish – eng quyi darajadagi ko'nikma, baho berish – eng yuqori darajadagi ko'nikma).

Blum taksonomiyasi - kognitiv (bilish jarayoni bilan bog'liq) ko'nikmalarining iyerarxik (ketma-ketlikka asoslangan) modeli.

Blum taksonomiyasida kognitiv ko'nikmalar ikki darajaga bo'linadi: quyi darajadagi kognitiv ko'nikmalar va yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalar²⁰. Bilish, tushunish va qo'llash jarayonlari quyi darajadagi kognitiv ko'nikmalar hisoblansa, tahlil (analiz), sintez va baho berish yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalardir. Test spetsifikatsiyasini tuzishda taksonomiyadagi ko'nikmalarining fan mavzulari (bo'limlari) kesirida aks etishini hisobga olish lozim, buning uchun har bir mazmun-mundarija doirasida qaysi darajadagi kognitiv ko'nikmalar baholanishi kerakligini aniqlashtirib olish darkor²¹. Masalan, adabiyot fanidan test topshiruvchi «O'tkan kunlar» romani qachon yozilganligini bilishi yoki undagi qahramonlarni ajrata olishi - bir daraja, romanda qanday muammolar ko'tarilganligini tahlil qilib bera olishi yoki roman qahramonlarining xatti-harakatlariga baho berishi - boshqa daraja. Test spetsifikatsiyasida domenning bar bir elementi qaysi darajada yoki qaysi darajagacha baholanishi aniq ko'rsatilishi lozim.

Domen va konstruktlarni tekshirishga mos vositalar (test topshiriqlari turlari) tanlanayotganda «tekshirilayotgan konstruktni (xususiyatni) ko'rishimiz uchun qanday dalil maqbul hisoblanadi?» va «berilgan test topshirig'ini bajarish

²⁰ Petty G. Teaching Today: A Practical Guide. 4th ed. - Cheltenham: Nelson Thomes. 2009. - P.9.

²¹ Brookhart S.M. How To Assess Higher-Order Thinkmg Skills in Your Classroom. - Alexandria. VA: ASCD, 2010. - P.18.

jarayonida test topshiruvchi biz tekshirmoqchi bo'lgan kognitiv ko'nikmani ishga soladimi?» - degan savollarga javob berish maqsadga muvofiq²². Masalan, test topshiruvchida badiiy matnni tahlil etish ko'nikmasi shakllanganligiga ishonch hosil qilmoqchi bo'lsak, (est topshiruvchi qanday amalni bajarishi kerak? Nimani biz unda badiiy matnni tahlil etish ko'nikmasi shakllanganligiga maqbul dalil sifatida qabul qilamiz? Agar biz badiiy matndan parcha berib, uning qaysi asardan olinganligini so'rasak, test topshiruvchi bu topshiriqru bajarish jarayonida biz tekshinnoqchi bo'lgan tahlil ko'nikmasini ishga soladimi? Shu savollarga javob bera olsak, testga qanday topshiriqlar kiritish lozimligi oydinlashadi.

Test spetsifikatsiyasi qanchalik batafsil va tushunarli shaklda tuzilsa, ushbu spetsifikatsiya asosida test topshiriqlarini tuzish va yakuniy testni (testning parallel formalarini) shakllantirish shunchalik yengillashadi.

Keyingi bosqichlarda test topshiriqlari yaratiladi va ekspertlar (mutaxassislar) tomonidan tahlil etiladi. Test topshiriqlarini tahlil etishda ularning test spetsifikatsiyasiga mosligi, test topshiriqlarini yaratish qoidalariga mosligi, tushunarligi, aniqligi kabi jihatlariga e'tibor beriladi. Bunda bir qancha ekspertlar qatnashib, har bir ekspert test topshirig'ining bir jihatini tahlil qilib berishi yoki barcha ekspertlar har tomonlarni tahlil qilishlari mumkin. Bunda ekspertlar oldiga aniq masalalar qo'yish ekspertiza jarayonining samaradorligini oshiradi.

Oltinchi bosqichda test topshiriqlarining dastlabki aprobatsiyasi o'tkaziladi.

Aprobatsiya - testning psixometrik xarakteristikalarini (ya'ni testning shaxsdagi xususiyatlarni qay darajada o'lchay olishini) aniqlash hamda testdagi noaniqliklar va xatolarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan jarayon.

Dastlabki aprobatsiya kichik guruhda o'tkaziladi va bunda aprobatsiya jarayonida qatnashayotganlar test topshiriqlarini qanday yechayotganliklari kuzatiladi. Aprobatsiyadan keyin qatnashuvchilar bilan suhbatlashib, ularning test topshiriqlari haqidagi fikrlarini o'rganish, shuningdek, test topshiriqlarini statistik

²² Brookhart S.M. How To Assess Higher-Order Thinking Skills in Your Classroom. -Alexandria, VA: ASCD, 2010. - P.19.

tahlil etib, lozim bo'lgan o'rinlarda ularga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Keyingi bosqichlarda test topshiriqlari katta miqyosda aprobatsiyadan o'tkaziladi. Aprobatsiyada qatnashuvchilar o'z xususiyatlari jihatdan haqiqiy test topshiruvchilarga yaqin bo'lishi, aprobatsiya sharoitlari ham imkon qadar haqiqiy testdan farq qilmasligi lozim. Aprobatsiyadan keyin test topshiriqlari statistik tahlil etiladi, talabga javob bermaydigan topshiriqlar chiqarib tashlanadi yoki qayta ishlanadi. Qayta ishlangan topshiriqlar qayta aprobatsiyaga olib chiqilishi lozim bo'ladi. Shundan so'ng testning yakumy formasi (formalari) validlik va ishonchlilik talablari nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Test bu talablarga javob berishiga ishonch hosil qilingandan keyin test natijalarini qanday talqin etish va ulardan qanday xulosalar chiqarish bo'yicha tavsiyalar tuziladi.

11.2. Yopiq test topshiriqlarini yaratish

Demak, testning maqsadi, test orqali o'lchanishi lozim bo'lgan domen va konstruktlar aniqlab olingandan keyin test spetsifikatsiyasi yaratiladi va bu spetsifikatsiya asosida test topshiriqlari yoziladi. Testda ishlatish mumkin bo'lgan test topshiriqlari turlaridan biri - yopiq test topshiriqlari, ya'ni test topshiruvchidan to'g'ri javobni berilgan muqobil javob variantlan ichidan tanlashini talab qiladigan test topshiriqlari. Bunday test topshiriqlarining eng katta afzalligi test natijalarini maxsus qurilmalar yordamida tez qayta ishlash hamda tekshirishda subyektivlikni yo'qotish imkonini berishidir.

Yopiq test topshiriqlari samarali bo'lishi, o'z vazifasini bajarishi va validlik talablariga javob berishi uchun ularni tuzishda bir qancha qoidalarga rioya qilinishi lozim. Testologiya talablariga muvofiq, to'g'ri tuzilgan yopiq test topshiriqlari tekshirilishi kerak bo'lgan domenni keng va har tomonlarni qamrab olish imkonirri beradi, nafaqat ma'lumotru bilish (eslash) va qo'llashni, balki yuqori darajadagi kognitiv ko'inkmalarni ham tekshinshi mumkin. Shu bilan birga, bunday test topshiriqlari yordamida yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalar integratsiyasini hamda kognitiv bo'lmagan ko'nikmalarni (masalan, yozish yoki

gapirish ko‘rukmalari, amaliy ko‘nikmalar va hokazo) tekshirish deyarli imkonsiz - bunday maqsadlar uchun ochiq test topshiriqlarini qo‘llash maqsadga muvofiq²³.

Yopiq test topshiriqlari bir qancha shakllarda bo‘lishi mumkin: muqobil javobli test topshirig‘i, «tog‘ri-notog‘ri» shaklidagi test topshirig‘i, moslashtirishni talab qiluvchi teqe topshirig‘i va ketma-ketlikni topishni talab qiluvchi test topshirig‘i. Test topshirig‘i turini tanlashda moslik tamoyiliga amal qilish talab etiladi: tanlangan test topshirig‘i turi baholanayotgan ko‘nikrnanani ko‘rsata olishi zarur²⁴. Masalan, maqsad test topshiruvchining berilgan matnmng qisqacha mazmunini yoza olish ko‘nikmasini baholash bo‘lsa, buni yopiq test topshirig‘i yordamida amalga oshirib bo‘lmaydi.

Yopiq test topshiriqlartmng turlari	Izoh	Misollar
Muqobil javobli test topshing‘i	Berilgan muqobil javob variantlarining ichidan to‘g‘rini tanlash talab qrlinadi	O‘tkir Hoshimov qalamiga rnansub romanni toping. A. «Diyonat» B. «Tushda kechgan umrlar» C. «Odam bo‘lish qiyin» D. «Shaytanat»
«To‘g‘ritog‘rt» shaklidagi test topshing‘i	Berilgan jumlarung (hukmning) tog‘ri yoki noto‘g‘riligini topish talab qilinadi	Quyida berilgan hukmlarning to‘g‘ri yoki notog‘riligini belgilang. I. Ikkinchi jahon urushi 1941-yil 22-iyunda Germarnyaning SSSRga hujum qilishi bilan boshlandi. A) To‘g‘ri B) Noto‘g‘i 2. lkkmchi jahon urushi 1945-yil 2-sentyabrda Yaponiyaning taslim bo‘lishi bilan yakunlandi. A) To‘g‘ri B) Noto‘g‘ri
Moslashtirishni talab qiluvchi test topshirig‘i	Berilgan ikki ro‘yxatdan bir-biriga qaysidir jihat bilan mos tushuvchi javoblarni topish talab qilinadi	Quyida davlatlar va poytaxtlar nomlari berrlgan. Har bir davlatning poytaxtini toping. Har bir javob faqat bir marta ishlatilishi mumkm, Diqqat: A - E javoblardan biri ortiqcha! Davlatlar Poytaxtlar 1. AQSh A) London 2. Avstraliya B) Kanberra 3. Kanada C) Ottava

²³ Downmg S. Selected-Response Item Formats In Test Development II Downing S. and Haladyna T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates. 2006. - P.290 - 291.

²⁴ Fein M. Test Development: Fundamentals for Certifcauon and Evaluation. - Alexandna, VA: American Society for Training and Development, 2012. - P.94.

		4.Yangi Zelandiya D) Vashington E) Vellington
Ketma-ketlikni topishni talab qiluvchi test topsbirig'i	Berilgan javob variantlarini to'g'ri ketma-ketlikda qo'yib chiqish talab qilinadi	Alisher Navoiy «Xamsa»siga kiruvchi dostonlarni tog'ri ketma-ketlikda qo'yib chiqing. A) «Farhod va Shinn» B) «Saddi Iskandariy» C) «Hayrat ul-abror» D) «Layli va Majnun» E) «Sab'ayi sayyor» 1)_ 2)_ 3)_ 4)_ 5)_

Yopiq test topshiriqlari turlari

11.2.1. Muqobil javobli test topshiriqlari

Muqobul javobli test topshiriqlari o'zak va uchta yoki undan ortiq muqobul javoblardan iborat bo'ladi. Muqobil javoblar ichida to'g'ri javob kalit, noto'g'ri javoblar **distraktorlar** (chalgituvchi javoblar, inglizcha «distract» - «chalgitmoq» so'zidan) deyiladi.

Test topshirig'ining o'zagi ikki xil ifodalarrishi mumkin:

- to'liqsiz gap shaklida - bunda muqobil javoblarda berilgan so'zlar (jumlalar) gapni to'ldiradi;

- so'roq gap shaklida - bunda muqobil javoblarda berilgan so'zlar, jumlar yoki gaplar berilgan so'roqqa javob bo'ladi.

Test topshirig'ining to'g'ri javobi (kaliti) ikki xil bo'lishi mumkin²⁵:

- yagona to'g'ri javob - bunda berilgan muqobil javoblardan faqat bittasi to'g'ri javob bo'ladi;

- eng maqbul to'g'ri javob - bunda berilgan muqobil javoblardan bittasi eng maqbul to'g'ri javob bo'lib, qolgan muqobil javoblar qaysidir jihati bilan qo'yilgan savolga to'liq javob bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasining poytaxti ... shahridir.

A) Toshkent

B) Nurafshon

²⁵ Haladyna T. and Rodriguez M. Developing and Validating Test Items. - LondonNew York: Routledge, 2013. - P.63.

C) Samarqand

D) Buxoro

O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy qonunlar qaysi organ tomonidan qabul qilinadi?

A) Vazirlar Mahkamasi

B) Oliy Majlis

C) Konstitutsiyaviy sud

Muqohul javobli test topshing‘i namunasi

Muqobul javobli test topshiriqlarini tuzishda quyidagi qoidalar va tavsiyalarga rioya qilmoq lozim:

1. Har bir test topshirig‘i test spetsifikatsiyasiga muvofiq o‘lchanayotgan domenning (konstruktning) konkret bir elernentini baholash maqsadida tuzilishi lozim²⁶. Ya’ni har bir test topshirig‘ining maqsadi - domenmg (konstruktning) qaysi elementini tekshirishga qaratilganligi aniq bo‘lishi, shu bilan birga, bitta test topshirigi orqali konstruktning bir nechta elementini qamrab olishga harakat qilinmasligi kerak.

Misol:

Yurtimizdagi qaysi shaharda Kamoliddin Behzod nornidagi memorial bog‘ barpo etilgan?’²⁷

A) Buxoro B) Toshkent C) Andijon D) Samarqand

Ushbu test topshirig‘i tarix fani bo‘yicha test topshiriqlari to‘plamiga kiritilgan bo‘lsa-da, o‘lchanayotgan domenning (tarix fanining) qaysi elementini baholashga qaratilganligi noaniq.

Yana bir misol:

Oddiy kitobxon aqlli ikkita qahramonning qismatidan hayajonlanib, uzoq yillar eslab yuradigan yozuvchi - haqiqiy yozuvchi.

²⁶ Downing S. Selected-Response Item Formats in Test Development 1/ Downing S. and Haladyna T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates. 2006. - P.294.

²⁷ Davlat test markazi. Tarix, 2019-yil. Test topshiriqlari to‘plami: amaliy qo‘llanma. - Toshkent: Davr-press, 2019. - B.53.

Ushbu gapdagi ko‘makchi morfemalar tarkibida nechta o‘rinda quyi keng unlilar ishtirok etgan?

A)8 B)10 C)7 D)9

Ushbu test topshirig‘ida ham ko‘makchi morfemalarni, ham ular tarkibidagi quyi keng unlilarni topish so‘ralmoqda, ya‘ni test topshiruvchi bitta topshiriqqa to‘g‘ri javob berishi uchun ham morfemikadan, ham fonetikadan bilimni ishga solishi kerak boladi. Bu holda muammoning yechimi - ikkita alohida test topshirig‘i tuzib, bir test topshirig‘ida ko‘makchi morfemalarni, ikkinchisida quyi keng unlilarni so‘rash.

Yana bir misol:

Alovuddin Muhammad Talos vodiysida qoraxitoylarni mag‘lubiyatga uchratgan yilda qaysi shahar aholisi xorazmshohga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan?²⁸

A) Buxoro B) Samarqand C) Toshkent D) O‘tror

Ushbu test topshirig‘ida ham yuqoridagi qoida buzilgan - test topshiruvchidan ham Alovuddin Muhammad Talos vodiysida qoraxitoylarni mag‘lubiyatga uchratgan yilni topish, ham shu yili aholisi xorazmshohga qarshi qozg‘olon ko‘targan shaharni topish talab qilinmoqda. Test topshiruvchi yuqoridagi topshiriqqa to‘g‘ri javob bera olmasa, uning aynan nimani - yilni yoki shahami bilmasligi haqida asosli xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Har bir test topshirig‘i baholanayotgan domen uchun muhim bo‘lgan bilimga asoslanishi lozim, ya‘ni test topshirig‘i muhim bo‘lmagan, mayda-chuyda detallarga asoslanmasligi kerak²⁹. Shu bilan birga, test topshirig‘i haddan tashqari umumiy yoki haddan tashqari xususiy mazmun asosida tuzilmasligi zarur³⁰. Haddan tashqari umumiy mazmun asosida tuzilgan test topshirig‘iga tekshirilayotgan domenni yaxshi ozlashtirmagan, yuzaki bilimga ega test topshiruvchi ham to‘g‘ri javob berishi mumkin. Haddan tashqari xususiy mazmun

²⁸ Davlat test markazi: Tarix fanidan namunaviy savollar (2018). Davlat test markazining rasmiy saytidan (www.dtm.uz) yuklab olingan.

²⁹ Downing S. Selected-Response Item Formats in Test Development II Downing S. and Haladyna, T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates. 2006. - P.294.

³⁰ Downing S. Selected-Response Item Formats in Test Development II Downing S. and Haladyna, T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates. 2006. - P.294.

asosida tuzilgan test topshirig'iga tekshirilayotgan domenni yaxshi o'zlashtirgan test topshiruvchi ham javob bera olmasligi mumkin.

Misol:

Anbar Otin qaysi buyuk mumtoz shoiramizning jiyani bo'lgan?

A) Nodirabegim C) Zebiniso B) Jahon otin Uvaysiy D) Dilshodi Barno

Ushbu test topshirig'i baholanayotgan domen - adabiyot uchun muhim bo'lmagan ma'lumot asosida tuzilgan: Anbar Otin kimning jiyani bo'lganligini bilish urning ijodini tushunishda hech qanday rol o'ynamaydi.

Yana bir misol:

O'zbekistonda «Fayzifilm» xususiy kinostudiyasi qachon ro'yxatga olingan?³¹

A) 1992-yil B) 1991-yil C) 1993-yil D) 1999-yil

Ushbu test topshirig'ida ham yuqoridagi qoida buzilgan: «Fayzifilm» kinostudiyasi qachon ro'yxatga olinganligini mustaqil O'zbekiston tarixidagi muhim, ahamiyatga molik voqea deb bo'lmaydi, demak, o'quvchining bu ma'lumotni bilish-bilmasligi tarixmng shu davrini yaxshi bilishgi haqida valid (asosli) xulosa chiqarish imkonini bermaydi.

3. Har bir test topshirig'i mustaqil bo'lishi, ya'ni bir test topshirig'iga javob berish uchun oldin boshqa bir test topshirig'iga javob berish talab qilinmasligi kerak³². Shu bilan birga, testda ishlatilgan bir test topshirig'ining javobi xuddi shu testdagi boshqa test topshirig'ining javobini topishga yordam bermasligi lozim.

Misol:

1. Shekspirning Shotlandiya tarixi voqealariga bag'ishlangan fojiasi qanday nomlanadi?

A) «Hamlet» B) «Qirol LiR» C) «Makbet» D) «Romeo va Julyetta»

³¹ Davlat test markazi: Tarix fanidan namunaviy savollar (2018). Davlat test markazining rasmiy saytidan (www.dtm.uz) yuklab olingan.

³² Downing S. Selected-Response Item Formats 10 Test Development II Downing S. and Haladyna, T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. - P.294.

4. Test topshirigida ishlatilgan tushuntirishlar va misollar test topshiruvchi uchun yangi (notanish) bo'lishi kerak³³. Aks holda, test topshiruvchi tekshinlayotgan domenni bilgani uchun emas, test topshirig'ida berilgan tushuntirish yoki misolni eslab qolgani uchun to'g'ri javob berishi mumkin. Misol uchun, matematika darslarida kvadrat tenglamani yechish o'rgatilgan bo'lsa, testga dars jarayonida ishlatilgan, o'quvchilarning qo'lidagi materiallarda berilgan kvadrat tenglama emas, ular uchun notanish bo'lgan tenglama kiritilishi lozim. Shunda o'quvchi testni yechish uchun dars jarayonida o'rgangan bilimlarini ishga solishi kerak bo'ladi.

5. Test topshirig'ida subyektiv munosabat, subyektiv baho ifodalanmasligi kerak³⁴. Subyektiv bahoni o'z ichiga olgan test topshirig'i bahsli bo'lib qoladi, chunki bunday test topshirig'ining yagona to'g'ri javobi mavjud bo'lmay qoladi.

Misol:

Qaysi Xiva xoni davrida qozoq cho'llarining Rossiya imperiyasi va Xiva xonligi o'rtasida bir-birini ajratib turuvchi hudud bo'lib qolishi uchun astoydil barakat qilingan?³⁵

A) Shergozixon B) Olloqulixon C) Rahimqulixon D) Muhammad Rahimxon I

Test topshirigi o'zagida ishlatilgan «astoydil harakat qilish» subyektiv baho beshdir va hozirgi zamondan turib o'sha paytdagi harakatlarning «astoydil» yoki «astoydil emasligi»ga baho berish mumkin emas. Bundan tasqari, test topshirig'ini tuzgan muallif «astoydil» deb baho bergan harakatlarga test topshiruvchi «astoydil» deb baho bermasligi va bu bahslarga sabab bo'lishi mumkin.

6. Muqobul javobli test topshirig'ning murakkab shakli mavjud bo'lib, bunday test topshirig'inmg o'zagida bir nechta variant beriladi va muqobil

³³ Downing S. Selected-Response Item Formats 10 Test Development II Downing S. and Haladyna, T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. - P.294.

³⁴ Downing S. Selected-Response Item Formats In Test Development /I Downing S. and Haladyna, T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. - P.294.

³⁵ Davlat test markazi: Tarix fanidan namunaviy savollar (2018). Davlat test markazmmg rasmiy saytidan (www.dtm.uz) yuklab olingan.

javoblarda bu variantlar har xil guruhlanadi. Bunday shakldagi test topshiriqlarini ishlatish tavsiya qilinmaydi, chunki³⁶:

- bunday test topshiriqlari muqobil javobli test topshirig'ining odatiy shakllariga nisbatan qiyinroq hisoblanadi;

- test topshiruvchi berilgan variantlardan birining to'g'ri yoki noto'g'riligini aniq bilsa, mos kelmaydigan muqobil javoblarni chiqarib tashlash yo'li bilan tog'ri javobni topishi mumkin, bu esa tekshirilayotgan konstruktga bog'liq bo'lmagan faktorning test natijalariga ta'sirini oshiradi;

- bunday test topshiriqlarining statistik ko'rsatkichlari, odatda, past bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, testning ishonchliligiga salbiy ta'sir qiladi;

- bunday test topshiriqlarini tuzish va tahrir qilish ancha qiyin;

- bunday test topshiriqlariga javob berish ancha vaqtni talab qiladi, bu esa test orqali berilgan vaqt ichida qamrab olinishi mumkin bo'lgan domen (konstrukt) elementlari sonini kamaytiradi va test natijasida chiqariladigan xulosalar validligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

7. Test topshirig'ining o'zagida savol yoki muammo aniq ifodalanishi, test topshiruvchi muqobil javoblarni o'qimasdan ham nima so'ralayotganini aniq tasavvur qila olishi lozim³⁷.

Misol:

Samarqand ...

A) O'zbekiston SSRning poytaxti bo'lgan.

B) Amir Temur tomonidan qayta qurilgan.

C) «Islom madaniyati markazi» deb e'tirof etilgan.

D) Qo'qon xonligi tarkibiga kirgan.

Ushbu test topshirig'ining o'zagi bitta so'zdan iborat bo'lib, test topshiruvchi undan nima so'ralayotganini tasavvur qilishi uchun barcha muqobil javoblarni o'qib chiqishi, test topshirig'iga javob berish uchun esa muqobil javoblarni qayta

³⁶ Haladyna T. and Rodriguez M. Developing and Validating Test Items. - LondonNew York: Routledge, 2013. - P.72.

³⁷ Popham w.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.244.

o‘qib chiqishi talab etiladi. Bu esa test topshirig‘ini yechishda ortiqcha vaqt sarflanishiga olib keladi.

8. Test topshirig‘ining o‘zagida inkor so‘zlarni ishlatmaslikka harakat qilish darkor³⁸. Inson miyasi ma’lumotni qabul qilishidagi o‘ziga xoslik (inkor, salbiy ma’lumotlarga e’tibor bermaslikka moyillik) natijasida test topshiruvchilar test topshirig‘ining o‘zagidagi inkor so‘zlarga e’tibor bermasliklari mumkin. Agar test topshirig‘ining o‘zagida inkor so‘zni ishlatish juda ham zarur bo‘lsa, inkor so‘zlar test topshiruvchining ko‘ziga tashlanadigan shaklda ajratib ko‘rsatilisht zarur.

Misol:

Qaysi javobdagi baytda tazod she’riy san’ati qo‘llanilmagan?³⁹

A) Nastarin yuvib yuzni, yosuman tuzib o‘zni, Nargis ochibon ko‘zni intizori yoronlar.

B) Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat, Seli g‘amdin bu imorat bo‘ldi vayron oqibat.

C) Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit, Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.

D) Bevaforlar zulm-u bedodig‘a ermasmen harif, Ey sinuq ko‘nglum, agar xud shisha, gar po‘lod bo‘l.

Yuqorida aytilganidek, test topshirig‘ini bunday shaklda berish tavsiya qilinmaydi, chunki aksar test topshiruvchilar topshiriq o‘zagidagi «qo‘llanilmagan» so‘zini avtomatik tarzda «qo‘llanilgan» shaklida o‘qib ketishadi.

9. Topshiriq o‘zagi imkon qadar qisqa, lo‘nda, ortiqcha ma’lumotardan xoli bo‘lishi shart. Shu bilan birga, muqobil javoblarda takrorlanadigan so‘zlar ham topshiriq o‘zagiga chiqarilishi lozim⁴⁰. Topshiriq o‘zagi yetti-sakkiz so‘zdan iborat

³⁸ Downing S. Selected-Response Item Formats In Test Development /1 Downing S. and Haladyna, T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. - P.294.

³⁹ Davlat test markazi. Ona tili va adabiyot. 2019-yil. Test topshinqlari to‘plami: amaliy qo‘llanma. - Toshkent: Davr-press, 2019. - B.121.

⁴⁰ Downing S. Selected-Response Item Formats in Test Development II Downing S. and Haladyna, T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. - P.294.

bo'lgan bitta gapda ifodalanishi, bu gapda ergash gaplar soni bittadan oshmasligi tavsiya qilinadi⁴¹.

10. Asosiy, tekshirilayotgan ma'lumot topshiriq o'zagida aks etishi kerak⁴².

11. Test topshirig'i grammatik, uslubiy, imlo xatolarisiz tuzilgan bo'lishi zarur⁴³.

12. Muqobil javoblarni tuzayotganda quyidagilarga e'tibor berish lozim⁴⁴:

- tadqiqotlar uchta muqobil javob optimal ekanligini ko'rsatadi;

- muqobil javoblardan faqat bittasi to'g'ri javob bo'lishi kerak;

- testda to'g'ri javoblar turli o'rinlarda joylashishi va to'g'ri javoblarning joylashuvida qandaydir qolip bo'lmasligi (masalan, hamma A muqobil javoblar to'g'ri javob bo'lib qolmasligi yoki to'g'ri javoblar A, B, C, D shaklida joylashib qolmasligi) darkor;

- muqobil javoblar mantiqiy ketma-ketlikda (masalan, alifbo tartibida, xronologik yoki o'sib borish tartibida) joylashishi zarur;

- muqobil javoblar ma'no jihatidan bir-birini qamrab olmasligi kerak;

- muqobil javoblar grammatik bir xil shaklda bo'lishi lozim;

- muqobil javoblar ma'no jihatidan gomogen (bir turkumga mansub) bo'lishi zarur;

- muqobil javoblarning uzunligi bir-biriga yaqin bo'lishi darkor;

- «javoblarning barchasi to'g'ri», «javoblarning barchasi notog'ri», «A va B javoblar tog'ri» singari muqobil javoblardan foydalanmaslik lozim;

- to'g'ri javobda (kalitda) «doim», «hech qachon», «eng» singari so'zlarni, shuningdek, topshiriq o'zagida ishlatilgan so'zlarni (yoki ma'no jihatidan ularga yaqin so'zlarni) ishlatmaslik kerak;

⁴¹ Чельшкова М.Б. Тнория и практика конструиования педагогических тестов. - Москва: Логос, 2002. - С.119.

⁴² Downing S. Selected-Response Item Formats in Test Development II Dowrning S. and Haladyna, T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. - P.294.

⁴³ Downing S. Selected-Response Item Formats in Test Development II Downing S. and Haladyna, T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. - P.294.

⁴⁴ Downing S. Selected-Response Item Formats III Test Development 1/ Downing S. and Haladyna, T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. - P.294.

-distraktorlar (chalgʻituvchi javoblar) asosli tanlanishi, tekshirilayotgan domenni yaxshi oʻzlashtirmagan test topshiruvchlga toʻgʻri javobday koʻrinishi darkor. Buning uchun distraktorlar shu savolga fanni (mavzuni) yaxshi oʻzlashtirmagan oquvchilar javob berishda yoʻl qoʻyadigan tipik (odatiy) xatolar asosida tuzilishi maqsadga muvofiq.

Misol:

Italiyada va boshqa mamlakatlarda mohir ertakchi adib sifatida tanilgan, «Chippolinoning sarguzashtlari», «Telefonda aytilgan ertaklar», «Jelsomino yolgʻonchilar mamlakatida» kabi hikoyalar turkumini yaratgan yozuvchini aniqlang⁴⁵.

A) Janni Rodari

B) Jonatan Svift

C) Hans Kristian Andersen

D) Antuan de Sent Ekzyuperi

Ushbu test topshirigʻi oʻzagidagi «Italiyada va boshqa mamlakatlarda mohir ertakchi adib sifatida tanilgan» maʼlumoti ortiqcha, chunki soʻralayotgan adibni bu maʼlumotsiz, berilgan asarlaridan ham topish mumkin. Bundan tashqari, «Italiyada», «Jelsomino», «Chippolino» soʻzlaridan italyan adibi haqida gap ketayotganligi ravshan, muqobil javoblarda esa faqat bitta italyan adibini (Janni Rodari) koʻrishimiz mumkin. Oʻzakda berilgan asarlardan birontasini ham oʻqimagan, umuman, Janni Rodan ijodi bilan tanish boʻlmagan test topshiruvchi ham qiynalmasdan A javob toʻgʻri ekanligini topa oladi.

13. Test topshirigʻidan maqsad test topshiruvchini chalgʻitish, yiqitish boʻlmasligi kerak. Test topshirigʻi chalkash boʻlmasligi, test topshiruvchi uchun tushunarli, sodda va ravon tilda yozilishi lozim⁴⁶, Chalkash, tushunarsiz yozilgan test topshiriqlari oʻz vazifasini bajarmaydi, yaʼni bilimlini bilimsizdan ajratib bermaydi, chunki tekshirilayotgan domenni yaxshi oʻzlashtirgan test topshiruvchi ham bunday test topshinqlariga javob bera olmaydi.

⁴⁵ Davlat test markazi. Ona tili va adabiyot. 20 19-yil. Test topshiriqlari toʻplami: amaliy qoʻllanma. - Toshkent: Davr-press, 2019. - B.119.

⁴⁶ Downing S. Selected-Response Item Formats In Test Development II Downing S. and Haladyna, T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates. 2006. - P.294.

11.2.2. «To‘g‘ri-noto‘g‘ri» shaklidagi test topshiriqlari

«Tog‘ri-notog‘ri» shaklidagi test topsbiriqlarida bir yoki bir nechta jumla (fikir, hukm) beriladi va test topshiruvchi «to‘g‘ri»/«noto‘g‘ri», «ha»/«yo‘q», «qoshilaman»/«qo‘shilmayman» shaklidagi ikkita bir-biriga teskari javob variantidan birini tanlashi talab qilinadi. Bunday test topshiriqlari dixotom (qarama-qarshi xarakterga ega) tushunchalar haqidagi bilimlarni tekshirishda qo‘l keladi.

Quyida berilgan gaplarning tog‘ri yoki noto‘g‘riligini toping. Agar gap to‘g‘ri bo‘lsa, javoblar varaqasida A javob variantini, notog‘ri bo‘lsa, B javob variantini belgilang.

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majtisi ikki palatadan iborat.

A) To‘g‘ri B) Noto‘g‘ri

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining barcha a‘zolari umumxalq saylovlarida saylanadi.

A) Tog‘ri B) Noto‘g‘ri

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi O‘zbekiston Prezidenti va hukumati qarorlarining Konstitutsiyaga mosligini tekshiradi.

A) To‘g‘ri B) Noto‘g‘ri

«Tog‘ri-notog‘ri» shaklidagi test topshirig‘i namunasi

«Tog‘ri-notog‘ri» shaklidagi test topshiriqlarini tuzishda quyidagi qoidalar va tavsiyalarga rioya qilmoq lozim:

1. Test topshirig‘i tog‘ri tuzilganligini tekshirib ko‘rish uchun jumlaning (hukmning) teskarisini tuzib ko‘rish kerak - jumlaning (hukmning) teskarisi mavjud bo‘lsagina topshiriq tog‘ri tuzilgan bo‘ladi⁴⁷.

2. Jumla (hukm) yuzaki tahlil etishga moyil yoki mavzuni bilmaydigan test topshiruvchini chalg‘ita olishi kerak⁴⁸.

⁴⁷ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.235.

⁴⁸ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.235.

3. Test topshirig'idagi jumalarda inkor gaplami ishlatmaslik maqsadga muvofiq⁴⁹.

4. Bitta jumlada (hukmda) bittadan ortiq ma'lumotni (tushunchani) singdirmaslik lozim⁵⁰. Agar bitta jumlada (hukmda) bittadan ortiq ma'umot (tushuncha) singdirilsa, test topshiruvchi ushbu ma'lumotlardan aynan qaysisining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini topishni bilmay qoladi.

5. «Tog'ri» va «notog'ri» javob variantli topshiriqlar soni nisbatan teng (lekin aynan teng emas) bo'lishi maqsadga muvofiq⁵¹.

6. To'g'ri va notog'ri jumalar uzunligi nisbatan bir xil bo'lishi lozim⁵². Test tuzuvchilar ko'pincha to'g'ri jumalarni uzunroq tuzishadi va bu test topshiruvchiga to'g'ri javobni bilmasdan ham topish imkonini yaratadi.

Ba'zan «to'g'ri-notog'ri» shaklidagi test topshiriqlari bir nechta to'g'ri javobga ega bo'lgan muqobil javobli test topshirig'i shaklida berilishi mumkin.

Bir nechta to'g'ri javobga ega bo'lgan muqobil javobli test topshirig'iga javob berish uchun ham test topshiruvchi har bir muqobil javobga xayolan «ha/yoq» yoki «to'g'ri/notog'ri» shaklida javob berib, keyin javobi «ha» (to'g'ri) bo'lgan muqobil javoblarni tanlashi kerak bo'ladi. Bunday shakldagi test topshiriqlarini tuzishdan oldin ularni baholash mezonlarini aniqlashtirib olish talab etiladi: test topshiruvchi barcha «ha» (to'g'ri) javoblarni to'g'ri topsa, uning natijasi qanday hisoblanadi va qisman to'g'ri topsa, uning natijasi qanday hisoblanadi? Masalan, ingliz tilini bilish darajasini baholash uchun qo'llaniladigan xalqaro IELTS (International English Language Testing System) testida bunday shakldagi test topshiriqlari qo'llanilgan holatlarda har bitta «ha» (to'g'ri) javobi uchun alohida ball beriladi.

⁴⁹ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.235.

⁵⁰ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.236.

⁵¹ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.237.

⁵² Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon. 2000. - P.238.

11.2.3. Moslashtirishni talab qiluvchi test topshiriqlari

Moslashtirishni talab qiluvchi test topshiriqlarida ikki ro'yxat beriladi va ular o'rtasidagi qandaydir bog'liqlikka asoslanib (bu bog'liqlik topshiriq shartida ko'rsatilishi lozim) birinchi ro'yxatdagi savollarga (tavsiflar, ta'riflar, nomlar va hokazo) ikkinchi ro'yxatdan mos javoblarni topish talab etiladi. Bunday test topshiriqlari bog'liqliklar (assotsiatsiyalar) haqidagi bilimlarni tekshirishda qo'l keladi. Moslashtirishni talab etuvchi test topshiriqlari yakka holda kela olmaydi: birinchi ro'yxatda nechta savol bo'lsa, shuncha test topshiriqlaridan iborat bo'ladi.

Moslashtirishni talab etuvchi test topshiriqlarini tuzishda quyidagi qoidalar va tavsiyalarga rioya qilmoq lozim:

1. Ro'yxatlar nisbatan qisqa bo'lishi lozim - haddan tashqari uzun ro'yxatlar test topshiruvchini toliqtiradi⁵³.

2. Qisqaroq nomlardan iborat ro'yxatni ikkinchi ro'yxat (javob variantlari) sifatida berish lozim. Masalan, agar test topshiruvchilardan berilgan ta'riflarga mos terminlarni topish talab qilinsa, ta'riflarni birinchi ro'yxatga (savollarga), terminlarni ikkinchi ro'yxatga (javoblarga) kiritish maqsadga muvofiq. Bu test topshiruvchining topshiriqlar bilan ishlashini osonlashtiradi⁵⁴.

3. Ikkala ro'yxatda keltirilgan nomlar yoki tavsiflar gomogen (bir sohaga mansub) bo'lishi lozim, agar birinchi ro'yxatda jumalar yoki gaplar ishlatilgan bo'lsa, ular grammatik jihatdan bir-biriga o'xshash bo'iishi kerak⁵⁵.

4. Ro'yxatlar nomlanishi zarur⁵⁶. Har bir ro'yxatning boshida bu nimaning ro'yxati ekanligini aniq ko'rsatuvchi sarlavha beriladi.

5. Ro'yxatlardagi savollar va javoblar soni teng bo'lmasligi talab qilinadi⁵⁷. Aks holda, test topshiruvchi ro'yxatdagi ayrim savollarga bilmasdan ham to'g'ri

⁵³ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.238.

⁵⁴ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.238.

⁵⁵ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.238.

⁵⁶ Чельшкова М.Б. Теория и практика конструирования педагогических тестов. - Москва: Логос, 2002. - С.195.

⁵⁷ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.239.

javob topishi mumkin. Agar ikkinchi ro'yxatdagi (javoblardagi) nomlar faqat bir martadan ishlatiladigan bo'lsa, unda bu ro'yxat birinchi ro'yxatdan taxminan ikki baravar uzunroq bo'lishi tavsiya etiladi⁵⁸.

6. Ikkinchi ro'yxatni (javob variantlarini) biron-bir mantiqiy ketma-ketlikda (masalan, alifbo tartibida yoki xronologik tartibda) joylashtirish darkor⁵⁹.

7. Test topshiriqlari shartida ikki ro'yxat o'rtasidagi bog'liqlik aniq ko'rsatilishi, ikkinchi ro'yxatdagi javoblar qaytarilishi mumkinligi yoki mumkin emasligi ham aniq ko'rsatilishi lozim⁶⁰.

8. Ro'yxatlar haddan tashqari uzun bo'lmasligi zarur - ro'yxatlardagi elementlar sonini 10 tadan oshirmaslik tavsiya qilinadi⁶¹.

11.2.4. Ketma-ketlikni topishni talab qiluvchi test topshiriqlari

Ketma-ketlikni topishni talab qiluvchi test topshiriqlarida bir qancha elementlar (voqea-hodisalar, xatti-harakatlar, jarayonlar, tushunchalar, nomlar va hokazo) beriladi va test topshiruvchidan ushbu elementlarning to'g'ri ketma-ketligini topish talab etiladi.

Birinchi jahon urushining boshlanishiga olib kelgan voqealarning tog'ri ketma-ketligini toping. Har bir voqeaning oldiga 1 dan 7 gacha tegishli raqam qo'yib chiqing.

- Germaniya Fransiyaga urush e'lon qildi
- Rossiya umumiy harbiy safarbarlikni boshladi
- Sarayevoda Frans Ferdinand o'ldirildi
- Angliya Germaniyaga urush e'lon qildi
- Germaniya Belgiyaga bostirib kirdi
- Avstriya-Vengriya Serbiyaga ultimatum e'lon qildi
- Germaniya Rossiyaga urush e'lon qildi

⁵⁸ Чельшкова М.Б. Теория и практика конструирования педагогических тестов. - Москва: Логос, 2002. - С.195.

⁵⁹ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.239.

⁶⁰ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.239.

⁶¹ Мамай С.П. Методика составления тестовых заданий. - Екатеринбург: Издательство УГППУ, 2001. - С.41.

Ketma-ketlikni topishni talab qiluvchi test topshirig'i namunasi

Bunday shakldagi topshiriqlar xronologik, texnologik yoki algoritmik ketma-ketlik haqidagi bilimlarni tekshirishda qo'l keladi. Masalan, tarix fanidan tarixiy voqealarning ketma-ketligini topish, adabiyotdan asar syujeti voqealarini topish, aniq fanlardan masalani yechish ketma-ketligini topish, biologiyadan organizmlar evolyutsiyasidagi jarayonlar ketma-ketligini topish va shu kabi bilimlarni tekshirishda ishlatilishi mumkin.

11.2.5. Yopiq test topshiriqlari yordamida yoqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni tekshirish

Aksar hollarda yopiq test topshiriqlari quyi darajadagi kognitiv ko'nikmalarni (asosan bilish, ya'ni ma'lumotni eslab qolish, ba'zan tushunish va qo'llash) tekshirish uchun xizmat qiladi, deya tanqid ostiga olinadi. Shu bilan birga, agar quyidagi tamoyiliarga rioya qilinsa, yopiq test topshiriqlari yordamida ham yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni baholash mumkin⁶²:

1. Test topshiruvchini o'ylashga majbur qiladigan kirish materiali (matn, xarita, grafik, jadval, rasm va hokazo) berilishi.

Bunday material test topshiruvchini tekshiriladigan yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni ishga solishga majbur qilishi lozim. Bitta kirish materiali bilan bog'liq bir nechta test topshirig'i berilishi mumkin.

2. Test topshiruvchi uchun yangi, notanish bo'lgan materialning ishiatilishi.

Test topshirig'i test topshiruvchi uchun tanish (dars jarayonida ishlatilgan, o'quvchining qo'lidagi darslikda berilgan va hokazo) materialga asoslansa, test topshiruvchi baholanayotgan konikma shakllanganligi sababli emas, materialni eslab qolganligi sababli topshiriqqa to'g'ri javob berishi mumkin. Buning oldini olish uchun ta'lim jarayonida shakllantirilgan konikmalar yangi material asosida tekshirilishi lozim. Masalan, ta'lim jarayonida Navoiy g'azaliyatini tushunish ko'nikmasi «Qaro ko'zum ... » g'azali misolida shakllantirilgan bo'lsa, testda ayni

⁶² Brookhart S.M. How To Assess Higher-Order Thinking Skills in Your Classroom. - Alexandria, VA: ASCD. 2010. - P.17.

ko'nikmani baholash boshqa g'azal vositasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

3. Test topshirig'ining qiyinchilik darajasi va test topshirigida talab qilinadigan kognitiv ko'nikma darajasini farqlash.

Kognitiv ko'nikmalarning quyi darajasini tekshirishga qaratilgan topshiriqlar ham, yuqori darajasini tekshirishga qaratilgan topshiriqlar ham oson yoki qiyin bolishi mumkin. Test topshiriqlarini tuzayotganda kognitiv ko'nikmalarning quyi darajasini tekshirishga qaratilgan topshiriqlarni avtomatik tarzda «oson», yuqori darajasini tekshirishga qaratilgan topshiriqlarni esa «qiyin» deb ajratish testning ishonchliligiga va testdan chiqariladigan xulosalarning validligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Test topshirig'ining qiyinchilik darajasi statistik tahlil yordamida aniqlanadi.

Asosiy xulosa:

Yopiq test topshiriqlarining bir qancha turlari mavjud. Testdan chiqariladigan xulosalar valid bo'lishi uchun test topshiriqlarini tuzish qoidalariga amal qilish va har bir topshiriq turini o'z o'rnida qo'llash lozim.

Har qanday test topshirig'ida quyidagilarga e'tibor berish talab etiladi:

- test topshiruvchi uchun yo'riqnomalar (ko'rsatmalar) aniq va lo'nda bo'lishi kerak;
 - test topshirig'ining mazmuni tushunarli bolishi, imkon qadar qisqa, lo'nda, ortiqcha ma'lumotlarsiz ifodalanishi zarur;
 - tekshirilayotgan domenni bilmaydigan test topshiruvchiga ham to'g'ri javobni topish imkoni yaratilmasligi darkor.

11.3. Ochiq test topshiriqlarini yaratish va baholash

Yopiq test topshiriqlarida test topshiruvchi berilgan muqobil javoblardan (javob variantlaridan) birini tanlashi talab qilinsa, ochiq test topshiriqlarida javobni o'zi yaratishi talab qilinadi. Qanday javob yaratilishiga qarab ochiq test topshiriqlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- qisqa javobni talab qiladigan test topshirig'i;

- kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig'i;
- amaliy test topshirig'i.

Ochiq test topshiriqlarining turlari:

- oisqa javobni talab qiladigan test topshirig'i;
- kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig'i;
- amaliy test topshirig'i (biron-bir mahsulot yaratilishi yoki biron-bir amal bajarib ko'rsatilishi talab qilinadigan test topshirig'i)

Ochiq test topshiriqlari turlari

Qisqa javobni talab qiladigan test topshirig'i so'roq gap shaklida yoki to'liqsiz gap shaklida bo'lishi mumkin. Bunday test topshiriqlari quyi darajadagi kognitiv ko'nikmalarni (bilish, tushunish, qo'llash) tekshirish imkonini beradi⁶³.

Qisqa javobni talab etadigan test topshiriqlarini tuzishda quyidagi qoidalar va tavslyalarga rioya qilmoq lozim:

1. Bunday test topshiriqlarini to'liqsiz gap shaklidan ko'ra so'roq gap shaklida ifodalash samaraliroq⁶⁴ sanaladi.
2. Test topshirig'i shunday tuzilishi kerakki, qisqa, lo'nda javob (bir yoki bir nechtagacha so'z, so'z birikmasi, raqam, simvol, formula) talab qilsin⁶⁵. Test topshiruvchiga yo'riqnomada (ko'rsatmada) javobning hajmini ko'rsatish ham test topshiruvchini yo'naltirib, topshiriqning samaradorligini oshiradi.
3. Agar test topshirig'i to'liqsiz gap shaklida bolsa, gapning to'ldiriladigan qismi gapning boshida kelmasligi kerak⁶⁶.
4. Har bir test topshirig'i faqat bitta javobni talab qilishi kerak⁶⁷.

Qisqa javobni talab qiladigan test topshiriqlarining javoblari maxsus blankalarda (javobiar varaqasida) yozilsa, bunday blankalar optik qurilmalar

⁶³ Brookhart S.M. How To Design Questions and Tasks To Assess Student Thinking. -Alexandria, VA: AseD, 2014. - P.105.

⁶⁴ Popham W.1. Modem Educational Measurement Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.264.

⁶⁵ Popham W.J. Modem Educational Measurement Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.265.

⁶⁶ Popham W.J. Modem Educational Measurement: Practical GUIDelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.265.

⁶⁷ Звонников В.И., Челышкова М.Б. Современные средства оценивания результатов обучения. Изд. 5-е, пер. и доп. – Москва: Академия, 2013. –С.136.

tomonidan qayta ishlanib, so'ng kompyuterda tekshirilishi mumkin. Bu esa test natijalarini hisoblashni osonlashtiradi. Shu bilan birga, bunday topshiriqlarda test tuzuvchi kutgandan boshqa javoblar (masalan, tog'ri javobning sinonimlari) ham to'g'ri bo'lib qolishi mumkinligi ehtimolini hisobga olib qo'yish lozim.

Kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig'i yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalar, ko'nikmalar integratsiyasi, mantiqiy fikrlash va fikrni asoslash, muammolarga yechim taklif qilish qobiliyati, shuningdek, kognitiv bo'lmagan ko'nikmalar (masalan, yozma yoki og'zaki nutq) haqida asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Yopiq test topshiriqlari yoki qisqa javobni talab qiladigan ochiq test topshiriqlari yordamida bunday konikmalarni baholash aksar hollarda tmkonsizdir. Masalan, test topshiruvchining o'z ona tilida yoki chet tilida rasmiy xat yozish ko'nikrnasini baholash uchun unga xat yozdinb ko'rish darkor. Shu bilan birga, kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshinqlarini baholash uchun vaqt kerak va bahoning subyektiv bo'lish ehtimoli yuqori ekanini ham qayd etish joiz.

Kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshiriqlarini tuzishda quyidagi qoidalar va tavsiyalarga rioya etish lozim:

1. Test topshiruvchidan nima talab qilinayotganligi aniq ko'rsatilishi zarur⁶⁸. Test topshing'i shunday tuzilishi kerakki, u test topshiruvchini ma'lum bir qolipga solsin, yo'nalish ko'rsatsin.

2. Har bir topshiriqqa beriladigan maksimal ball va topsbiriqni bajarish uchun ajratilgan vaqtни ko'rsating⁶⁹. Bu test topshiruvchiga yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi hamda testda vaqtini va kuchini to'g'ri taqsimlashga yordam beradi.

3. Bitta uzun (bir necha betdan iborat) javob talab qiladigan test topshing'idan ko'ra bir nechta nisbatan qisqaroq javob talab qiladigan test topshirig'i samaraliroq

⁶⁸ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.269.

⁶⁹ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical GUIDelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.269.

hisoblanadi⁷⁰. Bu tekshirilayotgan domenni to'liqroq qamrab olish imkonini beradi va test natijalari asosida chiqariladigan xulosalarning validligini oshiradi.

4. Test topshiruvchilarga bir nechta test topshirig'idan bittasini tanlash imkonini berish tavsiya etilmaydi⁷¹. Test topshiruvchilarga tanlash imkonining berilishi ularning natijalarini solishtirish asosida chiqariladigan xulosalar validligiga salbiy ta'sir qiladi.

5. Test topshirig'i shartini «kim, nima, qachon, qayerda?» so'roqlari bilan boshlash tavsiya etilmaydi⁷². Bunday so'roqlar test topshiruvchidan yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni ishga solishni talab qilmaydi va kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshiriqlarini qo'llashning asosiy maqsadini yo'qqa chiqaradi.

6. Topshiriq shartida javob hajmiga chegaralar qo'yish tavsiya etiladi⁷³.

Kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshiriqlari bilan birga ularni baholash mezonlari va baholash sxemasini ham oldindan tayyorlab qo'yish tavsiya etiladi. Bunda ikki xil baholash sxemasi qo'llanilishi mumkin: murakkab baholash sxemasi va yig'ma baholash sxemasi.

Murakkab baholash sxemasi - test topshiruvchining ochiq test topshirigiga javobini uning umumiy sifatidan kelib chiqqan holda baholash uchun qo'llaniladigan sxema.

Yig'ma baholash sxemasi - test topshiruvchining ochiq test topshirig'iga javobini har bir mezon bo'yicha alohida baholash uchun qo'llaniladigan sxema.

Yig'ma baholash sxemasida har bir baholash mezoni alohida beriladi va bu mezon boyicha baholarning tavsifi keltiriladi. Bunda turli mezonlarning yakuniy bahodagi ulushi turlicha bo'lishi ham mumkin. Baholovchi test topshiruvchi bergan javobni har bir mezon bo'yicha alohida baholaydi, so'ng yig'ilgan ballarni

⁷⁰ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.269.

⁷¹ Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000. - P.269.

⁷² Звонников В.И., Челышкова М.Б. Современные средства оценивания результатов обучения. Изд. 5-е, пер. и доп. – Москва: Академия, 2013. – С.139.

⁷³ Звонников В.И., Челышкова М.Б. Современные средства оценивания результатов обучения. Изд. 5-е, пер. и доп. – Москва: Академия, 2013. – С.139.

qo‘shib umumiy bahoni chiqaradi. Kerakli o‘rinlarda umumiy baho boshqa shkalaga (masalan, 5 ballik tizimga) keltirilishi mumkin.

Murakkab baholash sxemasi qo‘llashda osonroq bo‘lishi va kamroq vaqt talab qilishi mumkin, chunki bunday baholash sxemasini ishlatganda test topshiruvchining javobi u qoldirgan umumiy taassurot asosida baholanadi. Yig‘ma baholash sxemasini qo‘llash ko‘proq vaqt oladi, chunki baholovchi har bir mezon asosida test topshiruvchining javobini baholash uchun javobni bir necha marotaba o‘qishi (eshitishi) kerak bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, bunday baholash sxemasi test topshiruvchi javobining har bir jihatiga alohida e‘tibor qaratish imkonini beradi va test topshiruvchiga baho bo‘yicha tushuntirish (“feedback”) berishni (masalan, apellyatsiya jarayonida) osonlashtiradi.

Asosiy xulosa:

Ochiq test topshiriqlarining ham bir qancha turlari mavjud. Ulardan qisqa javobni talab qiladigan test topshiriqlari quyi darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni (bilish, tushunish, qo‘llash) tekshirish imkonini beradi. Kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshiriqlari va amaliy test topshiriqlari esa yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalar, ko‘nikmalar integratsiyasi, mantiqiy fikrlash va fikrini asoslash, muammolarga yechim taklif etish, murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati, shuningdek, kognitiv bo‘lmagan ko‘nikmalarni (masalan, yozma va og‘zaki nutq yoki amaliy va ijtimoiy ko‘nikmalar) tekshirish imkonini beradi. Testdan chiqariladigan xulosalar valid bo‘lishi uchun test topshiriqlarini tuzish qoidalariga amal qilish va har bir topshiriq turini o‘z o‘rinda qo‘llash lozim.

Kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshiriqlari va amaliy test topshiriqlarini baholash uchun murakkab baholash sxemasi yoki yig‘ma baholash shuningdek, ro‘yxat shaklidagi baholash sxemasi qo‘llanilishi mumkin.

GLOSSARIY

Avtokratlik – hokimlik, kishining buyruqbozlik, ko‘rsatmalar berish va jazolash kabi shakllarda boshqalarga (masalan, o‘qituvchining talabaga) nodemokratik usullardan foydalangan holda ta’sir etishga moyilligi.

Agressivlik – dushmanlik, boshqalarga, atrofdagilarga zarar etkazish, tajovuz qilish, noqulaylik tug‘dirish maqsadini amalga oshiruvchi shaxsning xususiyati.

Aktuallashtirish – shaxsdagi mavjud bilim, malaka va ko‘nikmalarni turli axloqiy shakllar va hissiy holatlarni qayta ishlab chiqish va ularni botiniy holatdan zohiriy harakatlarga aylantirish.

Aksiologiya – qadriyatlar to‘g‘risidagi falsafiy ta’limot, aksiologik qadriyat mohiyati.

Aksiologik yondoshuv – insonparvarlik pedagogikasiga xos bo‘lgan xususiyat, bunda inson ijtimoiy qadriyat va jamiyat rivojlanishining provard maqsadi sifatida qaraladi. Aksiologik tafakkur o‘zaro aloqadagi, ham o‘zaro harakatdagi dunyo konsepsiyasiga asoslanadi.

Amaliy tadqiqotlar – pedagogik jarayonning ayrim jihatlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan ishlar, pedagogik amaliyot qonunlarini ochish.

Anketalashtirish – anketa yordamida ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, psixologik (ruhiy), pedagogik va boshqa tadqiqotlar uchun dastlabki materiallarni yig‘ish jarayoni.

Antropologiya – odamning biologik tabiatini har tomonlama o‘rganuvchi fan.

Asotirlar - ibtidoiy insonlarning koinot, tabiat hodisalarining mohiyati, paydo bo‘lish sabablarini o‘zlaricha izohlash maqsadida yaratgan og‘zaki hikoyalaridir. Insoniyat tafakkurining ilk mevasi sifatida asotirlar qadimgi ajdodlarimizning atrofini o‘rab olgan borliqqa, turli- tuman narsa va hodisalarga, koinot va er osti dunyosiga bo‘lgan qarashlar tizimidan iborat.

Asotirlar keyinchalik inson badiiy tafakkurining rivoji, ilm-fan taraqqiyoti tufayli tabiat hodisalari va turli narsalarning sir-asrorini tushunib etishlari oqibatida afsona, rivoyat kabi janrlarga aylanadilar.

Asotirlar er yuzidagi barcha xalqlarda mavjud, chunki barcha xalqlar o'z taraqqiyotining ilk bosqichlarida asotirlar orqali fikrlash, dunyoga asotirlar nigohi bilan qarash bosqichini bosib o'tganlar.

Assimilyasiya – yangi sharoitda tayyor malaka va ko'nikmalardan jiddiy o'zgarishsiz foydalanish

Autotrening - o'zini-o'zi ishontirish, shaxsning o'zini-o'zi boshqarishga qaratilgan maxsus mashqlar to'plami. Autotreningdan shaxsning o'z ruhiy holati va xulqini boshqarishda foydalaniladi.

Axborotli malaka – ta'lim va tarbiya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi.

Axloq – shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

Bayon qilish – o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan material mazmunini izchil so'zlab berish metodi.

Bilish faoliyati – idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

Boshqarish – tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, ob'ektni o'z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

Burch – muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

Vazifa – maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

Verbal – ifodali, og'zaki.

Gumanizm – 1) insonning insonga bo'lgan muhabbati, uning qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlari uchun qayg'urish g'oyalari bilan sug'orilgan va kishilar o'rtasidagi tenglik, halollik, insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan

duyoqarash; 2) insoniylik va insonparvarlik, insonlarning bunyodkorligiga ishonchi.

Davlat ta'lim standarti – uzluksiz ta'limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo'yiladigan minimum talablar.

Didaktika – ta'lim va o'qitish nazariyasi hamda o'qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

Dolzarblikni asoslash – ta'lim va tarbiya nazariyasi hamda amaliyotining istiqboldagi taraqqiyoti muammolarini o'z vaqtida o'rganish va hal qilish zarurligini ko'rsatish.

Dunyoqarash – shaxsning tafakkur tarzi va yo'nalishini aks ettiruvchi qarashlar, e'tiqod va fikr-o'ylar tizimi.

Idrok etish malakasi – boshqa sub'ektning xususiyatlarini – uning muloqoti va muloqotga hozirligini aniqlash uchun zarur bo'lgan kasbiy – pedagogik malaka.

Ideal – oliy maqsad, biror narsaning namunasi, shaxs, guruhlarning xatti-harakatlari, intilishlari intihosi.

Ijtimoiy idrok etish – kishilar tomonidan ijtimoiy ob'ektlarning idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi.

Izohlash, tushuntirish – og'zaki izoh, yoritilishi lozim bo'lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

Ilmiy muammo (masala) – fan orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

Ilmiy yangilik – muayyan davrga nisbatan ma'lum bo'lmagan va pedagogikaga oid adabiyotlarda qayd qilinmagan nazariy va amaliy xulosalar, ta'lim qonuniyatlari, uning tuzilma va mexanizmlari mazmuni, tamoyillari va texnologiyalari.

Individuallik – shaxsning betakror biosotsiologik xususiyatlari.

Intellekt – shaxsning turli faoliyat turlarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishini belgilaydigan tug'ma va o'zlashma barcha aqliy qobiliyatlar to'plami.

Ishontira olish – axborot oqimining shaxs tomonidan tanqiddan holi, erkin ravishda so'zlashishiga erishishni ko'zlagan ruhiy ta'sir etish metodi.

Ishonch hosil qilish – shaxsning muayyan qoida va talablarini ongli ravishda o‘zlashtirish vositasida tarbiyalash metodi. Tegishli ma’lumotlar va argumentlarga asoslanib, shaxsning o‘z hukmi va xulosalari to‘g‘riligiga ishonchni yuzaga keltirish jarayoni va natijalari.

Ichiqoralik – o‘zgalarning muvaffaqiyatsizligidan sevinish.

Ichki pozitsiya (mavqe) – shaxsning kundalik ehtiyoji bilan uzviy bog‘liq va hayotining muayyan davri faoliyatining asosiy mazmuni va yo‘nalganligini belgilovchi ijtimoiy ko‘rsatkichlari tizimi.

Istiqbolni belgilash malakasi – ijtimoiy va bilish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish.

Kalokagatiya – go‘zallik va olijanoblik, hamda jismoniy va ma’naviy boyliklar birligi.

Kasbiy – pedagogik muloqot – pedagog va tarbiyalanuvchining o‘zaro zich ijtimoiy – psixologik aloqasi tizimi bo‘lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o‘zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik – bo‘lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik va jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

Kasbiy bilimdonlik – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy tayyorlik birligi.

Kibernetika – axborotlar almashish, ularni qayta ishlashni boshqarish haqidagi fan.

Kognitiv – bilish jarayoni.

Kollektiv – jamoa, umumiy maqsad yo‘lida shaxslarning o‘zaro munosabatlari, tashkiliyligi va intilishlari bilan bir-biriga monand turg‘un sotsial (ijtimoiy) guruh.

Kommunikatsiya – kishilarning o‘zaro muloqotlarida axborotlar almashish tavsifi.

Kommunikativ ko‘nikma – muomala qila olish va pedagogik texnika malaka va ko‘nikmasi.

Kommunikativ faoliyat – pedagogning tarbiyalanuvchilar, boshqa pedagoglar, jamoatchilik vakillari, ota-onalar bilan maqsadga muvofiq oʻrnatgan munosabatlari.

Konstruktiv faoliyat – u oʻzida konstruktiv mazmun (oʻquv materiallarini tanlash va joy-joyiga qoʻyish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish), konstruktiv – operativ (oʻzining va talabaning xatti-harakatlarini rejalashtirish), konstruktiv – material (pedagogik jarayonning oʻquv-material bazasini loyihalashtirish) ni birlashtiradi.

Konflikt – qarama-qarshi qarashlar, fikrlar toʻqnashuvi, jiddiy ziddiyat, qizgʻin bahs.

Kreativlik – betakror qadriyatlar yaratuvchi, nostandart echimlar qabul qiluvchi individning botiniy qobiliyati.

Kuzatish – biror pedagogik hodisa boʻyicha konkret faktik material olish maqsadini koʻzlagan idrok etishning shakli.

Koʻnikma – oʻrganish natijasida qoʻlga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat, koʻnikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatlaridir.

Koʻrsatma – ehtiyojning mavjudligi va obʻektiv vaziyat hamda uni qondirish bilan bogʻliq ravishda oldindan shaxslarning maʼlum faolligini tayyorlash, ularni joylashtirish.

Laboratoriya ishi – asbob-uskunalar va boshqa texnik moslamalardan foydalangan holda talabalar bilan tajribalar oʻtkazish, biror hodisani maxsus jihozlar yordamida oʻrganish.

Maʼruza (maʼruza) – odatda oliy oʻquv yurtida biror fan mazmunini ogʻzaki bayon qilishga asoslangan oʻquv jarayoni, metodi.

Maktabning ichki boshqaruvi – yuksak natijalarga erishish maqsadida bilishning obʻektiv qonunlari asosida yaxlit pedagogik jarayon qatnashchilarining oʻzaro maqsadli, ongli harakatlari.

Malaka – shaxsning oʻzi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitda yangiliklari bilan birga, maʼlum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyati.

Malaka tavsifnomasi – o‘qituvchining nazariy va amaliy bilimlariga qo‘yiladigan umumiy talablar.

Matematik va statistik metod – bu metod og‘zaki so‘rov va eksperiment natijalariga ishlov berishda, shuningdek, o‘rganilayotgan hodisalar orasidagi miqdoriy aloqadorlikni o‘rnatishda qo‘llanadi.

Mafkura – g‘oya va qarashlar tizimi.

Mashq – o‘zining bilimlarini chuqurlashtirish hamda tegishli malaka va ko‘nikmalar hosil qilish maqsadida og‘zaki va yozma harakatlarni takroran amalga oshirish.

Mashq qilish – o‘quvchining o‘z qobiliyatlari, bilim, malaka va ko‘nikmalarini o‘stirishga qaratilgan harakatlari.

Maqsad – faoliyat natijasini oldindan fikran belgilash.

Maqto‘v – foydali ish qilgan shaxsni, jamoani og‘zaki taqdirlash.

Menejment – sotsial, shuningdek, ta‘lim jarayonlarini boshqarish tamoyillari, metodlari, vositalari va shakllari majmuasi.

Metod – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

Metodika – biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo‘llanadigan metodlar jami.

Metodologiya – 1) dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta‘limot; 2) biror fanda, shu jumladan pedagogikada qo‘llanadigan metodlar jami.

Mifologiya - qadimgi dunyo xalqlarining dunyo va tabiat hodisalari, ularning paydo bo‘lishi haqidagi, xudolar va qahramonlar haqidagi rivoyatlari, afsonalari, bu afsonada qadimiy xalqlarning dunyo va xudolar haqidagi ibtidoiy tasavvurlarining aks etganligi.

Motiv – ma‘lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo‘ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.

Motivatsiya – shaxsni faol xatti-harakatlarga undovchi sabablar, asoslar to‘plami bo‘lib, u ayni zamonda kishi xulqini fiziologik va psixologik

boshqarishning dinamik jarayonini ham bildiradi va faoliyatining yo‘nalishi, faolligi, uyg‘unligi va turg‘unligini belgilaydi.

Muammoli o‘qitish - o‘quv mashg‘ulotini tashkil etish shakli bo‘lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta’lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Muammoli vaziyat - o‘quv vaziyati bo‘lib, u mashaqqat bilan hal qilinadigan masala tufayli yuzaga keladi.

Muloqotning etakchi tipi – rivojlanishning ma’lum bir davrida atrofidagi kishilar bilan muomalada etakchilik qiladigan muloqot tipi bo‘lib, uning natijasida shaxsning asosiy sifatleri shakllanadi.

Munozara – 1) matbuotda, suhbatda biror bahsli masalani muhokama qilish, bahs; 2) muayyan muammo bo‘yicha fikr almashishga asoslangan ta’lim metodi.

Nazariy bosqich - tadqiqot ob’ekti to‘g‘risidagi amaldagi va istiqboldagi tasavvurlar hamda ularga bo‘lgan talab o‘rtasidagi ziddiyatni engish.

Nazariy tahlil – pedagogik hodisalarning alohida jihatlari, belgilari, xususiyatlari o‘ziga xosligini aniqlash va tahlil etish.

Ob’ekt – insonning, sub’ektning bilish predmeti va faoliyati.

Odat – kishining ma’lum e’tiqodlar, qadriyatlar yoki axloqiy me’yorlardan kelib chiqib amalga oshiradigan ongli faoliyati.

Pedagog – tarbiyachi, o‘qituvchi, dars beruvchi.

Pedagogika – yosh avlod ta’lim va tarbiyasi haqidagi fan.

Pedagogikada antropologik yondashuv – odam to‘g‘risidagi barcha fanlar ma’lumotlaridan muntazam foydalanish va pedagogik jarayonni tashkil etish hamda amalga oshirishda ularni hisobga olish.

Pedagogikaning nazariy vazifasi – ilg‘or va yangi pedagogik tajribalarni o‘rganish.

Pedagogikaning texnologik vazifasi – diagnostik sath – pedagogik hodisalar holatini aniqlash; bashorat qilish sathi – pedagogik faoliyatni eksperimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqelikni yaratish modellarini o‘rnatish; loyiha sathi- pedagogik faoliyatning nazariy konsepsiyasi, uning mazmuni va xarakteri

asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o'quv reja, dastur, darslik va o'quv qo'llanmasi, pedagogik tavsiyanomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik sathi - pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta'lim amaliyotiga tatbiq etish; reflektik va tuzatma (korrektirovka) sathi - ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'lim va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baholash.

Pedagogika predmeti – maxsus institutlarda (oila, ta'lim va tarbiya, madaniyat muassasalari) maqsadga muvofiq tashkil etiladigan real, yaxlit pedagogik jarayon.

Pedagogik jarayon – ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

Pedagogik jarayon tamoyillari – pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo'lib, u pedagogik jarayonning yo'nalishini ko'rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik ixtisoslik – ta'lim natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy guruh doirasidagi faoliyat turi.

Pedagogik ixtisoslashish – pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

Pedagogik malaka – muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik masala – pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimdir. U voqelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'liq tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta'lim qatnashchilarining ma'lum bir maqsadini ko'zlagan ta'lim va tarbiyadagi moddiylashtirilgan vaziyatdir.

Pedagogik mahorat – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik muloqot – ta'lim oluvchilarning maqsadlari hamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarini o'rnatish

va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo'llab-quvvatlashini tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

Pedagogik takt – bolalar faoliyatining turli doiralarida ular bilan muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'lchovi, o'quvchilar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi.

Pedagogik texnika – 1) har bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishda samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar majmuasi; 2) har bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar.

Pedagogik texnologiya – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani echishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir; 2) ta'lim va tarbiya metodlarining u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan aniq ishlab chiqilgan va qat'iy ilmiy loyihalashtirilgan pedagogik harakat; 4) ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan va texnika hamda inson omillari, uning o'zaro hamkorligi asosida o'qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir.

Pedagogik tizim - shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

Pedagogik faoliyat – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Pedagogik o'yin – bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan hamda ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

Pedagogning kommunikativ madaniyati – pedagogning kishilar bilan qisqa muddatda muloqot o'rnatish, ular bilan muloqot o'rnatishga bo'lgan doimiy intilishi.

Pedagog nuqtai nazari (pozitsiyasi) – pedagogning dunyoga, pedagogik voqelikka va pedagogik jarayonga bo‘lgan intellektual va hissiy munosabati.

Pedagogik haqqoniylik – o‘qituvchinig ob‘ektivlik mezoni, uning ma‘naviy tayyorgarlik darajasi.

Proektiv malaka – malakaning maxsus turi bo‘lib, kutilgan pedagogik natijalarni konkret ta‘lim va tarbiya rejalarida aks ettiradi.

Preskreptiv – me‘yoriy.

Psixologiya – 1) shaxsning ob‘ektiv borliqni faol aks ettirish jarayonini o‘rganuvchi fan; 2) ma‘lum bir faoliyat turining o‘zaro shartlangan psixik jarayonlar to‘plami; 3) psixika, xarakter xususiyati, ko‘ngil xazinas.

Ratsionalizatsiya – metodlarni yoki biror ish - harakatni takomillashtirish.

Releksatsiya – kuchli hayajon va jismoniy zo‘riqishdan so‘ng engil tortish, tinchlanishning umumiy holati.

Retrospektiv – o‘tmishga murojaat etish.

Refleksiv malaka – pedagogga nisbatan qo‘llanadigan nazorat - baholash faoliyati.

Refleksiya – takrorlash, aks etish, o‘z harakatlari va holatlarini tahlil qilish.

Rivojlanishning ehtimollik nazariyasi – shaxs psixikasi rivojlanishining har bir davrini tasodifiy faktlar yig‘indisiga ko‘ra belgilashga asoslangan nazariya va u avvalgi rivojlanish davridagi erishilgan sathga nisbatangina bog‘liq bo‘ladi.

Rol ijro etish – qatnashuvchilarning yakka va guruh bo‘lib turli rollarda (sahnada) chiqishi, obrazga kirishi.

Ruhiy pedagogik tayyorgarlik – pedagogikaning metodologik asoslari va kategoriyalarini, shaxsning ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlari, ta‘lim va tarbiyaning mohiyati, maqsadi va texnologiyalarini bilish.

Sardor – guruh a‘zolariga lozim bo‘lgan vaziyatlarda sezilarli ta‘sir o‘tkaza oladigan shu guruhning a‘zosi.

Suggestiya – uqtirish, to‘la ishonch hosil qilish.

Suhbat – kuzatuv chog‘ida etarli darajada aniq bo‘lmagan zarur axborotni olish uchun qo‘llanadigan tadqiqot metodi.

Tadqiqot ob’ekti – ziddiyat va muammoli vaziyat tug’diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy tahlilga muhtoj ob’ekt.

Tadqiqot predmeti – bevosita o’rganilishi lozim bo’lgan va amaliy yoki nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadigan ob’ektning mohiyati, ma’lum bir tomoni, xususiyati.

Tazyiq o’tkazish – uyatga qo’yish, aybdorlik hissi yoki ko’ngli cho’kkanlarning fikri, hissiyoti, intilishi va maylini ularning ongidan xalos qilish.

Talqin qilish – biror hodisa yoki narsani izohlash, tushuntirish.

Takabbur – o’z manfaatlarini yuqori qo’yuvchi, manman shaxs.

Takt – misli ko’rilmagan tarzda o’zini tuta bilish.

Ta’lim – 1) shaxsning jismoniy va ma’naviy shakllanishining yagona jarayoni, sotsial etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo’naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g’oyaviy-axloqiy qadr, malaka, ko’nikma, axloq me’yorlariga qaratilgan jamiyat a’zolarining ta’lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim.

Ta’limning madaniy insonparvarlik vazifasi – kishining hayot to’siqlarini engishga yordam beradigan ma’naviy kuchi, qobiliyati va malakalari, tabiat va ijtimoiy hayotga moslashish vaziyatidagi xarakteri va ma’naviy mas’uliyatining shakllanishi, shaxsiy va kasbiy takomili hamda shaxsning o’zi tomonidan amalga oshirilishini ta’minlovchi imkoniyatlari, shaxsning intellektual, axloqiy erkinlikka, shaxsiy muxtoriyati va baxtiga erishish uchun zarur bo’lgan vositalar shaxsning individual ijodiy taraqqiy etishi va ma’naviy imkoniyatlarining ochilishi uchun sharoitlar yaratishi.

Ta’lim turlari – sokratcha suhbat metodi, an’anaviy ta’lim, izohli-namunali (illyustrativ) ta’lim, bilimlarni mustaqil egallash, programmalashtirilgan ta’lim, ta’limni algoritmlash jarayoni, differensiatsiyali, individual ta’lim va boshqalar.

Tarbiya – 1) shaxsning ma’naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta’sir etish; 2) pedagogik jarayonda ta’lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Taqlid qilish – biror harakat, qiliq, ahd, fikr va hissiyotni takrorlash, aynan o‘zlashtirish.

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining oliy shakli, insonlarni o‘rab olgan dunyodagi o‘zaro bog‘langan narsa va hodisalarni bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish va muammolarni hal qilish, ma’lum bo‘lmagan voqea hodisalarni qidirish, kelajakni ko‘ra olish. Tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo‘ladi.

Temperament – 1) shaxsning psixik faoliyati dinamikasining turli jihatlarini bildiradigan turg‘un individual xususiyatlarining qonuniy munosabatlari; 2) shaxsning dinamik xususiyatlari: intensivlik, tezlik, temp, psixik jarayonlar va holatlar ritmi.

Test – 1) standart shakldagi topshiriqlar bo‘lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan sinovdir; 2) aniq sotsiologik tadqiqotlarda foydalaniladigan tarqatma material, savolnoma; 3) shaxs ruhiyati va xulqining aniq miqdoriy va ma’lum sifat baholarini oldindan berilgan ba’zi standart – test me’yorlari bilan qiyosiy o‘rganishga mo‘ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi.

Testdan o‘tkazish – ta’lim oluvchining bilim va malakalarini, psixik rivojlanishi, ijtimoiy tajribasini aniqlash uchun savollar tizimining qo‘yilishidir.

Texnologiya – ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning holati, xususiyati, shaklini o‘zgartirish metodlari to‘plami.

Tizim - 1) yaxlit ta’limni, uning birligini belgilovchi bir-biri bilan qonuniy bog‘liq aksariyat unsurlar (predmetlar, hodisalar, qarashlar, bilimlar va boshqalar); 2) qismlarning ma’lum bir bog‘lanishlarda, harakatlarning o‘ta izchillikda rejali, to‘g‘ri joylashish tartibi.

Turtki (stimul) – shaxs psixikasi motivlarining shakllanishini ta’minlovchi tashqi ta’sir.

Tushuncha – atrof-muhitdagi hodisalar, predmetlarning muhim xususiyatlarini, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni bilish.

Faoliyat – 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

Faoliyatning etakchi turi – bola hayotining muayyan davridagi psixik rivojlanishini etarli darajada ta'minlovchi hamda keyingi taraqqiyotiga asos bo'luvchi faoliyatdir.

Fundamental – asosiy.

Xayrixohlik – kishilarga ochiq ko'ngil bo'lish, iltifotli, marhamatli bo'lish.

Shaxs – 1) kishilarning ijtimoiy xulqi, insonlar orasida o'zini tutishini aks ettiradigan ruhiy sifatlari majmuini bildiruvchi tushuncha; 2) turli-tuman sifatlar tizimidagi kishining ruhiy, ma'naviy mohiyati; 3) ijtimoiy mohiyat kasb etgan va o'z-o'zini anglash qobiliyatiga ega bo'lgan kishi.

Shaxs dinamikasi – kishining ontogenetik rivojlanishini o'z ichiga olgan holda sub'ektning xususiyatlari va sifatining vaqtga nisbatan o'zgarish jarayoni.

Shaxsiy fazilat – shaxs tomonidan o'zining axloqiy-ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o'rini anglay olishi.

E'tiqod – shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va ideallarning haqqoniyligiga qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muhitga hamda o'zining xatti-harakatlariga bo'lgan sub'ektiv munosabati.

Evrastika – ilmiy tadqiqotning mantiqiy usullari va metodik qoidalari tizimi.

Empirik – tajribaga asoslangan.

Empirik bosqich – tadqiqot ob'ekti to'g'risida har tomonlama tasavvur hosil qilish, ta'lim amaliyoti, ilmiy bilimlar saviyasi va hodisalar mohiyatiga erishishga bo'lgan talab o'rtasidagi ziddiyat, ilmiy muammoni nomlash.

Estetik tarbiya – go'zallikni his qilish, atrof-muhitdagi go'zallikni payqay olish va tushunishga bo'lgan qobiliyatni tarbiyalash.

Ehtiyoj – individning biror narsa-hodisaga muhtojligi va kishining ruhiy quvvati va faolligi manbai hisoblanadigan asosiy xususiyati.

Ehtimollik – tasodifiylik, pedagogik hayotdagi o'zgarishlarni aniq aytib berish mumkin bo'lmagan, ehtimol ko'rilgan jarayon.

O‘yin – u faoliyatning shunday bir turiki, u ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishga va bunyod etishga, o‘z xatti-harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘z-o‘zini baholash – kishining o‘z psixologik sifatleri, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmatlari, kamchiliklarini baholay olishi.

O‘z-o‘zini tarbiyalash – 1) shaxsga xos bo‘lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o‘z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

O‘qitish - ta‘lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o‘qituvchining faoliyati.

O‘qitish – 1) ta‘limning o‘ziga xos usuli bo‘lib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta‘minlanadi; 2) o‘quvchi va o‘qituvchi, o‘quvchining boshqa o‘quvchilar bilan aloqasi natijasi o‘laroq atrof-muhit, uning qonuniyatlari, taraqqiyot tarixi va ularning o‘rganilish usullarini bilishning muntazam boshqarilish jarayoni.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati – sotsial-pedagogik fenomen bo‘lib, ijodiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

O‘qitish vazifasi – ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

O‘qitish turlari – sokratcha suhbat metodi, qoloq ta‘lim, izohlash-namoyish etish asosida o‘qitish, bilimlarni mustaqil egallash, programmalashtirilgan ta‘lim, o‘quv jarayonini algoritmlash, differensiatsiyali hamda individual ta‘lim va boshqalar.

O‘qish – o‘quvchining o‘z qobiliyati, bilimi, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan harakati.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish – o‘quvchi va yoshlarga kelajakda o‘z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko‘rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish – texnik tadbirlarning asoslangan tizimi.

O‘quv-bilish faoliyati – insoniyat tomonidan to‘plangan madaniy boylikni egallash bilan bog‘liq faoliyat.

O‘quv faoliyati – shaxsning yangi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash jarayoni.

Qanoat – ma’lum maqsadga erishish yo‘lida ijobiy tuyg‘u bilan bog‘langan shaxsning psixologik holati.

Qiziqish – shaxs harakatiga sabab bo‘ladigan faoliyat yo‘nalashining ongli shakli.

G‘ayri ixtiyoriylik - tashqi holat yoki shaxsiy kayfiyatlar ta’sirida dastlabki ishonchlarga moyil kishi xulqining xususiyati.

Halollik – shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni, ahloqiy me’yorlarni rostgo‘ylik bilan saqlash.

Yaxlitlik – pedagogik jarayonning sintezlashgan sifati bo‘lib, uning oliy darajadagi taraqqiyotini, unda faoliyat ko‘rsatayotgan sub’ektlar, ob’ektlar faoliyatini ta’minlovchi jarayondir.

Yaxlit pedagogik jarayon - tarbiya jarayonida ta’lim va ta’lim jarayonida tarbiya berishning o‘zaro singib ketgan, yaxlit holga kelgan jarayoni.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qattiy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatini kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. "O'zbekiston" 2017 y.102 bet.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi. T."O'zbekiston". 2016 y. 47 bet.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. "O'zbekiston" 2016 y. 486 bet.
4. Abdullina O.A. Общепедagogическая подготовка учителя в системе всшего pedagogического образования. Для ped. spets. vssh. ucheb. zavedeniy. -M.: Prosveshchenie. 1990. – 141 s.
5. Abduqudusov O. va boshq. "Kasb hunar pedagogikasi". T. O'MKHTO'MO va UQTI. 2009.
6. Azizxodjaeva N.N. Osnovne tendensii razvitiya vsshego pedagogического образования в Uzbekistane /Pod red. V.A.Slastenina. - T.: Fan. 1990. –143 s.
7. Asamova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. –28 b.
8. Vadyushin V.A., Palchevskiy B.V., Fridman L.S. Texnicheskie sredstva obucheniya. –Minsk: Znanie. 1987. – 94 s.
9. Vaysburg A.A. Osobennosti protsessa orientatsii na rabochie professii. // J. SHkola i proizvodstvo. 1985. № 1. S. 14-17.
10. Vasilev Yu.K. Sovershenstvovanie sodержaniya i protsessa podgotovki uchiteley truda. -M.: Proftexuchilim,1987. – 132 s.
11. Veyt M.A. Neprervnoe obrazovanie i podgotovka uchitelya. // J. Sov. pedagogika. 1991. № 6. s. 79-82.
12. Gabay T.V. Uchebnaya deyatel'nost i ee sredstva. -M.: Pedagogika.1988. – 218 s.
13. Jo'raev R.H., Tolipov O'.Q. Pedagogik faoliyat, texnologiyalar va mahorat. // Uzluksiz ta'lim j. 2003. № 2. 3-10 b.

14. Ilina T.A. Pedagogika: kurs leksiy. Ucheb. posobie dlya studentov pedagogicheskix institutov. M.: Prosveshchenie. 1984. -496 s.
15. I.Tursunov, U.N.Nishonaliev. Pedagogika kursi. -T.: O'qituvchi. 1997. – 208 b.
16. Ismoilova Z.K.Tarbiyaviy ish metodikasi. “Istiqlol” Toshkent. 2003 y.
17. Кирейцева А.Н. Азбука тестирования. – Санкт-Петербург: Златоуст. 2013.
18. Kochetov S.I., Romanin V.A. Texnicheskie sredstva obucheniya v professionalnoy shkole. -M.: 1988. –231 s.
19. Крокер Л., Алгина Д., Введение в классическую и современную теорию тестов. – Москва: Логос, 2010.
20. Майоров А.Н. Теория и практика создания тестов для системы образования: как выбирать, создавать и использовать для целей образования. – Москва: Интеллект-центр. 2002.
21. Мамай С.П. Методика составления тестовых заданий. – Екатеринбург: Издательство УГППУ, 2001.
22. M.Ochilov, N.Ochilova. “Oliy maktab pedagogikasi””Aloqachi” nashriyoti Toshkent. 2008 yil.
23. M.Hakimova. Kasbiy pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent. Iqtisodiyot nashriyoti. 2019-yil.
24. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti, asosiy qoidalar.2001 yil.
25. Ochilov M., G'afforova T.Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari. Qarshi 1990 yil.
26. Pedagogika. /A.K.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. -T.:O'qituvchi. 1996. –200 b.
27. Pedagogicheskaya ensiklopediya. M.: Sovetskaya ensiklopediya. 1968. – 912 s.
28. Pedagogicheskiy poisk. /Sost. I.N.Bajenova/. -M.: Pedagogika. 1989. – 557 s.

29. Rashidov X..va boshqalar.”Kasbiy pedagogika”. T. O‘MKHTO‘MO va UQTI.2007.
30. Skakun V.A. Prepodavanie spetsialnx i obshchexnicheskix predmetov v uchilitsax profxobrazovaniya. -M.: Vsshaya shkola. 1976. – 151 s.
31. Skok G.B., Lgina N.I. Kak proektirovat uchebny protsess po kursu: Uchebnoe posobie. Izd. 2-e pererab. i dopoln. – M.: Pedagogicheskoe obshchestvo Rossii. 2003. -96 s.
32. Slastyonin V.A. i dr. Pedagogika: uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix uchebnx zavedeniy. – M.: SHkola-Press. 2000. –512.
33. Stolyarenko L.D. Pedagogika. - Rostov na Donu. Feniks. 2000. –448 s.
34. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. -T.: Fan. 2000. -125 b.
35. Xodjaboev A.R., Baratov D.A. Uzluksiz ta‘lim tizimida fanlararo aloqadorlikni ta‘minlash mexanizmlari. // DTS ishlab chiqish va tadbiq etish hamda kasbiy ta‘limda uzviylikni ta‘minlash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari. -T.: O‘MKHTRI. 2000. 84-87 b.
36. Челышкова М.Б. Тнория и практика конструирования педагогических тестов. - Москва: Jloroc, 2002.
37. G‘oziev E. Tafakkur psixologiyasi. –T.: O‘qituvchi. 1990. -185 b.
38. Lord F. and Novick M. Statistikal Theories of Mental test Scores. – Reading, MA: Addison – Wesley Pub. 1968. – P.17.
39. Rowntree D. Assessing Students: How Shall Know Them. – London: Kogan Page, 1987.
40. Overdahl N.V. Testwise: Understanding Educational Assessment. Vol.1. – Plymouth: Rowman & Littlefield Education, 2011.
41. American Educational Research Association (AERA), American Psychological Associational (APA), National Council on Measurement in Education (NCME). Standards for Educational and Psychological Testing. – Washington, D.C.: American Educational Research Association, 2014.
42. Alderson J. and Wall D. Does Washback Exist? // Applied Linguistics. 1993. 14:2.

43. Frederiksen N. The real test Bias, ETS Research Report Series RR 81-40. -Princeton, NJ: Educational testing Service, 1981.

44. Shohamy E., Donitsa-Schmidt S. and Ferman I. Test Impact Revisited: Washback Effect Over Time // Language Testing. 1996. 13:3.

45. Creen A. Watching for Washback: Observing the Influence of the International English language Testing System Academic Writing Test in the Classroom // Language Assessment Quarterly. 2006. 3:4.

46. Popham W.J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. 3rd ed. - Boston: Allyn and Bacon, 2000.

47. Brookhart S.M. How To Assess Higher-Order Thinking Skills in Your Classroom. - Alexandria, VA: ASCD. 2010.

48. Downing S. Selected-Response Item Formats In Test Development II Downing S. and Haladyna, T. (Eds) Handbook of Test Development. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates. 2006.

49. Davlat test markazi. Ona tili va adabiyot. 20 19-yil. Test topshiriqlari to'plami: amaliy qo'llanma. - Toshkent: Davr-press, 2019.

50. Davlat test markazi: Tarix fanidan namunaviy savollar (2018). Davlat test markazmmg rasmiy saytidan (www.dtm.uz) yuklab olingan.

51. Haladyna T. and Rodriguez M. Developing and Validating Test Items. – London New York: Routledge, 2013.

52. Fein M. Test Development: Fundamentals for Certification and Evaluation. - Alexandria, VA: American Society for Training and Development, 2012.

53. Raykov T. and Marcoulides O. A. Introduction to Psychometric Theory. - London-New York: Routledge, 2011. - P.115.

54. Mc Donald R.P. Test Theory: A Unified Treatment. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1999. - P.96.

Internetdan olinadigan ma'lumotlar:

55. www.inter-pedagogika.ru

56. www.didaktika.ru

57. www.ziyonet.uz

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1. OLIY MAKTAB PEDAGOGIKASI FAN SIFATIDA VA UNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	6
1.1. Oliy maktab pedagogikasiga kirish. Oliy maktab pedagogikasi o‘quv predmeti sifatida, uning kategoriyalari.....	6
1.2. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limning maqsadi, vazifalari.....	18
1.3. Oliy maktab pedagogikasining tadqiqot metodlari.....	20
2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “TA’LIM TO‘G‘RISIDAGI QONUNI”NING MAZMUNI.....	31
2.1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni”ning mazmuni.....	31
2.2. Ta’lim tizimi, turlari va shakllari.....	36
2.3. Ta’lim olish shakllari.....	42
2.4. Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari.....	45
3. OLIY MAKTAB TA’LIM MAZMUNI.....	51
3.1. Ta’lim mazmunini shakllantirishning mohiyati va nazariyasi.....	51
3.2. Ta’lim mazmunini tanlash tamoyillari va me’yorlari.....	54
3.3. Oliy maktabda o‘qitishni tashkil etishning shakl va metodlariga qo‘yiladigan talablar.....	56
3.4. Bilish faoliyati to‘g‘risida sharq mutafakkirlarining ilmiy-pedagogik qarashlari.....	76
3.5. Oliy maktab talabalarining bilish faoliyati.....	81
4. TALABA SHAXSI RIVOJLANISHI TAVSIFI.....	88
4.1. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari.....	88
4.2. O‘smirlik davrida shaxsning shakllanishi.....	93
4.3. Talabaning aqliy faoliyati xususiyatlari.....	96
4.4. Talabalarining mustaqil ta’lim olishi.....	101
4.5. Talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari.....	110
5. OLIY MAKTAB O‘QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATI.....	123
5.1. Innovatsion faoliyatning nazariy omillari.....	123
5.2. O‘qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi.....	129
5.3. O‘qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari.....	135
6. OLIY MAKTABDA TARBIIYAVIY ISHLAR NAZARIYASI VA METODOLOGIYASI.....	140
6.1. Talaba yoshlarning ma’naviy-axloqiy odatlarini tarbiyalashning vazifalari.....	140
6.2. Oliy ta’limi muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning asosiy mohiyati va mazmuni.....	142
6.3. Oliy ta’limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosi.....	143
6.4. Yoshlarni kasbga yo‘naltirishda milliy mafkuraga asoslangan ma’naviy-axloqiy, madaniy-maishiy ishlar	146
7. OLIY TA’LIM MUASSASASINI BOSHQARISH.....	149

7.1.	O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish.....	149
7.2.	Pedagogik jamoa – o'quv muassasi boshqarishning ob'ekti.....	152
7.3.	Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi.....	154
7.4.	Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing.....	155
7.5.	Rahbar va uning shaxsi.....	158
8.	BO'LAJAK O'QITUVChINI TAYYoRLAShDA PEDAGOGIK AMALIYotNING O'RNI VA AHAMIYatI.....	162
8.1.	Pedagogik amaliyot haqida tushuncha.....	162
8.2.	Pedagogik amaliyotning maqsadi va vazifalari. Pedagogik amaliyot turlari. Pedagogik amaliyot jarayonini tashkil etish.....	163
8.3.	O'quv tanishuv amaliyotning maqsad va vazifalari.....	165
8.4.	O'quv pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari.....	167
9.	PEDAGOGIK O'LChOVLAR NAZARIYasi FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI.....	170
9.1.	Testologiya fanining maqsadi va vazifalari. Testlarning ta'rifi, tasnifi, metodologik asoslari.....	170
9.2.	Pedagogik o'lchovlar fani va uning asosiy tushunchalari.....	183
9.3.	Baholashning maqsadlari.....	188
9.4.	Test turlari.....	194
10.	TESTNING SIFATI: VALIDLIK. IShONChILiK.....	202
10.1.	Validlik tushunchasi va uning tadriji.....	202
10.2.	Validlikning dalillari.....	207
10.3.	Validlikka xavf soluvchi omillar.....	217
10.4.	Ishonchlilik tushunchasi.....	222
11.	TESTNI VARATISH.....	227
11.1.	Testni yaratish bosqichlari.....	227
11.2.	Yopiq test topshiriqlarini yaratish.....	232
11.2.1.	Muqobil javobli test topshiriqlari.....	234
11.2.2.	«To'g'ri-noto'g'ri» shaklidagi test topshiriqlari.....	241
11.2.3.	Moslashtirishni talab qiluvchi test topshiriqlari.....	245
11.2.4.	Ketma-ketlikni topishni talab qiluvchi test topshiriqlari.....	246
11.2.5.	Yopiq test topshiriqlari yordamida yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni tekshirish.....	247
11.3.	Ochiq test topshiriqlarini yaratish va baholash.....	248
	GLOSSARIY.....	253
	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	226
	MUNDARIJA.....	272

Xalmamatova Lola Amankulovna

OLIY MAKTAB PEDAGOGIKASI

60112400 – Professional ta’lim (60730300 - Bino va inshootlarni loyihalash, qurish); (63730400 – Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji))
bakalavr yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun

Bosishga ruxsat etildi: 11.01.2025-yil
Bichimi 60x84 ^{1/16}. «Times New Roman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog’i 17. Adadi 100. Buyurtma № 16-01
Тел.: (99) 817 44 54
Guvohnoma reyestr № 219951

“PUBLISHING HIGH FUTURE” OK nashriyotida chop etildi.
Toshkent sh., Uchtepa tumani, Ali Qushchi ko‘chasi, 2A-uy.